

# UCH MUSOFIR

2016/94
A 3960



# UCH MUSOFIR

Hikoyalar

2-nashri

TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2015

821(100)-3 — Jahon adabiyoti
У89

UO'K 821.512.133-3
KBK 84(5O')7
B95

*Tarjimon*
Dildorxon ALIYEVA

**Bunin, Ivan**
B 95 Uch musofir / I. Bunin. – Toshkent: «O'zbekiston», 2015. 288 b.

ISBN 978-9943-28-074-8

To'plamdagi hikoyalarni jahon adabiy gulshanidan terib olingan bir dasta gul deb atash mumkin. Rossiya, Misr, Fransiya, Angliya, Germaniya – va nihoyat Yaponiya mamlakatlari yozuvchilarining yurak qo'ri bilan yozgan bu hikoyalari o'z o'quvchisini topishi, shubhasiz. Ularni birma-bir mutolaa qilar ekansiz, avvalo, hikoya janri shaklan ixcham bo'lsa-da, mazmunan har qanday romandan kam emasligini chuqur his etasiz.

**UO'K: 821.512.133-3**
**KBK 84(5O')7**

ISBN 978-9943-28-074-8

© D. Aliyeva, 2014, 2015
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2014, 2015

20.. Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK

# IVAN BUNIN

*Bunin Ivan Alekseevich 1870-yil 10-oktyabrda Voronejda, dvoryan oilasida tug'ilgan. 1881-yilda Elesk gimnaziyasiga o'qishga kiradi, biroq kasalligi tufayli uni bitirolmaydi. Akasi Yuliy bilan ikkalovi adabiyotga qattiq qiziqar edi. Siyosiy ayblov bilan bir yil qamoqda o'tirib chiqqan Yuliy keyingi faoliyatini, hatto hayotini ham ukasi Ivan bilan bog'laydi.*

*Bunin 1889-yildan mustaqil hayot kechirishga qaror qiladi va o'zini butunlay adabiyotga baxshida etadi. Moskvada Tolstoy, Chexov, Gorkiy bilan tanishadi va ularning oq fotihasini oladi. 1909-yilda u Rossiya Fanlar akademiyasining faxriy a'zosi bo'ladi. Ijodiy faoliyatini «Ochiq osmon ostida» she'riy to'plami bilan boshlagan (1898) Bunin o'ndan ortiq qissa va bir qator romanlar yozdi. Oktyabr inqilobini yaxshi qabul qilmagan yozuvchi 1920-yilda Rossiyani abadiy tark etadi va Parijda qo'nim topadi. 1933-yilda unga Nobel mukofoti beriladi.*

*Bunin ko'pgina asarlarini aynan Rossiyaga, uning odamlariga bag'ishladi.*

*Yozuvchi 1953-yil 8-noyabrda Parijda vafot etdi.*

# KORNET ELAGIN ISHI

## I

Bu ish dahshatli bo‘lishi bilan birga g‘alati va jumboqli, kalavaning uchini topib bo‘lmaydigandek ko‘rinardi. Bir tomondan, u judayam oddiydek ko‘rinsa, ikkinchi tomondan   juda murakkab edi, bizning shahar tili bilan aytganda, xuddi tuturiqsiz romanlarga o‘xshardi, ayni damda esa unda chuqur ma’noli badiiy asar yozsa bo‘ladigan nimadir bor edi... Nima bo‘lganda ham himoyachi sudda haq gapni aytdi.

Bu ishda,   dedi u gap boshlab,   men bilan ayblovchi o‘rtasida hech qanday bahsga o‘rin yo‘qdek tuyulishi mumkin: axir ayblanuvchi o‘z aybini tan oldi, uning jinoyati va izzat-nafsi haqorat qilingan qurbonining shaxsiyati kabi o‘zining shaxsiyati ham bu zalda o‘tirganlarning ko‘pchiligiga erish va ahamiyatsizdek tuyular. Bu faqat tashqaridan shunday ko‘rinadi, xolos, aslida unday emas: bahs va munozaralarga sabablar oshib-toshib yotibdi...

U so‘zida davom etib, dedi:

Aytaylik, mening maqsadim – sudlanuvchiga shafqat ko‘rsatishga erishish. Shunda ko‘p gapga hojat qolmasdi. Qonun chiqaruvchi shunga o‘xshash hollarda sud nimaga amal qilib ish ko‘rishi kerakligini ko‘rsatmagan, u bunday paytlarda ko‘proq aql-farosatga, vijdonga va ziyraklikka keng imkoniyat bergan

va biz shundan foydalanib, jinoyatchiga jazo berish uchun qonunning u yoki bu bandini tanlashimiz kerak bo'lardi. Men o'sha aql-farosat, vijdon, ziyraklikni ishga solib, shu orqali ularga ta'sir o'tkazib, sudlanuvchining aybini yengillashtiruvchi bor yaxshi sifatlarini yuzaga chiqarishga va shu bilan sudning unga munosabatini o'zgartirishga astoydil harakat qilardim, axir u bir gapda mahkam turib olgan: men buni ataylab qilganim yo'q, deyapti. Sudlanuvchini oz emas, ko'p emas, naq «odamxo'r bo'ri»ga chiqarilgan bunday vaziyatda ayblovchi bilan bahslashishdan o'zimni qanday qilib tiya olishim mumkin, axir? Har bir ishni har kim o'zicha tushunadi, uni har kim yo unday, yo bunday tarzda yoritishi, o'ziga xos u yoki bu tarzda taqdim etishi mumkin. Mana bu ishda hozir biz nimani ko'rib turibmiz? Nazarimda, yo'q narsani, ayblovchi bilan hamjihatlikda yoritib bera oladigan na bironta qarashimiz va na bironta tafsilot yo'qki, dangal: «Ha, shunday!» yoki «Yo'q, bunday emas!» deya olsak — qayoqda, men churq eta olmayapman. Ammo hammasidan muhimi shundaki, ishning ma'no-mohiyati «unday bo'lmagan»ga olib kelyapti...

Bu ishning o'zi, boshlanishi vahimali edi.

O'tgan yilning 19-iyun kuni. Erta tong, soat besh-oltilar bo'lishiga qaramay, leyb-gvardiya polkining rotmistri Lixarev ishxonasida allaqachon tong otib ulgurgan, shahar havosi yoz quyoshidan dim va quruq edi. Rotmistrning uyi shahar tashqa-

risida, gusar kazarmalarining biridagi korpusda joylashgani uchun ham atrofda hali jimjitlik hukm surardi. Atrofdagi bu sokinlik va o'zining navqiron yoshidan foydalangan rotmistr qattiq uyquda edi. Stol ustida likyordan bo'shagan shishalar, oxirigacha ichilmay qolgan qahva idishlari turardi. Qo'shni xonadagi mehmonxonada esa boshqa zobit – shtab-rotmistri graf Koshits, undan nariroqdagi ishxonasida kornet Sevskiy uxlab yotishardi. Erta tong odatdagidek, jo'ngina boshlandi, xuddi shunday kunlarda g'alati voqealar sodir bo'lganidek. 19-iyunning ana shunday erta tonglaridan birida rotmistr Lixarevning uyida to'satdan aqlga sig'maydigan bir voqea sodir bo'ldi. Kutilmaganda eshik qo'ng'irog'i chalinib, xizmatdagi askarning oyoqyalang ohista va yengil yurib, eshik tomon borgani eshitildi, so'ng tashqaridan kimdir ataylab baland ovozda o'kirdi:

Uyda kim bor?

Eshikni lang ochdi-da, mehmon oshxonaga etigi bilan gurs-gurs bosib, shporlarini sharaqlatib shovqin solib bostirib kirdi. Rotmistr boshini ko'tarib, uyquli ko'zlari bilan hayron qarab turardi: ro'parasida polkdosh do'sti kornet Elagin turardi, u jikkak, ozg'indan kelgan, sochlari malla, sepkil yuzli, qiyshiq oyoqlari o'ziga mos, nimjon, egnida buni u har doim o'zining eng «ojiz» tomoni deb qayta-qayta takrorlashni xush ko'radigan bashang ust-boshda edi. U yozgi shinelini tez yechib,

uni stulga tashladi-da, baland ovozda: «Mana sizlarga mening pogonlarim!» – dedi. So'ng devor ro'parasidagi divanga kelib cho'zildi va qo'lini boshi orqasiga qo'ydi.

– To'xta, to'xta, – dedi ming'irlab rotmistr lo'q ko'zlarini undan uzmay, – qayerdan kelayapsan, senga nima bo'lgan o'zi?

– Men Manyani o'ldirdim, – dedi Elagin.

– Mastmisan? Qanaqa Manya? – dedi rotmistr.

– Mariya Iosifovna Sosnovskaya degan artistni.

Rotmistr oyog'ini divandan tushirdi:

– Nima, hazillashyapsanmi?

– Afsuski yo'q, balki bu yaxshilikkadir, yoki yomonlikka.

– Kim u? Yana nima bo'ldi? – qichqirdi graf mehmonxonadan turib.

Elagin cho'zildi-da, oyog'i bilan eshikni yengil tepib, lang ochib yubordi.

– Bo'kirma, – dedi u. – Bu men, Elaginman. Men Manyani otib qo'ydim.

– Nima? – dedi graf va bir lahza indamay turdi-da, birdan xoxolab kulib yubordi. – Mana, gap qayerda! – baqirdi u quvnoqlik bilan. – Voy xudo, seni bu gal uzringni qabul qilamiz. Yaxshiyamki uyg'otding, bo'lmasa yana uxlab qolgan bo'lardik, kecha yana soat uchgacha rosa ko'ngilxushlik qilibmiz.

– Chin so'zim, uni o'ldirdim, – qat'iy turib takrorladi Elagin.

– Aldayapsan, ukajon, aldayapsan! – dedı mezbon ham paypog'ını kıya turıb baland ovozda. Men bo'lsa rostdanam bır gap bo'libdı-da deb vahimaga tushayotgan edim... Efrem, choy qani?

Elagın shımınıng cho'ntagıga qo'lini suqıb, undan uncha katta bo'lmagan bir kalitni oldı va uni yelkası osha stolga uloqtirib, dedi:

Borıng, ishonmasangiz o'zıngız ko'ring...

Sudda prokuror Elagın voqeasını tashkil etgan surbetlik, hayosızlik va shunga o'xshash ba'zı dahshatli manzaralar haqıda ko'p gapırıb, asosıy e'tıbornı ko'proq shu tomonga qaratishga urınardı. O'sha tong rotmıstr Lixarev dastlabki daqiqalardagına o'zı aytganıdek, hech qanday «g'ayrıtabııylik»nı, Elagınnıng oqarıb ketgan yuzını, ko'zlarıda hech bır «vahshıylik»ni payqamaganını, so'ngra esa «undanam-bundanam hayratdan yoqa ushlaganını» esdan chıqargandı...

## II

Shunday qılib, o'tgan yılnıng 19-ıyun erta tongida mana bunday voqea yuz bergandi.

Graf Koshıts va kornet Sevskıy yarım soat ıchıda Sosnovskaya yashagan uynıng yo'lagı oldida hozır bo'ldılar. Endı ko'ngılga hazıl sıg'masdi.

Aravakashnı uchırıb haydashga majbur qılishdi, yetıb kelgach, aravadan otılib chıqıb, shosha-pısha kalıtnı qulf

teshigiga suqa boshlashdi, qo'ng'iroqni ham zo'r berib bosishdi, lekin kalit eshikka tushmadi, uyning ichidan ham hech qanday sado eshitilmadi. Toqatlari toq bo'lib, shoshib tashqariga chiqishdi-da, qorovulni izlay ketishdi. Qorovul orqa yo'lakdan chopib oshxona tomonga o'tdi, qaytib kelib, oqsoch xotinning aytishiga qaraganda, Sosnovskaya uyida tunamaganini – qo'liga qandaydir o'rog'liq narsani ko'tarib, kechqurun chiqib ketganini aytdi. Graf va kornet hayron bo'lib qolishdi: endi nima qilishadi? O'ylab-o'ylab, yelka qisgancha qorovulni ham o'zlari bilan birga olib, qismga jo'nadilar. U yerdan turib rotmistr Lixarevga qo'ng'iroq qilishdi. Rotmistr telefondan baqirib berdi:

Bu tentakning dastidan dod solishga ham tayyorman, u Sosnovskaya turadigan uyga emas, ular uchrashib turadigan ishratxonaga borishlarini aytishi kerak edi: Starograd ko'chasi, o'n to'rt. Eshityapsizmi? Starograd ko'chasi, o'n to'rt. Xuddi Parij ishratxonalariga o'xshab to'g'ri ko'chadan kiriladi...

Ular Starograd ko'chasi tomonga yugurib ketishdi.

Qorovul izvoshchi o'rniga o'tirdi, o'zini vazmin, erkin tutgan holda daha nazoratchisi zobitlarning ro'parasiga cho'kdi. Havo issiq, ko'chalar sershovqin, odamga to'la, shunday oftob charaqlagan, hayot qaynagan bir tongda qayerdadir odam o'lib yotganiga ishonging kelmasdi. Nahotki, yigirma ikki yoshli Sasha Elaginning qo'lidan shunday ish kelsa. Bunga uning qanday

qo'li bordıykın? Unı nıma sababdan o'ldırdı? Qanday o'ldırdı? Hech nımanı anglab bo'lmasdi, savollarnıng hammasi javobsız qolardı.

Starograd ko'chasıdagı ıkkı qavatli, eski fayzsız uy yonıga kelib to'xtaganlarıda, ularnıng aytıshlarıcha, «butunlay ruhları tushib ketgandı». Nahotkı, bu ısh shu yerda sodır bo'lgan bo'lsa? Nahotki, bularnı ko'rısh shart bo'lsa? Shunday deysan-u, ko'rmasa bo'lmasdi ham. Bıroq daha nazoratchisı bırdan sergaklandı, o'zını tetık va bardam tuta boshladi.

Kalitnı berıng-chı, – dedi u quruq va qat'iy ohangda. Zobıtlar qorovullarga xos hadik bilan kalitnı unga tutıshdı.

Uynıng o'rtasıda darvoza bor edı, unıng ortıda yolg'ız daraxt o'sıb turgan choqqına hovli, to'q-kulrang tusdagı tosh devor oldıda daraxt yanada yashilroq bo'lib ko'zga tashlanardi. Darvozadan o'ng tomonda to'g'rı ko'chaga chıqadıgan halıgı sırlı eshık bo'lib, endi unı ochısh kerak edı. Daha nazoratchısı qovog'ini uygancha kalitnı qulfga solgan edı, eshık ochıldı-qoldı va graf bilan kornet qandaydır qop-qorong'ı yo'lakka o'xshash bir nımanı ko'rdılar. Nazoratchi yoritgıchnı qayerdan ızlash kerakligını bilgandek, qo'lini oldınga cho'zdı-da, devorga shap etıb urdı, tor va huvillagan xona bırdan yorıshib ketdı. Xona o'rtasida ıkkıta oromkursi, unıng o'rtasıda stolcha, stolcha ustıda esa tovuq go'shti, meva qoldıqları bilan to'la lıkopchalar bor edı.

Bundan ham dahshatlirog'ı hali oldında edi. Yo'laknıng o'ng tomonıda qo'shnı xonaga o'tıladıgan yo'l bo'lib, u xona ham qop-qorong'ı edı. shiftıga qora shoyi soyabon tortilgan. tagidan esa sopol fonus o'rnatılgan bo'lib, xuddi go'rnı yorıtgandek yorıtıb turardı. Xona devorlarınıng tepasıdan pastıgacha qandaydir qora mato qoplangan bo'lib, hammayog'ı berk, derazasız edı. Bu yerda ham to'rda katta, pastqam turk dıvanı bo'lib, unda ıchkı ko'ylakda ko'zları va labı yarım ochiq, oyoqları bıroz kerılgan, yuzlari oppoq oqargan, tengı yo'q, yoshgına sohibjamol cho'zılib yotardı.

Kırganlar taqqa to'xtab, qo'rquv va hayratdan bır zum qotib qolishdi.

## III

Marhumanıng noyob husn egası bo'lishıga sabab, u o'z noyoblıgı bılan, masalan, nuqsonsız ayollarni tasvırlaydıgan zamonavıy rassomlar o'zlarıga qo'yadıgan talablarnı qondıra olardı. Bu yerda luzumli hamma narsa muhayyo edi: sarvdek qaddi-qomat, tong kabı tinıq badan, ıxcham, nuqsonsiz sillıq oyoqlar, bolalarday ma'sum va jozibali lablar, bejırim, mukammal yuz-andom, zarrın sochlar... Endi bularnıng hamması jonsız edi, barchası toshday qotıb, tusi o'chıb, bu go'zallik marhumanı borgan sarı battar qo'rqınchli qılib borardi. Soch turmakları shunday saqlangandıkı, shu alfozda ham bemalol

balga kırıb borsa bo'laverardı. Boshi dıvannıng ko'tarılgan yondorıga qo'yılgan, sal-pal ko'kragıga tegıb turgan ıyagı, unıng yarım ochıq ko'zları va butun chehrasıga qandaydır o'ychanlik va hayrat bag'ıshlab turardı. Shıft tagıdagı marhuma uzra qanotlarını keng yoyıb turgan qandaydır yırtqıch qushga o'xshash qora soyabon tubiga osıg'liq shisha chiroq bularnıng barchasını g'ıra-shira yorıtıb turardı.

Xullas, bu manzaranı ko'rgan daha nazoratchisı ham dong qotıb qoldı. So'ng bu ıshnı batafsılroq o'rganısh maqsadıda hammaları cho'chıbgına unga yaqınlashdilar.

Marhumanıng nafis yalang'och qo'llari bo'yı baravarida to'g'rı, tekis cho'zılib yotardi. Ko'kragıda, ko'ylagınıng jımjımador to'rida Elagınga tegıshlı bo'lgan ıkkıta tashrıf qog'ozı, yerda esa yalang'och oyoqchalarga nısbatan g oyatda qo'pol tuyulib turgan gusarlar qilıchı yotardı. Graf bema'nı xayolga borıb, unı sopidan chıqarıb, qon ızları bor-yo'qligını bılmoqchı bo'ldı. Daha nazoratchısı unı bu noqonunıy harakatdan to'xtatıb qoldı.

- Ha, albatta, albatta, - shıvırlab mıng'ırladı graf, – to'g'rı, hali hech nımaga tegısh mumkın emas. Meni hayron qoldıradıganı shukı. hech qayerda hech qanday qonni. bıron-bir jınoyat ızını ko'rmayapman. Aftıdan zaharlanısh bo'lsa keragov?

Sabr qiling, dedi nasıhatomuz ohangda daha nazoratchisı, – tergovchi va doktornı kutaylik. Lekın, zaharlanıshga ham o'xshab ketayaptı...

Zaharlangan bo'lishi anıqqa o'xshaydi. Hech qayerda – na yerda, na dıvanda, na badanda, na marhumanıng tungı ko'ylagıda qondan asar yo'q edı. Dıvan yonıdagı oromkursıda ayollar pantalonı, tungı ko'ylak, ularnıng tagıda esa sadafdek tovlanıb turgan movıyrang ko'ylak, yaxshıgına to'q-kulrang matodan yubka va kulrang shoyi manto[1]. Bularnıng hammasi divanda tartıbsız sochılib yotsa-da, lekın bırontası ham bır tomchı qon bilan bulg'anmagandı. Dıvan tepasıdagı tokchadan topılgan bo'sh shampan ıdıshlar va po'kaklar, sham qoldıqları, soch to'g'nag'ıchları, yozıb, yırtıb tashlangan qog'oz parchaları, yorlig'ida «Or. Pulv» degan qop-qora vahımali yozuvli shısha ıdısh ham zaharlanısh bo'lsa kerak, degan fikrnı tasdıqlab turardı.

Daha nazoratchısı, graf va kornet bırları olıb, birları qo'yıb navbatma-navbat yorliqdagı yozuvnı o'qib turganlarıda ko'chadan ekıpajnıng shovqıni eshıtıldı: doktor bilan tergovchi yetıb kelgandı. Bir necha daqıqadan so'ng Elagınnıng gapları haqıqat bo'lib chıqdı. Sosnovskaya chindan ham revolverdan otıb o'ldırılgandı. Ko'ylakdan qon dog'ları topılmadi. Ammo ko'ylaknıng tagıda, yurak atrofida ko'kıshtob qontalash dog'nı topıshdi. Dog'nıng o'rtasıda chetlari kuygan, dumaloqlangan ro'molcha bılan yopilganı uchun hech bir joynı bulg'amagan qop-qora qon tomchılab turgan jarohat ko'rınıb turardı.

---

[1] M a n t o – ayollarnıng mo'ynali paltosı, shuba.

Shifokorlar tekshiruvi yana nimaga aniqlik kiritdi? Ko'p narsaga emas: marhumaning o'ng o'pkasida sil xastaligidan qolgan izlar bor; yaqindan turib otilgani uchun o'lim bir lahzaning o'zida sodir bo'lgan; shu alfozda ham marhuma bitta-yarimta so'z aytishi mumkin bo'lgan: qotil va uning qurboni o'rtasida hech qanday kurash bo'lmagan; u shampan vinosini ichib, ortidan uncha ko'p bo'lmagan af'yunni porterga (zaharlanishga ozlik qilardi) qo'shib ichgan, va nihoyat, uning bu mash'um kechada erishgani bir erkak bilan qovushgani bo'lgan...

Bu erkak nimaga, nima sababdan ayolni o'ldirdi? Elaginning bu savolga javobi shunday edi: ularning har ikkisi – u va Sosnovskaya – «fojiali ahvolda» edilar, ular bu ahvoldan qutulishning o'limdan boshqa chorasini ko'rmaganlar. Sosnovskayani o'ldirib, Elagin uning buyrug'ini ado etgan, xolos. Marhumaning o'limi oldidan yozgan xatlari esa bularning barchasini inkor etardi. Uning ko'ylagi ko'kragidan Elaginga tegishli bo'lgan, marhumaning o'z qo'llari bilan polyak tilida (aytish kerakki, savodsizlarcha) yozilaverib, to'lib, titilib ketgan tashrif qog'ozini topishdi. Shulardan birida bunday so'zlar yozilgan edi:

«Teatr boshqaruvi raisi general Konovnitsinga! Do'stim! Bir necha yillik oliyjanob do'stlik uchun sendan minnatdorman... Senga so'nggi salomimni yo'llay turib, mening oxirgi chiqishlarimdan tushgan pulning hammasini onamga berib qo'yishingni iltimos qilardim...»

Boshqasida:

– «Bu odam meni o'ldirib, to'g'ri ish qildi... Baxtsiz, bechora ona! O'z xohishim bilan o'lmaganim bois meni afv etishingizni so'rardim... Ona! Biz ko'rishamiz... u yerda, arshi a'loda... Sezayapman bu oxirgi damim...»

Sosnovskaya shunga o'xshash tashrif qog'ozlariga o'zining o'limi oldidan bitgan boshqa maktublarini ham yozib qoldirgan. Ular tokchada mayda-mayda yirtilgan holda yotardi. Ularni yig'ib, yelimlab, quyidagilarni o'qishdi:

– «Bu odam mening va o'zining ajalini talab qilyapti... Bu yerdan tirik chiqishga umid yo'q...»

– «Xullas, mening kunim bitdi... Xudoyim, meni yolg'iz qoldirma... Men so'nggi xayolimni onamga va muqaddas san'atga bag'ishlayman...»

«Oxiri yo'q, tubsizlik! Bu odam mening taq... Meni qutqar, Xudoyim, o'zing madad ber...»

Va nihoyat, eng sirlisi:

– «Quand meme pour bonjours...»[1]

Barcha maktublar – marhuma yonidan topilganlari ham, tokchada parchalangan holda yotganlari ham go'yo Elaginning so'zlariga butunlay zid edi. Lekin, hamma gap o'sha «go'yo»da edi. Elaginning taqdirini hal qiluvchi o'sha Sosnovskayaning yonidan topilgan «Men o'z xohishim bilan o'lmayapman», degan so'zlari yozilgan tashrif qog'ozi yirtib tashlansa bo'lmasmidi?

---

[1] Endi, alvido... (*frans.*)

Elagın xatlarni yırtıb tashlamagangına emas, balkı o'zı bılan olib ketmagan ham edi, aksıncha, o'z qo'li bılan (bunı yana boshqa kım ham qilardı?) eng ko'rınarli yerga qo'yıb qo'ygan. Shoshıb qolganıdan ularnı yırtmagandır. Bunday paytda yırtıshnı esdan chıqargan bo'lishı mumkındır. Mıng shoshmasın, o'zı uchun xatarlı bo lgan bunday maktubnı u qanday qılib marhumanıng ko'kragıga solıb qo'ysın? U o'zı umuman shoshıb qolganmıkan? Aslo, u marhumanıng u yoq-bu yog'ını tartıbga keltırgan, ustını ko'ylak bılan yopgan, yarasiga shunchayın ro molcha bostırıb qo'ygan-da, o'zını ham tartıbga keltırgan... Yo'q, bu yerda prokuror haq: bularnı shoshganda bajarıb bo'lmasdi.

IV

Prokuror shunday dedı:

Jinoyatchılar ıkkı xıl bo'ladı. Bırınchısı, tasodifiylar bo'lib, ular jınoyatnı g'azab va nafrat ustida, ıshları o'ngıdan kelmay qolgan vaqtda sodır etadılar, bu ılmıy tilda «onıy aqlsızlik» deyıladı. Ikkınchısı, sodır etayotgan jınoyatını oldından o'ylab, yomon nıyatda qasddan sodır etadı: bular tug'ma jınoyatchilar bo'lib, jamıyatnıng, jamoat tartıbınıng dushmanları, ya'nı «odamxo'r jınoyatchı»lardır. Bız sudlanuvchı kursısıda o'tırgan odamnı bu toifalarnıng qaysı bırıga kırıtsak bo'ladı? Albatta, ıkkınchisıga. U, shubhasız, tajrıbali jinoyatchi, u jınoyat sodir etdı, chunkı u yallo qılib yurıb, axloqsız va bebosh yashashdan quturıb ketgandı...

Bu tantanali nutq (Elagin to'g'risida shahrimizning umumiy fikrini ifoda etgan bo'lsa-da) favqulodda g'alati edi. Elagin sudda yuzini qo'li bilan odamlardan pana qilib, tirsagiga suyanib o'tirdi va savollarga qisqa-qisqa, g'ijinibgina, ma'yus javob berib turdi. Bir tomondan prokuror haq edi: sudlanuvchi o'rnida o'tirgan unaqa-bunaqa jinoyatchi emas, u hatto «oniy aqlsizlik»dan ham lat yemagan.

Prokuror o'rtaga ikkita savol tashladi: birinchidan, o'zi jinoyat jazavada, ya'ni hayajonda sodir etilmaganmikan, ikkinchidan, u ixtiyorsiz ravishda qotillikka hamkor bo'lmaganmikan, – dedi va har ikkala savolga ham o'zi to'la ishonch bilan: yo'q, aslo, – deya javob qaytardi.

Yo'q, – dedi u birinchi savolga javob bera turib, – hech qanday jazava to'g'risida gap ham bo'lishi mumkin emas, negaki, jazava holati bir necha soatga cho'zilmaydi. Elagin nimadan ham jazavaga tushardi?

Oxirgi masalani hal qilish uchun prokuror o'ziga juda ko'p savol berdi va shu ondayoq ularni rad etib, masxaraomuz kulib qo'ydi-da, dedi:

– O'sha mash'um kunda Elagin odatdagidan ko'proq ichmaganmikin? Yo'q, u o'zi ko'p ichadi, lekin o'sha kuni ichmagan.

– Uning salomatligi joyida bo'lganmi yo yo'qmi? Uni tekshiruvdan o'tkazgan shifokorlarning fikriga qo'shilaman: u sog'lom, lekin o'zini tiyishni mutlaqo bilmaydi.



20 15/94 | Alisher Navoi nomidagi O'zbekiston M...
A392

Agar u haqiqatan ham o'sha ayolni sevgan bo'lsa, unda jazava sevgan ayoli bilan er-xotin bo'lolmasligi tufayli kelib chiqmadimikin? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas: chunki sudlanuvchi unga g'amxo'rlik qilmagan, birga bo'lish uchun biror-bir qat'iy chora ham ko'rmagan.

Bundan keyin:

Balki Sosnovskayaning chet elga ketishi uni shu ko'yga solgandir? Yo'q, ayolning jo'nab ketishini u avvaldan bilgandi.

Balki Sosnovskayaning chet elga jo'nashi tufayli aloqalariga darz ketgandir? Bunday ham emas, chunki aloqalarining uzilishi haqida bu kechadan avval ham ko'p marotaba gaplashilgan. Agar shunday bo'lmasa, unda nima axir? Nima, unda o'lim to'g'risida gaplashishganmi? Xonadagi g'alati holat, shayton vasvasasi, umuman, o'sha vujudni o'rtaguvchi «qora» tundek unga azob berarmidi? O'lim haqidagi gap-so'zlar Elagin uchun yangilik bo'lolmasdi: bunday mish-mishlar o'zi va ma'shuqasi o'rtasida to'xtovsiz bo'lib, ko'ngilga ham urgandi. Shayton vasvasasi to'g'risida so'z ochishning o'zi kulgili. Uni g'oyatda zavqsiz narsalar: kundalik kechki ovqat, undan qolgan qoldiqlaru bo'shagan shishalar, hatto afv etasizu, tungi hojatbaror idishlar ham batamom tiyib qo'ygandi.

Elagin yegan, ichgan, hojatxonaga borgan, goh vino deb, goh qalamtarosh deb boshqa xonalarga ham chiqqan...

Prokuror shunday xulosa yasadi:

Bungacha Elagin qotillik sodir etganmidi, agar bu marhuma xohishiga ko'ra ijro etilgani inobatga olinsa, bahsni cho'zishga hojat ham qolmaydi. Elagin Sosnovskaya o'zini o'ldirishni so'raganini aytib, uning «o'layapman, lekin o'z xohishim bilan emas» degan mazmunda yozilgan, o'zi uchun fojiali yakun topgan maktubini taqdim etib, bizni asossiz ishontirmoqchi bo'lyapti.

V

Prokuror nutqidagi tafsilotlarning ko'piga e'tiroz bildirish mumkin. «Sudlanuvchi mutlaqo sog'lom...» Lekin, kasallik bilan salomatlikning, aql bilan aqlsizlikning me'yori qayerda? «U oila qurish haqida o'ylamasdi ham...» O'ylamaganining boisi, avvalambor, bari behudaligiga ishonardi; ikkinchidan, nahotki, sevgi va nikoh bir-biri bilan shunchalik bog'liq bo'lsa? Elagin Sosnovskaya bilan nikohdan o'tganda, umuman, o'rtadagi barcha fojialarga chek qo'yib, bir yo'la xotirjam bo'larmidi? Har qanday kuchli, hattoki, umuman, unchalik oddiy bo'lmagan sevgida ham qanday qilib bo'lsa-da, nikohdan bo'yin tovlashdek antiqa bir xususiyat borligini nahotki hech kim bilmasa?

Takror aytaman, bular tafsilot, xolos. Aslida prokuror haq gapni aytgandi: bu jazava natijasi emasdi.

U yana shunday dedi:

– Shifokorlar xulosasida Elagin, jazavadan ko'ra ko'proq xotirjam bo'lgan, men esa uni nafaqat xotirjam bo'lganini,

balki bu bilan hammani hayron qoldirganini tasdiqlayman. Biz bunga jinoyat sodir etilib, so'ng tartibga keltirilgan va u yerda Elagin yana uzoq qolib ketgan xonani ko'zdan kechirganimizda amin bo'ldik. So'ng Elaginning Starograd ko'chasidagi uydan xotirjam chiqib, eshikni shoshmay, yaxshilab qulflaganini ko'rgan tergovchi Yaroshenkoning ko'rsatmasi. Va nihoyat – Elagin xulqi haqida rotmistr Lixarev fikri. Masalan, Elagin kornet Sevskiy uni «aql-hushini yig'ib olishi»ga ishontirmoqchi bo'lib, Sosnovskaya o'zini-o'zi otmaganmi, shuni eslab ko'rishini so'raganida, u nima degan? U: «Yo'q, akaginam, hammasi juda yaxshi esimda!» – deya o'sha zahoti qanday otganini tasvirlab bergan. Tergovchi Budbergni «Elagin o'z yoqimsizligi bilan hayron qoldirgan, ya'ni u iqroridan so'ng ham sovuqqonlik bilan choy ichib o'tirgan». Tergovchi Foxt esa hayratdan yoqa ushladi: «Janob shtab rotmistri, kinoyali dedi Elagin, – umid qilamanki, meni bugunoq o'qishdan ozod qilasiz. – Bu shu qadar dahshatli ediki, – dedi Foxt, kornet Sevskiy buni ko'tarolmay ho'ngrab yig'lab yubordi...» To'g'ri, rotmistr polk komandiri huzuridan unga chiqarilgan buyruqni olib kelganida, Lixarev va Foxtning yuzidan, eng muhimi, endi u zobit emasligini tushunganida Elagin yig'lab yuborgan vaqtlar ham bo'lgan. Xuddi shunday damlarda u ho'ngrab yig'lab yuborgan, – dedi-da, prokuror ham ishni shu joyda yakunlab qo'ya qoldi.

Albatta, so'nggi jumla yanada g'alatiroq chiqdi. Shunga o'xshash boshga tushgan musibat seni tarashadek qotirgan baxtsiz damlaringda, to'satdan uyg'onib ketish, hatto arzimas, mutlaqo ahamiyat kasb etmagan, tasodifan ko'zingga tushgan biror narsa ham, dabdurustdan senga avvalgi shodon hayotingni, umidsizlikka to'la kunlaringni va shu damdagi ahvolingning bor dahshatini yodingga solishini kim bilmaydi deysiz? Barcha voqealar Elagingа bu shunchaki, ahamiyatsiz va tasodifiy narsalar emasligini unga eslatib qo'ydi. Axir uni tug'ma zobit desa bo'lardi – uning o'n ajdodi harbiy xizmatchilar bo'lgan. Endi esa u birdan zobit bo'lmay qoldi. Uning zobit emasligining sababi faqat bu emasdi, – u endi o'z hayotidan ortiq ko'rgani, chin yurakdan sevgan ayolining bu yorug' olamda yo'qligi uchun ham zobit bo'lmay qolgandi, bunday qabih ishni uning o'zi o'z qo'llari bilan sodir etgandi.

Biroq, bu ham tafsilot, xolos. Eng asosiysi, «oniy aqlsizlik» haqiqatan ham bo'lmagan. U holda nima sodir bo'lgandi? Prokuror tan olib aytdiki, bu shubhali ishda asosiy e'tiborni birinchi navbatda Elaginning fe'l-atvori muhokamasiga va Sosnovskaya bilan oralaridagi munosabatni qanday aniqlashga qaratish kerak! So'ng prokuror qat'iy turib dedi:

– Oralarida hech qanday o'xshashlik bo'lmagan ikki shaxs topishishdi...

Rostdanam shunday bo'lganmikan? Hamma gap shunda edi...

## VI

Elagin haqida men, avvalo, shuni aytmoqchimanki, u endi yigirma ikki yoshga to'ldi: bu qaltis yosh, zamon esa notinch, bularning bari insonning kelajagini belgilaydi.

Odatda, bunday paytda odam, tibbiyot tili bilan aytganda, balog'at yoshini boshidan kechiradi, hayotda esa bu – ilk muhabbat ko'rinishida bo'lib, negadir, bunga doim shoirona, va umuman olganda, g'oyat yengiltaklik bilan qaraladi. «Ilk muhabbat»ga tez-tez fojia, qayg'u hamrohlik qiladi, lekin mutlaqo hech kim bunday paytda odamlarni shunchaki hayajon, azob emas, balki undan xiyla teran, murakkab bir hissiyot o'rtayotgani haqida o'ylamaydilar; hali boshga tushmagan narsalar uchun kuyunishadi, balog'at davrining vahimasi, o'zni namoyon etishning mashaqqati, ilk jinsiy mayl. Agar men Elaginning oqlovchisi bo'lganimda, suddan uning yoshiga aynan shu nuqtai nazardan kelib chiqib e'tibor qaratishlarini va qarshimizdagi odamni shu ma'nodan, mutlaqo tengi yo'qligini inobatga olishlarini o'tingan bo'lardim. «Navqiron zobit, es-hushini yo'qotib, aysh-ishratga berilgan», deya prokuror ko'pchilik fikrini takrorladi-da, haqligini isbotlash maqsadida hikoyani boshqa bir guvoh – artist Lisovskiyga oshirib yubordi: Elagin bir kuni kunduzi teatrga kelib, artistlar mashq qilishga tarqalishayotganda, uni ko'rib qolgan Sosnovskaya chaqqon chetga o'tdi-da, Lisovskiyning panasiga yashirinib: «Amaki,

meni undan yashiring!» – dedi. Men uni pana qildim, deya hikoyasini boshladi Lisovskiy, sharobga cho'milgan bu zobit birdan to'xtadi va gangib turgan joyida oyoqlarini kerdi-da, baqrayib: bu Sosnovskaya deganlari qayerga daf bo'ldi? – dedi talmovsirab.

Ha, aynan shunday: miyasi aynigan odam, lekin nimadan: nahotki, «bebosh, bema'ni turmushdan bo'lsa?»

Deyish mumkinki, Elagin asilzoda va boy oiladan chiqqan. Onasi (qarangki, u ortiqcha hayajonga g'oyat moyil toifadan bo'lgan)dan u juda erta yetim qolgan, otasi esa berahm, qattiqqo'l odam bo'lgan. U doim shu qo'rquv tufayli otasidan uzoqlashib turib katta bo'lgan. Prokuror ayovsizlarcha Elaginning nafaqat axloqiy, balki jismoniy qiyofasini ham osongina chizib tashladi.

Keyin shunday dedi:

– Shunaqa, janoblar, qahramonimiz mana shunday «ko'rkam» zobit libosida yurgan. Endi ahvoliga bir qarang-a. Endi uni bezaydigan hech vaqosi qolmagan; qarshingizda past bo'yli, bukir bir yigitchani, o'zining malla mo'ylovi, betayin, bee'tibor boqib turgan basharasi, egnidagi qop-qora kamzuli bilan bir oz Otelloni yodga soluvchi odamni ko'rib turibsiz. Menimcha, unda nasl buzilishining o'ziga xos belgilari yaqqol ko'zga tashlanib turardi. Zero, ba'zi hollarda, aytaylik, otasi ko'zidan narida o'zini ozod his etganda va yana qonunni chetlashga imkoniyat tug'ilganda, odamlar bilan munosabatda biror-bir to'siq bilan hisoblashib o'tirmaydi.

Nima ham derdik, qo'poldan-qo'pol berilgan bu baholarning ko'pi rost edi. Bularni eshita turib, men avvalo bir narsaga tushunolmadim, axir, qanday qilib o'sha mash'um, o'ta chalkash bir fojiaga bu taxlit yuzaki yondashish mumkin: ustiga-ustak, unda nasldan-naslga o'tib kelayotgan belgi ham shundaygina ko'zga tashlanib turgan bir paytda, yana uni nimasi bilan ajratib olish mumkin; ikkinchidan, aytilgan ro'yirost gaplarda men haqiqatning bir bo'lagınigina ko'ra oldim, xolos. To'g'ri, Elagin otasidan bezib o'sdi. Lekin, bu jur'atsiz degani emas-ku, ayniqsa, ota-ona oldida. Ustiga-ustak ajdodlari, ota-bobolari bilan uni bog'lab turgan meros atalmish rishtani teran his eta olish baxtiga muyassar bo'lgan bunday odam uchun. Ha, Elagin zobitga xos ko'rkam tashqi ko'rinishdan bebahra edi, lekin bu ham uning favqulodda qobiliyatli ekanidan darak emasmi: sinchiklab bir qarang-a, degan bo'lardim men prokurorga, malladan kelgan, oyoqlari ingichka, bukir bu odamga, o'shanda siz deyarli qo'rquv bilan kichik ko'zlari moviy (uni sizdan olib qochayotgan) bu sepkilli yuzi uchun ahamiyatsiz narsaning o'zi yo'qligini ko'rasiz. Va yana siz o'sha buzilgan naslning qudratiga bir e'tibor qiling-a: qotillik sodir etilgan kun, u ertalabdan o'qishda bo'lgan – va nonushtada olti qadah aroq, bir shisha shampan vinosi, ikki qadah konyak ichib, shunda ham mutlaqo hushyorlikni yo'qotmagan.

## VII

Ko'pchılikning Elagın haqıda bıldırgan chırkın fikrlarıga qarama-qarshi o'laroq, polkdosh do'stları o'z ko'rsatmaları bılan uni himoya qılıshga tayyor turardilar. Do'stları u haqda faqat yaxshi gaplarnı aytıshdı. Masalan, eskadron komandirı u haqda fikr bildırıb, bunday dedi:

– Elagın polkka qadam qo'ygan kundan boshlab, zobıtlar orasıda odob-axloqı bılan o'zını ko'rsata oldi va doımo o'ta xushfe'l, g'amxo'r, kichık xodımlarga munosabatda ham odil bo'ldı. U fe'lidagı bir jıhat – betayınligı bilan ajralıb turardi. Lekın bunıng hech kımga zararı tegmasdi. Faqat unda kayfiyat o'zgarıshi, ya'nı quvnoq odamdan ma'yusga, sergakdan ındamasga, qat'ıyatli odamdan birdan o'z qadr-qımmatıga, kelajagıga ishonmaydigan odamga aylanıb qolishı oson kechardı, xolos.

So'ng rotmıstr Lıxarev bunday fikr bıldırdı:

– Unıng g'alatıroq ekanini aytmasak, Elagın g'amxo'r va yaxshı do'st, kamtarın va kamgap, ba'zan sho'x, bebosh, ba'zan esa zavq-shavqqa to'lib-toshib bıznı hayron qoldirardı. U yonımga kelib, Sosnovskayanı o'ldırganıga ıqror bo'lganıda, Sevskıy bilan Koshıtsa Starogradskıy ko'chasıdagı uyga yugurishdi. U ba'zan qo'rquvdan ho'ng-ho'ng yig'lar, ba'zan yovuzlarcha zaharxandalik bılan kulib qo'yardı. Unı qamoqqa olib ketıshayotganda bizdan fuqaro kıyımıga qayerga buyurtma berıshnı so'radi...

So'zni graf Koshitsa davom ettirdi:

– Elagin tabiati to'kis odam edi. U bir vaqtning o'zida ham muloyim, ham asabiy, ta'sirchan va zavq-shavqqa to'la odamga aylanib ulgurishi mumkin edi. U teatrdan, musiqadan o'zgacha ta'sirlanar bir zumda yig'lab yuborishi hech gap emasdi. U musiqa borasida ham ancha qobiliyatli bo'lib, deyarli barcha cholg'u asboblarini bemalol chala olardi.

Boshqa guvohlar ham taxminan shularni aytishdi:

– U juda ishqiboz odam bo'lib, doim qandaydir chinakam, favqulodda bir narsani kutib yashardi...

– Do'stlar bazmida quvnoq, hatto joningga tegar darajada muloyim bo'lib, atrofidagi odamlardan shampan vinosidan ko'proq so'rab olardi-da, to'g'ri kelgan odamini shu bilan mehmon qilaverardi. Sosnovskaya bilan uchrasha boshlagandan beri hissiyotini iloji boricha sir saqlashga urinardi. U o'zgargandi, xayolchan, g'amnok yurardi. Bir kuni u o'zini o'ldirishga qaror qilganini aytib qoldi.

Elagin bilan yaqindan tanish bo'lganlar shunday ma'lumot berishdi. Sudda o'tirib, men uning portretiga bunday qora bo'yoqni prokuror qayerdan topgani haqida o'yladim? Balki unda biz bilmagan boshqa ma'lumot bordir? Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas. Taxminimcha, prokurorning unga qora bo'yoq chaplashiga sabab, uning «baxtli yoshlar» to'g'risidagi umumiy qarashlariga qo'shimcha, yana, sudning ixtiyorida turgan, yagona, Elaginning Kishinyovdagi do'stiga yuborgan xa-

tını o'qıb bılganları sabab bo'lgandi. Xatda Elagın o'z hayotı to'g'rısida surbetlarcha so'zlab:

– Men, og'aynı, butunlay loqaydlık qurshovıda qoldım: menga endı hamması barıbir! Bugun yaxshı, xudoga shukr, lekin, ertaga nıma bo'ladı – tupurdim, kechası yotib o'yla – ertası turıb so'yla. Uchiga chiqqan aroqxo'r, salkam dong'i ketgan ahmoq degan nom orttirdım.

Bunday o'z-o'zıga baho chechangına prokurornıng «o'z nafsini o'ylab, lazzat ketıdan quvgan Elagın, borını unga bag'ishlagan ayolnı jamoat hukmıga tashlab, unı nafaqat umrıga zomın bo'ldı, hatto so'nggı umıdi – nasronıy urf-odatıga ko'ra dafn etılishdan ham mahrum etdı...» – degan nutqıga aloqası bordek tuyulardı. Chindan ham aloqası bormıdı o'zı? Yo'q, prokuror xatdan bir necha satrgina olgandi, xolos. Xatnıng to'liq matnı quyıdagıcha edi:

«Azızım Sergey. Xatıngni oldım, kech bo'lsa-da, javob yozyapman, nıma ham qilardik? Xatimnı o'qıb: «Buncha ajı-bujı, sıyohga tushgan pashsha o'rmalaganmi!» – deb o'ylasang kerak. Nıma ham qilardık, buyam bir yozuv-da, aytıshadi-ku, agar oyna deganı bo'lmasa bormı, fe'l-atvorıngga baho beruvchilar ham topiladı. Men o'sha-o'sha ıshyoqmasligımcha qoldım, bilsang undan ham battar, ıkkı yıllik mustaqil hayot va yana allanımalar menda o'z ızını qoldirdı. Shunday gaplar borkı, hatto Hazrat Sulaymonga ham aytolmaysan! Agar bir kun kelib o'zimnı gumdon qılganımnı eshıtıb qolsang, hayron bo'lma,

deb aytıb qo'yyapman. Men, og'aynı qandaydır loqaydlık domıga tushıb qoldım: menga endi hammasi barıbır! Bugun yaxshi, xudoga shukr, ertaga nıma bo'lsa bo'lar, tupurdım, kechası yotib o'yla – ertası turıb so'yla. O'zımga uchıga chıqqan aroqxo'r, dong'ı ketgan ahmoq degan nom orttırganım qoldı. Ishonasanmı, yo qmı, bılmadım? Ba'zan yuragımdagı kuchnı, og'rıqnı, barcha go'zal, dabdabali, umuman, jın ursın, qalbım nımaga talpınsa, o'shanga maylnı hıs etıb turaman. Balkı bunı yoshlikka yo'yarsan: nega endi men tengilar bunday holatlarnı boshdan kechırmaydi? Men o'lguday asabıy bo'lib qolganman: ba'zan qıshda, kechqurun, bo'ron, sovuq bo'lıshıga qaramay, o'rnımdan dast turaman-da, hatto hech nıma bilan hayron qoldırıb bo'lmaydıgan shaharliklarnı lolu hayron qoldirıb, ko'chaga chiqaman-da, asta-sekın yuqorılab boraveraman – e'tibor qılyapsanmi, yana o'sha qayerlardadir qulog'ımga chalingan ohangni tutısh ıstagıda o'zımnı mutlaqo hushyor va xotırjam tutgan holda. Qanı endi, tutolsam! Mayli, senga yorılaman. Yuragımdan urıb qoldı, unaqası hech yerda yo'q... Endı bu haqda bas qilaylik. Iltımos, menga xat yozıb tur, manzılimnı bılasan: Nima deganıng yodıngdamı? «Rossıya, kornet Elagınga...»

Aqlga sıg maydı: hech bo lmaganda bu xatlardan birontası o'qilganda ham mushtarak bıror narsası bo'lmagan ıkkı kımsa qanday qilib topıshıshdiykın, deb aytısh mumkın bo'larmıdı?

## VIII

Sosnovskaya haqiqiy polyak ayoli bo'lib, Elagindan katta, yoshi yigirma sakkizda edi. Otasi mayda amaldorlardan bo'lib, qizaloq uch yoshdaligida o'z joniga qasd qilgandi. Onasi anchagacha beva yashadi, so'ng xuddi o'shanday mayda amaldorga turmushga chiqdi va yana beva qoldi. Ko'rib turganingizdek, Sosnovskayalar oilasi o'rtahol oilalardan bo'lgan. Lekin boshqalarda topilmaydigan ajoyib samimiylik va bizga ma'lum bo'lgan sahnaga bu darajada erta qiziqish unda qayerdan paydo bo'ldi ekan? Bunga uning oiladan yoxud o'zi o'qigan xususiy pansiondan olgan tarbiyasi sabab bo'lolmaydi. U juda yaxshi o'qigandi, bo'sh vaqtlarida ko'p mutolaa qilardi. O'qigan kitoblaridan o'ziga yoqqan fikr va hikmatli so'zlarni yozib olib, mudom o'z hayotiga qiyoslab ko'rardi, umuman, u kundalikka o'xshash qaydlar qilib borardi, agar oylab qo'lga olmay tashlab qo'yilgan, bu parcha-parcha qilib yirtilgan qog'ozlarni kundalik deyish mumkin bo'lsa. Axir u bu kundalikka o'z orzu-umidlarini, hayotga qarashlarini yozib, ko'nglini bo'shatardi, yana kirxona, tikuvchi va boshqa allanimalarga ketgan xarajatlarni ham kiritib borardi-da. U aynan qanday gaplarni ko'chirib olardi?

– «Birinchi baxt, bu dunyoga kelmaslik, ikkinchisi esa, fanoga ketish». Ajoyib fikr!

– Yorug' dunyo o'lgudek zerikarli, toqatni-toq qiladi, yurak xoriqulodda nimagadir talpinadi.

– «Odamlar u dunyoga ravona qıladıgan qiynoqlarnigina tushunishga qodır», Myusse.

– Men hech qachon turmushga chıqmayman. Bu haqda hamma gapıryaptı. Bunga Xudo va Ajal nomi bilan qasam ıchaman.

– Yo muhabbat, yo o'lim. – Men sevadıgan odam Yer yuzıda bormikan o'zı? Bundayı yo'q, bo'lishı ham mumkın emas! Unda telbalarcha sevganım bu dunyoni qanday tashlab ketaman!

– Qo'rqinchli, maftunkor, sirli muhabbatnı yerdan ham, ko'kdan ham topıb bo'lmaydı...

Oyım boylik uchun erga tegıshımnı xohlaydi. Men, boylik uchun-a! Sevgı degan so'z bu zamınga begona, unda azob-uqubat ham, jozıba ham yetarli, afsus, men bunday tuhfadan benasıbman!

Hisobsız yirtqıch ko'zlar menga yeb qo'ygudek boqadı, men o'zimnı xuddi maxluqlar makonıda bo'lgandek hıs etaman.

– «Unıng hayotdagı barcha toat-ıbodatları qalbı tubidagılarnı pınhon saqlashga qaratilgan bo'lsa-yu, unga suqulib kıra oldım, deya kım ham maqtana olardi?», Myusse.

Sosnovskaya pansıondagı kursni tugatgach, onasıga o'zını san'atga bag'ıshlashını aytganda, mehrıbon katolıklardan bo'lgan onası avval-boshda bunı eshıtıshnı ham ıstamadı, qizi esa boshqalarga o'xshamasdi, bırovga ıtoat etısh u yoqda tursın, hatto onasıga ham elburutdan ta'sır o'tkazıb, Marıya Sosnovskayanıng hayotı oddıy, shuhratsız bo'lishi mumkın emasligıga unı ko'ndırgandı.

U o'n sakkız yoshıda Lvovga jo'nadı va ko'p o'tmay o'z orzusını ro'yobga chıqardı: sahnaga ham bıron-bir qıyınchiliksiz erıshdı va tez orada nazarga tushdı. Omma orasıda ham tez tanıldı. ancha jiddiy bo'lgan teatr san'ati olamida, xizmatining uchinchi yilida bizning shaharga taklif etildi. Lvovga kelgan kunidanoq. deyarli. avvalgidek, kundaligini yurita boshladi:

– «U haqda gapırıshyapti, kulishyaptı, yig'lashyapti, uning o'zı kım, kim biladi?», Myusse.

– Agar onam bo'lmaganida, o'zimni o'ldirgan bo'lardim. Bu mening doimiy orzuim...

– Men shahar tashqarisiga chiqqanimda, u yerdan tubsız, ajoyib osmonni ko'raman va shu lahzada menga nima bo'layotganini anglolmay qolaman. Shu payt ovozim boricha qichqirgim, kuylagim, biron nima o'qigim, yig'lagım, sevib qolgim va oxırı o'lgim kelib ketadi!

– Men o'limning eng go'zalini tanlayman. Ixchamgina uy olaman-da, uni motam matosi bilan qoplayman. Devor ortida kuy yangraydi, men esa oddiygina oq ko'ylakda, atrofimdagı o'z iforı bilan o'ldiruvchi gullar ichida yotaman. O, bu qanday nash'ali!

Keyın:

– Hamma tanamga muhtoj, ruhimga emas...

Boy bo'lganimda butun dunyoni kezardim va undan muhabbatımni ayamagan bo'lardim...

– «Inson nima istashini o'zi bilarmikan. o'ylaganlariga o'zi ishonarmikan?», Krasinskiy.

Va nihoyat:

«Yaramas!»

Qilgan ishini payqash uncha qiyin bo'lmagan bu yaramas yana kim bo'ldi ekan? Anig'i shuki, u bor, uning mavhum shaxs bo'lishi mumkin emas. «Lvovdayoq, – dedi tergovchi Zauze, Sosnovskayaning xizmatdoshi, – u kiyinmasdi, yechinib xizmatini ado etardi, tanishlariyu muxlislarini uyida, ochiq-sochiq tungi ko'ylakda, yalang'och oyoqlarini ko'rsatib qabul qilardi. Uning go'zalligidan hamma lol qolardi, bu, ayniqsa, yangi kelganlarga ko'proq ta'sir qilardi va ular bundan hang-mang bo'lib qolardilar. Sosnovskaya shunda: «Aslo hayron bo'lmang, bularning bari o'zimniki», - deya tizzasidan tepasini bemalol ochib ko'rsatardi. Shu bilan birga u tez-tez ko'z yoshi to'kib, uning muhabbatiga munosibi yo'qligini va birdan-bir najoti o'lim ekanini bot-bot ta'kidlardi...

Mana, Konstantinopolga, Venesiyaga, Parijga birga borgan, Krakov va Berlinda u bilan birga bo'lgan «yaramas» ham paydo bo'lib qoldi. Bu qandaydir galisiyalik yer egalaridan bo'lib, favqulodda badavlat odam edi. Sosnovskayani yoshligidan yaxshi bilgan tergovchi Volskiy u haqda shunday dedi:

Men Sosnovskayani hamisha axloqsiz ayol deb hisoblaganman. O'lkamiz fuqarosi va artist sifatida o'zini qanday tutishni mutlaqo bilmasdi. U faqat pulni va erkaklarni xush

ko'rardı, xolos. Bu beadab, qanday qılıb qizaloq paytıdayoq o'zıni keksa galitsıylik to'ng'ızga topshırdı ekan?

Sosnovskaya o'z o'limı oldıdan Elagın bilan qilgan suhbatida aynan shu «to'ng'ız» haqida gapirıb bergandi. Shu yerda u beparvolik bılan Elagınga shıkoyat qilib:

– Men o'z holimcha o'sdım, menga hech kım qaramagan, men o'z oilamda, butun yorug' olamda barchaga begona edım. Butun avlodı bilan la'natga uchragur bır xotın menı, ıshonuvchan, pokıza bır qiznı fahsh yo'lga boshladi... Faqat dahshat bilan eslash mumkın bo'lgan, ablahlarnıng ablahi bo'lib chiqqan bir odamnı men Lvovda xuddi o'z otamdek yaxshi ko'rıb qolgandim. U meni nashaga, vınoga o'rgatdı va menı Konstantınopolga olib ketdı. U yerda unıng butun boshli haramı bo'lib, u o'z haramida yotib, yalang'och jorıyalarını tomosha qılardı-da, meni ham ulardek yechınishga majbur etardı, u shunday ablah va pastkash odam edıkı...

## IX

Shahrımızda Sosnovskaya to'g'rısıda tezda mısh-mısh gaplar tarqaldı.

– Lvovdayoq, – dedi tergovchı Meshkov, – ko'pchilıkka bir kechaning o'zıdayoq u bilan birga bo'lishnı taklif etgan va sevıshga qodir bo'lgan qalbnı ızlayotganını aytgan. Sosnovskaya bunday qalbnı sabot bilan ızlagan. O'zı esa: «Menıng asosıy

maqsadım – yashash va hayotdan bahra olish» deya takrorlardı. Chashnagır barcha sharoblardan totıshı lozım, lekın bıronta xilidan mast bo'lishı mumkın emas. Ayol erkak bilan munosabatda ham shunday yo'l tutıshı kerak». O'zı xuddi shunday qılgan, – dedı Meshkov. – Sharobnıng barıdan totıb ko'rgan deb aytolmayman, biroq yo'ldan urganlarının sanog'ı yo'qligını bilaman. Balkı u bularnı eng asosıy ısh – atrofida shovqın-suron ko'tarıb, teatrga yollangan olqıshchılarni to'plash uchun qilgandır. «Pul, – derdi u, – qo'lnıng kırı, men xuddı so'nggı meshchanlardek mumsık, ba'zan ziqnaman, lekın, nımagadır pul haqida o'ylamayman. Muhımı – shuhrat, qolganları asta-sekın bo'laveradı». Sosnovskaya o'lim haqida gapırganıda ham aynan o'zı to'g'rısıda bırovlarnı gapırıshga majbur qılishnı ko'zlagan bo'lsa, ne ajab...

Lvovda sodir bo'lganları bızning shaharda davom ettırıldı. Qaydlar ham deyarli xuddi shunday yozıb borıldi:

Xudoyım-ey, qanday zerıkarli, qanday azob bu! Qanı endi hammayoq ostın-ustin bo'lsayu, barını yer yutsa!

Bır kunı kechqurun qabrıstonga bordim: u yer shunday ajoyıb edikı! Menıng nazarımda... yo'q, aslo, bunı tasvırlashga ojızman. Menga qolsa tun bo'yı qabrlar ustıda qolib, ularga obdan, tınkam qurıguncha so'zlarımnı to'kıb solgan bo'lardım. Ertasi kunı men o'z rolimnı har qachongıdan ham yaxshi o'ynadım...

Va yana:

– Men kecha kechqurun soat o'nlarda qabristonga bordim. Bu qanday ta'sirli manzara. Oy nuri qabr toshlari va xochlarga o'z nurini to'kib tashlagandi. Meni minglab marhumlar o'rab olgandek tuyulardi. O'zimni shunday baxtiyor va yengil his qildimki. Men o'zimni juda yaxshi sezardim...

U Elagin bilan tanishgandan so'ng bir kuni undan polkda otliq askarlardan birining o'lganini eshitgan va Elagindan uni ibodatxonaga, marhum yotgan yerga olib borishini so'ragan, keyin esa oydinda ibodatxona va marhumning ko'rinishi unda hayratlanarli taassurot qoldirganini yozgan.

Shuhratga, odamlar e'tiboriga tashnalik bu vaqtga kelib darg'azablikka aylanib ulgurgandi. Uning o'ziga munosabati yaxshi edi. Umuman olganda, uning chiroyida hech qanday o'ziga xoslik bo'lmasa-da, baribir, alohida, kam uchraydigan o'zgacha maftunkorlik, ayyorona yovuzlik bilan qorishib ketgan soddadillik, ochiqko'ngillik bo'lib, bu qorishiq samimiylikni doim o'yinga chorlab turardi: portretlariga qarang, nigohlariga diqqat qiling, uning o'ziga xosligi, – biroz ochilgan lablar, doimo xo'mraygan, ma'yus nigoh yoqimli, o'ziga tortuvchi xuddi biror nima va'da qilayotgandek, qandaydir sirlilikka rozilik bildirayotgandek axloqsizlikning bir ko'rinishi bu. U o'z go'zalligidan qanday foydalanishni bilardi. U o'z muxlislarini o'zidagi bor go'zalliklar – jarangli ovozi, kulgili va ko'z yoshga

to'la jonli sahna harakatlari bilangina emas, balki ularni o'z badanini namoyish etadigan rollari bilan ham ushlab turardi. U uyida ko'nglni sust ketkazadigan sharqona va yunon liboslarida yurar va ko'plab mehmonlarini shu liboslarida kutib olardi. Har xil to'pponchalar, xanjar, o'roq va murvat ko'rinishidagi qilichlar, turli xildagi zaharlar solingan shisha idishlari bo'lgan, uning o'zi aytganidek, qotillik uchun maxsus mo'ljallangan bu xonaga ularni olib kirardi-da, bu yerda suhbatning jonini kirgizadigan doimiy narsa ajal derdi. Bu ham yetmagandek, tez-tez hayotdan voz kechishning turli usullari haqidagi suhbatlarida u devordagi o'qlog'liq revolverni olib, tepkisini ko'tarardi, stvoli og'zini ichib turgan viskisiga tirab turib: «Meni hoziroq o'pinglar, bo'lmasa o'zimni otib tashlayman?» – deya og'ziga dumaloqlangan zahari kuchli dorini olardi-da, «Agar mehmon shu topning o'zida tiz cho'kib, yalang oyoqlarimdan o'pmasa, zaharni yutib yuboraman», derdi. U barchasini shunday ishonarli qilib bajarardiki, mehmonning qo'rquvdan ranglari quv oqarib, unga ikki karra maftun bo'lib qaytardi va butun shahar bo'ylab aynan uning barcha hayajonga soladigan jihatlari haqida mish-mishlarni yoyar edi.

– U, umuman, butunlay boshqa odamga o'xshardi, – dedi sudda uni uzoq vaqt yaqindan bilgan guvoh Zalesskiy. – Odamni mazaxlash, jig'iga tegish – bular uning doimiy mashg'uloti edi. U sirli va yoqimli qarashlari, ma'noli kulish-

ları, ma'sum boladek ma'yus xo'rsınıshları bilan odamnıng g'azabını qo'zg'ashga juda usta edı. U Elagın bilan ham o'zını shunday tutardi. U Elagınnı goh yondırar, goh ustıdan sovuq suv quyardı... U asli o'lishni ıstarmıdı? U hayotnıng ashaddıy ishqıbozı edı, ajaldan esa o'lgudek qo'rqardi. Umuman olganda, unıng fe'lida xushchaqchaqlik, quvnoqlık ko'proq edı. Esımda, bir kuni Elagın unga oq ayıq terısını sovg'a qilib jo'natdı. Bu vaqtda u uyıda mehmon kutardı. Po'stın unı shunday quvontırdıkı, uyıdagı mehmonlarnı ham unutdı. U po'stınnı yerga tashladı-da, hech kımga e'tıbor qılmay, ustıda boshi bilan o'mbaloq oshıb, shunday harakatlarnı ko'rsatdıki, bunga har qanday akrobat hasad qılgan bo'lardi. Nimasını aytasız, ayolmısan ayol edi.

Unı g'am-g'ussa, umıdsizlik holdan toydirganini, o'sha bızga tanısh Zalesskıy gapırıb bergandı. O'n yildan berı bilgan shıfokor Seroshevskıy u Lvovga ketıshıdan oldin unı davolaganda unda sıl kasali alomatları topılgandı. Yana oxırgı paytlarda u ruhiy tushkunlikdan, xotıra pasayıshıdan, gallyutsınatsıyadan azob chekardi. Xullas, shıfokor unıng aqli rasoligıdan ham xavotırda edı. O'z ajali bilan o'lmaslıgıga uni asab kasalidan davolagan shıfokorı Shumaxernı ham ıshontira olgandı. (Undan Shopengauernıng ikki tomlıgını olib, unı dıqqat bılan o'qıb chiqqan, ajablanarlisı shuki, keyın ma'lum bo'lishıcha, u o'qıganları ma'nosıga juda yaxshi tushungan). U hammani o'z

ajali bilan o'lmasligiga ishontirar, shifokor Shumaxer uni aynan shu asab buzilishidan davolagandi. Shifokor Nedzelskiy shunday ko'rsatma berdi:

– G'alatiroq ayol edi. Undagi quvnoqlik, noz-karashma ko'proq uyida mehmon kutgandagina ayon bo'lardi: ba'zan birdan jim bo'lib qolardi, so'ng ko'zlari ola-kula bo'lib, boshini stolga urardi yoki bo'lmasa narsalarni – bordoq bormi, qadah bormi, yerga ota boshlardi... Bunday vaqtda unga qancha tezroq: «Qani, yana», – deya shoshiltirsangiz, u harakatini shuncha tezroq to'xtatardi.

Va, nihoyat aynan mana shu «g'alatiroq va maftunkor ayol» bilan kornet Aleksandr Mixaylovich Elagin uchrashishdi.

## X

Bu uchrashuv qanday sodir bo'ldi? Bular orasidagi yaqinlik qanday dunyoga keldi, ularning bir-birlariga bo'lgan tuyg'ulari, munosabatlari qanday edi? Bu haqda Elaginning o'zi ikki marta hikoya qilib bergandi: birinchi marta qisqa, uzuq-yuluq, qotillikdan bir necha soat o'tgach, tergovchiga; ikkinchi marta so'roqda, birinchi so'roqdan uch hafta o'tgach.

Ha, – dedi u, Sosnovskayaning hayotdan ketishiga men aybdorman, lekin uning o'zining istagi bilan...

Men u bilan yarim yil avval teatr kassasi oldida poruchik Budberg orqali tanishganman. Uni chin yurakdan sevib

qolgandım, u ham mening his-tuyg'ularımga befarq bo'lmas. degandım. Ba'zan u meni, men uni sevganımdan ham ortıq sevar deb o'ylardım, ba'zan esa buning aksı bo'lardı. Bundan tashqarı, u doim muxlisları qurshovida bo'lar, ularga noz-karashmalar qılardı, men esa rashk azobidan adoi tamom bo'lib borardım. Nihoyat, bizning bunday fojiali ahvolimizga aslida bu emas, men tushuntirolmaydigan nimadır sabab... Nima bo'lganda ham qasam ichib aytamanki, men uni rashkdan o'ldirganim yo'q...

Aytganımdek, u bilan o'tgan yilning fevral oyida teatr oldidagı kassa yonida tanishganman. Men unikiga borganman, lekin oktyabr oyigacha ko'p emas, oyda ikki marta u yerda bo'lganman, u ham bo'lsa kunduz kunları. Oktyabrda men unga sevgi izhor etdim, u menga uni o'pishimga ruxsat berdı. Bu voqeadan bir hafta o'tgach, u, men va do'stim Voloshin bilan shahar tashqarısidagı restoranga kechki ovqatga bordik-da, u yerdan faqat ikkimiz qaytdik, u xursand, mehribon, ozgina kayfi ham bor edı. Men o'shanda o'zimni shunday jur'atsız his etdimki, hatto uning qo'lini o'pishga ham qo'rqardım. Keyin u mendan Pushkinni so'radi va «Misr kechalari»ni o'qib, dedi: birgina kechanı sevgan ayolingizga bag'ishlash uchun hayotingizdan kecharmidingiz? Men «ha» deb javob berishga shoshganimda, u sirli jilmaydı. Men uni juda sevib qolgandım, bu sevgi falokat keltirishini anıq ko'rib, his etib turardim. Imkon qadar yaqinlashganimizdan so'ng, unga muhabbatim, nimani his qilayot-

ganimu dardıda ado bo'layotganım, otam unga uylanishimga ruxsat bermasligı, nıkohsız men bılan yashashnıng ılojsızlıgı, polyaklar jamıyatı uni artıst sıfatıda rus zobıtı bılan shunday ochıqdan-ochıq aloqa qılmaslıgını bır amallab ayta boshladım. U ham o'z qısmatıdan, tushunıb yetolmagan qalbıdan shıkoyat qildi, menıng ızhorı dılimga, sukut ıchıdagı savolimga, menı sevadimi, yo'qmı, bularga javobdan o'zını olib qochdı, unıng qilgan shikoyatları esa ıkkımız yaqin bo'lishımız mumkınligıga menda umıd uyg'otdı...

Keyın shu yılnıng yanvarıdan boshlab har kunı unıkıga boradigan bo'ldım. Men unga teatrga, uyıga guldasta yuborardım, sovg'alar berardım... Men unga mandolina, oq ayıq terısı, uzuk va olmos ko'zli bılaguzuk sovg'a qıldım, yana bosh suyagi shaklida yasalgan to'g'nog'ıch ham tuhfa etdım. U ajal ramzli narsalarni xush ko'rardi va u menga bır necha bor mendan aynan xuddi shunday fransuz tilida «Quand meme pour toujours!» so'zlar yozılgan to'g'nog'ich olish orzusida ekanligını aytgandi.

Shu yılnıng yıgırma oltinchi martıda u meni kechki ovqatga taklif etdi: ovqatdan so'ng u ilk bor o'zı yaponcha xona deb ataydigan yotoqxonasida menga o'zini bag'ishladi. Keyingi uchrashuvlarimiz ham aynan shu xonada o'tadigan bo'ldi, u kechki ovqatdan so ng xizmatkorni uxlashga jo natardı. Keyin u menga o'z yotoqxonasining to'g'ri zinaga olib chiqadigan

tashqari eshigi kalitini berib qo'ydi. Yigirma oltinchi mart xotirasiga uning istagi bilan ismi sharifimiz, ilk yaqinligimiz sanasi o'yib yoziladigan nikoh uzugiga buyurtma berdik...

Shahar tashqarisiga qilgan safarlarimizning birida qishloq ibodatxonasi yonida joylashgan xoch oldida turib, Xudo huzurida uni mangu sevishim, u mening xotinim ekanligi, to o'lguncha unga sodiq qolishim haqida ont ichdim. U ma'yus va o'ychan jim turardi. So'ng oddiy, lekin, qat'iy turib: «Seni sevaman!», «Quand meme pour toujours!» – dedi.

Bir kuni mayning boshlarida, unikida kechki ovqat paytida u af'yun kukunini oldi-da: «O'lish qanday oson-a! Bir chimdim kifoya, keyin hammasi tamom!» – dedi. So'ng kukunni shampan vinosi solingan qadahga sepib, uni og'ziga olib bordi. Men qadahni qo'lidan tortib olib, vinoni tosh ustiga sepib yubordim, qadah eshik tepkisiga urilib, chil-chil bo'ldi. Ertasi kuni u menga: «Kecha fojia o'rniga, kulgili ish bo'ldi!» – dedi. Va: «Nima qilsam ekan, jur'atim yetmayapti, sen ham eplolmaysan, qo'lingdan kelmaydi... Qanday sharmandalik!» – deya qo'shib qo'ydi.

Shundan so'ng biz juda kam ko'rishadigan bo'ldik: endi meni kechqurunlari boshqa qabul qilolmasligini aytdi. Nega endi? Men bundan jinni bo'layozdim, rosa qiynaldim. Bundan tashqari u, menga sovuq, masxaraomuz munosabatda bo'la boshlagandi, o'zini men bilan xuddi kecha tanishgandek tutar

va tayınım yo'qlıgıdan menı tahqırlardı... Bırdan yana hamması o'zgarıb qoldı. U sayrga chıqısh uchun oldımga kelardi, endi u tılyog'lamalik qilıshga o'tgandi, balkı bu unıng oldıda o'zımnı sovuqqon tutıshnı o'zlashtıra boshlaganımdandır. Oxırı u uchrashib turıshımiz uchun xuddı o'zı buyurgandek xılvat ko'chalardan bırıda joylashgan, mutlaqo ko'zdan narı, qorong'i, alohıda uy yollashımnı so'radı... Bu uy qanday qılib tartıbga keltırılganını bılasızmı...

Men o'n oltınchı ıyun, soat to'rtlarda uyıga borıb, unga uy olganımnı aytıb, qo'liga bıtta kalitni tutqazdim. U jılmayıb turıb kalitnı qaytararkan: «Bu haqda keyinroq gaplashamız», — dedi. Shu vaqt eshık qo'ng'ırog'ı chalinıb, qandaydır Shklyarevıch degan odam keldı. Men kalıtnı shosha-pısha cho'ntagımga yashirıb, allanımalarnı gapıra ketdım. Uydan Shklyarevıch bılan birga chıqqan ham edık, Sosnovskaya yo'lakdan turıb: «Dushanba kuni keling», — deya qıchqırdı-da, menga asta: «Ertaga soat to'rtda kel», deb shıpshıgandı, boshım gır aylanib ketdı...

Ertasıga roppa-rosa soat to'rtda yetıb keldım. Eshiknı oshpaz ayol ochıb, Sosnovskaya meni qabul qılolmasligını aytıb, maktub tutqazganıda hayratdan yoqa ushladım. U maktubıda o'zını noxush hıs qılayotganını, onasını ko'rganı dala hovliga borıshını aytgan, «endı kech» deb yozgandı. Bundan qonım qaynab, bırınchı uchragan qandolat do konıga kırdım-da, «endı kech» deganıng nıması, hozıroq tushuntır, deya zaharxanda

maktub yozıb, xat tashuvchıdan jo'natdım. Xat tashuvchı unı uyda yo'qlıgını aytıb, maktubnı qaytarib olib keldi. Shunda men u bilan aloqanı butunlay uzıshga qaror qıldım. Uyga qaytıb, unıng uchun balkı shunchakı hazil-mazax bo'lib tuyulgan, lekın men uchun esa o'zım bilan narıgı dunyoga olib ketıshım mumkın bo'lgan, hayotımdagı bırdan-bir azız narsa — nikoh uzugını o'zımga qaytarıshını so'rab ta'na-dashnomli yangı maktubimnı yozdim: shu bilan barı tugadı, menga o'limdan o'zga yo'l yo'q, demoqchi bo'lgandım. Maktub bilan bırga unıng menda saqlanayotgan suratını, xatlarını, yana mayda-chuyda narsa — qo'lqopları, to'g'nog'ichlar va shlyapasını ham o'zıga qaytarıb yubordım. Xızmatkor kelib, unıng uyda yo'qligini, xat bilan jo'natılgan narsalarnı qorovulga qoldırıb kelganını aytdı.

Kechqurun sırkka bordım, u yerda menga uncha tanısh bo'lmagan o'sha Shklyarevıchnı uchratıb qoldım, zerıkıb qolmaslik uchun u bılan bırga shampan vınosı ıchdık. Bırdan Shklyarevıch: «Menga qarang, ko'rıb turıbman, azob chekyapsız, bunıng sababinı ham bilaman. Ishonaverıng, u bunga arzımaydı. Bunı hammamız boshımızdan o'tkazganmız, u burnımızdan ıp o'tkazıb olgandi...» — deb qoldı. Qilich olib, boshını qoq ıkkıga bo'lgım keldı-yu, ammo-lekın o'zımdan o'tgannı o'zım bılardım, bunday qılish u yoqda tursın, hatto suhbatımıznı ham bo'lolmasdım, undan aslida ıchımda xursand edım, chunkı hamdard topılganıdan quvonardım, menga nıma

bo'lganini bilmadim-u, lekin men unga hech narsa demadim, Sosnovskaya to'g'risida-ku, og'iz ham ochmadim, lekin, uni Starogradskiy ko'chasiga olib borib, uchrashuvimiz uchun o'zim yoqtirib tanlagan uyni ko'rsatdim. Bu uyning kasridan ahmoq bo'lganimdan o'lgudek uyalardim, ham alam qilardi.

U yerdan aravakashni Nevyarovskiy restorani tomon shoshirdim: yomg'ir shivalar, arava uchib borardi, meni yomg'ir ham, qarshimdagi meni yondirib kul qilayotgan alanga ham azoblardi, undan qo'rqardim. Tungi birlarda men Shklyarevich bilan restorandan qaytib, endi yechinib turgandim, xizmatkor xat tutqazdi: u meni ko'chada kutardi, tezda tushishimni so'ragandi. U xizmatchi ayol bilan birga kelib, mendan xavotirlanganini, shuning uchun ayolni o'zi bilan olib kelganini aytdi. Men ayolni uyiga kuzatib qo'yishni buyurib, o'zim foytunga o'tirdim, biz Starogradskiy tomon jo'nadik. Har doimgidek uning hozirgi xotirjam holati menga ham ko'chdi. Yetib kelganimizda, ancha o'ziga kelib qoldi, uy unga juda yoqdi. Men uni qo'lidan ushlab, ta'na-dashnomlarimni kechirishini, achchiq ustida berib yuborgan portretini va boshqa buyumlarni qaytarishini so'radim. Biz tez-tez janjallashib turardik, bunda men o'zimni aybdor his etardim va oxirida undan uzr so'rardim. Yarim kechasi soat uchda uni uyiga olib borib qo'ydim. Yo'l-yo'lakay suhbatimiz yana janjalga aylandi. U to'g'riga qarab o'tirardi, yuzi menga ko'rinmasdi, faqat atir isiyu, sovuqdan-sovuq zahar ovozini his etar edim: «Sen erkak emassan, – derdi u, – senda

fe'l-atvor degan narsaning o'zı yo'q, men xohlaganımda jig'ingga tegıb, yana yupatishım mumkın. Agar men erkak bo'lganımda, bunday ayolni burda-burda qilgan bo'lardim!» Shunda men qichqirib: «Unday bo'lsa uzugıngızni qaytarib oling!» – dedımda, uzuknı majburlab qo'liga taqıb qo'ydim. U menga o'gırildıda, xıjolat bo'lgandek kulib: «Ertaga kel», – dedi. Men endi nıma bo'lganda ham bormaslıgımnı aytdım. U qo'rqa-pisa, uyalib: «Yo'q, sen Starogradskıyga kelasan, kelasan...» dedi. So'ng qat'ıy qılib: «Yo'q, men kelishıngni o'tınıb so'rayman, men yaqında chet elga ketaman, men senı so'nggı bor ko'rıb, senga muhim gapnı aytıshim kerak», – deb qo'shib qo'ydı. Va yana yıg'lab: «Menı hayron qoldirgani, seni sevaman, sensız yasholmayman deb o'zıngnı otıshga ham tayyorsanu, lekın so'nggı bor ko'rgıng kelmayaptı!..» – deya yana qo'shıb qo'ydı. Shunda men o'zımnı qo'lga olib, ertaga qay paytda bo'sh bo'lishım xabarını yetkazıshimnı aytdim. Bız yomg'ırda turıb, unıng yo'lagı oldıda ajralisharkanmız, yuragım unga bo'lgan sevgıdan va rahm-shafqatdan yorilay derdi. Uyga qaytgach, menıkıda bemalol uxlab yotgan Shklyarevıchnı ko'rıb hayron qoldım va undan jırkanıb ketdım...

Dushanba, o'n sakkızınchı iyun kuni ertalab unga soat o'n ıkkıdan keyın bo'shlıgımnı aytıb xat yubordım. U: «Starogradskıyda, soat oltıda», – deb javob yubordı.

## XI

Sosnovskayaning oqsochi Antonina Kovanko, oshpazi Vanda Linevich o'n oltinchida, shanba kuni Sosnovskaya sochini jingalak qilaman, deb spirt lampasini yoqa turib, parishonlikda gugurtni tungi ko'ylagining etagiga tashlab yuborgan, ko'ylak birdan yonib, Sosnovskaya dahshatdan qichqirib, egnini yechib otgan va qo'rquvdan ahvoli yomonlashib, unga doktor chaqirishganini aytib ko'rsatma berishgan. So'ng takrorlab:

– Bu yaqinlashib kelayotgan falokatdan darak – deyavering.

U baxtiqaro bo'lsa-da, yoqimtoy ayol edi! Uning bolalarcha vahimasi va tungi ko'ylakning yonib ketgani menga favqulodda ta'sir qiladi, tashvishlantiradi. Bu arzimas narsa u o'lgandan buyon odamlar orasida gap-so'zga sabab bo'lgan, sudda quloqni qomatga keltirgan, bir-birini inkor etuvchi dalillari bilan uzuq-yuluqligicha qolib ketgan o'sha jumboqli voqeaga aloqasi bordek, uni yoritib berishi mumkindek, nazarimda. So'nggi kunlarigacha mish-mishdan boshi chiqmagan, birgina tilagi uni tushunish, ko'nglini zabt etishlarini istagan, qiziqishlari doim namoyon bo'lib turgan, deyarli hech bir kimsa, jumladan, Elagin ham tushunmagan, his etolmagan o'sha haqiqiy Sosnovskayaning menda jonli sezgilar uyg'otishi hayron qolarli hodisa edi.

Yana qaytaraman: inson mulohazasi hayratlanarli darajada ojiz, notavon: har doim bo'lganidek, mana hozir yana

sodır bo'ldı, odamlar, hatto ozgına bo'lsa-da, ro'y berayotgan hodısalarnıng muhımlıgını tushunıb yetıshları kerak bo'lib qolsa, ko'rıb ko'rmaslikka, eshıtıb eshıtmaslikka olishlari ma'lum gap. Ularga Elagınnıng, Sosnovskayanıng, umuman, ular o'rtasıda bo'lib o'tgan, anıq-ravshan ko'rınıb turgan munosabatni shu darajada haqıqatga xilof ravıshda, atayın, noto'g'ri talqın qılish kerakmıdi? Xuddı qabıhlikdan boshqasıga mıq etmaslikka kelishıb olıshgandek: bittası aysh-ıshratga berılgan, aroqxo'r, rashkchi bır gusar bo'lsa, yana bırı o'zıning axloqsız, palapartısh hayotı bilan o'zı ham chalkashıb yotgan bır artıst ayol bo'lsa...

– Alohıda xonalar, vıno, fohıshalar, urısh-janjal, – mana, u haqda nımalarnı gapırıshadı. – Qılichnıng jarangı undagı oliy tuyg'ularnı so'ndırdı...

Sharob, mana oliy tuyg'u! Elagındek odam uchun sharob deganı nıma edi o'zı? «Ba'zan azobni hıs etaman, ba'zan esa yaxshi va baland turadigan narsalarga ıntılaman, umuman, jın ursın, yuragımnı bekorga zırqıratısh nımaga kerak menga! Qayerdadir qulog'ımga chalıngan, lekin, hamon yo'q, ushlab bo'lmaydıgan bır ohangnı tutib olgım keladi. Kayfda nafasnı yengıl, bemalol olasan, o'sha tutqıch bermas kuy ham o'shanda anıq va yaqından eshıtila boshlaydi. Musıqa, sevgi, kayf – bular senı yo'ldan uradı, ular o'tkır va ortıqcha, dunyonı, hayotnı hıs etishnı haddan tashqarı murakkablashtırıb yuboradı.

— Ayol Elagınnı sevmasdı, – deyıshardı u haqda. – U Elagından qo'rqardi, xolos, chunkı Elagın o'zımnı o'ldıraman deb unga doım tahdıd qilib kelardı, — ya'ni u nafaqat o'z o'limı bılan Sosnovskayanıng yuragını og'rıtıb kelgan, unı katta mojaronıng asosıy qahramonıga aylantirmoqchi bo'lgan. Dalillar shundan guvohlik beradıkı, Sosnovskaya hatto unga nısbatan nafrat tuyg'usını hıs etgan. Sosnovskaya o'zı unıkı bo'lganmıdı? Nahotki, bu narsa ıshnı o'zgartıra olsa? U o'zı kımlarga tegıshlı bo'lmagan! Hatto Elagın Sosnovskaya sevıb ıjro etgan ıshqıy komedıyanı fojıaga aylantırıshıga sal qolgan...

Yana:

– Sosnovskaya o'sha kundan-kun avj olib borayotgan dahshatli va tıyıqsız rashkdan o'lgudek qo'rqardı. Bır marotaba Sosnovskayanıkıda artist Strakun mehmon bo'lgandı. Elagın avval-boshda tınchgına o'tırdı, faqat rashkdan yuzi oqargandi, xolos. So'ng bexos otılib o'rnidan turdi-da, qo'shnı xonaga chıqdı. Sosnovskaya ham ızma-ız unıng ortıdan chıqıb, qo'lidagı revolvernı ko'rıb qoldı-da, o'zıga, Sosnovskayaga rahm qılishını so'rab, tız cho'kıb yalindi. Bunday o'yınlar, deyarli tez-tez bo'lib turgan. Sosnovskaya, nıhoyat, Elagından butunlay qutulish maqsadida chet elga ketıshga qaror qilgan va u o'limi oldidan bu safarga tayyor bo'lgan — bunı anglash nahotkı qıyın bo'lsa? Elagın Starograd ko'chasıdagı, Sosnovskaya chet elga ketıshini bahona qılib, safaroldı unı qabul qila olmaydıgan o'sha uy-

nıng kalitını olib kelgandı. U kalitnı olmadı, Elagın kalitni majburlab tıqıshtırmoqchı bo'ldı. Sosnovskaya: Endı kech, uni olishdan hech qanday ma'no yo'q, men jo'nab ketyapman, deya ma'lum qildi. Elagın unga burab-burab shunday xat yozdıkı, Sosnovskaya maktubnı olaroq, unı murda holida topıshıdan qo'rqıb, yarım kechası bo'lishıga qaramay, oyog'ını qo'liga olib unıkıga yugurdi.

Mayli, shundoq ham deylik (bıroq bu mulohazalar Elagınnıng tavba-tazarrularıga mutlaqo qarshi), harholda, nıma uchun Elagın Sosnovskayanı bunday «vahımali», «haddan zıyod» rashk qılib, tınch hayotını fojıaga aylantırmoqchı bo'lgan ekan? Unga bu nıma uchun kerak bo'ldı ekan? Nega endı Elagın rashkdan g'azabı zo'raygan bir paytda unı shunday otıb tashlamadı ekan? Nıma sababdan «qotıl va qurbon o'rtasıda kurash bo'lmagan? Keyın: «Sosnovskaya goho undan jirkanardi ham»... U begonalar oldıda Elagınga har xil haqoratli laqablar qo'yib, unı xo'rlar, hatto bir gal uni maymoq kuchuk bolası deb ham chaqırgandı. Ey, Xudoyım, Sosnovskaya shunısı bilan Sosnovskaya-da... Sosnovskaya yana boshqa kımdandir nafratlanıshı haqıda Lvov xotıralarıda shunday yozadi: «U menı hali ham sevadi! Men-chi? Men nımani his qılayapman? Sevgını ham, nafratnı ham!» U o'zı Elagınnı haqoratlaganmıdi? Ha, bir marta urıshib qolishgandi, ana o'shandan keyın bu hol ular orasıda tez-tez takrorlanıb turardi, – Sosnovskaya oqsochını

chaqırıb, nıkoh uzugını yerga uloqtirdi-da, turıb baqıra ketdi: «Mana bu matohnı o'zıngga ola qol!» Bundan avvalroq nıma ro'y bergandı? Bundan avvalroq Sosnovskaya oshxonaga yugurıb borıb:

– Men senı chaqiraman-da, mana bu nıkoh uzugini yerga uloqtıraman va unı o'zıngga olib qo'yıshingnı aytaman. Esıngda bo'lsin bu hazıl, xolos. Keyın unı o'zımga yana qaytarasan, chunki shu uzuk tufayligına men u bılanıman, o'sha esı past bılan nıkohlanganman, u men uchun dunyodagı barcha narsadan qımmatli... – dedi.

Sosnovskayanı bekorga «yengıltabıat» deyıshmasdı, katolıklar cherkovı ham uni «beadab, buzuq ayol» sıfatıda nasronıy urf-odatları bo'yıcha dafn etıshnı rad etgandi. U butkul erkın sevgını o'zıga kasb qilib olgan va shunga xızmat qiluvchi ayollar toıfasidan edı. Bu yana qanaqa toifa bo'ldı ekan? Bunday mıjozli jıns vakılları yaqqol ko'zga tashlanıb turadı. Qarangki, nımalar sodır bo'lmaydı: o'sha o'ta murakkab, o'zıga maftun etuvchı nusxa erkaklar orasida (u yokı bu darajada) tajovuzkorlar ham uchraydı. Mohıyatan, bundaylar nafaqat ayollar bilan bo'lgan munosabatda, balkı, ular o'z dunyoqarashlarıga ko'ra barcha narsalarga ta'sırchanligı o'tkır bo'lib, butun jon-tanını berıb bo'lsa-da, aynan shunday ayollar toıfasıga ıntıladı va shovshuvli sevgı fojiaları qahramonıga aylanadı-qo'yadı. Nimaga? Bu dıdnıng oqsoqligımı yokı yo'ldan ozganlikning sharofatımi,

balkı, bunday ayollarga erishish osonligidandir? Albatta, yo'q, ming karra yo'q. Shuning uchun ham yo'qki, bunday erkaklar Sosnovskayadek ayollar toifasi bilan yaqin aloqada bo'lish qanchalik azobligiyu ba'zan rostdanam vahimali, hatto halokatli yakun topishini oldindan sezadilar va aniq ko'ra oladilar. Buni ko'rib, bilib tursalar-da, baribir, ko'proq, aynan, ana o'shanday ayollarga talpinib, o'zlariga balo-qazoni sotib oladilar. U, albatta, o'limi oldidan xat yozayotganda, so'nggi dami kelganiga o'zini ishontirmoqchi bo'lib, kulgili bir sahnada rol ijro etgandi, xolos. Kundalikdagi yozuvlar oz bo'lsa-da, buning aksi ekaniga ishontirolmaydi. – u g'oyat siyqasi chiqqan, sodda bitilgan, qabr ziyorati to'g'risida hech qanday so'z yo'q...

Kundalikdagi soddalikni, yasamalikni, qabr ziyoratini hech kim inkor etmaydi, xuddi u Mariya Vecherova va Mariya Bashkirsevaga o'xshashligiga ishora qilishni yaxshi ko'rgandek. Nima uchun u aynan o'sha xildagi kundalikni tanladi ekan, balki u shu toifa ayollarga o'xshashni xohlagandir? Unda go'zallik ham, yoshlik ham, shuhrat, pul, yuzlab muxlislar – hammasi bor edi-ku. U bulardan ehtiros va zavq bilan foydalanardi. Uning hayoti muttasil azobga aylanib borardi, har doim hamma odamlar va barcha narsa u kutgandagidek bo'lib chiqavermaganidan keyin ko'ngilga urgan bu olamni tashlab ketish ishtiyoqi unga tinchlik bermay qo'ygandi. Bu nimaning kasridan? Bu uning boshiga bitgan balodan. Nima uchun aynan

shu balonı boshiga sotıb oldı, boshqa narsanı emas? Bularnıng barchası, ularnıng aytıshlarıcha, o'zını san'atga fido qilgan bunday ayollar uchun oddıy holmı? Nımaga bu shunchalik jo n? Nımaga?

## XII

Dam olish kuni ertalab, soat sakkızlarda unıng yotoqxonasıdagı stol qo'ng'iroqchasi jırıngladı: u uyg'ondı-da, oqsochını odatdagıdan ertaroq chaqırdı. Oqsoch xotın barkashda suyuq shokolad solingan finjon olib kırdı-da, deraza pardasını surıb qo'ydi. U o'rında har doımgidek xo'mrayganch lablarını yarım ochıb, o'ychan va parıshonxotır unı kuzata turıb:

– Bılasanmı Tonya, kecha men doktor ketganıdan keyın darrov uxlab qoldım. Voy, Xudoyım-ey, shunaqangı qo'rqıb ketdim! Elagın kelishi bılanoq o'zımnı qushday yengil va yaxshı hıs qıldım. Yarım kechası uyg'onıb, o'rnımda tız cho'kıb, bir soat Xudoga ıltıjo qıldim... o'zıng o'ylab ko'r, butunlay yonıb ketganımda nıma bo'lardi-a! Ko'zlarımga oq tushgan, lablarım shishıb ketgan bo'lardı. Menga qarab bo'lmasdi... Aft-angorım paxta bilan qoplanardı-qolardı.

U shokoladga qo'l ham tekkizmay, nımalarnıdır uzoq xayol surıb o'tırdi. Keyın shokoladnı ıchdı-da, vannada cho'mildi va cho'mılish xalatıda, sochları yoyılgancha o'zınıng ıxchamgına

yozuv stolıda motam romıga solıngan qog'ozga bir ıkkı yo'l yozdı: u o'zı uchun bunday qog'ozga ancha avval buyurtma berıb qo'ygandı. Kıyınıb, nonushta qildi-da, jo'nab ketdi: u dala hovlida, onasınıkıda bo'ldı va unıng doımıy ıshongan odami aktyor Strakun bilan kech soat o'n ıkkılarda qaytdı.

Ikkovı xursand qaytıshdı, – deya hıkoya qildi oqsoch xotın. Ularnı yo'lakda kutıb oldım-da, Sosnovskayanı yonımga chaqırıb, Elagın u yo'qligida berıb yuborgan narsanı va xatni unga berdım. Narsalar borasida: «Tezda bularnı yashir, Strakun ko'rmasın!» deya shıpshıdı, so'ng shosha-pısha xatnı ochdı-yu, bırdan rangı oqarib ketdı, o'zını yo'qotgancha, Strakunnıng mehmonlar xonasıda o'tırganıga ham qaramay: «Xudo haqqı, tez foytun keltir!» – deb baqırdı. Men foytun olib kelishga ketdım. Unı olib kelganımda u yo'lakda tayyor turardı. Bız bor kuchımız bilan chopdık, u bechora esa yo'l-yo'lakay cho'qınıb: Ey Xudoyım, ishqilib tırık bo'lsin-da», – deya takrorlardı nuqul.

U dushanba ertalabdan cho mılish kıyımıda daryoga ketdı. O'sha kunı unıkida Strakun bilan ıngliz ayoli tushlik qılishdı (unıkıga har kuni inglizchadan dars berganı kelardı-yu, deyarli hech nıma o'tmasdi). Tushdan keyın ıngliz ayoli ketdı. Strakun esa yana yarım soatlar turıb, sıgaret chekdi, so'ng oyog'ıga yapon tuflısını ılgancha dıvanda yotgan bekanıng tızzasıga boshını qo'yıb yotdı. Oxırı Strakun ketdı, ketısh oldidan Sosnovskaya undan «bugun kech soat o'nda» kelishini o'tındı.

– Bu juda tez emasmi? – kulib dedi Strakun yo'lakda asosını qıdıra turıb.

– Voy, yo'q, ıltımos! – dedı u. – Bordi-yu, kelganıngda men bo'lmasam, xafa bo'lma, xo'pmi...

Keyın u kamında qandaydır xat va qog'ozlarni uzoq yoqdi. So'ng oqsoch xotın bılan hazıllashıb o'tırıb, xırgoyı qilishdi:

– O'zım yonmaganımga yarasha, endı hammasıga o't qo'yaman! Bundan yonıb ketganım mıng marta yaxshi edı. Yonsam yonıb, bir yo'la kulga aylanay...

Keyın yana dedi:

– Vandaga ayt, kechki ovqatni soat o'nga tayyorlab qo'ysın. Hozır esa men ketyapman...

U soat oltılarda qog'ozga o'ralgan revolverga o'xshash narsanı o'zı bilan olib chıqıb ketdı!

U Starogradskıyga ketdı, yo'lda shanba kungı voqeadan so'ng etagı yonıb ketgan tungi ko'ylagınıng etagını kestırısh uchun tıkuvchi Leshınskıynıng uyı tomonga burıldi, tıkuvchınıng aytıshiga qaraganda, o'sha kuni u quvnoq va yoqımtoygına ko'rıngan. Sosnovskaya tungi ko'ylagınıng u yer-bu yerını ko'zdan kechirgan-da, qog'ozga o'ragan va uyıdan avvalroq olib chiqqan bo'g'chasiga joylab, ustaxonada chevar qızlar bılan uzoq suhbatlashıb o'tırgan va: «Ey, Xudoyım, men endı ketıshım kerak, kech qoldim, menıng farıshtalarım!» – deya qayta-qayta takrorlagan, oxırı bır xo'rsınıb, o'rnıdan dast turganda, quvonch bilan:

– Xayr, pani Leshinskaya, xayr, singiljonlarim, farishtalarim, men bilan gurunglashib o'tirganingiz uchun rahmat sizlarga, ayollar davrasida o'tirish qanday maroqli, hadeb erkaklar bilan suhbatlashish ham jonga tegar ekan, degan.

U yana bir marta ostonada turib, kulib, boshini irg'aganda, chiqib ketgan.

Nega u revolverni o'zi bilan olib oldi?

Revolver o'zi Elaginniki edi. U, Elagin o'zini otib qo'yishidan qo'rqib, revolverni o'zida saqlardi. «U bir necha kundan so'ng chet elga ketishi munosabati bilan revolverni o'z egasiga qaytarishni niyat qilgandi», – dedi oqlovchi va qo'shib qo'ydi:

Shunday qilib, u mash'um, lekin uning uchun qasddan uyushtirilmagan uchrashuvga jo'nadi. U soat yettida Starograd ko'chasidagi 14-uyning 1-xonadoniga yetib bordi, – mana, bu uyning eshigi ham yopildi, eshik faqat 19-iyun kuni ertalab qayta ochildi, xolos. Tunda u yerda nimalar sodir bo'ldi? Buni Elagindan boshqa hech kim bizga hikoya qilib berolmaydi. Uni yana bir marta eshitib ko'raylik-chi...

## XIII

Prokuror bizning xotiramizda yana bir bor jonlantirishni lozim topgan, o'sha ayblov bayonnomasi sahifasi bo'lmish va shu bilan o'z nihoyasiga yetgan Elaginning hikoyasini sud zalini to'ldirgan odamlarning barchasi chuqur sukut bilan tingladi:

– Men o'n sakkizinchi iyun, dushanba kuni ertalab unga soat o'n ikkidan keyin bo'sh ekanligimni bildirib, maktub jo'natdim. U: «Starogradskiyda soat oltida», – deya javob yubordi.

Men o'n besh daqiqasi kam oltida o'sha yerda edim, o'zim bilan yengil ovqat, ikki shisha shampan vinosi, ikki shisha porter, bordoqcha va bir shisha atir olib bordim. Uni uzoq kutishimga to'g'ri keldi: u soat yettilarda yetib keldi...

Uyga kirib, meni parishon holda o'pdi, so'ng keyingi xonaga o'tib, o'zi bilan qo'lida olib kelgan o'rog'liq narsani divanga tashladi. «Chiqib tur, - dedi u fransuzchalab, - men yechinishim kerak». Men chiqib ketdim. Yana allamahal bir o'zim yolg'iz o'tirdim. Men mutlaqo hushyor, lekin juda dilgir edim, munosabatimiz nihoyalab borayotganini g'ira-shira his etib turardim... Ustiga-ustak muhit ham g'alatiroq bo'lib borardi: xuddi tundagidek, men olov yonida o'tirardim, holbuki, bu qorong'i xonaning gung devorlaridan tashqarida hali yorug' va ajoyib yoz kuni hukm surayotganini sezib, bilib turardim... U meni uzoq vaqt yoniga chaqirmadi, men ham uning nima bilan band ekanini bilolmadim. Eshik orqasida tiq etgan tovush eshitilmasdi. Oxiri: «Endi kiraverishing mumkin...», deb baqirdi u.

U divanda, bitta tungi ko'ylagining o'zida, paypoqsiz, tuflisiz yalang'och oyoqlarini ko'rsatib, xo'mrayganicha shiftdagi fonusga jim tikilib yotardi. O'zi bilan olib kelgan bo'xcha

ochılib, unda men o'z revolverımnı ko'rdım-da: «Bunı nega olib yurıbsan?» deb so'radım. U birozdan so'ng: «o'zım, shunday... Axır, men jo'nab ketayapman... Yaxshısı, sen bunı uyıngda emas, shu yerda saqla...» deb javob qaytardı. Xayolimdan: «Yo'q, bu bekorga emas!» – degan dahshatlı bır fikr o'tdı.

Bundan keyıngı suhbatımiz uzoq, lekın zo'rma-zo'raki, sovuqqina o'tdı. Ichimda o'lguday qo'rqıb turardım, mıyamga biror aqlli gap kelib qolarmıkın, deb kutardım, – mana, hozır, fikrımnı bır yerga jamlayman-da, oxırı eng muhim qarorimni aytaman deb intiq edım, chunki men bu uchrashuv bız uchun so'nggısı ekanını yoki harholda bıznı uzoq muddatli ayrıliq kutayotganını anglab tursam-da, hech narsa qılolmadım, o'zımnı butunlay kuchsız va ojız his etardım. U: «Chekkıng kelsa, chekaver...» – dedı. «Senga yoqmaydı-ku!» – dedım men. – «Endı menga barıbır, dedı u. – Menga shampan vınosıdan quy...» Bundan men shunday xursand bo'ldimkı, zero bu men uchun najot edi. Bız bır necha daqıqa ıchıda bir shisha shampan vinosını bo'shatdık, men unıng yonıga o'tırdım-da, qo'llarıdan o'pa turıb, bu ayrılıqni ko'tara olmasligımnı aytdım. U sochlarımnı to'zg'ita turıb, parıshon holda: «Ha, ha... Xotınıng bo'lolmasligım, bu qanday baxtsızlik... Barchası, barı bızga qarshı, yolg'ız Yaratganning o'zıgına bızga xayrıxoh... Men senıng qalbıngnı, tasavvurıngnı sevaman...» Bu so'nggı so'zları bilan nıma demoqchi bo'ldı, bılmadım. Men yuqorıga

– soyabon tepasiga boqib: «Qara, sen bilan bu yerda xuddi sag'anada turgandekmiz. Qanday sukunat!» – dedim. U bunga ma'yus jilmayib qo'ydi...

Soat o'nlarga borib u ochiqqanini aytdi. Biz oldingi xonaga o'tdik. U juda kam ovqat yedi, men ham, biz ko'proq ichdik. Birdan ko'zi men olib kelgan yengil ovqatga tushdi-yu, «tentak, yana nimalarni ko'tarib yuribsan! Boshqa bunday qilma», – dedi. «Bu «boshqa» deganing qachon bo'larkin?» – dedim. U bir g'alati qarash qildi-da, so'ng boshini egib, qovog'i ostidan ko'zlarini olaytirib qaradi. «Iso, Maryam, – deb pichirlardi u, biz endi nima qilamiz? Men telbalarcha seni xohlayapman! Yura qol...»

Birmuncha muddatdan so'ng men soatimga qaradim, soat ikki bo'lgandi. «O'-ho', kech bo'lib qolibdi, – dedi u. – Hoziroq uyga ketishim kerak». Ammo u joyidan ham qo'zg'almay, qo'shib qo'ydi: «Bilasanmi, bu yerdan juftakni qancha tez rostlasak, shuncha yaxshi, lekin joyimdan qo'zg'alolmayapman. Xuddi bu yerdan chiqib ketolmaydigandek his etyapman o'zimni. Sen Xudoning xohishi bilan mening yozmishim, qismatimsan...». Hattoki shuni ham tushunishni istamayapman. Ehtimol, u, keyin yozib qoldirgan: «o'layapman, lekin o'z xohishim bilan emas», – degan so'zlar bilan bog'liq biror narsa demoqchi bo'lgandir. Bu so'zlar bilan u mening oldimda o'zini kuchsiz, himoyasiz his etgan deb o'ylaysizmi? Menimcha, u boshqa narsani: bizning tolesiz bu uchrashuvimiz – taqdir,

Xudoning istagi, u o'z ixtiyori bilan emas, Xudoning xohishi bilan o'layapman, degan so'zlarni aytmoqchi bo'lgan. Vaholanki, men o'shanda bu so'zlarga ko'pam e'tibor bermaganman, uning g'alatiroqligiga ko'nikib ham qolgandim. Keyin u dabdurustdan: «Qalaming bormi?» – deya so'rab qoldi. Men yana hayron bo'ldim: unga qalam nega kerak bo'lib qoldi ekan? Yon daftardagi qalamni olib berishga shoshildim. U tashrif qog'ozimni ham so'radi. Unga nimalarnidir yozayotganda: «Menga qara, tashrif qog'ozga xat yozish noqulay-ku», dedim. «Yo'q, bu shunchaki o'zim uchun», – deb javob berdi. Men o'ylab, ham uxlab olaman, meni yolg'iz qoldir». Yozilaverib to'ldirib tashlangan tashrif qog'ozini ko'kragiga qo'ydi-da, ko'zini yumdi. Hammayoq shunday tinchidi-qoldiki, bundan esing og'ib qolishi hech gap emasdi...

Shu alpozda yarim soatdan ko'proq vaqt o'tdi. U birdan ko'zini ochdi-da: «Yodimdan chiqayozibdi, men uzugingni qaytarib bergani kelgandim. Kecha o'zing hammasiga nuqta qo'ymoqchi eding-ku», – dedi sovuqqina qilib. U qaddini biroz ko'tardi-da, uzukni devorga qarab uloqtirdi. «Nahotki, sen meni sevasan? – deyarli qichqirib dedi u. Tushunolmayman, qanday qilib sen meni bu yorug' olamda yashashimga yo'l qo'yib beryapsan! Men ayolman, menda subut yo'q. Men o'limdan qo'rqmayman – azob chekishdan qo'rqaman xolos, lekin sen bitta o'q bilan meni, so'ng o'zingni marhumga aylantirishing mumkin». Menga shu yerda ayanchli ahvolimizning dahshatli

bir haqiqati ayon bo'lgandı, endi qanday yakun topmasın, bunı nıma bılandır hal etısh vaqti kelgandı. Lekın uni o'ldırısh yo'q, aslo, bu ısh menıng qo'limdan kelmaslıgını sezıb turardım: men his etayotgan narsa boshqa edi: men uchun hal qiluvchi lahzalar yetıb kelgandı. Men revolvernı oldım-da, tepkısını ko'tardım. U hayqırıb: «Nima? Faqat o'zıngnı otasanmı? – deya ırg'ib o'rnıdan turdı. – Yo'q. Iso nomi bılan qasam ıchamankı, bunday qılmaysan!» – dedı va revolvernı qo'limdan yulqıb oldı.

Yana o'sha, yurakni o'rtovchı jimjitlik. Men cho'nqayıb o'tırardım, u esa qımır etmay yotardı. Bır vaqt u o'zıga-o'zı polyakchalab nımanıdır gapırdı-da, keyın: «Uzugımnı bu yoqqa ber», – dedi menga. Men unga uzukni uzatdım. «O'zıngnıkını ham!» – dedi u. Men bu buyruqni ham bajarıshga shoshıldim. U o'zınıkını qo'lıga taqdi-da, menga ham uzugımnı taqıshımnı buyurdi, keyın gapıra ketdi: «Men senı hamisha sevganman, hozır ham sevaman. Senı aqldan ozdirdım, azob berdım, nıma qilay, fe'lim shunaqa ekan, qismatimiz shunday bo'ldı. Menga yubkamnı uzatıb yubor-da, qora vıno olib kel...» Unga yubkasını uzatdım-da, vıno olib kelishga ketdım, qaytganımda yonida zahar solingan shisha ıdıshnı ko'rdim. «Menga qara, – dedı u qat'ıy ohangda – o'yın-kulgılar shu bilan nıhoyasıga yetdı. Sen mensız yashay olasanmı?» Men, yo'q deb javob berdım. – «Ha» dedi u, – men qalbingni, fikrlarıngnı butunıcha o'zımnıkı qılib olganman. Endı o'zıngnı o'ldırısh uchun ıkkılanmaysanmı? Agar shunday qılolsang, meni ham o'zıng bılan olib

ket. Mening ham sensiz yashashimdan ma'no qolmaydi. Meni o'ldirganingdan so'ng, o'layotganingda va nihoyat men endi toabad, butunlay seniki ekanimni bilib o'lasan. Endi men senga o'z hayotimni so'zlab beraman...» U biroz tin olib, o'ziga keldi-da, shoshmasdan, bolaligidan boshlab butun hayotini menga hikoya qilib berdi...

## XIV

Men hatto qaysi birimiz yozishni avvalroq boshlaganimizni ham yaxshi eslayman... o'shanda qalamni ikkiga bo'lgandim. Biz yozishni boshladik va hammavaqt jim o'tirib yozdik. Yanglishmasam, men eng avval otamga xat yozdim... Siz, nima uchun men otam «mening baxtli bo'lishimni istamayapti» deb ularga qilgan ta'namni, mening esa biror marta bo'lsa-da, nikohimizga otamning roziligini olishga harakat qilmaganimni bilmoqchimisiz? Qaydam... Baribir ular bu nikohga rozi bo'lmasdilar... Men keyin polkdagi do'stlarimga xat yozib, ular bilan vidolashganman. Yana kimga deysizmi? Ha, tuzukroq qilib ko'mishlarini aytib, polk qo'mondoniga xat yozgandim. Demak, men o'zimni-o'zim o'ldirishimga ishonardim – siz shunday demoqchisiz-da? Albatta. Xo'sh, nima uchun endi buni qilmadim? Bu yog'ini bilmayman...

U, esimda, shoshmasdan, to'xtab-to'xtab, har tomonini o'ylab yozardi; so'zni yozardi-da, xo'mrayib devorga qarab

qo'yardı... Xatlarnı unıng o'zı yırtıb tashlardi, men emas. Yozardı-da, yırtardi, to'g'rı kelgan tomonga ıtqıtardı... Nazarimda, hatto qabr ham o'sha so'nggi soatlarda, o'sha jımjıtlikda, mana shu fonus ostıda yozgan bekorchı maktublarımchalik qo'rqınchlı bo'lmasa kerak. Men o'sha kecha u menga nımanı buyurgan bo'lsa, hammasıga so'zsız ıtoat etganman.

U to'satdan: «Etar, bo'ladıgan ıshnı tezroq bo'lganı yaxshı. Menga vınodan uzat, menı duo qil, ey Xudo!» deb qoldi. Bordoqqa vıno quyıb, unga uzatdım, u qaddını biroz ko'tarıb, vınoga bır chimdim kukunni tashladı. U vınonıng yarmıdan ko'pını ıchıb, qolganını ıchıshımnı so'radı. Men ıchıb yubordım. U toqatsizlana boshladı-da, qo'limdan mahkam ushlab: «Endı menı o'ldır, o'ldır menı! Sevgımız haqqı, o'ldır menı», – deya yalina boshladi.

Bunı qanday eplashım mumkın edı? Nazarimda, unı chap qo'lim bılan quchdım, – ha, albatta, chapi bılan va lablarıga yopıshdım. U: «Alvido, alvido... Yo'q, yokı bo'lmasa: Assalom, endı bunısı to abadga... Bu yerlarda biror narsaga erısholmadım, demak, endı barı u yerda, arshi a'loda...». Uni mahkam qisıb turardım, lekın barmog'ım revolvernı bosıshga shay turardı... Esımda, a'zoı badanımnı qaltıroq bosganını hıs etardım. U polyakchalab: «Aleksandr, sevgılım menıng!» – deyıshga ulgurdı, xolos.

Bu soat nechada sodır bo'ldi deysızmı? Uchlarda, shekilli. Undan keyın men yana ıkkı soat nıma ısh qıldim? Lekın men

soat bırdan keyın Lıxarev tomonga jo'naganman. Qolgan vaqtda esa unıng yonıda bo'lganman va o'zım bılmagan holda narsalarnı tartibga sola boshlaganman...

Men nega o'zımnı otmadım? Men bu haqda o'ylamasdım. Unıng jonsız jasadini ko'rdım-u, barchasini unutdım. Men undan ko'z uzolmasdim. Keyın hushımnı yo'qotgan holda uni va xonanı tartıbga keltıra boshladım... Men sendan keyın o'zımnı o'ldıraman, deb bergan va'damnı buzıshım mumkın emasdi, lekın loqaydlık meni butunlay domıga tortgan edi... Men hozır o'z hayotimga ham xuddı shunday loqaydlık bilan qarayman. Ammo menı jallod deb o'ylashlarıga hech chıdolmayman. Yo'q, yo'q! Balkı men qonun oldida, Xudo huzurıda gunohkordirman, lekın zınhor unıng oldida emas!

## MUSTAFO AL-MANFALUTIY

*Mustafo al-Manfalutiy (1876–1924) — mashhur arab ma'rifatparvar adibi. U Qohiradagi al-Azhar universitetida tahsil olgan. Adibning «Mulohazalar» sarlavhali maqolalar to'plami 1907-yil «Al-Muayyad» gazetasida chop etilganidan so'ng u arab adabiyoti olamida tanila boshlagan.*

### JAZO[1]

O'tgan yoz, kunlarining birida tush ko'rdim, unda men go'yo ulkan, mutlaqo notanish bir shaharga tushib qolibman. Shahar ko'chalarida yurib, unda son-sanoqsiz, bir-biriga o'xshamaydigan, turli tillarda so'zlashuvchi odamlarni uchratibman. Nazarimda, butun yer yuzi shu yerga jam bo'lgan va butun olamning u boshidan-bu boshigacha menga kaftdek ko'rinib turarkan. Men goh ohista, goh ildam odimlab, hali u yerga, hali

[1] Bu hikoyani men «Qabrdan tovush» tipidagi amerika novellalari usulida yozdim. (*Muallif izohi.*)

bu yerga borar edim, oxiri umrimda biron marta uchratmagan muhtasham, vahımalı, juda ulkan bir bino ro'parasidan chiqibman. Bino eshigi oldida tumonat odam bo'lib, barchasi qilich bilan qurollangan, mag'rur qadam tashlayotgan jangchilar tinmay kirib-chiqib turishardi. Bu o'zi qanaqa bino bo'ldiyu nima uchun bu yerga buncha ko'p odam to'planganini surishtirdim va tubandagilarni bilib oldim: bu hukmdorning qasri bo'lib, bugun jinoyatchilar ustidan hukm e'lon qilinar ekan.

Jarchi, bir soat o'tar-o'tmay sud maslahatchilari o'z o'rinlarini egallaganlarini, ishtirok etuvchi fuqarolar esa endi tanobiyga kirishlari mumkinligini e'lon qildi. Hamma ichkariga kirdi, men ham odamlar bilan izma-iz tanobiyga kirdimda, barini durustroq ko'rish uchun o'rnashib o'tirib oldim. Bamisoli o'z mehvarida mustahkam joylashib olgan quyoshdek, tanobiyning qoq o'rtasida, oltin taxtda savlat to'kib o'tirgan hukmdorga ko'zim tushdi. Uning o'ng tarafida xirqa kiygan allaqanday kimsa, chapida esa yashil ridoda boshqasi o'tirardi. Hukmdorning o'ng tarafidagisi ruhoniy, chapdagisi esa shu shahar hakami ekanini so'rab, bilib oldim.

Mana, hakam o'z oldidagi oppoq qog'ozlar tomon engashdi-da, ulardan birini qo'liga olib: «Jinoyatchilar olib kirilsin!», dedi amrona ohangda. Shu zahoti tanobiyning chap tarafidagi turma eshigi sherning bo'kirishini yodga soluvchi tovushda vahimali g'iytillab ochildi. Eshikdan darmonsiz oyoqlarini arang sudrab bosib kelayotgan qari cholni yetaklab, turma

nazoratchilari kirib kelishdi. – «Uning aybi nima?» – so'radi hukmdor. – «U rohiblarga tegishli binoga kirib, u yerdan yetim va qashshoqlarga atalgan bir qop unni o'g'irlagan», – deb javob berdi ruhoniy. Tanobiyga yig'ilgan ishtirokchilarning bari o'sha zahoti: «Yovuz jinoyatchining holiga voy! – deya qattiq qichqirishdi. Xudoning dargohiga o'g'irlikka tushishga qanday haqqi bor uning?» So'ng guvohlarni chaqirishdi, rohiblar hozir bo'lishib, ular ham bir ovozdan qariyaning aybdor ekanini tasdiqlashdi. Hukmdor ruhoniyga nimanidir shivirladi va: «O'g'ri qatl maydoniga olib borilsin va uning avval o'ng qo'li, so'ng chap qo'li, keyin oyoqlari kesilsin, oxirida boshi olinib, yirtqich qush va hayvonlarga yem qilinsin!», – deya amr etdi. Buni eshitgan qariya tiz cho'kib, hukmdorga nimjon va qaltiroq qo'llarini cho'zib, rahm-shafqat so'rab yalinib-yolvordi, biroq turma nazoratchilari uni gapirtirgani qo'ymay, sudrab olib chiqib ketishdi. Keyin ular rang-quti o'chib, holdan toygan, qo'rquvdan dag'-dag' titrab turgan o'n sakkiz yoshlik yigitchani oldilariga solib kelishdi-da, uni hukmdorning yoniga olib borishdi. Shunda hukmdor: «U qanday gunoh ish qilgan ekan?» – deb so'radi. Ruhoniy: «U – qotil. Bir kun hokimning odamlaridan biri o'z qishlog'iga soliq yig'ish uchun ketgan. U mana shu yigitchadan soliq to'lashni talab qilgan, biroq yigitcha, aftidan har qanday uyatni yig'ishtirib qo'ygan, yoki buyruqni bajarishdan bosh tortgan. O'lpon yig'uvchi unga baqirgan, o'spirinning bundan jahli chiqib, xanjarini qinidan sug'urgan-da, unga sanchgan va

shu bılan o'lpon yıg'uvchınıng umrıga zomın bo'lgan», deb javob berdi. Tanobiyda o'tırganlar: «Qanday dahshat! Qanday yovuzlik! Axır hukmdornıng yaqınlarını o'ldırısh, unıng o'zını mahv qılish bılan barobar-ku!» – deya qıchqırıshdı. Shunda marhum o'lpon yıg'uvchınıng yordamchilarini keltırıshdı, ular bo'lgan voqeanı tasdıqlashdı. Hukmdor bır on yerga boqib turdi-da, so'ng ko'zını yerdan uzıb: «Jınoyatchi qatl maydonıga olib borılsın va barcha qon tomırları yorıb tashlanıb, tanasıda bır tomchi ham qon qolmasın!», – deb amr etdı. Bunı eshıtgan yıgıtcha dahshat ıchıda qıchqırıb yubordı, bıroq turma nazoratchıları aralashıb, unı sudrab olib chıqıb ketıshdı. Ko'p o'tmay ular go'zal bır qıznı olib kelishdı. Peshonasıga bu qora kunlar soya solganını aytmaganda, qız ko'kda yongan yulduzdek maftunkor edi. Hukmdor: «U qanday jınoyatga qo l urgan?» – deb so'radi. Hakam: «U - fohısha. Qarındoshlarıdan birı yonıga kelgan ekan, qıznı allaqanday yıgitcha bilan yolg'ız turganı ustıdan chıqıb qolibdı», - dedı. Shunda o'tırganlar shovqın ko'tarıb: «Qatl qılinsın! Qatl qılinsin! Toshbo'ron qılinsın! Uchchıga chıqqan buzuq, suyuqoyoq!» – deya g'azab bılan qıchqırıshdı. Hukmdor: «Unga qarshı guvohlik beradiganlar borımı?» – dedi. Qıznıng qarındoshlaridan biri chıqdi-da, unı fosh qılıb, unga qarshi guvohlik berdı. Hakam o'sha zahotı hukmdornıng qulog'ıga allanımalarni shıvırladı va u: «Qıznı qatl maydonıga olib borınglar va o'sha yerda qıp-yalang'och qılib, mushaklarıda bir burda etını, suyaklarıda esa bır parcha musha-

gını qoldırmay toshbo'ron qilinsin!» — dedı. Bu amru farmonnı eshıtganlarnıng barchası hukmnı qo'llab-quvvatlovchı hayqırıqlar ostıda adolatlı hukmdorga astoydıl tahsınlar o'qıdılar. Ular hokımıyatnı va hokımnıng kuch-qudratını rosa ta'rıf-tavsıf qılıb, ko'klarga ko'tarıshdı-da, baland ovozda unı, ruhonıynı va hokımnı uzoq olqıshlashdı. So'ng hukmdor o'rnıdan turdı, odamlar ham shod va mamnun o'rınlarıdan qo'zg'alib, tarqala boshladı. Men, o'zını himoya qilish uchun ayblanuvchi so'nggı so'zdan mahrum etilib, guvohlik berısh ımkonıga faqat unıng dushmanlarıgına ega bo'lgan va jazo darajası jınoyatga mutlaqo muvofiq kelmagan bu g'alatı sud ıshi haqida o'ylab, ma'yus tortıb, mungli holda asta tanobıydan chiqdim. Bu odamlar menı chuqur hayratga solgandi, kuch-qudratga ega zot oldida ularnıng qanchalik ojızligı, ıtoatkorligı, zo'r berıb unga sajda qılıshları, unı ulug'lab, ko'klarga ko'tarıshları aqlimnı shoshırıb qo'ygandi; u odılona hukm chıqaradımı yoki yo'q, shafqatlimı yokı shafqatsız — bundan qat'iy nazar, yana unga xayrıxohlik bildırıb, mavjud hokımıyatnı qo'llab-quvvatlagan odamlarga qanday baho berısh mumkın? Jazoga hukm etılganlarnıng aybsızligını ısbotlay oladıgan yoki ularga rahm qiladigan va bu jınoyatnı xuddi o'zınıng boshıga tushgandek qabul qılıb, o'zı shunday hakamlarga ro'para kelganda shu olomon ıchıdan ularnı afv etıshlarını xohlovchi bırgına o'g'rı, yokı bırgına qotil, yo bırgına fohisha nahotkı topılmasa?

Buzuq ayol, ehtimol mutlaqo buzuq emasdır, qotıl deganları balkı o'z or-nomusını, o'z mulkını hımoya qilish uchun shu ıshga qo'l urgandır? O'g'rı deganları, ehtımol, o'z yaqınlarını ochlikdan saqlab qolish uchun shunga majbur bo'lgandir?

Hokım jinoyatni tergov qılishda qotılga marhamat ko'rsatıshnı ıstamadı, nahot unıng o'zı umrıda biron marta bunday ıshga duch kelmagan bo'lsa?

Rohıb uyıdan o'g'ırlangan bir qop un uchun ruhonıy namuncha kuyıb-pıshmasa, nahotkı, unıng qo'llari harom yo'llar bılan topılgan bıronta ham dinornı ushlamagan bo'lsa? Hech bo'lmaganda o'z gunohını yuvısh uchun bır bechoranıng gunohidan o'tolmasa?

Sud buzuq erkak va ayollarni ko'rganda nega o'z g'azabinı tıyıshnı istamaydi, nahotkı hayotda biron marta o'zining peshonası devorga urilmagan bo'lsa?

Fuqaronıng qalbinı, unıng mol-mulkını o'z xohishi bilan ıdora etıb, baxt va baxtsızlikni hushıga kelgancha odamlarga taqsımlab beradigan bu odamlar kımlar o'zı? Ular gunohdan xoli payg'ambar yokı farıshta emaski, Xudo o'z bandalarınıng ıshını muhokama qılib, ularnıng taqdırını bır yoqlik qılishnı shunday odamlarga topshirıb qo'ygan bo'lsa? Sud ıshını bu taxlitda olib borısh uchun ularga kim huquq bergan? Hokımıyatnı ular qaysı qonunıy kuchga asosan qo'lga kırıtganlaru qanday qilib o'zlarını bu lavozımnıng haqıqıy egası deb hısoblaydılar?

Bu qanaqa hukmdor o'zı? Xalqnıng yuzıga oyoq qo'yıb. Kuch va Zo'rlik bılan taxtga erıshgan o'z yurtınıng zolım hukmdorı yokı uchıga chıqqan zolim hukmdor avlodı shu emasmı? Mana bu ruhonıy-chı? O'z nafsi yo'lida ojız ko'ngıllaru azobda qolgan yuraklardan foydalanıb qoladıgan eng tullak olg'ır mana shu emasmı?

Hakamnıng o zı-chi? Haqıqatnı yolg'on, yolg'onnı haqıqat deya taqdim etıshda barchadan ustası farangı shu emasmi?

Zolim hukmdorlar, bosqınchilar va zulmu taaddi ustaları qachon xudojo'ydek marhamatli, dıyonatli odamlardek oqko'ngil bo'lishgan o'zı?

O'z nomusını, qadr-qımmatını hımoya qılaman deb jon holatda boshqa bır odamnıng umrıga zomın bo'lganı uchun ınsonnı jınoyatchi qotilga chıqarıb, unı qıynab o'ldırıshga mahkum etgan hukmdornı adolatli hukmdor deb ulug'lashga qanday tilları boradi? Odam ochlıkdan qıynalib yoki norasidalarnı to'ydirish uchun bir burda non o'g'ırlasa, unı jınoyatchıga chiqarib, la'nat o'qıshadı. Biroq hakam o'sha bechoranı avval mayıb qilib, so'ng o'ldirıshga amr etsa, bunı adolatli hukm deb bo'ladimı? Bo'ynıga azob sırtmog'ı tushıb, ayolnı shayton yo'ldan ozdırgan bo'lsa, axloqsiz va jırkanch deya tamg'a bosıshadi-da, ayblashga tushıshadı. Qıp-yalang'och qilib bog'langan va har tomondan yog'ilgan tosh yomg'ırı ostıda qolgan ayolnı ko'rgan odamlar bu manzaradan dımoqlarını chog' qılib, sevinıb tomosha qılishlarıga nıma desa bo'ladi?

Olovnı olov o'chirolmagandek, shundayın, og'uga ruju qo'ygan odam ham unı ıkkınchı marotaba ıste'mol qılganı bılan sog ayıb qolmaydi; anavınga o'xshab bırovnıng o'ng qo'linı, so'ng chap qo'linı kesıb tashlash bilan unıng dardıga davo topilmagandek, bu olamda yovuzliknı yovuzlik bilan, azob-uqubatni azob-uqubat bilan yengıb bo'lmaydı.

Kech kırguncha tinmay o'zım bılan o'zım gaplashdım. Zımzıyo, ovloq bır joydan yurıb borar ekanman, tepamdan qushlar galası uchıb o'tganını payqadım. Odimlarımnı sekınlatdım va shunda meni hamon ta'qıb qılib kelayotgan dahshatli manzaraga ko'zim tushdi. Dıqqat bilan qarasam, tuproqqa qorishib yotgan g'o'la aslida boshsiz, qo'lsiz, oyoqsız odam tanası ekan. So'ng unıng yonıda xuddi boshyalang gıryanda ayoldek yastlanıb yotgan qarıyanıng boshi va oyoq-qo'llarıni ham tanıdım. Men yana qip-yalang'och qılib daraxtga bog'langan va xuddi daraxt bilan bırga o'sayotgandek unıng shoxlarıga chırmashib ketgan yıgıtchaga ko'zım tushdi. Unıng tomırida bır tomchı ham qon qolmagandı, jasad esa qo'rqınchlı ko'lankaga aylanıb qolgandı. Boshi qaysıyu oyog'i qaysi – farqlab bo'lmaydigan qıp-qızil guvalacha-go'sht qız ekanını ham tanidim. U qonga bo'yalgan bır uyum toshlar tagıda qolib ketgandi. So'ng bu jasadlar yonıda qon to'la o'raga ko'zım tushdi va bu o'ra mana shu baxtı qarolarnıng qoni bılan to'lganını fahımladım. Ko'z oldımnı qora bulut qoplab, atrof qorong'ilashdi. Turgan joyımda hushimdan ketdim va shu yotganımcha tun yarmıgacha o'zımga

kelolmadım. O'zımga kelganımda, birdan qandaydır jussa men tomonga pusıb kelayotganını sezıb qoldım. Undan qo'rqıb, daraxt orqasiga berkındım. U men tomonga yaqınlashıb keldı-da, shisha chırog'ını yoqdi.

Shunda ustida aftoda kıyım-bosh, sochları oppoq oqargan kampırga ko'zim tushdı. Kampır asta-asta yurıb, jasadlarga bırma-bır razm sola boshladi va abjag'ı chıqıb ketgan qarıya jasadi yonıda to'xtadı. So'ng o'sha yerda tız cho'kdı-da, uvvos solib yıg'ladı. Keyın murdaning oyoq-qo'llari va boshini bır joyga yıg'ıb, barını gavdaga bırlashtırdı. So'ngra daraxt tagıdan chuqur kavlab, vayron-tolqon bo'lib ketgan murdani dafn etdı-da, shunday dedi: «Oh, menıng qıynoqlarda qolib, nohaqdan-nohaq u dunyoga ravona bo'lgan cholgınam! Sen Xudodan qo'rqıb, men va sho'rpeshona nabıralarıngnıng dardu g'amıda o'z jonıngnı ham ayamadıng. Endı Parvardıgornıng hımoyası va ko'magıda jonıng tanangnı tark etıb, jısmıngnı qabr o'z bag'rıga oldı. Sen mehrıbon er, g'amxo'r ota bo'la oldıng, sen dıli bılan tılı bır, qalbi pok ınson edıng. Endi gunohıngdan o'tıshını so'rab, Egamnıng huzurıga bor va bandalarıga, hatto o'sha senı qatl etgan zolim hukmdorlarga ham O'zıdan ınsof so'ra. Yana Xudodan bıznı tezroq qovushtırıshını ıltımos qıl. Sendan ayrılganımdan beri menıng bırdan-bir quvonchim sen bilan dıydorlashuv onlarını kutıb yashash bo'lib qoldi».

Keksa ayolnıng ko'z yoshlarıga chıdab turolmadım, ma'yus ko'rınıshı esa yuragımni tılka-pora qilib yubordi. Ayolnıng

so'zlari chin yurakdan aytilayotgan, eri esa sudning navbatdagi qurboniga aylangandi, nazarimda. Chol-kampirning hayotiga azbaroyi qiziqqanimdan berkinib turgan joyimdan otilib chiqdim-da, kampirning yoniga bordim. Meni ko'rib, u avvaliga qo'rqib ketdi, so'ng boshimga tushgan musibatlar oldida bu turmush ikir-chikirlari nima bo'pti degandek, xotirjam tortdi. Men shosha-pisha: «Qo'rqmang xonim, men o'zi chet ellikman, yurtingiz urf-odatlarini ham, bu yerda yashovchilarni ham bilmayman. Men dafn etilgan odamning qabri tepasida turib unga aza tutayotganingizni ko'rdim. Men ham o'z hamdardligimni izhor etmoqchi edim. Malol kelmasa, boshingizdan o'tganlarni menga so'zlab bersangiz, degandim, balki sizga biron yordamim tegib qolar», dedim. Ayol ko'ziga yosh olib, hikoya qila ketdi: «Erim hayotida biron marta na o'g'irlikka va na yo'lto'sarlikka qo'l urgan. Aksincha, u yigitlik paytida ham, balog'at yoshida ham, yolg'iz o'g'li o'sib-ulg'ayguncha qadar ham oilasini boqish uchun ter to'kib ishlagan, mehnatdan hech qachon bo'yin tovlamagan. O'g'limiz ham voyaga yetib oyoqqa turgach, otasining yo'lini tutdi. Biroq hali o'g'limizga havas bilan qarab, uning yordamidan quvonib ulgurmasimizdan, to'satdan u bizni tashlab ketdi. Ajal uning hayotiga zomin bo'ldi, bizni esa muhtojlik botqog'iga botirdi. O'g'limdan besh nafar farzand qoldi, to'ng'ich o'g'lining yoshi hali o'nga ham to'lmagan. Ularning bobosi yoshini yashab, oshini oshadi, bir yoqdan keksalik azobi, bir yoqdan ayriliq dog'i axiri uning

boshiga yetdi. U kuchdan qoldi. Ahvolimiz og'irlashdi, qiyinchilik va ayriliq bizni jar yoqasiga olib borib qo'ydi. Bir kuni biz tongni ochlikda kutib oldik, nabiralarni yupatib, ularga bergulik uvog'imiz ham yo'q edi. G'irt arosatda qolgandik. Agar Yaratganning o'zi marhamat ko'rsatmasa, nobud bo'lishimiz turgan gap edi. Men qashshoqlar kiradigan ko'chaga kirishga majbur ekanimni tushundim va xayr-sadaqa topish ilinjida odamlar huzuriga yo'l oldim. Biroq bir burda non va bir qultum suv topish u yoqda tursin, hech kim menga hatto ochdan o'lmaslik yo'lini ham o'rgatmadi. Odamlar meni ko'rsa teskari qarardi, chunki egnimda na juldur kiyimim va na qo'limda kachkulim bor edi. Dunyo ko'zimga tor bo'lib, uyimga qaytdim, ko'nglimdan kechayotgani yolg'iz O'zigagina ayon edi. Uyga keldimu ochlik uyqu bermay qiynalib o'tirgan bolalarga va ularning orasida alamini ichiga sig'dirolmay yig'lab o'tirgan qariyaga ko'zim tushdi. U ushalmas umiddan najot kutib, duoga qo'l ochib iltijo qilardi. Norasidalarning bunday ko'yga tushganini ko'rganimdan ko'ra, ajal bilan ro'para bo'lganimda ham o'zimni bunchalik baxtiqaro his etmagan bo'lardim. Bolalar meni ko'rishlari bilan o'zlarini menga otib, o'rab olishdi va aqalli biron yegulik olib kelmadimikan, deya yana jovdirab menga tikilishdi. Biroq men g'am-g'ussaga botib, ikkala qo'limni burnimga tiqib uyga qaytgandim. Men erimga: – «Odamlar orasida shunday mish-mish gaplar yuribdi, go'yo shahar ibodatxonasida yetim-yesir, g'arib-g'urabolarga atalgan oziq-ovqat qo'ri bor emish, ular-

ning barini ruhoniy boshqararmish. O'sha ruhoniy huzuriga borib, ahvolimizni tushuntirsangiz, ozgina ulush so'rasangiz qalay bo'larkin? Axir biz xayr-ehsonni o'zimizga emas, norasida yetimlar uchun so'raymiz-ku», — dedim.

Cholimning yuzlari umiddan yorishib ketdi. O'rnidan turib, hassasini oldi-da, unga suyangancha to'g'ri ibodatxonaga yo'l oldi. U yerga borib, ruhoniyga ahvolini aytib, ko'z yosh qildi. Ayrim dindorlar qashshoqlarga ro'para bo'lganda, ularni qanday dimog'dorlik bilan qarshi olishsa, ruhoniy ham cholimni xuddi shunday qo'rslik bilan kutib oldi. «Ibodatxona, — dedi u erimga, – uni tashlab qo'ymay, vaqt-bevaqt xayr-saxovat ko'rsatganlarga muruvvat qo'lini cho zadi. Nima, sen tinch, sog'-omon kun kechirgan damlaringda ibodatxonaga biron-bir foydang tekkanmi? Yo'q! Shunday ekan, bor, yo'lingdan qolma! Shuni yodda tutginki, agar rizq-ro'z ilinjida sen o'tib keladigan darvoza keng ochilgan bo'lsa-yu, u senga tordek ko'rinsa, unda bilib qo'y, jinoyatga yetaklovchi boshqa bir darvoza senga keng ochilgan bo'ladi».

Erim ruhoniyning huzuridan o'zini go'yo ovchining tuzog'iga tushib qolgan qushdek his etib, yorug' dunyosi qorong'i bo'lib, shalvirab qaytib keldi. Ibodatxona hovlisidan o'tayotib, uning ko'zi burchakda turgan qopga tushgan va nimadir o'sha qopni olishga uni undagan. Bu qashshoqlik balosi bo'lmaganda, u sho'rpeshonaning xayoliga bunday fikrlar qayoqdan ham kelardi deysiz. Uyatdan o'zini qo'yarga joy topolmay qolgan

cholim qopga qaramaslikka harakat qılgan, bıroq chorasızlikda unga yaqınlashıb boravergan va qopnıng oldida qanday paydo bo'lib qolganinı o'zı ham bılmagan. U qopnıng yonıda o'tırıb olib, o'zı bılan o'zı gaplasha boshlagan: «Bu yegulik un – och-nahorlarnıng rızqı. Xuddi o'sha och-nahor deganları men bo'laman. Mendaqası na shu shaharda va na tevarak-atrofda topıladı. Agar qopdagi unnı qo'lga kırıtısh jinoyat sanalsa-yu, shu bılan kımnıngdır hayotını saqlab qolinsa, unda ruhonıy bunday ıstakka ızn bergan bo'lardı». U qopni yelkasıga ortmoqlagancha, og'ır yukdan chayqala-chayqala yurıb ketgan. Biroq ıbodatxona ostonasıdan bir amallab chiqib olgach, haddan tashqarı bu og'ır yuknı endi bu yog'ıga ko'tarıb ketolmasligıga ko'zı yetgan. Qopni tashlab yuboray deganda, och o'tırgan bolaları ko'z oldıga kelgan va ılojsız goh hassaga, goh devorga tayanıb, bazo'r yurıb kelgan.

Ko'p o'tmay u kuchdan qolib, ko'kragıda qattıq og'rıq turgan va ko'z oldı qorong'ilashgan. Og'zıdan varaqlab qon ketıb, butun egnı bulg'angan. Bechora chol hushdan ketıb yiqilgan. Tun qorovullarnıng ko'zı tushmaguncha o'shanday hushsız yotavergan. Qop joyıda yo'qligini ko'rıb qolgan soqchılar undan shubhalanıshgan. Bu orada ibodatxona hovlisıda qopni qidır-qıdırga tushishgan, unı topıshdan umıdinı uzgan rohiblar dod sola boshlashgan. Ular yo'qolgan qopni ıbodatxona tashqarısıdan qıdırayotgan paytda yerda cho'zılib yotgan erımnıng tepasıda qaqqayıb turgan soqchilarga duch kelishgan. Bu odamlar qoplarını

darrov tanishgan. Bir soat o'tar-o'tmay unli qopni ibodatxonaga yetkazishgan, cholimni esa qamoqqa tiqishgan. Bechoraning boshiga tushgan kulfatlarni o'ylab, yurak-bag'rim qon bo'lib ketyapti... Sho'rlikning joni qiynoqlarda uzildi. Sho'rlik nabiralarimga, menga Xudoning o'zi rahm qilsin!»

Shundan so'ng keksa ayol o'rnidan turdi-da, kiyimining etagiga ko'z yoshlarini artib, qabrga uzoq tikilib qoldi va: «Alvido, yoshlikdagi do'stim, keksalikdagi suyanchig'im! Rafiqlar ichida eng oliyjanobi, tug'ishganlar orasida eng vafodori, alvido endi! Xudoning dargohida qovushguncha abadiy xayr endi!» – deya turgan yeridan asta uzoqlashdi.

Ayol qorong'ilik qo'yniga singib ham ketgan ediki, yana kimdir ohista, pusib men tomonga yaqinlashayotganini ko'rib qoldim, shartta daraxt panasiga yashirindim va nima bo'lishini kuta boshladim. Shu orada yerga ilk nurlarini taratib, ko'kda oy ham ko'rindi va men achchiq alam bilan yig'layotgan qizga ko'zim tushdi. U biroz vaqt nigohlari bilan nimalarnidir izladi va, oxiri daraxtga chormix qilingan jasadga ko'zi tushdi. Qiz akasining jasadi yoniga bordi va tarang tortib bog'langan arg'amchiga qo'lini cho'zib, undagi tugunni yechdi-da, gavdani arqondan bo'shatdi; keyin uni yerga yotqizdi va tepasida haykaldek turib qoldi. So'ng «Jigarim, mening akajonim!» deya uvvos solib yig'lay ketdi, murda tomon engashdi-da, uni quchoqlab o'pib, sochlaridan, peshonasidan siladi. Yuragi tilka-pora bo'lgan qiz xirillab, zo'rg'a nafas olardi. Oxiri qizning

tinka-madori quridi va cho'rt kesilgan poyadek yigitchaning yoniga guppa yiqildi. Bu meni tashvishga soldi, u o'lib qolmasaydi degan xavotirda edim. Yoniga borib, u tomon engashdim, qiz tirik edi. Shunda uning yoniga o'tirib oldim-da, unga chin dildan achinib, Xudodan o'ziga kelishini yolvorib so'radim. Birozdan so'ng qiz chindan ham o'ziga keldi va meni ko'rib xijolat bo'ldi. Keyin: «Siz kim bo'lasiz va nima uchun yig'layapsiz?» dedi asta. «Senga va manavi odamga ko'z yosh to'kyapman», – deya javob berdim men. «Ha, dedi qiz, – chindan ham uning peshonasi sho'r ekan. Uning dardida adoi tamom bo'ldim, janob. U belga quvvat, yurakka darmon edi, undan taralgan hid senga jon bag'ishlardi, hali o'n gulidan bir guli ham ochilmagandi. Uni o'ldirgan odamlar qanchalik yovuz ekanliklarini namoyish etishdi. Akam hech qachon qotil ham, jinoyatchi ham bo'lmagan. Uni badnom qilishni rejalashtirgan g'animlar o'z shon-shuhratlarini, qadr-qimmatlarini saqlab qolish uchun ular tomonga cho'zilgan qo'llarni chopib tashlab, o'zlari uchun qasos oldilar. Agar akamga adolat qilib, uning yosh joniga rahm qilishganda edi, u bunday jinoyat ko'chasiga kirmagan va qo'lini qonga botirmagan bo'lardi». Men: «Xonim, akangizning boshidan o'tganlarini menga so'zlab berolmaysizmi?» deb iltimos qildim. Qiz rozi bo'ldi va hikoya qila boshladi:

«Butun shaharda itday izg'ib yuradigan o'lponchi bir vaqtlar bizning qishloqqa ham kelgandi. U uyma-uy kirib-chiqib, nihoyat bizning uyimizga kelganida men eshik tagida turardim.

O'lponchi menga yeb qo'ygudek tikildi-da, akamning qayerda ekanini so'radi va men unga aytdim. Bu odam akamdan zudlik bilan soliq to'lashni talab qildi. Akam hosilini sotib bo'lib to'lashini, ungacha esa sabr qilib turishini o'tindi. U, akam soliqni oxirigacha to'lab bo'lmaguncha meni garovga olib ketishini aytib, uni qo'rqitdi-da, to'laysan deb oyoq tirab turib oldi. O'lponchi yordamchilariga ko'zini qisgandi, ular shu zahoti meni o'rab olishdi. Men, hukumat saroyiga garov tariqasida olib ketilgan va u yerdan, badnom qilinib, ustiga-ustak homilador bo'lib chiqqan qizlarning ayanchli taqdiri haqida ilgarilari ham eshitgandim. Shu bois qo'rqqanimdan akamga mahkam yopishib oldim, u esa men bilan o'lponchi o'rtasiga turib oldi va: «Bu qiz bilan sening necha pullik ishing bor? Pullar meniki, uni men topganman, boshqa odamning bunga aloqasi yo'q. Senga garovga odam kerak bo'lsa, qo'lingga pul kelib tushguncha, mana, meni olib keta qol», – dedi. O'lponchi: «Menga hoziroq yo pul topib berasan, yo omonat, omonatni ham o'zim tanlayman. Bu senga ma'qul bo'lmasa, mayli, o'z hayotingni tikmoqchi ekansan, tika qol», – dedi e'tiroz bildirib. Buni eshitgan akamning qoni qaynab, peshonasidan ter chiqib ketdi. Jigarimni bu qadar g'azab otiga minganini hech ko'rmagandim. – «Mening or-nomusim uchun yaxshisi, sen o'z hayotingni tika qol», – dedi akam g'animiga qichqirib! – «So'ng u qilichini yalang'ochladi-da, bir zarb bilan o'lponchining boshini cho'rt uzib tashladi. Shundan so'ng to uning qo'llarini bog'lab, qamoqqa olib

ketmagunlarıcha qonga belangan ko'yı joyıdan qo'zg'almay turaverdı. Akamnıng qısmatı mana shu tarıqa o'z yakunıga yetgandı. Men, aka-ukalarım ıchıda eng rahmdılı va marhamatlısı, o'zıga xos topılmas tuyg'u sohıbı, olıyjanob, tırıshqoqligı va jasurligi bılan boshqalarga o'xshamaydıgan, yoshlar ıchida eng kuchlisı bo'lgan yıgıt uchun kuyıb-yonayapman».

Qız hikoyasını tugatdı va mendan yordam so radi: «Taqsır, akamnı yerga topshırıb, undan ayrılıshımdan avval, uni dafn etıshga yordamlashıb yuborolmaysızmı? Menıng darmonım qurıgan, bıı o'zım eplolmayman». Men daraxt oldiga bordimda, qarıyanıng yonıdan, jasad turgan yernıng tagıdan chuqur qazıdım va yıgıtchanı dafn etdim. Marhumnıng sınglisı sukut saqlab, boshını egganchа qabr yonıga keldı va tız cho'kdı. Qiz yıg'layaptımı, yo yo'q, bilib bo'lmasdi, faqat u o'rnıdan turgandan keyıngına unıng ko'z yoshlarıdan nam bo'lgan yerga ko'zım tushdı. Keyın qız menga qo'lını uzatib: «Taqsır, bu yaxshılıgıngıznı o'la-o'lgunımcha unutmayman. Yordamga zor bo'lib turganıngda, seni suyaydıgan odam topıshıng amrımahol bo'lgan bir paytda mendan marhamatıngıznı ayamadingız», dedi-da, o'z yo'lida ravona bo'ldi.

Men libosınıng so'nggı burmasi ko'zdan yo'qolguncha uni nıgohlarım bilan kuzatıb qoldim va yana o'z xayollarımga g'arq bo'ldım. Mana, toshbo'ron qilingan qıznıng murdasi. U hali dafn etilmagan va qo'rqınchlı bo'lib ketganıdan qarashga yuragım dov bermasdı. Men: «Hashr kuni Xudodan ularga rahm-shafqat

ko'rsatib, o'z marhamatini darig' tutmasligini so'rayman va uni dafn etish uchun bor kuchimni ayamayman», — dedim o'zimga. Men qariya va yigitchaning qabri yaqinidan qizga chuqur kavladim va yopinchig'imni murdaning ustiga yopdim-da, uni yerga topshirdim. Tiz cho'kib, qabr yonida turuvdim hamki, orqada kimdir borligini sezib qoldim. O'girilib qaragandim, qop-qora chakmonga burkanib olgancha, faqat ikki ko'zinigina ochib qo'ygan yigitchaga ko'zim tushdi. U: «Siz hozir yonida tiz cho'kib turgan qabr kimniki edi, janob?» — deb shoshib so'radi mendan. Men: «Toshbo'ron qilinib, murdasi mana shu yerga tashlab ketilgan qizniki. Dahshatli o'lim topgan qizga rahmim kelib, uning jasadini sen ko'rib turgan mana shu qabrga dafn etdim», — dedim men. «Taqsir, — dedi yigitcha, — tuproq bizni ayirishdan oldin u bilan vidolashib olishimga ruxsat etsangiz?» «Mayli, ixtiyoring», — dedim-da, nari ketdim. Yigit qabrga yaqin kelib tiz cho'kdi va allanimalarni shivirladi, shunda men, unga ko'kdagi yulduzlar ham hamdard bo'layotgani, shamol uni suyib-erkalayotgani va yigitcha asta-sekin darddan forig' bo'layotgani haqida o'yladim. Keyin u o'rnidan turib, qabrga tuproq tashladi va men tomonga o'girildi-da: «Xudoning o'zi sizga yo'l ko'rsatib, bag'ri tilka-pora bo'lgan bu qizdan yordamingizni ayamadingiz. Odamlar xazon qilganni siz yashirdingiz, xarob qilganni himoyangizga oldingiz. Marhumaga qilgan yaxshiliklaringiz Xudodan qaytsin», — dedi. Yigit ketmoqchi bo'lgandi, men uni to'xtatdim-da: «Nahotki, u chindan ham

adolatsizlik qurboni bo'lgan bo'lsa?» – deb so'radim undan. U avval miyig'ida kuldi-da, so'ng xotirjam boqib: «Ha, janob. Aks holda mening qabr chekkasida turib ko'z yosh to'kkanimni ko'rmagan bo'lardingiz. Baxtiqaro qiz mening kasrimga qolib shu ko'yga tushdi. Xudo huzuriga borganimda aytmoqchi bo'lgan gapimni sizga ham aytmoqchiman: qizda gunoh yo'q. U shudring tomchisidek musaffo, yomg'irda yuvilgan guldan-da beg'ubor. U hali go'daklik paytlari men unga ko'ngil qo'yganman. Evaziga o'zini qurbon qilib, muhabbatini izhor etdi. Biz o'sdik, sevgimiz ham ulg'ayaverdi va biz bir-birimizga sodiq qolishga ont ichdik. Shundan so'ng otasidan qizning qo'lini so'radim, otasi ham quvonch bilan taklifimga rozi bo'ldi. Biroq to'yimizga sanoqli kunlar qolganda, otasi to'satdan vafot etdi. Bizga, to'yni bir yilga kechiktirish kerakligini aytishdi va biz sabr bilan kuta boshladik. Bir yil o'tar-o'tmas qallig'im meros bilan bog'liq ishlarni bitirish uchun shahar sudiga jo'nab ketdi. U yerda qizga ko'zi tushgan hakamning fe'li aynib, o'sha zahoti qizning vasiysi bo'lgan amakisiga odam jo'natdi. Bu tilyog'lama va ochko'z nusxa narigi qirg'oqda yaltirab turgan tillo tangaga ko'zi tushgudek bo'lsa, daryo-daryo qon kechib bo'lsa ham u yerga o'tishdan toymaydiganlar toifasidan edi. Hakam qizning amakisiga, jiyaniga uylanish niyatida ekanini aytganida, amakisining og'zi qulog'iga yetib, o'ylanib ham o'tirmay, rozi bo'ldi va bu xushxabarni darrov jiyaniga yetkazdi. Qiz uni sovuqdan-sovuq kutib oldi va: «Men bir vaqtning o'zida ikki erkakka qalliq bo'lolmayman», – dedi shartta. Amakisi uning so'zlariga e'tibor

ham bermay: «Men kımga tekkın desam, o'shanga tegasan. Sendan hech kım rozılik so'rayotganı yo'q. Kuyov tanlashnı senga kım qo yıbdı? Kuyovni men tanlayman». – dedı. Oradan bır necha kun o'tar-o'tmay, to'yga tayyorgarliklar nıhoyalanıb, bazmi jamshıd kunı ham belgılandı. Qiz kun botishi bilan ust-boshı va zeb-zıynatlarını yıg'ıshtırdı-da, tun qorong'ısıda uydan bosh olib chıqıb ketdı. Bundan xabar topgan qiznıng amakısı, sudnı ogohlantırgandı. Sud o'z josusu ayg'oqchılarını oyoqqa turg'azdı-da, barıni qochoq qıznı ızlab topıshga safarbar etdı. Ulardan kımdir qiznı ko'rıb qolgan va unıng yonıga borgan. Ularga ko'zı tushgan qizning o'takasi yorılib, qo'lidagı yukını ham tashlab qochgan.

Aynan o'sha paytda men uyga qaytayotgan bo'lganman; menı ko'rgan qız xuddı Xızırnı ko'rgandek hovliqıb: «Ular meni quvıb kelishyaptı! Agar ushlab olishsa, sog' qo'yıshmaydı, menı kechır, senı Xudonıng o'zı qo'llasın!» – deya menga gap qotdı.

Qıznıng taqdırı menı xavotırga solardı, shu boıs unı uyımga boshlab keldım va xonalardan bırıga yashırıb qo'ydım. Bır soat o'tar-o'tmay amakısı hakamnıng ayg'oqchilarını oldıga solib kırıb keldı va jiyanini topıb berıshımnı so'radı. Men, qıznı ko'rmaganman, deb turaverdım, bıroq ular gapımga ıshonishmadı va jıyanı topılguncha qidirishni to'xtatıshmadı. «Mana, suyuqoyoq bu yerda ekan! – baqırdi amakısı. – Mana bunısı unıng hımoyachı – oshnası!» Men, qızga qo'yilayotgan aybga unıng aloqası yo'qligını qanchalik aytmay, odamnıng tili bormaydigan qasamlarni ıchmay, barıbır amakısi gapımni eshi-

tishnı xohlamadi va hakamnıng yordamchılarıga qızni ushlashnı buyurdı. Men endi aralashmoqchı ham bo'lgandim, dafatan boshimga kelib tushgan zarbdan o'zımdan ketıb yıqıldım. Bır soatlardan keyın o'zımga kelib qarasam, butun badanım o't bo'lib yonyapti. Bır necha kun bezgak tutib yotdim. O'sha mash'um kunda ko'rganlarımnıng barı ko'z o'ngimda namoyon bo'ldı va badanım jımirlab, yana hushdan ketib yıqıldim.

Xudonıng marhamatı bılan axırı kecha o'zımga keldım va bugun kechqurun uydan chıqıshga muyassar bo'ldım. Ro'shnolikdan yıroq bu qıznıng qısmati qanday yakun topganı haqıda eshitdimu, ko'rıb turganıngızdek, qıznı dafn etib, u bılan vıdolashısh uchun keldim. Men o'la-o'lgunımcha unı unutmayman va u dunyoda yorim bilan qovushmagunımcha ko'nglim taskın topmaydı.

Yigit shunday dedı-da, cheksız qiynoq va alamda o'z yorıga tıkılgandek qabrga uzoq tikılib turdi. So'ng yana o'z yo'lida davom etdı.

Bırozdan so'ng botayotgan oyga ko'zım tushdi. Ko'p o'tmay oy ko'zdan g'oyib bo'ldi va hamma yoqni zulmat, yuraknı o'rtovchi sukunat bosdi va atrof ovloq joyga aylandı-qoldi. Men uchta qabr do'ppayıb turgan tepalik yonıga bordım va yerga o'tirıb, toshga boqqancha tilga kırdım:

«Nahotki, bu keng dunyo adolat va mehrdan xoli bo'lsa? U mavjud bo'lgan yer yuzıda bır parcha ham joy yo'q ekan, nahot, undan osmonu falak ham mosuvo bo'lsa?

Ochligini qondirishi va oilasini boqishi uchun qariya bechoraga asqotishi mumkin bo'lgan atigi bitta kumush tangani ruhoniy xasislik qilib unga bermay jinoyat qildi. Qariyani o'g'irlik qilib gunohga botishiga ruhoniy majbur etdi va o'g'ri jazosini oldi, biroq uni shu ishga undagan berahm avliyo ota toshbag'irligi uchun jazosini olmadi. Agar ruhoniy bu qadar zolim bo'lmaganda, o'g'irlik ham yuz bermasdi.

Baridan o'z or-nomusini afzal bilgan qizni o'g'irlash uchun hokim o'lponchini yubordi. Singlisini himoya qilish uchun akasi o'ylab ham o'tirmay, odam o'ldirib gunohga botdi. Buning uchun u jazo oldi.

Uni sevmagan qizni o'ziga turmushga chiqishga majburlab, hakam jinoyat qildi. Bunga ko'nmagan qiz o'limga mahkum etildi, zolim hakam jazosiz qolaverdi.

Shunday qilib, haqiqiy jinoyatchi aybsizga, aybsiz bo'lsa jinoyatchiga aylandi; yana ham aniqrog'i, jinoyatchi aybi yo'qning ustidan hukm chiqaruvchi bo'ldi, gunohkor esa uning izmiga tushib qoldi.

Nahotki, shundan so'ng ham osmon uzilib, yerga tushmasa? Nahotki, hech nima sodir bo'lmagandek yana boyagi-boyagi ko'kda yulduzlar porlab, yomg'ir yog'aversa?»

Men gunohsizlar qatl etilgan yerga o'girilib qaradimu, jafokashlarning qonidan hosil bo'lgan ko'lni ko'rdim. Razm solib qaragandim, uning sirtida ko'kda chaqnab turgan yulduzlarning aksi ko'rindi va men osmonga boqdim. Bu Mirrix sayyo-

rasi edi, sayyora shu yerga dafn etilgan qurbonlarning yuragida lovullab yonib turgan bir parcha qahr-g'azab o'ti edi go'yo. Birmuncha vaqt undan ko'z uzolmadim va hozircha u bilan yerimiz orasidagi masofa bir mildan oshmasa-da, uni juda sekinlik bilan yuksaklikdan tusha boshlaganini va borgan sari kattalashib borayotganini ko'rdim. Mirrix sayyorasi daf'atan larzaga keldi, to'satdan jazolovchi farishta qiyofasiga kirdi. Uning ko'zlari va burnidan o't chaqnadi, qanotlarini qoqqanda barini yemirib, buzib tashladi. Malak borgan sari yerga yaqinlashib kelardi. Mana, nihoyat u, baxti qaro qurbonlarning qabriga o'z soyasini solib, pana qilib turgan daraxt uchiga kelib qo'ndi. U qanotlarini shunday silkidiki, hatto larzaga kelgan yer ham yorishib ketdi, so'ng ko'kda xuddi momaqaldiroq gumburlagandek tilga kirdi va: «Mana, nimadan qutulgan bo'lsa, yana o'shanga qaytgan odam bolalari! Mana, yovuzlik, fisq-fujur to'lib-toshgan o'sha zamin! Hatto ko'kdan tushgan biron sohibga unda pokiza joy topish mushkul.

Mana, kuchlariga kuch qo'shilib borayotgan zo'ravonlar, manavilari esa kundan-kunga zaiflashib borayotgan nimjonlar! Mana, boylar qo'liga tushib qolgan faqirlarga tegishli go'sht. Birovlar uni og'zidan oldirib, birovlarning burnidan chiqayotgani.

Mana ular, xayr-saxovat qo'lini cho'zuvchi homiylarini uchratolmay, ochlikdan tirraqdek qotib jon berayotgan yalangoyoqlar. Mana, qayg'u va g'am-g'ussada najotga muhtoj, qiynoqdan nobud bo'layotgan baxti kemtik o'sha odamlar.

Mana ular, garchand ado etishlari buyurilgan bo‘lsa-da, Xudoning amriga itoat etmay kelayotgan hukmdorlar. Adolat o‘rnatish uchun Xudo qo‘llariga tutqazgan shamshirni qiniga joylab, boshqasida tabiatga zid, qonunga xilof ish tutib yurganlar; nimaga intilayotgan bo‘lishsa, o‘shanga erishish maqsadida o‘z istak-xohishlariga yo‘l ochib, o‘z shamshirlarini qo‘ldan qo‘ymay kelishayotir.

Mana ular, yeb to‘ymas, g‘arazgo‘y qozilar. Ular sud ishini adolatsiz tarzda tashkil etmoqdalar. Ular qalqonning narigi yog‘idagilarga zarba berish niyatida qonunni qalqon qilib, uning panasiga berkinganlar. Qonunning bunday himoyasi ostida ular mag‘lubiyat, azob-uqubat nimaligini bilmay, o‘z maqsadlariga erishib kelmoqdalar.

Mana ular, bu yorug‘ olamga hukmron ruhoniylar. Itoatgo‘y bandalaridan tortib olingan mollar bilan cherkovni to‘ldirib, uni qaroqchilarning g‘origa aylantirib yuborganlar. Beva-bechoralarga xayr-sadaqa qilishga kelganda o‘lgudek xasislar.

Mana ular, o‘zlariga xush yoqadigan ko‘ngildagi niyatlarini amalga oshirish uchun hech nimadan qaytmaydigan hukmdor sheriklari: adolatsiz sud ishlariga bosh-qosh, sud bilan og‘iz-burun o‘pishayotganlar; talonchilikka xayrixoh ruhoniylar!

Hukmdoridan tortib, fuqarosigacha, xo‘jayinidan tortib, uning xizmatkorigacha bari Xudoning g‘azabiga duchor bo‘lg‘ay.

Mayli, taxtlar ag‘darilib, cherkovlar qulasin, sud deganlari dom-daraksiz g‘oyib bo‘lsin; darayu vohalar vayron bo‘lsin;

erkagu ayol, keksayu yosh, gunohsizu gunohkor, ezgulik va yovuzlik – barisini yer yutsin. Bularning bari Xudoning g'azabi emas, odamlar o'z boshlariga o'zlari sotib olayotgan balo-qazolar».

U endigina so'zini tugatgan ham ediki, Xudo Nuh payg'ambarga amru farmon yuborgan kun qanday avjga chiqqan bo'lsa, azobda o'ldirilgan qurbonlarning qonidan hosil bo'lgan ko'l ham xuddi shunday qaynab chiqqanini ko'rdim. So'ng bir yurtdan ikkinchisiga o'tib quyilib kelayotgan kuchli qon seli butun yer yuzini qopladi. Dalayu mol-hol, saroyu kulba, insonu hayvon, tili boru tili yo'q – bari, yer yuzini qoplagan qizil dengizga g'arq bo'ldilar. To'lqin sekinlik bilan ko'tarila-ko'tarila men o'tirgan tepalikning cho'qqisiga kelib urilganini ko'rdim. Men qattiq qichqirib, uyg'onib ketdim. Bu 1914-yil 28-iyul kunining erta tongi edi. Birdan derazam tagida: «Urush boshlandi!» degan hayqiriqni eshitdim.

# ROBER MERL

*Rober Jan Jorj Merl 1908-yilnıng 28-avgustıda Jazoirda tug'ilgan. Uning otası Feliks Merl harbiy tarjımon bo'lib, vafotidan so'ng onası farzandlarini olib Fransıyaga ko'chib keladi va oilası bilan shu yerda yashab qoladi. Rober Merl Parıjdagı Buyuk Lyudovik litseyıda falsafa va ıngliz tili yo'nalishıda ta'lim oladi va uni bitirıb, o'qituvchilik bilan shug'ullanadi. Shu paytlarda u Jan-Pol Sartr bilan tanıshadi. Merlnıng ilk e'lon qilingan ıshi Oskar Uayldnıng ıjodiga bag'ıshlangan doktorlik dissertatsiyası bo'lgandı.*

*Yozuvchi ıjodida falsafıy va ıjtimoıy qarashlar kuchli bo'lib, u insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan. Merl ko'p qirrali ıjodkor, u bir qancha pesa, biografik asarlar, tarıxıy romanlar va Fransıya o'tmıshiga oid 13 jildlik qadimiy xalq dostonları, afsonaları muallifidır.*

*Yozuvchi 1949-yilda «Janubiy sohildagı yakshanba hordig'ı Week-end a' Zuydcoote» asarı uchun Fransıyanıng eng oliy adabiy Gonkur mukofotiga sazovor bo'lgan. Rober Merl 2004-yil Parıj shahrıdan tashqaridagi uyida, 95 yoshıda olamdan o'tgan.*

## IZABELLA

### I

Gersog Brachchano, ya'ni Paolo Orsini xotinining vafotidan so'ng g'alati hunarlar chiqara boshladi. U Toskan gersogining yigirma bir yoshli qizi Izabella Medichiga uylandi. Bu nikoh boshida kuyov va kelinning ota-onalari turishdi. To'y uzil-kesil aniq bo'lgandan so'ng keksa Orsini o'g'lini chaqirtirdi-da, balandparvoz va ta'sirli so'zlar bilan bu nikohning nechog'lik manfaatli ekanini dalil-isbotlar bilan uning miyasiga quydi. Paolo tishini-tishiga qo'yib, uning gaplarini oxirigacha tingladi. Nima balo, deb o'yladi u, otam qandaydir yassiko'krak, sariqmashak, miyasiga xurofot in qurgan bir rohibani menga xotinlikka olib bermoqchimi deyman. Paolo hamma gapni u qulog'i bilan eshitib, bu qulog'idan chiqarib yubordi-da, keksa Orsiniga boshini egib minnatdorchiligini bildirdi, so'ng to'p o'ynagani chiqib ketdi.

Izabellani ko'rishga Paoloni majbur qilishmaguncha u hali qizni ko'rmagandi va ko'rishga ham orzumand emasdi. Bu paytlarda u, allaqachonoq suyuqoyoq Lukresiyaning tuzog'iga ilinib, maishatparastlikdan boshi chiqmay qolgandi. Lukresiya endigina o'n besh yoshga to'lgan bo'lsa-da, binoyidek aql-farosatiyu xush tabiati bilan gersogni o'ziga rom etgandi. U

aynan Izabella bilan uchrashuv belgılangan oqshomda, kechkı ovqat mahali Lukresıyanıng huzurıda bo'lishnı ko'ngliga tugıb qo'ygandi va bu rejaga dabdurustdan qo'yilgan to'sıqdan qonı qaynab, bo'lajak xotınınıng yonıga kayfiyatı buzilgan holda kırıb bordi. G'azabinı yashırıshnı eplolmaganıdanmı yo bunı ıstamaganıdanmı, xullas, fig'onı falakka chiqqanini berkıtıb ham o'tırmadi, yerga boqqancha qizning yonida paydo bo'ldı, boshını ko'tarıb qaradi-yu, qarshısıda turgan o'rta bo'ylı, ko'hlıkkına, xushbichım, ko'zları tıyrak, yıgıtnı yaxshiroq bılısh ilinjida unga ayyorona tıkılib turgan sohibjamol qıznı ko'rıb, hayratdan tong qotıb qoldı. Yıgıt bosh egıb salom berdı. Qız ham, garchand unıng nıgohları bunıng aksını aytıb turgan bo'lsa-da, barıbır yigitnıng hurmatını joyıga qo'ydı unga ta'zım bajo qıldi. Bu ıshvadan yıgıtnıng yuragı «jız» etib ketdı va u bir zumga Lukresıyanı unutdi.

Muhtaram janob, - deb so'z boshladı Izabella, ularnı zo'rg'a yolg'iz qoldırıshgandan so'ng namoyıshkorona samımıylik bilan, – tan olib aytıshımız kerakkı, ıkkımıznı ham pıchoqsız so'yıshdı. Ota-onalarımız tuyg'ularimıznı nazar-pısand qilmay, boshımıznı qovushtirıshmoqchi, ayting-chi, bunday nıkoh bıznı baxtli qila olarmıkan? Hamonki, o'zga ilojımız yo'q ekan, nasronıylarga xos ıtoatkorlık bılan peshonamızda borını ko'raveramız-da. Menga kelsak, hayotingıznı buzısh nıyatım yo'q, to'ydan so'ng menı o'zıngızga qarashli yer-mulkka jo'natıb yuborıb, bu dunyoda mendek qız borligını unutıb yuborsangız

ham sizdan zarracha ranjimasdim, aksincha, bundan o'zimni baxtiyor his etgan bo'lardim...

Shunday kayfiyatda, biron marta ham adashmay-netmay, odob-axloq doirasida Izabella Medichi suhbatdoshiga teshib yuborgudek tikilgancha, rosa o'n daqiqa gapirdi. Gersogning og'zi lang ochilib qolgandi. U Italiyaning eng xushbichim yigitlari safidan joy olgani uchun ham shunday zebo qiz undan umrbod yiroqda yashash istagini bildirganidan judayam hayron qolgandi.

- Oyimqiz, – dedi yigit, nihoyat tilga kirib, – odam bo'lajak turmush o'rtog'iga ham shunday deydimi! Meni endi ko'rib turgan bo'lsangiz-u, darrov qochib qolishni o'ylayapsizmi?

Izabella «nasroniylarga xos itoatgo'ylik»ni dam-badam tilga olib, yana o'zining uzundan-uzoq nutqini boshladi. Gersog oxiri qiz uni kalaka qilayotganini payqab qoldi. Uchrashmaslaridan avval bu nikohga xushi yo'qligini, hozir esa fikri o'zgarganini va qizning yonida bo'lishdan baxtiyor ekanini u takallufsiz, aql-hushini bir joyga qo'yib, aytib qo'ya qoldi.

– Yo'g'-ey, – dedi Izabella ochiqdan-ochiq uni masxaralab, rostdan-a? Nahotki, Lukresiya xonim bilan birga bo'lishdan ko'ra, men bilan suhbat qurishni afzal ko'rsangiz?

Darhol o'rtadagi xafagarchilikni yumshatish maqsadida, o'z hazilga o'zi birinchi bo'lib kuldi-da, suhbatdoshiga yoqimli qarash qilib, uning qo'liga suyandi.

Ilk uchrashuv anchagacha cho'zıldı. Paolo hayratının chekı yo'q edi: Izabella asılzodalardan bo'lsa-da, aslida ham oqsuyaklar ıchıda kuymalanıb yuruvchi qandaydir suyuqoyoq ayoldan aqli ancha zıyrak chiqıb qolgandı.

Unashtırılganlar suhbatlashayotgan xonaga uni yollagan ashaddıy g'alamıs keksa Orsınıga borıni oqızmay-tomızmay yetkazıb turuvchı ayg'oqchi yashirınıb olgandı. Ishlar o'zı istagandek tus olayotganıdan xabar topgan Orsınının og'zı qulog'ida edi. Paolonıng battol fe'lidan boxabar bo'lgan qarıya, nasl-nasabi uchun manfaatli bunday nıkohdan quruq qolishdan cho'chır, o'g'li yosh gersogınyanı va qiz orqali unıng oılasını ranjıtıb qo'yıshıdan xavotirda edı. Qarıya Orsınını bir necha yillardan berı og'ir dard azoblab kelardı, shu tufayli u butunlay holdan toyıb qolgandı; otanıng bırdan-bır armoni mana shu nıkohnı ko'rıb qolish edı. Izabella o'g'lining aql-hushını olib qo'yganıga ıshonch hosıl qilgan qarıya chuqur mamnunıyat hıssını tuydı-da, o'zınıng bosh kotıbi va sınashta bo'lgan vakıliga: «Endi o'lsam armonim yo'q», – dedi va oradan bir hafta o'tar-o'tmay dunyodan o'tdi.

Izabella Paologa o'g'il hadya etısh baxtıga muyassar bo'ldi. Bolaga Vırjınıo deb ısm qo'yıshdı va Izabellanıng akası, Toskan gersogı Franchesko Medıchı chaqaloqnıng cho'qıntırgan otası bo'ldı. Franchesko sınglisı Izabellaga boshqacha mehr qo'ygandi va hamısha qızga qattıqqo'llik bilan munosabatda bo'lib kelardı. Bır kunı Izabella jilmayganicha erı Brachchanoga

agar Franchesko gersog unvonını ular turmush qurmaslarıdan avval olganıda, akasi biron nımanı bahona qilıb ularnıng to'yını to'xtatıshı va sınglısını cherkovga haydab solgan bo'lishı mumkınligını aytıb qoldı.

Er-xotınnıng o'n sakkız yıllık turmushları mobaynıda Brachchanonıng gersogınıyaga muhabbati shunday kuchli bo'ldıkı, hech bır ayolnıng gersognı uzoq muddat ushlab turıshga qurbi yetmasdı. Bıroq gersog askar edı, u olis yurtlarda jangda bo'lardı. Izabella o'zını tashlab ketilgan ayoldek hıs etardı. Erıning xıyonatlarıdan xabar topganıda alamını ıchıga yutardı. Bır kuni Paolo sakkız oylik harbıy safardan qaytgach, rashk o'tıda yongan Izabella erını sovuq kutıb oldı va og'zıga kelgan har xıl pıchıng gaplarga Paoloni ko'mıb tashladı. Xudo unı aql-farosatdan qısmagandı.

Menga qarang, xonim! dedi izzat-nafsı og'rıgan gersog. Menga bo'lmag'ur ayblarnı taqashnı bas qıling! Nahotkı, sız menı yo'l bo'yıda tasodıfan duch kelib qolgan qandaydır qıshloq qızıdan qızg'ansangız? Nıma, ochdan o'lay deb turganımda, sıznıngcha, o'z nasıbamdan voz kechıshım kerakmı?

Men bo'lsam, janob, mag'rur e'tıroz bildirdi Izabella, – duch kelgan yerdan qornımnı to'yg'azıshdan ko'ra, ochdan o'lishnı afzal ko'rgan bo'lardım.

Bu javob gersogga qattıq botdı. U lom-mım demay rangı-qutı o'chgancha xonadan chıqdı-da, otga mınıb, shu ba-

dar ketgancha bir yilgacha qorasini ham ko'rsatmadi. Agar otasining ustomonligidan unga zarracha yuqqanida edi, u bironta xizmatkorga gersoginyani kuzatishni topshirardi-da, erining suratidan bo'sa olmaguncha, uxlagani yotmasligidan darak topgan bo'lardi. Odam bo'yi baravar qilib ishlangan bu surat devorga osilmagandi, balki yerga qo'yib, chekkasidan devorga mahkamlangandi, shuning uchun u xuddi xotinining xonasiga kirib kelayotgandek taassurot uyg'otardi. Har kuni kechqurun Izabella tungi ko'ylakda yalang'och yelkalariga sochini yoyib, erining suratiga yopishgancha, bor ovozi bilan oh-voh qilib ko'z yosh to'kardi. Uning bo'yi uncha baland bo'lmagani bois rasmdagi odamning labiga labini tekkizish uchun oyoq uchida turib cho'zilishiga to'g'ri kelardi.

Gersog Izabella bilan 1576-yilning bahorida yana uchrashdi. Xotinimning mendan ko'ngli qolgan, deb uni unutish uchun bechora nimalar qilmadi. U o'z surati yoniga o'tirib oldi-da, iloji boricha unga qaramaslikka harakat qildi va gersoginyaning hurmatini joyiga qo'yib, bir-ikki og'iz gapirdi. Izabella bu manzarani xayolida butunlay boshqacha tasavvur qilgandi. Ushbu uchrashuvdan ilgariroq Brachchano Lukresiya bilan ilgarigi eski aloqalarini boshlab yuborgani va ikki kun avval kechki ovqatni u bilan birga qilgani Izabellaning qulog'iga yetib kelgandi. Buni eshitgan gersoginya battar qayg'uga botdi. Xizmatkor bekalardan birining aytishicha, Lukresiya Izabelladan biroz kichik bo'lib, o'rtadagi arzimagan bu tafovut ham uning nazdi-

da alohida ahamiyatga ega edi. Izabellaning yoshi endi o'ttizdan oshgan, hali o'n gulidan bir guli ochilmagan bo'lsa-da, lekin men qarib, so'lib, jozibamni yo'qotganman deb o'zini ishontirishga urinardi.

Unga tinchlik bermay qo'ygan o'y-xayollardan Izabellaning rang-ro'yi bir holatda edi, xotinini kelib ko'rgan Brachchanoning xayoliga boshqa fikr kelgandi. Muhabbatini gersogning suratiga qarab qayta-qayta izhor etishdan charchamagan Izabella, endi o'sha rasmning asl nusxasi yonida o'ng'aysiz bir holatda sukut saqlab o'tirardi. Uning xayoli Lukresiyada edi va u gersogni haqorat qilib yuborishdan cho'chib, gap boshlashga yuragi dov bermayotgandi. Endi ayol barcha ko'ngilsizliklarga duchor qilgan o'zining fahm-farosatiga ishonmay qo'ygandi. Kishiga azob berishdan nariga o'tmaydigan shuncha samimiylikdan toqati toq bo'lgan Izabella o'rnidan qo'zg'aldi. Brachchano uni bu taxlit tez kuzatib qo'yishayotganidan juda ranjidi va ketishga taraddudlanib, Izabellaning qo'lidan beparvogina o'pdi-da, teskari o'girildi. Eshik oldiga yetganida, suratga ko'zi tushdi. O'n yil avval, hali gersoginya uni sevgan paytlarda o'zining qanday bo'lganini alam bilan esladi. Gersog birdan to'xtadi-da, suratga sinchiklab razm soldi va suratdagi kulib turgan, samimiy bu yigitning endi bu sho'rpeshona erkakka g'ijinib qarayotganini his etdi. U gersoginyaga o'girildi-da:

Suratım bu yerda ko'p joyni egallabdi, uni bu yerdan olib ketishlarini aytaman, – dedi ro'yxush bermay.

U xiyol burilgancha yerdan ko'z uzmay biroz kutdi. Ayoldan sado chiqmagach, unga nazar ham tashlamay, chiqdiyu-ketdi. Xotini o'zi istaganda ham og'iz ochishga majoli qolmagandi: Izabella karavotga suyangancha jim, hissiz qotib turardi.

* * *

Ertasiga gersog jo'nab ketdi. Izabella uni bir talay mulozimlar hamrohligida saroydan chiqayotganini derazadan kuzata turib, gersogni go'yo so'nggi bor ko'rayotgandek bir hisni tuydi. U sakkiz yil avval gersog unga hadya qilgan olmos bezakli ixchamgina xanjarni oldi-da, yuragiga sanchishiga bir baxya qoldi. Oysha uning qo'lidan tutib qoldi. Izabellani o'g'lidan ajratganlaridan beri u shu qizga bog'lanib qolgandi. Akasi Virjinioni saroyning ishonchli xizmatkorlariga topshirgandi. Hali o'n besh yoshga ham to'lmagan mavr qizining gersoginyaning qo'lidan xanjarni tortib olishga kuchi yetmasdi, shunday bo'lsa-da, qizcha xonimni yana bir bema'ni urinishdan to'xtatib qolish uchun uni tishlab, yumdalab joni boricha harakat qildi. Oysha birdan noqulay o'girilgandi, tig' uning yuziga tegib yorib yubordi, qizginaning yuzidan qon tirqirab oqa boshladi. Gersoginya qo'rqqanidan qichqirib yubordi. U xizmatkorni o'ldirib qo'ydim degan xayol bilan xanjarni itqitdi-da, mushtdekkina cho'rini bag'riga bosdi, uning tirik ekanini ko'rganidan so'ng sal-pal erkin nafas ola

boshladı. Bu ko'rgılıklar undagı bor g'am-anduhlarnı ham tarqatib yubordı va Oyshaning jarohatini yaxshilab yuvib-tozalab bo'lganıdan so'ng o'lim to'g'rısıdagı bema'nı xayollarga boshqa berılmaydigan bo'ldi.

Besh yıldan berı gersogınyanıng uyıda bo'y-basti. aft-angorı. hatto fe'l-atvorı bilan ham quyıb qo'ygandek gersogning o'zıga o'xshash, unıng uzoq qarındoshlarıdan Troılo Orsını degan kımsa eshik og'asi bo'lib xızmat qılardı. Bu odamnıng gersogdan yagona farqı, o'zıga topshırılgan vazıfanı sidqidildan, halol ado etıshida edi, gersogdek baxtli bo'lib tug'ilish nasıb etmagach, nımayam qılsın. Izabella erı yo'q paytlarda o'zı boshqarıshiga to'g'rı keladıgan hovli-joyda o'lgudek zerıkardı, vaholankı, vaqtını chog' o'tkazısh uchun abjırlik, kuch talab etuvchı ko'ngılochar o'yınlar unıng uchun muhayyo edı, u soatlab ot chopardı, tırmashıb qoyalarga ham chiqardi, so'ng qızib ketganıdan tog'nıng muzdekkına soyıga o'zını tashlab, hovurını bosıb ham olardı. Troılo Orsını yonıdan jilmay unga hamrohlik qilardi. Bu saroy xızmatkorı unga ko'ngil qo'ygandı va Izabella bularnı garchi sezmasa-da, Orsını vazıfasıdan foydalanıb, gersogınya o'zını yolg'ız hıs etmaslıgı uchun ayolga ancha-muncha mayda xızmatlar ko'rsatıb turardı. Troılonıng tuyg'ularını Izabella mutlaqo payqamasdi; u bor-yo'g'ı xizmatkor edi, xolos, Izabella unga o'zınıng sodıq ıti yoki otiga qaragandek qarardi. Ayol sekın-asta uni o'zıga yaqınlashtırıshga jur'at etıb. dam-

badam unıng qo'liga suyanar, uni o'z xonasıda qarshı olib, unıng oldıda yechınardı ham...

Troilo bir paytlar gersognıng qo'shınıda xızmat qılgandı, xızmat qılganda ham mardlarcha jang qılib, o'ng qo'lidan yaralangandı, shu-shu u butunlay yaroqsiz bo'lib qolgandi. Bu majruhlik unı jangovar qahramonliklardan voz kechıshga majbur etgandı. Shundan so'ng gersog Orsınınıng gardanıga xo'jalikni boshqarısh vazıfasını yuklab qo'ygandı, garchand bu ısh unıng ko'nglidagıdek bo'lmasa-da, biroq u o'zıga topshırılgan ıshnı sıdqıdıldan ado etishga o'rganıb ketgandı. Gersogınya Orsınını o'zıga yaqınlashishga ızn berganda, boshda halovatnıng avj pallasıga erıshganını hıs etdı-yu, biroq keyınchalik bundan qattiq ko'ngli qoldı. Bır tarafdan ehtırosdan esı og'ay derdı, boshqa tomondan sevgan ayolınıng unga jonsız buyumdek munosabatda ekani unı ıztırobga solardı.

* * *

Brachchano jo'nab ketgandan so'ng ıkkı oy o'tıb, gersogınya Troılonı chaqırıshnı buyurdi. Ertalab kun odatdagıdan ıssıq, yarım yalang'och Izabella Oyshanıng yonıda sochını taratıb o'tırardı. Xizmatkor kelganıda ayol boshını ham ko'tarmay, o'lib qolgan to'tinıng ahvolını surıshtıra ketdı. Troılo bir lahza tildan qoldı. U bir vaqtnıng o'zıda ham xohısh, ham g'azab o'tida qıynayotgan unıng go'zal yelkalarıdan ko'z uzolmay qoldi. «Bu qanday bedodlik, o'yladı u, nıma, men erkak emasmannı,

ayollar tap tortmay menıng yonımda yechınaveradı?». «Erkak emas» degan so'zdan unıng battar fig'onı falakka chıqsa-da, barıbır tıshinı-tıshıga bosdi.

– Shunday qılib, Troilo, to'tı... dedi gersogınya sabrsızlik bilan o'sha-o'sha boshinı ko'tarmay.

– Shunday qılıb, xonım, cho'rt kesıb dedi Troılo, – to'tilarıngızga qarash uchun endi saroydan boshqa xızmatkor yollaysız. Ertadan boshlab men sıznıng xızmatkorıngız emasman.

Bunday ohang gersogınyanı hayron qoldırdı, chunki Troılo unga har doım o'ta odob bilan murojaat etıb kelardı. Ayol boshını ko'tardi, ıkkı oy avval Brachchanonıng suratı qo'yılgan joyda Troilo Orsıni devorga suyanıb turardi. U qo'llarını ko'kragıga chalıshtırıb, g'azablı nıgohinı ayolga qadagandı. Gersogınya seskanıb tushdı. Bu naq gersognıng nıgohı edı.

Troilo, nıma gap o'zı? dedı xızmatkorning shartakılıgıdan o'zıga kelolmay ayol. – Sıznı xafa qılishdımı deyman?

Ha. xonım. – dedı muloyım ovozda Troilo hamon ayoldan darg'azab ko'zlarını uzmay, – menı ayovsız tahqirlashdı.

U qaltırab turgan qo'lları bılan Izabellanıng o'zını ko'rsatdı.

– Hali menmı, Troilo? azbaroyı hayratdan qıchqırıb yubordi gersogınya. – Halı menmı sıznı tahqırlagan? Nima qılib tahqırlabman?

– Mana, xonım, nıma qılib, – dedı u qo'li bılan ayolnıng yarım yalang'och tanasini ko'rsatıb.

Gap nimada ekanligini daf'atan Izabella tushunmadi. Tushungandan so'ng yuzi cho'g'day qizarib ketdi. Troiloning birgina ishorasi unga jonsiz buyumdek qarashlarini chippakka chiqarib yuborgandi. U o'zini chetdan yarim yalang'och, buning ustiga erkaklarning ko'z oldida kishining g'ashini keltiradigan qiyofada ko'rdi. Sharm-hayo, g'azab va nafrat bir bo'lib uning ko'nglini shunaqangi alg'ov-dalg'ov qilib yubordiki, sal bo'lmasa hushdan ketayozdi.

– Yaramas! qichqirgancha sapchib o'rnidan turib ketdi Izabella. – Hali sen o'z bekangga ko'z olaytiradigan bo'ldingmi! Sen-a?! Xizmatkor bo'la turib-a?!

U yugurib to'shagi yoniga keldi-da, yostiq tagiga yashirib qo'ygan xanjarni olib, Troiloga tashlandi. Troilo bor bo'yicha qaddini rostladi-da, o'sha-o'sha qo'lini qovushtirgancha tek qotib turaverdi. Xizmatkor hali bu darajada gersogga o'xshab ketmagandi.

– Itvachcha! – dedi ayol teskari qarab, jahd bilan xanjarni xonaning narigi burchagiga uloqtirarkan. – Yo'qol! Bundan keyin qorangni ko'rmay!

– Shunday bo'lgach, men bu dargohdan hoziroq ketaman, – sovuqqina dedi Troilo.

– Ertaga! – baqirdi gersoginya nima deyayotganini o'zi ham anglamay. – O'zing «ertaga» dedingmi, demak faqat ertaga ketasan! Agar itoat etmasang, seni qamab qo'yishlarini buyuraman!

Troilo ayolga g'alati qaradi.

– Men nima ham derdim! – dedi u mutlaqo xotirjam ohangda. – Ixtiyor sizda. Ertaga bo'lsa, ertaga-da.

U ta'zim qildi-da, chiqib ketdi. G'azabdan ko'zlari yongan gersoginya qattiq tugilgan mushtumlarini tishlagancha xonaning u yog'idan-bu yog'iga borib-kelardi. Bu telbalikdan uzoq vaqt xalos bo'lolmadi.

– Nega jahling chiqyapti? – daf'atan so'radi Oysha mavritancha taomilga ko'ra unga «sen» deya murojaat etib, – u erkak bo'lsa, sen esa ko'zga yaqin ayol bo'lsang.

– Eshik og'asi! – qichqirdi gersoginya. – Mening xizmatkorim!

Davom ettirishga endi ayolning holi qolmagandi. Boshqa so'z ham topolmayotgandi.

– U axir erkak bo'lsa, – takrorladi Oysha unga ma'noli ko'z tashlab.

Bu nigoh gersoginyani taajjubga soldi. U o'ta ziyrak ayol edi, shu bois Orsini ikkalasi o'rtasidagi mujmal munosabatni fahmlamasligi mumkin emasdi. O'zini sarkashlikdan tiyolmay, evaziga topgan huzur-halovat uchun o'zini la'natlardi. Mening badanimni tomosha qilganidan qanchalik huzurlanayotganini bilmas darajada ovsar emasman-ku.

– Oh, qabohat! – dedi gersoginya baland ovozda yana xonaning u burchidan bu burchiga borib kelarkan. – Uning erkakligini go'yo bilmagandek o'zimni go'llikka soldim... Borib

turgan tannozu eng past suyuqoyoq ham bunday... – davom etdı ayol zo'r hayajon bılan va gapı oxırıga yetmadı. – Orsını shunday oliyhimmat asılzodalardan bo'lsa, bunıng nimasi ajablanarli...

Ayol bırdan Orsınını oqlayotganını fahmlab qoldı va uning qo'polligı o'zını ko'pam haqoratlamaganını xavotır aralash sezıb qoldı

Haqoratlangan emıshman, bıroq kımnıng oldıda? - dedı va bırdan kulib yubordi. - O'zımnı-o'zım aldashdan nıma foyda? Men o'zı kımman gersogınya Brachchanomi yo tashlab ketılgan ayol? Ustıga-ustak endi yosh emasman, – qo'shib qo'ydi u, oynada unga hafta mobaynıda tınchlık bermay kelayotgan ajınga boqarkan.

Yuzıdagı ajınga ko'zı tushıshı bilanoq unıng kayfiyatı tushıb ketdı. O'rınga o'zını tashladı-da, yuzını yostıqqa burkadi.

– Nıma bo'ptı! dedi u kechqurun bıroz o'zını bosib olgach. Men to'g'rı yo'l tutdım. Orsını ertaga jo'nab ketıshı birdan-bir to'g'rı yo'l... Qanaqasıga! – baqırıb yubordı u yana o'sha zahotı. Demak, u ham meni tashlab ketar ekan-da?

«U ham-a?» degan so'zni tilga olganıda, qattıq uyat yuragını o'rtab yubordı. Ayol birdan Orsınıni gersogga tenglashtırıb xato qılayotganini payqab qoldı.

Xızmatkor! – dedi u ovozını chıqarıb. «Xızmatkor» so'zi uncha-muncha bo'lsa-da, sho'rlik gersogınya ıstasa qo'l sıltashı

mumkın bo'lgan ular orasıdagı bırdan-bır yagona mustahkam to'sıq edı. Shafqatsız g'am-g'ussa uni azoblashdan charchamasdı. Gersogınya Orsını jo'nab ketgandan keyıngı hayotini ko'z oldıga keltırdı-da, undan yuz o'gırgan gersogdan so'ng ayolnı o'z g'amxo'rlıkları bılan qo'llab-quvvatlab turgan yagona ınson ekanligını tushunıb yetdı. U beıxtıyor qachonlardır Brachchanonıng suratı turgan joyga nazar tashladı va suratnı u yerdan olib ketishgani yodıga tushdı. So'ng ancha vaqtgacha karaxt bir holda o'z to'shagıda qimırlamay o'tırdı.

– Ketsa ketaversın! – dedi u nıhoyat boshinı ko'tarıb. – Or-nomuslı ayol shunday yo'l tutadı... Or-nomusli... – tezda takrorladı u alamnok kulgı bılan. – Erımnı ushlab qolish uchun o'sha or-nomus deganları menga nıma qilib berdı?

Kech soat o'n birlarda gersogınyanıng yonıga chopar keldı. U gersognı kuzatish maqsadıda gersogınya tomonıdan tayınlangan odam bo'lib, shu topda yangi mujda bılan tashrıf buyurgandı: Brachchano mavritan qaroqchilarıga qarshi flotnı safarga hozırlayaptı ekan. Unıng o'zi Venesıyada bo'lib, Lukresıya ham unga ergashib o'sha yerga ketgan. Brachchano oqshomlarnı ayol bılan bırga o'tkazarkan.

Oysha, – qichqirdi gersogınya, – Troilanı chaqır bu yerga! Zudlik bılan huzurımga kelsın! Bu menıng amrım!

Bır payt rang-qutı o'chgan, ammo xotırjam holda Orsını kirib keldı. Ayol hamon ayg'oqchi keltirgan chaquv mak-

tubını titroqli qo'lıda ushlab turgancha unga nazar tashladi. So'ng Izabella maktubni g'ijimladı-da, burchakka uloqtırdı va Orsınıning yonıga keldi.

- Janob, – dedi gersogınya, xızmatkorga deyarlı yopıshib, – men oldıngizda gunohkorman va bu aybimnı yuvıshga tayyorman...

## II

Ikkı oy o'tgach, Izabella akasınıng Florensıyadagı qasrıga jo'nab ketdı. Akasi bır yıldan berı unı chaqırganı-chaqırgan edı, garchı Franchesko unda mehrdan ko'ra ko'proq qo'rquv hissını uyg'otsa-da, o'z akasıga itoat etıshdan uzoq vaqt o'zını olib qochıshnıng ıloji yo'q edi: o'sha paytlar akasıga deyarlık erıdek saltanatga egalik qılish nasıb etgandi.

Ayolnıng sayohatdan asl maqsadi Franchesko saroyıda xızmat qiluvchi o'n to'rt yoshli o'g'li Vırjinıo bılan ko'rıshish edi. Troilo Orsını esa bu safarda unga xızmatkor sıfatıda hamrohlik qılardı, bıroq gersogınya negadir Oyshani noma'lum sabablarga ko'ra o'zı bilan olib kelmagandı. Ehtımol, bu hol mavrıtanlik qıznı bevaqt ajaldan yokı, jilla qursa azob-uqubatdan saqlab qolgan bo'lsa, ajab emasdı.

Franchesko Brachchanonıng ızzatını joyıga qo'ygandek, Izabellanı ham qora sarupoda, dabdabali mulozımlar

hamrohligida, otga minib, alohida hurmat-ehtirom bilan kutib olishga chiqdi. Shunga qaramay, ular zo'rg'a yolg'iz qolishdi va aka ta'rifga sig'mas qahrli nigoh bilan singlisiga yeb qo'ygudek tikildi-da:

— Mabodo Brachchano haqida mening qulog'imga chalinayotgan uzunquloq gaplar rost bo'lsa, bundan o'n sakkiz yil burun gapimga kirib, cherkovga ketganingizda oqilona yo'l tutgan bo'lardingiz, — dedi.

Bularning bari gersoginyani ranjitish niyatida oldindan o'ylab qo'yilgan uzundan-uzoq nutqning debochasi edi. U gapni ayolning tashqi ko'rinishiga istehzoli tahsin o'qishdan boshladi, so'ng gersoginya o'zini qiynoqda qolgandek his etib azob chekishi uchun ularni nafrat to'la nigohi bilan kuzatgancha singlisini haddan ziyod iltifotga ko'mib tashladi. Francheskoning jag'i bir zum tinmas, qop-qora kiyimga burkanib olib, bukchaygancha ayolning atrofida parvona edi, to'g'rirog'i, u yoqdan-bu yoqqa tinmay borib kelar va akasining har bir harakati zamirida allaqanday vahimali, yovuz nimadir bor edi. Sho'rlik gersoginya ko'z ochib-yumguncha burda-burda qilishga shay turgan yirtqichlar ichiga tushib qolgandek his etardi o'zini. Nihoyat Franchesko yo'lga tushib ostonaga yetganda mutlaqo beparvolik bilan gersoginya o'g'lini ko'rolmasligini ma'lum qildi: o'g'li va yana bir qancha saroy a'yonlari kechagina Brachchano uchun Venesiyaga pul olib ketishgandi. Gersoginya o'z xonasiga qaytganidan so'ng

o'sha zahoti Troilo Orsiniga odam jo'natdi. U saroy hovlisida Izabellaning buyumlari ortilgan aravani bo'shatishga ko'z-quloq bo'lib turgandi: Orsini o'z ishining jonkuyari, chaqqon bir inson sifatida aynan gersoginyaning qimmatli yuklarini qasrning ayol uchun ajratilgan joyiga tashiyotgan bir paytda zarurat yuzasidan bo'lsa-da, birrovga chiqib ketish ham uni ranjitdi. Troilo Izabellaning ayni yig'lab turgani ustiga kelib qoldi: ayol Florensiyaga yaqinlashib qolgan bir paytda, o'g'li Virjinio akasining buyrug'i bilan Venesiyaga yo'l olgandi. Francheskoning bu nayrangi Orsinini ozmuncha iztirobga solmadi. Gersoginya azbaroyi akasini hurmat qilganidan uning taklifini qabul qilishda shoshqaloqlikka yo'l qo'ymadimikan, deb o'yga toldi Orsini.

Gersoginya o'z yotoqxonasidan birgina parda bilan to'sib qo'yilgan alohida xonaga chiqib ketdi va oqsochlar uni yechintira boshlashdi. Orsini ayolga ergashardi-yu, biroq, u yerdan saroy hovlisi ko'rinmasligi ma'lum bo'lgach, yotoqxonaga qaytdi-da, yana gersoginya bilan suhbatini davom ettirdi va bir vaqtning o'zida yuk tushirayotgan xizmatkorlardan ham xabardor bo'lib turdi.

Orsiniga yuragini bo'shatgan gersoginyaning qo'rquvlari ham tarqadi. Bu orada oqsochlar uni cho'miltirishdi, bundan shunday rohatlandiki, hatto u yo'qqa chiqqan umidlarini ham deyarli unutdi. So'nggi ikki yil davomida o'z mazmunini yo'qotgan bu hayot, yoqimli yaqinlikdan so'ng qayta o'z o'rniga

tushgandek bo'ldı. Brachchano bılan bo'ladıgan kamdan-kam uchrashuvlar va Orsınınıng unıng yonıda bo'lishı oxır-oqıbat gersogınyanıng butun jon-tanı bilan berılib ketgan halovat tuyg'usını hıs etıshga sabab bo'ldı. Mana, ıkkı oydırkı, ular bır-bırlarıdan ayrılmay, odob-axloq qoıdalarinıng hech bir taomıliga amal ham qilmay eng namunali er-xotınlardek yashab kelishardi. O'zaro munosabatnıng oddiylıgı gersogınyaga ulkan zavq bag'ıshlardı. Umrida bırınchı marotaba bu mag'rur ayol deyarli muloyım bo'lishga va qushchadek chug'urlab so'zlashga jur'at eta olgandı.

Negakı bu safar Orsıni faqat ahyon-ahyonda, qısqa, lo'nda javob qaytarardi. Oxırı Izabella parda ortidan turıb:

– Nıma bılan bandsız? Gapımnı eshitmayapsizmı deyman? – dedi.

Men yukıngiznı nazorat qilish bilan bandman.

Gersoginya kulib yubordı-da, tegajog'lik qılib:

- Juda serhafsalasız-da! Bılasızmı, men sıznı juda qo'pol odam deb bilaman! dedı.

Xonım, men ovozıngıznı ham, so'zlarıngiznı ham yaxshi eshityapman, dedi Orsını yoqımli ohangda. Ovozıngiznı eshıtsam xursand bo'laman, biroq boshqa payt bo'lganda so'zlarıngıznı javobsız qoldırmasdım.

- Qanday surbetlik! Boshqacha aytganda, men aljırayotgan ekanman-da?

– Men bunday demadim!

Qulog'ım sızda! – kulib e'tıroz bıldırdi gersogınya. – Rostını aytsam, ovozıngızga unchalik ham ilhaq emasman, yonimda ekanıngıznı his etıb tursam bo'lganı.

Shu on Orsını oynadan boshını chiqarıb qaragandı, yuk tushirayotgan xızmatkorlardan birınıng tezda u yoq-bu yoqqa ko'z tashlab, o'gırılib, qo'ynıga nımanıdır yashirganını ko'rıb qoldi. U bu ıshnı shunday epchıllik bilan uddaladıkı, Orsını hatto ko'zlarıga ıshonmadı. Ko'rganları haqıqat ekanıga ıshonch hosıl qılish uchun u shoshib gersogınyanıng xonasıga chıqıb u yerdan hovliga tushdı.

Gılamlar unıng qadam tovushlarıni yutıb, Izabella Troıloning ketganinı sezmay qoldı.

Qımmatli Troilo, – davom etdı dimog'i chog' ayol kımsasiz xonaga murojaat etarkan, – mabodo sız... shoshmang, o'shanda sız mag'rur turıb nıma dedıngız? Ha, «ayovsız kamsıtıldıngız», agar men shu tobda hech bir mubolag'asız sızga ko'rınsam-chı? Pokıza qo'llarıngız bilan yuzlarıngıznı berkıtıshga shoshıling, o'sha sıznıng xayolingıznı band etgan yuklardan ko'zıngıznı uzmang, yo'qsa, hozır ko'z-o'ngingızda namoyon bo'ladigan manzara yana sıznı tahqırlashı mumkın. Ana, xolos! – davom etdı ayol kulib. – Aytadıgan gapıngız yo'qmi? Sız menı ko'rmay turıb halitdan ranjıdıngız chog'ı? Nahotkı, menıng go'zalligımnı tasavvur etısh ham sıznıng ızzat-nafsıngız uchun qo'rqınchlı bo'lsa?

U qo'li bilan pardani surdi-da, nafislikdan namiqib, yonib turgan katta-katta moviy ko'zlarini o'ynatgancha, kulib, deyarli ochiq-sochiq holda xonaga kirib keldi. Biroq, bir-ikki qadam yurar-yurmas turgan joyida qotdi-qoldi: ro'parasida qop-qora libosga burkangan, katta boshini bir yonga engashtirgancha Franchesko Medichi ayolga teshib yuborgudek tikilib turardi. U singlisining xonasi yonidan tasodifan o'tib keta turib ayolning eshigi ochiqligini ko'rgan va kirgan, barcha gaplarini eshitgan ham edi.

Izabella endi tamom bo'ldim, deb o'ylagan bo'lsa-da, Francheskoning ayolga yeb qo'ygudek tikilib qarashi oldida ajal ham unchalik qo'rqinchli tuyulmayotgandi. Francheskoning yuzi nafrat va qo'msovning aql bovar qilmas qorishuvidan tirishib-burishib ketgandi.

Bir necha daqiqa shu zaylda o'tdi. Akasi qayerda va qay holatda Izabellaning ustidan chiqib qolgan bo'lsa, ayol o'sha yerda va o'sha holatda haykaldek qotib turardi. Franchesko ham qimir etmayotgandi. Faqat uning ko'zlari bejo boqardi. Gersoginyaning badani bo'ylab yugurgan sayin u ko'zlar tobora qonga to'lib borardi. Izabella uning nigohida uqigan aralash-quralash bo'lib ketgan adovat va shahvoniy hirslar shu qadar qo'rqinchli ediki, Franchesko xanjarni qinidan sug'urib olganida gersoginya beixtiyor o'zini yengil his etdi. Akasining qo'li va nigohi go'yo qarama-qarshi buyruqqa bo'ysungandek, Izabellaga yeb yuborgudek boqdi-da, xanjarni juda ohistalik

bilan sug'urdi. U garchand ayolga yaqin turgan bo'lsa-da, Izabellaga xanjar sanchish uchun oldinga bir qadam ham bosmadi. Qo'llari qurolni arang tutib turar va yovuz, hirs to'la nigohini Izabelladan uzmay, xirillab nafas olardi.

Ko'ksi bilan o'zini tig'ga tashlagandek, gersoginya unga peshvoz chiqdi. Birdan Francheskoning nigohidagi nur ham so'ndi. Akasi xanjarning damidan tutgancha, sop tomoni bilan Izabellaga uzatdi. Keyin ko'zlarini yerga olgancha, pastki lablari titrab, Izabellaga teskari qarab turaverdi.

Izabella xanjarni qo'liga olishi bilan Franchesko shiddat bilan chiqib ketdi. Bu vaqt ichida u churq etib og'iz ochmadi.

Izabella xanjarni to'shagiga tashladi-da, yugurib deraza yoniga bordi va ovozining boricha qichqirib Troiloni chaqirdi. Biroq u, o'g'ri bilan andarmon bo'lib, shovqin-suron ko'tarayotgan xizmatkorlar to'dasi orasida qolib ketgan, hech nimani eshitmayotgandi. Gersoginya mushkul ahvolda qolgandi: Orsinining oti undan bir necha qadam narida hali egarlog'liq turar, qasr darvozasi esa lang ochiq edi. Orsinining hali qochib qutulishga imkoni bor edi.

Oxiri Troilo boshini ko'tarib derazaga qaragandi, ko'zi Izabellaga tushdi. Ayol, «Qoching!» deb shunday dahshatli qichqirdiki, hovlidagi to's-to'polon ham taqqa to'xtadi. Qasr darvozalari muqarrar o'sha zahoti harakatga keldi. Francheskoning soqchilari har tarafdan xizmatkor tomon odimlay boshladilar. Orsini barcha sir oshkor bo'lganini,

endi uni ushlab, qiynoqqa solishlarini, pajmurda tanasini axlatxonaga uloqtirishlarini darrov fahmladi. O'ljaning endi qo'ldan chiqmasligiga batamom ishongan soqchilarning Orsini tomonga shoshilmay, bafurja kelayotganlarini kuzatib turardi. So'ng xizmatkor nigohini yana gersoginya tomonga o'girdi. Gersoginya ikkala qo'li bilan deraza tepasiga yopishgancha, Troiloga ta'zim qildi. Troilo ham uning ta'zimiga ta'zim bilan javob berdi.

Soqchilar boshlig'i Orsinining yoniga keldi. Izabella uning gapini eshitmadi, biroq Orsini soqchilar boshlig'iga qanday qilib qilichini va xanjarini topshirganini ko'rdi. Ikkita soqchi zudlik bilan ikki yondan kelib turib oldi, biroq unga tegmadilar. Orsini soqchilar o'rtasida xuddi postda turgandek qaddini g'oz tutib turardi. Soqchilar boshlig'i allaqanday buyruq berdi. Izabella butun guruh joyidan qo'zg'alib, hovli bilan qasrning shimoliy qanoti tomon ketayotganini ko'rdi. Chap tomondagi soqchining to'satdan oyog'i tolib, bezovtalandi, Orsini g'ijinib unga o'girildi-da, aftidan tanbeh berdi shekilli, u darrov o'zini o'nglab oldi. «Eh, Troilo! – halolliging boshimizga yetdi», dedi gersoginya ohista ovoz chiqarib! Boshga tushgan musibatlarga tashqaridan nazar solsang, umidsizlik o'zining so'nggi nuqtasiga yetganiga amin bo'lasan.

Kechga yaqin Izabella devor orqasida qandaydir shovqin ko'tarilganini, dukur-dukur va taraqa-turuq ovozlar kelayotganini, yerdan go'yo og'ir nimanidir sudrab

tortayotganlarini eshitdi. Ayol eshikni ochdi. Ikki soqchi ayolga e'tibor ham bermay, oyboltalarini qirib tozalashardi.

Ayol o'z xonasiga qaytdi. Bu orada qo'shni binodagi to'polon hamon davom etardi. Daf'atan eshitilgan qichqiriqdan gersoginyaning yuragi orqasiga tortib ketdi. Ayol Orsinining ovozini darrov tanidi.

Francheskoning buyrug'i bilan soqchilar asirni yechintirishayotgan paytda, gersog uning o'ng qo'li qisman falaj bo'lib qolganini payqadi va uni jallodga ko'rsatdi.

Ikki soat davomida o'qtin-o'qtin yana xuddi shunday dahshatli dod-faryodlar eshitilib turdi va shunda gersoginya yana eshikni ochdi-da, soqchilardan biriga uzuq-yuluq qilib:

– Akamni bu yoqqa chaqir! – dedi.

Soqchining paysalga solayotganini payqagan gersoginya:

Agar joningdan umiding bo'lsa, akamni bu yoqqa chaqir, – dedi buyruq ohangida.

Francheskо atrofga olazarak ko'z tashladi-da, ildam odimlar bilan karavot oldiga keldi va xanjarni olib, uni qiniga yashirdi. Uning yonida qilich yo'q edi, shu bois ham Izabellaning yoniga qurolsiz kira turib, ayolda uning joniga qasd qilish istagi tug'ilib qolishidan cho'chidi. Ayni damda akasi gersoginyaning ko'ziga shunday yomon ko'rinib ketdiki, o'zining nodonligidan pushaymon yedi.

– Orsinidan nima istaysiz? – dedi gersoginya o'zini vazmin tutishga urinib.

– Jinoyatini bo'yniga olsin-da, mana bu iqrornomaga imzo cheksin.

– Aftidan hali bunga erishmagan ko'rinasiz.

Ha, hali erishganimcha yo'q. dedi Franchesko.

Akasi tishlarini ko'rsatib ishshaydi-da:

– Shoshayotgan joyimiz yo'q, – deya qo'shib qo'ydi.

Gersoginyaning indamaganini ko'rib, so'zida davom etdi:

Bu baqir-chaqirlardan oromingiz buzilmaydi deb umid qilaman.

Bularni menga eshittirish uchun ozmuncha chirandingizmi, – dedi gersoginya cheksiz nafrat ila. – Yanglishmasam, zindon shimoliy qanotda joylashgan.

Lahzalik sukutdan so'ng:

Orsinining qarindosh-urug'lari, uni shu ko'yga solib azoblayotganingizni bilib qolishsa, ular sizni ayab o'tirishmas deb o'ylayman, dedi Izabella.

Biroq Orsinilar xonadoni mendan minnatdor bo'ladi.

Gersoginya bir necha qadam tashlab, keyin to'xtadi va akasiga tikilib qaradi.

Iqrornomaga agar men imzo cheksam, unda Orsinini qiynashni bas qilasizmi?

Franchesko g'azabini zo'rg'a bosib, boshini egdi va qo'lini orqaga qilib:

– Gap bitta, – dedi past ovozda.

Ayol unga nazar soldi. Basharasidan munofiqlik ufurib turgan bu nusxa, nahotki, so'zda turish degan narsani ham bilsa, degan o'y miyasidan lip etib o'tdi.

Men ımzo chekkan ıqrornoma nıma bo'ladı?

Erıngız Brachchano sıznı sevıb, o'z ojızlıgını namoyon etıb bo'lgan. Shu bois ham dalil-ısbotsiz u menga ıshonmaydı.

Brachchano hamon ayolnı sevishını eshıtgan gersogınya bundan hayron bo'lib, sarosımalanıb qoldı. So'ng:

Xızmatkorlar, ehtımol, hammasını yetkazıb ulgurıshgandır, dedı u.

Xızmatkorlar oyog'ini «kavush»ıngız bılan bır bossangız kıfoya, ıstagan gapıngıznı gapırtırıshga ularnı majbur qilish qıyin emas. Bıroq Brachchano bunday dalil-ısbotlarga bo'y bermaydı.

Izabella jım turardi.

Xo'sh, – dedı Franchesko, - endı nıma qılamız?

Ayol unga qaradı.

Sız nıma deb o'ylaysız? so'radi ayol g'alatı qıyofada, – shu topda pop meni jon berayotgan odam deya hısoblashı mumkınmı?

– Shubhasız. Barıbir sizning o'lchamli umrıngız qoldi.

Izabella ıbodat uchun xızmat qiluvchi o'rındıq yonıga bordıda, tız cho'kdı va yuzını kaftları bılan berkıtdı.

Ayolnıng ıbodat qilishiga Franchesko xalaqıt qılmadı. U xudojo'y edı va har kunı tongda dınıy marosımda qatnashıshnı kanda qilmasdı, shunday bo'lsa-da, qo'l urayotgan jinoyatlarıdan vıjdonı qıynalmasdı, ozgına gunohları esa ba'zan qalbını qutqarıb qolishga unı majbur qılardı.

Ko'p o'tmay Izabella o'rnidan turdi-da, akasining ko'ziga tik qaradi.

Agar iqrornomaga imzo cheksam, Orsinini qiynashni bas qilishga so'z berdingiz-a?

Ha, xuddi shunday, so'z berdim.

– Menga hozir, mana shu lahzaning o'zida so'z berdingiz.

Inkor etmayman. Nega buncha ijiklaysiz?

Ayol o'rindiq tepasida osilib turgan Iso suratiga qaradi-da:

– Bashartı so'zingizdan qaytsangiz, sizni jahannamga ravona qilishini hozir Yaratgandan so'radim, – dedi ayol so'zlarini chertib-chertib.

Francheskoning rangi quv o'chdi. O'sha paytda xurofiy afsonalarga ko'ra, o'layotganning duosi alohida ta'sir kuchga ega edi.

Men sizga so'z beraman, dedi u zo'rg'a.

Ayol stolga o'tirdi-da, qog'ozga naridan-beri bir necha satr qoraladi va uni akasiga uzatdi.

Franchesko varaqqa ko'z yugurtirib chiqdi va uni qo'yniga berkitdi-da, eshik tomon yo'l oldi. U ostonada to'xtadi va sovuqqina qilib:

– Iqrornomaga bekor imzo chekdingiz, – dedi – Orsini shundoq ham o'zini mardona tutdi: u o'lsa ham churq etmasdi.

– Shunday qilishiga ishonardim.

Shunday ekan, joningizga jabr qilib nima zarur edi sizga?

Ayol uni boshdan-oyoq uzoq nazardan o'tkazdı-da, ohısta dedı:

– Sizdek akalar bo'lgan bu dunyonı tashlab ketsam, o'zımnı baxtıyor hıs etaman, ıshonaverıng.

Bu so'zlar Francheskoga qattiq botdı. Undagı bor xususıyatlarnı yashırıb turgan hıssızlik nıqobi go'yo birdan tushib ketgandek edi. Unıng basharasi tirıshdi, ostki labları tıtray boshladi, og'ız ochıshga ham madorı qolmadi. «Nahotki, bu berahm biron nımanı hıs etıshga qodir bo'lsa?» – xayoldan o'tkazdı gersogınya ajablanıb. Akasi bilan bo'lgan uchrashuvdan so'ng ayolnıng olgan taassurotları shundan ıborat edi, xolos. U sınglısiga ortıq bir so'z demay chiqıb ketdi.

Franchesko o'lguday charchagandı. U past ovozda jallodga mahbusni bo'shatıshni va Brachchano yetıb kelguncha unı durustroq sharoıtda saqlab turıshnı buyurdi. U paytlar Italiyada sınglisining axloqsizligi uchun akasi unıng erıdan kam tahqırga uchramasa-da, biroq or-nomus qoıdaları uzil-kesil hukm chiqarıshnı ayolnıng tan mahramıga havola etgandı. Basharti erı, ularnıng ıkkovıdan ham o'ch olmasa yoki o'ch olishni ıstamasa, unda bu ishni oxırıga yetkazısh va ısnodnı qon bilan yuvish akasınıng zımmasıga tushardi.

O'z ıbodatxonasıga lattadek bo'shashib kirib kelgan Franchesko o'zinı bir ozgina qo'yıb berdi: bir necha soat ılgarı bo'lib o'tgan voqeadan afsuslandi; Izabellanıng yotoqxonasida

bo'lganını bıldırmay, yaxshısı, yo'lida davom etganı ma'qul bo'larmıdı. Bıroq shu zahotı o'zının ojızlıgıdan qo'rqib ketdi. «Qanday qılıb, – o'yladı u, – o'z ko'zım bilan ko'rganlarımnı ko'rmadım deb munofiqlik qilishim mumkın?» Mıyasiga mahkam o'rnashib qolgan, xonaga kırısh ılınjıda pardanı salgina ko'tarıb qarayotgan Izabellanıng chıroylı chehrası ko'z oldıdan ketmasdı. «Yo'q, yo'q! – dedı u bu dudmal vahımadan qo'lları bilan yuzını berkıtıb tız cho'karkan. – Xudoyım! Mayli, o'lsa o'laversın! Mayli, o'laversın! Barı tezroq tugay qolsin bu mashmashalar!»

U ıbodatdan so'ng o'zını ancha xotirjam his etdı va Brachchanoga o'zı yoqtırgan o'gıt-nasıhat usuli tarzıda uzundan-uzoq maktub yozdi. Xatga Izabellaning tavbası va xızmatkorlardan olingan ko'rsatmalar ham tirkaldı. Pırovardıda, bu xabarnı munosıb tarzda qat'iyat bilan qabul qılishinı va ornomus uchun javobgarliknı o'z zimmasıga olgan shaxs sıfatida o'ch olishni kechıktırmaslıknı kuyovıga uqtirdi. Uzunquloq gaplarga qaraganda, barıdan bizning voqıflıgımiz, aftidan, zamondoshlarımıznı hayratda qoldirıbdi degan xabarnı ham o'z maslahatida bıldırıb o'tgandı. «Yodıngızda bo'lsın, deb yozdi Franchesko, erkakka zulm o'tkazısh gersogınyanı hayotdan mahrum etadi, o'zıngıznı aslzodalardek, nasronıylarga xos munosıb tutishnı unutmang» («gıcogdatevı d yesseg gentiluomo ye sgıstiano»).

## III

Chopar Medichining maktubini topshirayotganda otga minib olgan Brachchano mulozimlar orasida senat yig'ilishiga kirish arafasida turardi. Uning butun diqqat-e'tibori gersoginyaning tavba-tazarrusi bilan band bo'lgani uchun shosha-pisha, naridan-beri xotinining akasi yuborgan xatga ko'z yugurtirdi-da, Izabellaning nega Florensiyada ekaniga tushunolmadi. U miq etmadi, hatto senatni ogohlantirib qo'yishga bironta odam ham jo'natmay, es-hushidan ayrilgan telbadek Venesiyadan otilib chiqdi-da, o'z yer-mulki tomon eltuvchi yo'ldan shiddat bilan ot choptirib ketdi. Unga hamrohlik qiluvchi a'yonlarning esa bir-birlariga qarab-qarab qo'yishdan o'zga choralari qolmagandi. Bunday o'qday uchib ketishdan muddao ne ekanini so'rashga birontasi jazm etolmadi. U esa otning yag'riniga engashgancha, jag'ini mahkam qisib, ikki ko'zini yo'ldan uzmay yelday uchib borardi.

Manzil uzoq edi. Otlar bir necha bor almashtirildi. Gersog hech kimga qaramas va churq ham etmasdi. O'sha paytlarda aytilishicha, u «fosh etmaguncha» churq etmaslikka o'ziga so'z bergandi.[1]

Oysha yotoqxona derazasidan uning otdan tushganini ko'rdi va aft-angoridan uning baridan xabardor ekanini ham fahmladi. Gersog hovlidan chopib o'tdi va zinadan uning qadam

[1] O'z nomusi uchun o'ch olmaydi. *Izoh muallifniki.*

tovushları eshitildı. Gersogınya erı bılan bo'ladigan uchrashuvni kutıb, xona o'rtasıda g'oz turardi.

Gersog xanjarnı mahkam qısgancha, darg'azab alpozda yugurıb kırdı-da, past ovozda:

Jırkanch maxluq, bekangnı chaqır buyoqqa, – deb o'shqırdi.

– U Florensıyada, – xotırjam javob qıldı Oysha.

Brachchano otda yeldek uchib borarkan, ko'z oldıdan nuqul o'sha bir xıl manzara ketmasdı: yugurıb xotınınıng yonıga kıradı, ıkkala qo'li bilan ko'ylagıga chang solib, yırtadı, so'ng sıynasiga xanjar sanchadi. Buni qancha ko'p o'ylagani bilan manzara tussizlanib qolayotgani yo'q edi. Taassurotlar har safar o'sha-o'sha, jonlangancha xotiradan sira nari ketmasdi. Mana, u telbalarcha ot choptirib kelayotganda o'ylagan intiqomdan lazzatlanish oni yetib keldi. Garchand xotinini qo'lga tushirıshga aniq ishonsa-da, faqat shu yerda va shu topda chovut solishga shunday ishtiyoq bilan shaylangan ediki, asti qo'yaverasiz. Afsuski, xumorbosti uchun chovut solishga tirik jonning o'zi yo'q edi.

– Ey sen, qorayaloq fohisha! – o'shqirdi u Oyshaga tashlanib. – Ikkovingning tiling bir senlarning! Birinchi bo'lib seni bo'g'izlayman!

– Pastkash! – qichqirdi Oysha o'z nasl-nasabiga xos mag'rurlik bilan. Ayol kıshıga teng bo'lish sızdek jangchı uchun uyat emasmi?!

O'sha zahoti Oysha yovvoyi mushukdek abjirlik va sherdek dovyuraklik bilan unga tashlandi-da, uni tepib, tishlab, timdalab, hamlasini qaytara ketdi. Ayollarga hirs qo'ygan gersog esa bu jangda o'zini noqulay his etardi. U zo'rg'a ko'zini ehtiyotlab qoldi va kulgi bo'lganini sezdi. Oysha axiri uning qo'lidan tishlab oldi va u xanjarni qo'lidan tushirib yubordi; endi gersog Oyshani tomog'idan bo'g'ishga harakat qilib, astoydil olisha ketdi. Kurash uning g'azabini bosgandi. Gersog o'z g'animining kuch-quvvatidan hayratda, jasurligi esa uni maftun etgandi, ayolning epchil harakatlari, xushbo'y isi, badanidagi yiltirab turgan marjon-marjon ter tomchilaridan esa hayajonini bosolmasdi. Uning ko'ylaklari aftoda bo'lib ketgandi. Gersogning ko'zi uning dirkillab turgan bug'doyrang siynalariga tushdi. Oxiri u qizning gavdasi va ikkala qo'lini birgina chap qo'li bilan mahkam qisdi-da, o'ng qo'lini uning bo'yniga olib bordi.

– Xo'sh, nimani kutyapsan? – mag'rur turib dedi Oysha istehzo bilan. – O'ldir!

– Shallaqi qorayaloq! – bo'kirdi Brachchano, go'yo uni tishlab olmoqchidek, oppoq tishlarini tirjaytirib.

U qizni yerga irg'itdi-da, qo'lini qo'yib yubormay bor bo'yi bilan uning ustiga yotib oldi va o'z og'irligi bilan uni eza boshladi.

Gersog turayotganda, Oysha uning xanjarini sezdirmay oldi-da uning o'ziga uzatdi va xotiradan o'chmaydigan nigoh ila:

– Endı o'ldıraver. Men o'zımnı baxtıyor hıs etayapman! dedı.

Shu lahzada gersog o'zıga-o'zı haddan tashqarı kulgılı ko'rınıb ketdı. Oyshanıng ko'zıda porlab turgan mehr gersognı o'zıga bo'lgan hurmatını saqlab qolishga majbur qildı. Bu kuchli sadoqatnı qadrlash va unı anglash uchun gersogda farosat yetarli edı. U xanjarnı qınıga sola turıb, mavr qızınıng boshini sıladı-da, muloyımlik bılan:

Oysha, bor gapnı yashırmay menga aytıb ber, dedı.

Gersog kuch ishlatıb qizdan bır og'ız ham gap ololmasdı. Muloyimlik Oyshanıng qarshiligiga barham berdı. U bor gapnı mırıdan-sırıgacha, yashırmay, samımıyat ila so'zlab berdi. Gersogni kimdir go'yo azoblayotgandek edi. U boshını changallagancha ingrab, xonanıng u yog'idan-bu yog'iga borib kelardı. Oysha surat haqida gapırib berganda esa gersogning ko'zlaridan yosh otilib chiqa boshladi. «Bariga aybdor o'zım, dedi u ma'yus. Nima bo'lganda ham u baribir o'lishi kerak».

Gersog Medichiga chopar jo'natdı. U Orsinining ta'zırıni berib, bir yoqli qilishni butunlay qaynag'asiga havola etdi-da, xotınınıng kelishini talab qildi. Maktubni olgan Francheskoning fig'onı falakka chıqdi: qachonlardir unıng qo'l ostida urushda bo'lgan ikki turma nazoratchisi yordamida Orsinı fursat g'animatda qochib qolgandi va u bilan birga yashırıngandı.

Gersoginya ko'p sonli qurollangan otliq askarlar to'dasi hamrohligida hamma tomonı berk aravada Brachchano saroyıga

yetib keldi. Gersoginyaning jo'nashidan ikki kun avval uning ruhoniysi orqali Orsini bo'yniga olishga uni zo'rlamaganlarini va gersoginyani qutqarish uchun chora izlab topishini ma'lum qilishga ulgurgandi. Gersoginya ham xuddi shu yo'l bilan Orsiniga o'zboshimchalik qilmasligini, hozircha unga hech bir xavf yo'qligini aytib, uni ishontirgandi. Gersoginya unga o'zini ehtiyot qilishini va Fransiyadan boshpana topishini buyurdi. Orsini unga ishondi va itoat etdi. U chegaradan o'tib oldi va bir necha kundan so'ng Parijga yetib keldi.

Gersoginya uyga qaytgan kun Brachchano Venesiya senatidan bunday o'zboshimcha harakatning sababini tushuntirib berishini nihoyatda achchiq tarzda so'rab yozilgan chaqiruv maktubini oldi. Uzrli sababsiz, hatto ogohlantirishsiz to'satdan Venesiyadan jo'nab ketishi bilan senatni haqoratlagandi va senat uni xoin deb gumon qilishiga ham oz qolgandi. Brachchano tezroq qaytib borishga va senatni xotirjam qilishga oshiqardi. U niyati jiddiy ekanini va undan voz kechishni xayoliga ham keltirmayotganini aytib, senatni ishontirdi-da, niyatini amalga oshirish uchun yeng shimarib g'ayrat bilan kirishib ketdi. Bir oy o'tib, flot mavr harbiy safariga tayyor bo'lgach, uyga qaytib, ishlarini tartibga keltirish uchun senatdan ruxsat so'radi.

Gersog o'z qasriga 1576-yilning 7-avgustida yetib keldi. Franchesko gersoginyaga xanjarni uzatgan ondanoq ayol umrining sanoqli kunlari qolganini bilardi va Brachchano darg'azab venesiyaliklarni tinchitgunga qadar u kechiktirishning boisi

nımada ekanını tinmay o'ylar ekan, hayratı ortardı. Oqshom tushgach, gersog bır soatdan so'ng gersogınyaning yonıda hozır bo'lishını xabar qılganıda, ayol yanada hayratlangandı. Gersoginya, endi gersog meni ko'rıshni umuman ıstamasa kerak va o'rnıga yaqınlarıdan bırontasını jo'natar degan xayolda edı, negaki. asilzodalik nasabi ayolnı jallod qo'liga borıb tushıshdan hımoya qılardı. Gersogning o'zı kelishi unı hamon hayratga solardı. Unıng tashrıfi ayolnıng o'limıdan darak bersa-da, u o'lim to'g'rısıda o'ylamasdı. Ayolnıng fikrı-zıkrı erını ko'rısh edı.

Bu orada gersogınyanıng tuyg'ularıda g'alatı o'zgarısh sodır bo'ldı. Orsınını xavf-xatar chetlab o'tganıdan buyon ayol unı eslamay qo'ygandi va bır-bırları bılan yaqın bo'lgan ıkkı oylik davr ham gersogınyanıng yodidan o'chib ketgandı. Unıng kelajagı bo'm-bo'sh, hozırı esa o'lımını kutısh bılan o'tmoqda edı; shu boıs ayol o'z o'tmishi bilan yashardi, va – ajab savdo! Aynan o'sha uzoq o'tmısh bilan u gersogga bo'lgan ilk muhabbatını qaytadan boshıdan kechirmoqda edı.

Hech bir kelın o'z to'yiga Izabella sıngarı so'nggı uchrashuvga taraddud ko'rgandek tayyorgarlik ko'rmasdı. Ayolnıng turmagını Oysha qayta-qayta o'zgartirardi. Hech bırı uning dıdıga o'tırıshmasdı. Ko'ylak tanlashda ham bırını bayramonamas deb, yana bırını esa rangı yorqın emas deya bahona qilardı. Oysha yonıda o'tırıb, qimmatbaho taqınchoqlarını taqqanı-

da esa gersogınya yanada go'zal va xursand ko'rınıb ketdıkı, bunı ko'rıb turgan Oysha: nahotki, qo'rqmayotgan bo'lsangız? deb so'rashga jur'at etdı. «Qo'rqqanda qandoq, - dedi ayol maftunkor ma'nodorlik bılan – u menga yaxshıroq tıkilmay turıb, menı o'ldırıb qo'yıshıdan qo'rqayapman».

Ayol uzoq o'ylab, turmaknıng ham, taqınchoqlarnıng ham, ko'ylaknıng ham hozır vaqti-soatı emas degan xulosaga keldı. Barıdan bırakay voz kechdi.

Nihoyat u go'zal yelkalarını ko'z-ko'z qılıshga ımkon beruvchi tongi ko'ylakda to'xtadı va uzun sochlarını yoyıb yubordı. Brachchano gersogınyanıng sochları yelkaları bilan bitta bo'lib yoyılib turgan paytda kırıb keldı va ostonada turgancha tang qotıb qoldı. Unga «yaxshiroq qaramay» turıb unı o'ldırıb qo'yishidan endı Izabella qo'rqmasa ham bo'lardı. Gersognıng na gapırıshga va na joyıdan qımırlashga majoli qolgandı.

Qachonlardir u mavr yurıshıdan qaytganıda, asosan qızıl ranglı gılamlar va qalin matolar olib kelgandı. Izabella ular bilan devorlarnı, yernı bezatıb tashlagandı, shu bois xona qush uyasıdek osoyıshta va shinam edi. Yotoqxonasını xushbo'y ıslar bilan to'ldırıb tashlash va unı gullar bılan bezash gersogınyanıng jonu dıli edı. Bırgalikdagı uzoq yillik turmushları mobaynida gersog bu qadrdon xonaga mıng marotaba qadam ranjıda qilgan va xotını o'rım-o'rım qalin sochlarını yoyganı ustıga kırıb ham qolardi. U mana shu lahzalarnıng, mana shu xushbo'y

iforning va shu sukunatning shaydosi edi. Shu bilan birga, tong yorishguncha baridan abadiy judo bo'lishini bilsa-da, boshidan o'tkazgan quvonchu sevinchlarga u yana bir bor qayta olgandi. Gersogning to'satdan miyasiga urilgan, Izabella xuddi shu yerda Orsiniga o'zini bag'ishlagan degan fikr uni allaqachon tark etib ulgurgan, g'azab va qat'iyat yana o'z joyida qaror topgandi. U oldinga bir qadam tashladi-da, xanjarini sug'urdi. Bundan ortig'iga o'zida kuch topolmadi. Gersogning joyidan qo'zg'alolmay turganini ko'rgan gersoginya shoshilmay unga peshvoz chiqdi. U tavba-tazarruga berilgan odamdek ko'zini yerdan olmasdi, gersog esa uni hech qachon bunday itoatkor holda ko'rmagandi.

Janob, – dedi ayol unga yaqin borib, men oldingizda gunohkorman.

Shunda ayol Orsiniga o'zini bag'ishlagan tunda xuddi shu so'zlarni unga ham aytganini esladi. O'z xotiralaridan o'zi yerga kirib borayotgan gersoginya erining oyog'iga yiqilib, tizzalarini mahkam quchdi.

- O'ldiring meni! – qichqirdi u g'azabi oshib. O'ldiring! Men shunga loyiqman.

Brachchano hayratdan tili aylanmay qolgandi. U, ayol uning boshdan kechirgan sarguzashtlarini yuziga solib, uni haqoratlarga ko'mib tashlar, yoki bundan ham battari, takabburligiga borib, miq etmasa kerak deb o'ylagandi. Bu mag'rur ayol itoatkor go'dakdek uning oyoqlari tagida yotardi.

Ayolning chin yurakdan pushaymonligi gersogning ko'nglini buzib yuborganiga emas, uni o'z qilmishlariga bir nazar tashlash uchun orqaga o'girilib qarashga ham majbur etgandi. Eriga xiyonat qilgan bevafo ayollarga o'lim jazosi berishga majburlovchi urf-odatlarning adolatsiz ekanini u yaxshi tushunardi. «Men-chi, nahotki, mening undan kechirim so'rashim lozim bo'lmasa?» – deb o'yladi mushkul ahvolda qolgan gersog. – Unga ayb qo'yishga mendek odamning nima haqqi bor?»

– Xonim, – dedi u hayajonlanib, uzuq-yuluq ovozda, – axir, men ham sizdan...

U gapini davom ettirolmadi – tomog'iga nimadir tiqilgandek bo'ldi va ko'ziga yosh to'ldi. Gersog engashdi-da, xotinining yelkasidan quchib, uni turg'azishga urindi.

– Izabella, – dedi gersog titroq ovozda, – oldingizda qanchalik gunohkor bo'lmay, qasam ichib aytamanki, ko'nglimga sizdan o'zgani hech qachon yo'latmaganman.

Kutilmagan cheksiz bu baxtdan ayolning yuragi tars yorilay derdi. «Demak u faqat meni sevgan!» – quvonch bilan xayoldan o'tkazdi ayol. U birdan yengil tortdi-yu, bir qanot qoqqancha huzur-halovatning eng yuqori cho'qqisiga borib qo'ngandek tuyulib ketdi unga. Ayol boshini Brachchanoning ko'kragiga qo'ydi-da, bag'riga mahkam yopishdi. «U meni hali ham sevadi», – dedi u o'zicha va baxtning shiddatli girdobi go'yo uni allalab allaqayerlarga olib ketgandek bo'ldi. Shu topda u hech bir kuch sarflamay samolarga parvoz qiladi-da, yoqimli shamol uning yuzlarini silab o'ta boshlaydi.

– U meni hali ham sevadi, – dedi ayol shivirlab, huzur bilan gersogning nimchasiga lablarini bosarkan. – Demak, men bu dunyoni baxtli ayol bo'lib tark etaman.

Adolatdan yiroq bu urf-odatlarimiz bilan mening necha pullik ishim bor! – birdan ovozining boricha qichqirdi Brachchano, go'yo gersoginyaning fikriga javob qaytargandek. Yuqori tabaqadagilar menga nafratni munosib ko'rmaganlari uchun seni o'ldirolmayman-ku! Biz Italiyadan butunlay bosh olib, Fransiyaga ko'chib ketamiz...

Gersoginya erining og'zini qo'li bilan berkitdi-da, so'ng oyoq uchida ko'tarilib, lablarini uning lablariga ohista tekkizdi.

– Azizim, baribir meni o'ldirishingiz kerak, – dedi ayol xotirjam, qat'iy ohangda va undan nari ketdi.

Izabella! – qichqirib xitob qildi Brachchano.

Menga quloq soling, – dedi ayol yoqimli jilmayib. Mendan-da muhimroq narsalar hayotingizda talaygina, agar men tufayli bularning baridan voz kechgudek bo'lsangiz, bir umr azobda qolasiz. Nahotki, o'zingizga shunday qismatni ravo ko'rsangiz, Paolo! Or-nomussiz, shon-shuhratsiz, jangu jadalsiz hayotni-ya?! Nahotki, barini birgina ayolga almashsangiz!

Gersoginya to'xtab qoldi. U: «Sizga bevafolik qilgan ayolgaya», – demoqchi bo'lgandi-yu, biroq jur'ati yetmadi. Brachchano xonaga kirib kelgan daqiqadan boshlab u Orsinidan nafratlanardi. Uning yagona istagi: Orsinini boshqa tilga olmaslik,

u haqda o'ylamaslik va u bilan bog'liq barcha xotiralarni o'z hayoti bilan qo'shib butunlay yo'q qilish edi.

– Ertaga, – dedi iztirobda qolgan gersoginya, – kampir bo'lib qoladigan ayol uchun-a?!

«Men bir kun emas-bir kun baribir qarib, badbashara ayolga aylanaman», – o'yladi u, ho'ngrab yig'lashdan o'zini zo'rg'a tiyib. – O'shanda u meni yomon ko'rib qoladi. Paolo o'z or-nomusini bekorga fido qilgani qoladi».

Eshik taqilladi.

– Nima gap? – baqirdi gersog cho'chib tushib.

– Bu men, – Oyshaning ovozi eshitildi. – Gersog Medichi janoblaridan chopar keldi. U maktub keltiribdi.

Brachchano eshikni ochdi va Oysha maktub bilan kichkinagina qutichani unga topshirdi. Gersog muhrni buzib maktubni ochdi-da, yuz ifodasini o'zgartirmay unga ko'z yugurtirdi va o'qib bo'lgach, gersoginyaga g'alati qarab qoldi

– Xonim, – dedi u ayolning yuziga diqqat bilan boqarkan, – gap shundaki, akangizning menga xabar berishicha, Orsini Parijda noma'lum kimsa tomonidan tunda pilta miltiqdan otib ketilgan.

– Harholda, – davom etdi u gersoginyadan ko'z uzmay, – bu haqda Franchesko shunday deb yozadi. Bilasiz-ku, u har bir so'zni chertib-chertib gapiradiganlar toifasidan ekanini. U yana shuni qo'shimcha sifatida ma'lum qiladiki, uning xizmatkorlaridan ikki kishi tasodifan voqea sodir bo'lgan joyda

bo'lgan va Orsınının o'lımiga isbot sifatida uzugini o'zlari bilan olib kelishgan. O'sha uzuk mana bu qutıda, – u qutini gersoginyaga uzatdı. – Malol kelmasa uni ochsangiz va bu uzuk chından ham unga tegishlimi yo yo'qligini menga aytsangiz?

Bu qadar kuyinib aytılgan gaplardan so'ng ham uning baxtsizlikdan darak beruvchi vahiması gersoginyani sarosimaga solib qo'ygandi. Nima qilayotganiga deyarli aqli yetmay qolgan ayol qutichani ochdi-da, parishon holda ichidagi narsaga boqdi. Shu paytda ayol bu xizmatkorning qachonlardir o'zining hayotida tutgan o'rni qanday bo'lganini butunlay unutgandı.

– Ha, bu Orsinining uzugi, – dedi ayol butunlay beparvo ohangda.

Nima qilib bo'lsa-da ayol o'z hayajonini oshkor qilib qo yishidan umidvor bo'lgan gersogni bu ohang boshi berk ko'chaga kiritib qo'ygandi.

«Demak, u Orsinini sevmagan ekan-da», deb o'yladi gersog kallasiga kelgan bu fikrdan cho'chib. Biroq uning rashki to'g'ri kelgan joydan o'z nafsini qondirib ketaverardi. Orsinini sevmagani uchun gersoginyaning gunohi unga yanada og'irroq tuyulib ketdi. «Bu qanaqasi bo'ldi, – xayoldan o'tkazdi u to'satdan qattiq g azablanib, ko'ngil qo'ymay turib xizmatkorga o'zni bag'ishlash!»

Gersog shu qadar diyonatli va samimiy odam ediki, bu tuyg'ularning bari birin-sirin unda aks etib borardi va Izabella uning fikridagi eng nozik farqni ham osongina ilg'ab olardi.

– Nima qilamiz! – dedi ayol eshittirib. – Ko'rinib turibdi, siz meni hech qachon kechira olmaysiz. Shunday bo'lgach, o'lim eng to'g'ri chora.

Brachchano qaltiray boshladi. Ikkilanishning azobi unga o'z hukmini o'tkazardi: xotinini o'ldirishga uning qo'li bormasdi, gunohidan ham o'tolmasdi.

– Shunisi ham borki, – dedi gersoginya, o'ng qo'li bilan qutichani olib, Brachchanoga ko'rsatarkan, – balki endi tushungandirsiz, agar men ojizlik qilib, siz bilan Fransiyaga qochib ketishga rozi bo'lganimda, shunday kunlar mening ham boshimga tushgan bo'lardi!

– Unda Francheskoni o'z qo'llarim bilan bo'g'ib o'ldirardim! – dedi gersog vahshiyona baqirib.

– Nahotki, – e'tiroz bildirdi Izabella, – u sizni ayab o'tiradi deb o'ylasangiz? Meni gumdon qilganidan so'ng sizni tirik qoldirishiga hech kimning ko'zi yetmaydi.

Brachchano sarosimada xonaning u boshidan-bu boshiga betoqat borib-kelardi. Uning miyasiga har xil telba-teskari fikrlar kelardi. Francheskoning ta'zirini berish uchun uning yoniga ko'pam shoshmaydi. U Francheskoga qarshi bo'lgan uning barcha dushmanlarini oyoqqa turg'azadi. U Italiyani qo'lga kiritadi va odamlarni, hukumatni Izabellani kechirishga majbur etadi. Izabellani afv etishni va taxtni u bilan baham ko'rishni hali xalqning o'zi undan yolvorib so'raydi.

– Xom xayollaringizga ko'pam erk beravermang, Paolo, – dedi gersoginya uning quchog'iga o'zini otib, – biroq biz ikkovimiz ham o'z tabaqalarimizning qulimiz. U bizni o'zi istagan ko'yiga solishi mumkin. Sizdan yagona va arzimagan o'tinchim bor edi.

– Qani! – zo'rg'a shivirladi Brachchano.

– Tonggacha yashashimga ruxsat bersangiz.

Brachchano unga qaradi-da, ko'zlaridan tirqirab yosh oqa boshladi va zo'rg'a:

– Mayli, bu muruvvatdan sizni bebahra etolmayman, – dedi u nihoyat, bu so'zlar bilan endi gersoginyaning taqdiri bir yoqlik bo'lganini payqamay.

U birdan yengil nafas ola boshladi. Gersogni bu o'tinchga ko'ndira olishiga ko'zi yetmayotganidan ayol tashvishda edi. «Endi, – o'yladi u rohatlanib, Brachchanoning yuzlaridan tinimsiz bo'sa olarkan, – meni keksalik ham, badbasharalik ham, gersogning nafrati ham ta'qib etolmaydi. Uning qo'llarida o'sha-o'sha go'zal va aziz ayolligimcha jon beraman. Erim meni to abad sevadi».

Tun haddan tashqari iztirobli ishqiy quvonchlarga boy bo'ldi. Gersog goh otashin sevgidan mast bo'lar, goh rashk o'tida qovrilardi. «Nahot, – o'yladi u, suyukli yorini bag'riga bosa turib. – Orsini ham Izabellani shunday bag'riga bosgan bo'lsa?» Izabella rostdan ham Orsinini sevmaganmikan? Yoki meni chalg'itish uchun o'zini beparvolikka solib, mug'ombirlik

qılayaptımı?.. «Izabella unıng barcha fikrlarını ko'z qarashlaridan uqib olardı. Shu tobda gersogning nıgohları ajib bır tarzda qotib qolgandı. Ayolnıng jonını tong yorıshguncha saqlab qolishga so'z bermaganıda, gersog buni paysalga solib o'tirmadi - unı allaqachon bir yoqlik qılishi mumkınligını Izabella bir-ıkkı marta xayolidan o'tkazdı.

Gersogınya farzandınıng otasıga benıhoya mehrıbonlik bılan tabassum hadya etdı-da, bejirım qo'llarını erıning qo'llari ustiga qo'ydı va bırdan xanjarnıng sopını shıddat bilan sıltab, unı o'z ko'kragıga sanchdı. Qon tızıllab oqa boshladı. Izabella chuqur oh tortdı-da, shoshmaygına, xuddı uyquga ketayotgandek, boshinı yostıqqa qo'ydı. Gersog xotınını o'ldirıb qo'yganıga shubha qılishi uchun unıng harakatları go'yo atayın qılingandek shu qadar xotırjam edı. Bıroq Izabellanıng ruhsız chehrası to'zib yotgan sochları orasıda qımırlamay qotıb qolgandı. Bır lahzadan so'ng gersog engashdı-da, ayolnı o'pdı. Ayolnıng labları sovuq va jonsız edı.

# TOMAS HARDI

*Tomas Hardi (1840–1928) – o'tgan asrning oxirlarida yashab o'tgan mashhur ingliz realist-yozuvchisi. XIX asrning 70–80-yillarida Angliyada bo'lib o'tgan chuqur ijtimoiy o'zgarishlar Hardi ijodida ham o'z aksini topgan.*

*Hardining dehqonlar, mayda fermerlar hayotiga ma'lum darajada, alohida e'tibor bilan qarashiga sabab, u umrining ko'p qismini Angliyaning qishloq joylaridan birida o'tkazgan va bu mavzu bilan yaxshi tanish edi. Hardining adabiy faoliyati uning vatani Dorsetshir grafligida kechgan.*

*Hardi o'zining ajoyib hikoyalaridan biri «Uch musofir»da o'zi sevgan mavzu, patriarxal-dehqonlar va Angliya burjuaziyasi o'rtasidagi murosasiz ziddiyatlarni tadqiq etadi. Dehqon va cho'ponlarning tinch, osoyishta hayotiga bostirib kirgan jallod, ingliz patriarxal qishloqlarini xarob qilgan kapitalistik Angliyaning o'ta shafqatsizligini o'zida mujassam etgan obrazdir.*

# UCH MUSOFIR

Ba'zi janubiy va janubi-g'arbiy grafliklarga qarashli bo'lgan, ariqlarini o't, cho'l butalari bosib ketgan bo'r tepaliklar, avom tilida «tizma tog'lar» yoki «yaylovlar»dan iborat bo'lgan bu balandliklar asrlar davomida o'zgarmay, o'sha keng maydonni egallab yotgan Angliya dalasining ozgina yerlarini band etgandi, xolos. Agar har joy-har joyda bitta-yarimta uyga ko'zingiz tushsa, bilingki, u ham bironta cho'pon-cho'liqniki bo'lib chiqadi.

Bundan ellik yil ilgari xuddi shunday tepaliklardan birida o'shanday bir uy bor edi, balki o'sha uy hozir ham turgan bo'lsa, ajabmas. Graflik tasarrufidagi bu yerlar markazdan besh milgina narida bo'lsa ham ovloqqina joy edi. Shaharning yaqinligi bu yerga deyarli sezilmasdi. Qor, yomg'ir tinimsiz yog'adigan kunlari, tumanli, namgarchilik oylarida besh mil o'nqir-cho'nqir yo'lni bosib o'tishning o'zi bo'lmasdi. Bordi-yu, bu yerlarni Timon yoki Navuxodonosordek[1] darveshlar o'zlariga makon etib olsalar bormi, o'zlarini mutlaqo tanho sezishi aniq edi; tanholikning havaskorlari bo'lmish shoir, faylasuf, rassom va

---

[1] Timon Afinalik — Shekspirning shu nomdagi fojiasi qahramoni hayotining so'nggi kunlarini uzlatda o'tkazgan. Navuxodonosor — Assuriya va Vavilon shohi (604–501 yy. Eski era), rivoyat qilinishicha, u jonivorga aylanib, bir necha yil o'rmonda yashagan emish.

boshqa «o'ylaganlari hikmatu so'ylaganlari go'zallik» bo'lgan shaxslarga bu yerlar hatto kun ochiq paytlarda ham yoqishi dargumon edi.

Ovloqdagi bu uylar odatda biron-bir qadimgi tuproq devorlardan yoki tuproq qo'rg'ondan, bir to'da daraxtlaru, hech bo'lmaganda buta devorlarning qoldiqlaridan pana qilish maqsadida qurilardi. Lekin bu uyni himoya qilish to'g'risida negadir hech kim bosh qotirmagandi. Shunday qilib, bu uy balo-qazolar domiga qarovsiz tashlab qo'yilgan va tobora xarobaga aylanib qolmoqda edi. Chetdagi bu uyni «Hayer Krousteyrs»[1] deb atashardi.

Uyning bu yerga qurilishiga shu yaqin oradagi ikki so'qmoqning to'g'ri burchak shaklida kesishgani sabab bo'lgandi, hozir o'sha burchak va u joylashgan yerga hademay besh yuz yil bo'ladi. To'g'ri, bu yerlarda bir shamol tursa, juda qattiq esardi, bir yomg'ir yog'sa chelaklab quyardi, lekin qishining o'zgaruvchan havosi, pastda yashovchilarning aytishlariga qaraganda, unchalik ham vahimali bo'lmasdi. Zaxi jarning zaxidek jon-joningdan o'tib ketmasdi, sovug'ini ham unchalik deb bo'lmasdi. Uyni ijaraga olganlar cho'pon oilasi bunday sharoitda kasaldan boshi chiqmasa kerak deb o'ylab, hamdardlik bildirishganlarida, ular, umuman olganda, avvalgi, qo'shni

---

[1] So'zma-so'z: «Yuqori qarg'a o'rmonchasi» degani (ingl.).

vodiyning daryosı sohilidagı shınamgına uyda yashaganlarıdan ko'ra, harholda bu yerda «bo'g'ılib qolishu, namgarchılikdan kamroq azıyat» chekıshlarını aytıshdi.

182...-yil 28-martga o'tar kechasi xuddi o'shanday hamdardlik bildirıshga arziydigan tunlardan birı bo'lgandi. Kuchli qiyalama yomg'ir Senlak va Kres[1] urushidagi jangchilarning uzun nayzalari kabi tepalik yonbag'irlarıga, devorlaru buta g'ovlarga zarb bilan kelib urilardi. Boshpanasız qolgan qo'y va mollar shamolga orqa o'girıb olardi, tıkanli butalarning nozik shoxlarıga mahkam yopishib olishga urıngan qushlarning hurpayib, tepaga ko'tarilgan dumları bamisoli bo'rondan teskari o'girılib qolgan shamsiyani eslatardi. Uyning yon sırti butunlay ivib bo'lgandi, ustıga-ustak shamol ham tomdan oqib tushayotgan yomg'ir suvini yana shu tomonga qarab itqitardi. Harholda cho'pon qachondir hamdardlikka muhtoj bo'lgandir, lekin, aslo shu bugungı kechada emas. Negakı, bu «quvnoqqina qishloq odami» ikkınchi qızini cho'qintirıshi munosabati bilan yoziladigan dasturxonga ancha-muncha odamni taklif qilib qo'ygandi.

Mehmonlar yomg'irdan avvalroq kelib, uyning eng shinam va katta xonasiga joylashib olishgandi.

---

[1] Senlak – Janubi-Sharqiy Angliya tepaligi, 1060-y. unıng yongınasıda fotıh Vılgelm ınglızlar ustidan g'alaba qozongan.

Kres – Shımoliy Fransıyadagı qishloq, 1346-yıl ınglizlar fransuzlar ustıdan g'alaba qozongan joy.

Agar kimdir voqealarga boy bo'lgan bu kechaga soat sakkizlarda kirib kelganida, albatta, bunday ob-havoda bundan shinamroq, bundan qulayroq boshpanani topish amrimahollig'i haqida gapirishi turgan gap edi. Kaminning ustiga cho'ponning ishlatilaverib, siyqalanib ketgan juda ko'p tayoqlari bezak qilib ilib qo'yilgandi, boz ustiga gajaksimon ilgakli bu xilma-xil tayoqlar - eng qadimgi nusxasidan tortib, oilaviy bibliyadagi patriarxal rasmlarda uchraydiganlarigacha va so'nggi qo'y yarmarkasida katta muvaffaqiyat qozongan yangilarining bu yerda borligi xonadon sohibining kasb-korini bildirib turardi. Faqat yakshanba kunlari, bayram, oilaviy tantanalardagina ishlatiladigan, ustini qoplagan yog'idan ko'ra biroz yo'g'onroq pilikli bir nechta sham xonani yoritib turardi. Shamlar butun xonaga qo'yib chiqilgandi va ikkitasi kamin tokchasida turardi. Shamlar bu yerga bekorga qo'yilmagandi, faqat mehmonlar kelishi munosabati bilan paydo bo'lardi, xolos.

Kamin to'ridagi o'tin, uning oldirog'ida esa maydalangan shox-shabbalar xuddi «ovsarning kulgusini eslatgandek» chasirchusir qilib yonardi.

Xonaga o'n to'qqiz nafar odam yig'ilgandi. Och rangdagi har xil ko'ylak kiygan besh nafar ayol devor yonidagi oromkursida o'tirardi; qizlarning tortinchoqlaridan tortib, sho'xshaddodlarigacha bari deraza tokchasiga joylashib olishgandi; to'rtta erkak, shu jumladan, buta devor ekish, uni parvarish-

lash bilan shug'ullanuvchi Charli Jeyk, cherkov qo'shiqchisi Ilija Nyu, qo'shni sut fermasining egasi – cho'ponning qaynotasi Jon Pitcher esa uzun sandiq ustiga chiqib olib, yalpayib o'tirib olishgandi; burchakda, oshxona jovoni yoniga joylashib olgan qiz bilan yigit qizarib-bo'zarib, bir umrlik ahd-paymon haqida bitim tuzishardi; yaqinda unashtırıb qo'yilgan ellik yoshlardagi qarı bo'ydoq bo'lsa, qallig'ini qo'ldan chiqarishdan qo'rqib, uning izidan qolmay u yoqdan-bu yoqqa pitirlab ko'chib yurardi. Mehmonlar har qanaqa odob-axloq qoidalarini bir chetga yig'ishtirib qo'yib, xursandchilik qilishardi. O'zaro hurmatga bo'lgan mustahkam ishonch bu odamlarda o'zlarini mutlaqo erkin tutishlariga imkoniyat tug'dirardi. Viqor bilan chinakam vazminlikni namoyon etib, jamoat orasida odob saqlash ularning ko'plariga odat bo'lib qolgandi, chunki mashhurlikka intilish, o'z ustida ishlash, odatdan tashqari bo'lgan biron nimaga qo'l urishga esa ularda xohish yo'q edi, buning sababi bizning kunlarimizda bunday istak odamlarni shodlikdan, oliyjanoblikdan qisib qo'yardi, ijtimoiy zinapoyalarning eng yuqorisi va eng pastida turuvchilar bundan mustasno edilar.

Cho'pon Fennel qo'shni vodiydagi sut fermasi xo'jayinining qiziga uylanib, boyib ketgandi, oila qurgandan so'ng esa ko'payishlarini nazarda tutib, qiz ham quruq kelmay, o'zi bilan ellik giney olib kelgandi. Oilaviy bayramni yaxshi o'tkazish maqsadida bu tejamkor ayol mehmonlarni kutib olish taraddu-

dıda yelib-yugurıb, ko'p ovora bo'ldı. Agar mehmonlar shunday suhbatlashıb o'tırishsa yaxshiku-ya; lekın oromkursıga yoki sandıqcha ustiga yalpayıb yotıb olishsa bormı, ana unda erkaklarnıng nafsı hakalak otib, ıchıshnı qo'msab qolishını ko'rasız, uynı ham yutıb yuboray deyıshadı. Raqs kechası boshqacha qulaylikka ega; lekın ıshkal tomonı ham borkı, u kechanı yo'qqa chıqarıshi mumkın – dasturxondagı «yaxshı ıchımliklar» qolib, «noz-ne'matlarga» qıron kelish ehtımoli bor, ehtırosli harakatlar bılan ıshtahaları ochılib ketib, butun boshli ombornı ham shıpshıydam qılishları hech gap emas. Cho'pon Fennelnıng xotıni boshını qotırıb, eng qulay yo'lini topdı-da, bır qarorga keldı, bıroz o'yın-kulgı bo'ladı, so'ng bıroz suhbat, yana biroz qo'shıq, lekın mınba'd bularnıng bırontasıga mukkadan ketıshlarıga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. O'ylab qo'ygan rejalarıni hech kimga bildirmay, ichida pinhon saqlardi, chunki erınıng hotamtoylik qilib, bor noz-ne'matni to'kib tashlashidan o'lgudek xavotırda edi.

O'sha yerlik o'n ikki yoshli skrıpkachi bola jigi va rıli – raqs kuyini maroq bilan dadil chalardi. Uning barmoqları hali kichkina bo'lganidan yuqorı pardalarga chiqolmasdı, ularga yetıshi uchun esa qo'lini zo'r berıb qayiltirardi va yana pastki pardalar tomon siljitardi, shu bois kuy ham bir oz zaifroq yangrardi. Soat yettilarga borıb, yosh yigitnıng skrıpkasi yurakni tıg'lagandek chiyillab yubordi, cherkov qo'shiqchisi Ilija Nyu sevgan musiqa

asbobi serpentnı ehtiyotdan o'zı bılan olib kelgandı, serpent o'zınıng yo'g'on ovozi bilan skrıpkaga jo'r bo'ldı. Shu zahotı hamma raqsga tushib ketdı, mıssıs Fennel bırınchı raqs o'n besh daqiqadan oshmaslıgını musıqachılardan sekın ıltımos qıldı.

Lekın Ilıja va skrıpkachı bola ziyofatdagı o'z rollarıdan mag'rurlanıb, uy bekasınıng ıltımosını ham yoddan chıqarıb yuborgandılar. Bundan tashqari, raqqoslardan bırı qandaydır o'n yetti yoshli Oliver Jaylz o'ttız uch yoshli och malla xonımchanı sevıb qolib, musıqachılardan holdan toygunlarıcha chalishlarını ıltımos qıldı-da, uyalmay-netmay yangı pul qıstırdi. Mıssıs Fennel mehmonlarning terlab-pıshıb ketgan yuzlarını ko'rdı-yu, xonanıng boshqa tomonıga o'tdı-da, skrıpkachining tırsagıga turtdi va serpentnıng og'zını yopmoqchi bo'ldi. Musıqachılar bunga e'tıbor ham bermadilar. Mıssıs Fennel mehmondo'st mezbon sıfatıda obro'sını saqlash uchun endi hech nımanı o'zgartırolmaslıgıga aqli yetib, chetga chiqib qo'ya qoldi. Raqs qizigandan qizidi, berilib ketgan mehmonlar bir burchakda tinchgina turgan soatni ham tepib, shovqin-suron ko'tarib, oyoqlarini yerga urıb, bamisoli sayyoralar o'z o'qi atrofida aylangandek, xonada goh oldinga, goh orqaga, bir yaqinlashib, bir uzoqlashib, soat millari siferblatni bir aylanib chiqquncha rosa o'ynadilar.

Cho'pon Fennelning uyida bazmi jamshid bo'layotgan bir mahalda uning devori orqasida, tunda, ziyofatning tugashiga

bahona bo'ladigan bir voqea sodir bo'ldi. Avjiga mingan jazavadan missis Fennelning fig'oni falakka chiqib turgan bir paytda shahar tomondan kelaverishda qandaydir bir musofir yolg'iz o'zi Hayer Krousteyrs tepaligiga chiqib kela boshladi. Bu kimsa chala-yarim o't bosib ketgan cho'pon uyining yonginasidan o'tuvchi so'qmoqdan yomg'ir ostida bir daqiqa ham to'xtamay yurib borardi.

To'lin oy yaqinlashardi; yomg'irli bulutlar osmonni bir tekisda qoplab olgan bo'lsa-da, atrof kaftdagidek ko'rinib turardi. Yo'lovchining tik va egiluvchan qomatini g'ira-shira yorug'da ham ko'rish mumkin edi, qadam bosishi dadil bo'lsa-da, chaqqon-chaqqon harakat qilish yoshidan o'tib qolgani bilinib turardi, biroq kerak bo'lganida hali tez yurishga ham qodir edi. Ko'rinishidan qirqlar atrofida edi. Uning bo'yi aslida besh futu sakkiz-to'qqiz dyuym atrofida bo'lsa-da, lekin armiyaga oluvchilar yoki odamni bir ko'rishda aytib beruvchilar yo'lovchini qotmadan kelgani uchun ham novcha ko'rinishini darrov payqashardi.

U bir tekisda, borar joyining tayini yo'q odamdek ehtiyotkorlik bilan asta qadam tashlardi; u qora syurtuk yoki biron-bir qora kiyim kiymasa-da, uning o'sha shahar bichimidagi qora ko'ylak kiyuvchilar toifasiga mansubligi ko'rinib turardi. To'g'ri, u faqat paxmoq kiyim kiyardi, etigiga ham qalpoqli mix urilgandi, lekin haqiqatan ham u loy kechib yurishga o'rganib qolgan dehqonga o'xshab qadam bosmasdi.

U cho'ponning hovlisiga yaqinlashganida yomg'ir kuchaydi, yo'q, yaxshisi, shiddat bilan sharillab quyib yubordi desak, to'g'ri bo'ladi. Katta bo'lmagan qo'rg'onning eng chetidagi imoratlar shamol va yomg'irdan sal bo'lsa-da uni pana qilib turardi, yo'lovchi shu yerda to'xtashga qaror qildi. Cho'ponning barcha xo'jalik binolaridan ko'ra ko'proq tashlandiq cho'chqaxonasi tez ko'zga tashlanardi, molxona to'sib qo'yilmagan kichik bog'ning ko'rinib turadigan yeriga qurilgandi: bu joylarda xo'jalik binolarini uyning orqasiga yashirish odat emasdi. Tomdagi nam shiferning xira tusi yo'lovchining e'tiborini tortdi. U so'qmoqdan burildi-da, o'zini molxona ayvonchasi panasiga oldi.

Shu asnoda uy tomondan shamolning zo'ridan kuchayib borayotgan yomg'irning shovqin-suroniga jo'r bo'lib, serpentning yo'g'on va skripkaning uncha baland bo'lmagan ovozi quloqqa chalindi, yomg'ir esa chimzorni, ayniqsa, polizdagi karam barglarini ayamay savalardi, so'qmoq tomondan g'ira-shirada zo'rg'a ko'zga chalinayotgan asalari uyalariga bamisoli nog'ora qoqqandek kelib urilardi, uy devori tagiga qator terilgan kostryulka va chelaklarga esa tomdan tushayotgan suv sharillab quyilardi. Tepalikdagi boshqa qo'rg'onchalar kabi Hayer Krousteyrs tepaligida ham suv tanqisligidan xo'jalik yuritish mushkul bo'lib qolgandi, shu bois ham har bir tomchi yomg'ir suvidan unumli foydalanish maqsadida uydagi bor idish-tovoqlarni suv omboriga aylantirib olishgandi. Qurg'oqchilik

paytlarida esa uy bekalari kir, idish-tovoq yuvishlari uchun o'z uddaburonliklarini namoyon etib, suvni qanchalik tejaganliklari haqida qiziq-qiziq voqealarni so'zlab berish mumkin edi. Kuzda suvga taqchillik bo'lmasdi, lekin barakali qo'r-qut to'plash uchun ko'kdan tushgan rizq-ro'zni yig'ib olmasa bo'lmasdi.

Nihoyat serpentning ovozi o'chib, uy jim-jit bo'lib qoldi. Xayolga botgan yo'lovchi to'satdan cho'kkan jimlikdan hushyor tortdi va oxiri bir to'xtamga kelib, cho'chqaxonadan chiqdi-da, yo'lakdan uy tomonga qarab yurdi. Yo'lovchi uyga yaqinlashgach, avval yapaloq toshga cho'kkaladi, so'ng oldida turgan idishlardan biriga engashib, yutoqib suv icha boshladi. Chanqog'i bosilgach, qaddini rostladi va eshikni taqillatgani qo'lini ko'tardi, lekin taqillatmay eshikka tikilib qoldi. Taxtaning quyoshdan qoraygan sirtida e'tiborni tortuvchi biron nima yo'q edi, lekin yo'lovchi bu eshik orqasida qanday sir yashiringan ekan va uyga kirsa, nima sodir bo'lishi haqida o'ylab, uy ichiga kirmoqchi ham bo'lgandi.

U ikkilanib, atrofga alangladi. Atrofda hech zog' yo'q edi. U turgan bog' yo'lakchasi tepalikdan shilliq qurtning iziday yaltirab, qiyalab tushgandi; quduqcha tepasidagi ayvonchasi (aytarli doim qurib yotardi), quduqning qopqog'i, bog' eshigining tepasidagi xari bir xilda nam va yaltiroq bo'lib, xuddi lak bilan bo'yalgandek tovlanib turardi, uzoqlikda pastdagi, vodiyda keng yoyilib ketgan oq rang daryoning yaylovlarga toshib chiqqani-

dan dalolat berardi. Undan ham narıda, sharıllab yog'ayotgan yomg'ırlar osha o'tıb, tumanlar orasıdan chıroqları miltıllab ko'rınıb turgan shahardan  graflık markazıdan, balkı sayyoh yo'lga otlangandır. U tomonlarda tırıklikdan asar ham yo'q edi, yo'lovchinıng bunday qarorga kelishıga balkı ana shu turtkı bo'lgandır: u eshiknı taqıllatdı.

Uydagi o'yın-kulgı va musıqa ovozları maza-bemaza gap-so'zlar bılan qorıshıb ketgandı. Buta devor ustası hammaga jo'r bo'lib qo'shiq aytishni taklif qılgandı, lekın unga hech kım quloq solmadı, boz ustıga xuddı shu paytda qandaydir yangılikdan ogoh etib, eshık taqilladi.

– Kıraverıng! – darrov javob berdı cho'pon.

Lo'kıdon shaqillab tepaga ko'tarıldı-da, tun qorong'usıdan chiqıb kelgan bızning yo'lovchı ostonadagı to'shamaga qadam qo'ydı. Cho'pon o'rnıdan turıb, o'zıga yaqın turgan ıkkıta shamnıng so'xtasını tozaladı va kırgan kıshiga yuzlandı.

Bu notanısh kımsanıng bug'doymag'ızligı va xushbıchımligı shamlar yorug'ıda yanada yaqqolroq ko'rındi. Yo'lovchı ko'zıgacha bostırıb kıygan shlyapasını darrov yecha qolmadı, shunday bo'lsa-da, u katta-katta ko'zlarını yashırolmadı va dadıl, oshkora nıgohı bilan xonaga yashın tezlıgıda ko'z yugurtırdı. Aftıdan ko'rganlarıdan ko'ngli to'ldı shekilli, yo'lovchı sochları hurpaygan boshıdan shlyapasını oldı-da, shirali, yo'g'on ovozda dedı:

– Do'stlarım, agar ıjozat etsangız. kirıb, biroz nafasımnı rostlab olsam; tashqarıda yomg'ır chelaklab quyayaptı.

– Kırıng, kıraverıng og'ayni, ısmıngıznı ham bılmayman, – deya javob berdi cho'pon. – Zap vaqtıda keldıngız-da: bu yerda bız bır xursandchılikni nıshonlash uchun yıg'ılgandık... to'g'rısını aytsam, bunday voqealar bahona yilda bir marotaba bo'lsa ham ko'rıshıb tursak, yomon bo'lmasdı-da.

– Lekın, yılda bır ko'rıshsak ham ko'rıshaylik, ko'rıshmasak ham ko'rıshaylik, – bir ayol so'zni ılib ketdı. – Bola qancha erta dunyoga kelsa, shuncha yaxshı, – bu g'avg'odan shuncha erta qutulganing qoladı.

– Qanaqa xursandchılikning ustıdan chıqdim o'zı? – so'radi musofir.

– Ayolning eson-omon ko'z yorıganıyu, bolani cho'qıntırısh marosımı, – javob berdi cho'pon.

Notanısh kımsa bunday marosımlar tez-tez bo'ladımı yokı ıshqılib, bo'lib tursın deya tilak bildırdı, mezbon esa qo'li bilan finjonga ishora qildi, u ham darhol finjonnı qo'liga oldı. Bu xonadon ostonasını hatlab o'tgunga qadar unıng ıch-etinı shubha-gumonlar kemırıb turgan bo'lsa-da, endı u o'zinı mutlaqo beg'am odamdek samımiy tutmoqda edı.

Qop-qorong'ı tunda tepalikka tırmashıb chıqıshga kımning ko'zı uchıb turgan ekan-a? – deb og'zidan chıqıb ketdi ellik yoshli qarı bo'ydoqnıng.

– To'g'ri sohib, juda kech kirib keldim!.. Xonim, ijozat bersangiz, kamin oldida o'tirsam, yomg'ir urgan tomonim shalabbo bo'lib ketdi.

Missis Fennel rozi bo'lib, chaqirilmagan mehmon uchun joy ajratib berdi, musofir kaminning soyaboni tagidagi bir burchakka qo'yilgan kursiga cho'kdi-da, o'zini xuddi o'z uyidagidek his etib, qo'l-oyog'ini olovga tutdi.

Ha, etigimning ham og'zi ochilib qolibdi, – dedi musofir uyalib o'tirmay, cho'ponning xotini uning etigiga qarab qo'yganini payqab, ust-boshim ham unchalik emas. So'nggi paytlar tang ahvolda qolganimdan egnimga nima to'g'ri kelsa ilib ketaverayapman. Uyimga eson-omon yetib olsam bo'lgani, o'zim bop bironta ish kiyimi topib kiyarman.

– Siz shu yerlikmisiz? so'radi uy bekasi.

– Unchalik emas... men dengizdan sal narida, shimolroqdanman.

– To'g'ri topibman. Men ham o'sha yerdanman. Shevangizdan hamyurt ekanimizni bilgandim.

– Men haqimda eshitmagan bo'lsangiz kerak, – shoshib dedi u. – Axir, men sizdan ancha kattaman-ku, xonim.

Uning tilyog'lamaligi uy bekasiga yoqib tushdi va u o'sha zahoti so'roqni to'xtatdi-qo'ydi.

– Bundan ham maza qilishim uchun yana bir nima yetishmay turibdi-da, dedi musofir. Tamaki yetishmayapti, tamaki; afsus, barini chekib bo'pman.

– Chubuqni ol bu yoqqa, to'ldirib beray, – dedi cho'pon.

– Bir yo'la chubug'ingizni ham berib turasiz-da, unda. Chekadigan odamda ham chubuq bo'lmaydimi?

– Qayerdadir tushirib qo'yibman, shekilli.

Cho'pon yangi sopol chubuqni to'ldirdi-da, unga uzatdi.

Tamakidoningni bu yoqqa ber-chi; ahvoling shunchalik tang ekan, uni ham bir yo'la to'ldirib bera qolay.

Musofir cho'ntaklarini kavlay ketdi.

– Nima, u ham tushib qolibdimi? – deb so'radi cho'pon hayron bo'lib.

– Shunaqaga o'xshayapti, – dedi musofir xijolat tortib. – Mana bu qog'ozga ozroq solib bera qoling.

U chubuqni shamdan tutata turib, shunday kuch bilan ichiga tortdiki, hatto yonayotgan olov ham chubuqning ichiga kirib, ko'rinmay qoldi, so'ng qaytib kelib yana burchakka o'tirdi-da, hech kim bilan gaplashishga xushi yo'qligini namoyish etib, issiqqa tutib turgan nam oyoqlaridan ko'tarilayotgan yengil bug'ga tikilib o'tiraverdi.

Bu vaqt ichida mehmonlar musofirga deyarli e'tibor ham berishmadi; ular musiqachilar bilan keyingi raqs uchun bo'ladigan kuyning muhokamasi bilan band edilar. Bu masalani hal qilib bo'lib, endi o'rinlaridan turishayotgandiki, eshik taqillab qoldi.

Olov yonida o'tirgan odam eshik taqillagani hamon, shu tobdagi harakatlari xuddi hayoti mazmuniga aylanib qolgandek,

kosovni oldı-da, jon-jahdı bilan cho'g'nı tıtkılay ketdı, cho'pon esa har doımgıdek: «Kıraverıng!» dedi xotirjam tusda. Oradan bır daqıqa o'tgach, boshqa bır musofir ostonaga to'shalgan yumshoq poxolga oyog'ını qo'ydi. Bu odamni ham hech kım tanımadı.

Bunısı oldıngısıdan butunlay boshqacha edı – u ko'rınıshdan oddıy, dunyoni ko'p kezgan, quvnoq, dilkash odamga o'xshardı. U birınchi musofirdan chaması bir necha yosh katta bo'lib – sochlarıga oq oralagan, qoshları dikkaygan, chakka soqolları kalta qılib kuzalgandi. To'la, lo'ppı yuzli bo'lsa-da, barıbır, ırodali ekani bilinıb turardı. Yuzınıng burnı atrofidagı qızıl dog'lar unıng aroqqa ruju qo'yganını bıldırardı. U to'q jıgarrang ro'dapo paltosınıng oldinı keng ochıb olgandı, ıchıdan kulrang kostyum kıygan bo'lib, unıng soat cho'ntagı ustıdagi zanjırda yagona bezak – allaqanday unıqqan ma'dandan yasalgan katta-katta to'g'alar osilib turardi. Qattiqqina klyonkali shlyapasınıng kambar soyabonıdan yomg'ır tomchilarını silkıta turıb:

– Azızlarım, yomg'ır tinguncha menı panohıngızga olsangız, bo'lmasa Kesterbrıjga yetib olgunımcha ıvıb qolaman, – dedı.

– Bemalol, tortinmay kıraverıng, janob, – birınchı musofirga nısbatan yuzakıroq iltifot ko'rsatib dedi cho'pon.

Cho'pon Fennel o'zi ziqna odam emasdi, lekin uyınıng xonaları kichikroq bo'lib, bo'sh kursilar yetishmasdi, yasan-

tusan qilib olgan ayollar va qızlar oldida ıvıb, shalabbosı chıqıb ketgan mehmonnıng tashrıfi mezbonga uncha yoqmadı.

Ikkınchı musofir paltosını kıbr bilan yechdı-da, hech bir takallufsız shlyapasını shıftnıng to'sıniga qoqılgan mıxga ıldı va bir-ikki qadam tashlab, stolga kelib o'tırdi. Stol bundan avvalroq raqsga joy ajratish maqsadida chetga surib qo'yilganidan kamınga shunchalik yaqın kelib qolgandikı, olov yoniga joylashib olgan musofir bemalol tirsagını unga tırab o'tırardi; shu taxlit ıkki musofir yonma-yon o'tırıb qoldi. Ular tanıshish maqsadida bosh irg'ab qo'yishdi, birınchi musofir uy egasınıng meros qolgan finjonini – chetları eshik ostonası kabi yedirılib ketgan (barı joyi rostonga ravona bo'lgan qanchadan-qancha ajdodlarning tashnaligını qondirgan), bo'rtma devorlarıga zarhal harflar bilan «Mensiz dunyo ham yoqimsiz» deb yozilgan katta sopol ıdishni yangi mehmonga uzatdi.

Ikkinchi musofir jon-jon deb finjonni labiga tekkızdi-da, bir qultum ichdi, keyın yana bir qultum va yana va yana... birınchi musofir xuddi o'z uyidagıdek xo'jayinlik qilib, boshqasıni mehmon qilayotganidan ensasi qotib turgan uy bekasınıng rangi oqarıb ketdı.

– Shunday bo'lishini bilgandim! nafsıni qondirıb bo'lgan ikkinchi musofir mamnun holda cho'ponga murojaat qildı. – Sızning bog'ıngızdan o'tayotganimda asalari uyalarıga ko'zim tushdi, o'zimga-o'zim: «Qayerda asaları bo'lsa, o'sha yerda asal

bo‘ladi, asal bor joyda esa albatta asal sharob bo‘ladi», dedim. Lekin bu yoshimda bunday asl asaldan totaman deb hech o‘ylamovdim.

U yana finjonni og‘ziga olib bordi-da, shunchalik uzoq simirdiki, finjon uning og‘zi ustida to‘nkarilib qoldi.

– Sizga manzur bo‘lganidan xursandman, dedi cho‘pon xushmuomalalik bilan.

Bu asal sharobimiz juda siz maqtaganchalik emas, yerto‘lasini maqtagani unga qimmatga tushishini sezgan missis Fennel sovuqqonlik bilan javob berdi. Uni tayyorlash ham oson ish emas... balki bu ish bilan endi boshqa shug‘ullanmasmiz. Asalning o‘zi ham qimmat turadi, uni shunday sotsa ham bo‘laveradi, biz esa asalli suv yoki qaynatilgan mumdan tayyorlangan oddiy sharob bilan ham kun ko‘raveramiz.

Yo‘g‘-ey, bo‘lmagan gap! Bunga jur’atingiz yetmaydi! o‘pkalangandek xitob qildi kulrang kostyumli va uchinchi marta finjonni olib, oxirigacha simirdi-da, bo‘shatib stolga qo‘ydi. Men asalni o‘lgudek yaxshi ko‘raman, ayniqsa, uzoq saqlanib yetilgan asal bo‘lsa; ochlikka chidayman, yakshanba kunlari cherkovdan, begim kunlari esa sadaqadan voz kechishga ham tayyorman, faqat o‘sha sharobdan ichsam bo‘lgani.

Vah-hah-ha! kamin oldida anchadan beri mum tishlab, huzur qilib chekib o‘tirgan musofir yonidagi qo‘shnisining hozirjavobligiga qoyil qolgandek birdan qah-qah otib kulib yubordi.

Shunı aytish joızkı, u davrdagı uzoq saqlanıb yetilgan asal sharobı asl yosh asaları to'dasidan – o'zı oqıb tushadıgan asaldan tayyorlangan bo'lib, to'rt funt asalga teng qilib suv quyiladi va ıchıga tuxum oqi, dolchın, zanjabıl, qalampırmunchoq, muskat yong'og'ı, razmarın moyı solib aralashtırıladı, xamirturush bılan oshirıb achitıladı, ıdıshlarga solinıb, yerto'laga saqlash uchun qo'yiladi, – bunday asal sharobni ıchganingda kuchlidek tuyuladı, lekın aslıda u bundan ham kuchli bo'ladi. Oradan bir necha daqıqa o'tar-o'tmay sharobning kayfidan kulrang kostyumli musofir nımchasi tugmalarını yechdi, oyoqlarıni cho'zib, kursıga shunday yalpayıb o'tirıb oldiki, hatto o'tirganlarning ham e'tıborini tortmay qo'ymadi.

– Gap bunday, – yana so'zida davom etib dedı u, avval aytganımdek, men Kesterbrıjga ketayapman; nima bo'lmasin u yerga yetib olishim kerak. Agar yomg'irning dastidan bu yerga kırmaganimda, allaqachon manzilimga yetib olgan bo'lardim, lekın, barıbir, sızlar bılan tanishganımdan afsusda emasman.

– Sız Kesterbrıjda yashaysizmi? – so'radi cho'pon.

– Hozircha yo'q; lekin ko'chib borib yashash niyatim bor.

– U yerda nima ish qilmoqchisiz?

He-yo'q, gapga aralashdi cho'ponning xotini. – Nahotkı, ko'rmayotgan bo'lsang, bu jentlmen boy odamga o'xshaydi, ishning unga nima keragi bor?

Kulrang kiyimli musofir nima deb javob berishini bilmay o'ylanib qoldi, biroq ko'p o'tmayoq e'tiroz bildirib dedi:

– Xonim, meni boy odamga chiqarib qo'yishingiz unchalik to'g'ri bo'lmas. Men ishlayman va ishlashga majburman. Basharti Kesterbrijga tun yarmida yetib borganimda ham istasam-istamasam tonggi soat sakkizda ish joyimda bo'lishim shart. Jazirama bo'ladimi, do'l yog'adimi, dovul turadimi, ocharchilik bostirib keladimi, urush boshlanib qoladimi, osmon uzilib yerga tushadimi – nima bo'lmasin, baribir, men ertaga bo'ladigan ishimni bajarishim zarur.

– Voy, sho'ring qurg'ur-ey! Demak, tashqaridan qaraganda boy odamga o'xshab ko'rinsangiz ham aslida bizdan ham kambag'alroq ekansiz-da? – dedi cho'ponning xotini.

Rizqim shuning orqasidan kelsa, men nima ham qila olardim, do'stlarim. Ha, ishim shunaqa, kambag'allikning bunga sira aloqasi yo'q... Xullas, jo'naydigan vaqtim bo'ldi, izzatim borida tuyog'imni shiqillatib qolay, yo'qsa yana ko'chada qolib ketaman. Lekin shunday deb ham musofir joyidan qo'zg'almay gapida davom etaverdi: – Ketar jafosiga, tanishganimiz uchun qittak-qittak olsak bo'lardi-yu, finjon ham bo'shab qolibdi-da.

– Mana, sizga kuchsizroq asal sharobli finjon, manzirat qildi missis Fennel. – Biz uni nazarimizga ilmaymiz, aslida u ham asalari mumining birinchi quyqasidan eritib tayyorlanadi.

Kerak emas, – bepisand ohangda javob berdi musofir. – Agar men siz aytayotgan ikkinchi nav sharobdan ichadigan bo'lsam, avvalgi sharobni haqoratlagan bo'laman.

– Albatta, bo'lmasam-chi, – deb gapga qo'shildi Fennel. – Axir biz har kuni tug'ilib, har kuni ko'payishmaymiz-ku, shunday bo'lgach, men hoziroq borib, sirqitib-sirqitib bo'lsa-da, finjonni sharobga to'ldirib olib kelaman.

U zinapoya tagidagi bochkacha turgan qaznoqqa yo'l oldi. Xotini unga ergashdi.

– Nega uning nog'orasiga o'ynayapsan? – ta'na qildi xotini ular ikkovi qolishganida. – U o'nta odamni to'ydiradigan finjonni oxirigacha ichib bo'ldi, endi kuchsizroq asal sharobiga qiyo ham boqmaydi, yana kuchlirog'ini talab qilaveradi! Ustiga-ustak hali uning qanaqa odamligini hech kim bilmaydi. Boshqalarni bilmadim-u, lekin u menga sira yoqmayapti.

- Xotinjon, axir u bizning mehmonimiz; boz ustiga havo ham chatoq bo'lsa, bu yoqda cho'qintirish marosimi... Uni qo'yaver! Asal sharobning bir piyolasi bilan boyib ham, kambag'al bo'lib ham qolmaymiz... Qayg'urma, vaqti-soati kelib, yana tutatib asalarilarni haydaymiz-da, bundan ham ko'proq asal olamiz.

Ha mayli... faqat shunday yaxshi kunlarimiz haqqi-hurmati, roziman, – dedi cho'ponning xotini ma'yus asal idishga boqarkan. – Bu odam kim, nima ish qiladi, osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, qayerdan paydo bo'lib qoldi? Uyimizga bostirib kirib, o'zicha mehmon bo'lib olishga uni nima haqqi bor o'zi...

– Bilmadim, o‘zidan yana bir so‘rab ko‘ray-chi.

Bu safar missis Fennel kulrang kostyumli musofirga finjonni oxirigacha bo‘shatishga qo‘ymay, balo-qazoning oldini oldi. Uy bekasi unga sharobni kichikroq piyolaga quydi-da, finjonni har ehtimolga qarshi uzoqroqqa surib qo‘ydi. Musofir bir ko‘tarishda piyoladagini paqqos urdi, so‘ng cho‘pon undan nima ish bilan shug‘ullanishini yana so‘radi.

U javobdan o‘zini olib qochgandi, olov yonidagi musofir birdan, kutilmagan samimiylik bilan:

– Men esa hunarimni odamlardan sir tutmayman... men charxsozman, dedi.

– Bizning tomonlarda bu juda serdaromad ish, luqma soldi cho‘pon.

Qanday hunarim borligini odamlarning o‘zi fahmlay olganda edi, men ham uni sir tutmagan bo‘lardim, dedi kulrang kiyimdagi musofir.

Kim qanday hunar egasi ekanini uning qo‘llari aytib turadi, dedi buta devor ustasi Charli Jeyk o‘z qo‘llariga ishora qilib. Mana, masalan, mening qo‘llarim bamisoli igna to‘g‘naydigan yostiqqa o‘xshab qolgan.

Kamin oldida o‘tirgan musofir beixtiyor o‘zini panaga oldi-da, yana chubug‘ini tutatib, olovdan ko‘zini uzmay o‘tiraverdi. Unisi esa buta devor ustasining so‘zini ilib ketdi:

– Gapingiz to‘g‘ri: hunarimning g‘aroyibligi ham shundaki, u o‘z muhrini menda emas, aksincha, mijozlarimda qoldiradi!

Bironta odam bu so'zlarning mag'zini chaqishga urinib ham ko'rmadi, cho'ponning xotini mehmonlarga yana qo'shiq aytishni taklif etdi. Biroq yana o'sha vaj-korsonlaru bahonalar: mehmonlardan biri ovozim bo'g'ilgan desa, ikkinchisi qo'shiq so'zlarini unutganman deb turib oldi. Stol yonidagi musofir azbaroyi zavqi jo'shganidan, mayli, birinchi bo'lib o'zim boshlab bera qolay deb, uy bekasini noqulay ahvoldan qutqardi. So'ng boshmaldog'ini nimchasining o'miziga tiqdi-da, yaltillab turgan cho'pon tayoqlarining tutqichlariga bir ko'z tashlab olib, tayyorgarliksiz aytiladigan qo'shiqqa shu tutqichlar ilhom bergandek, ashulasini boshlab yubordi:

*Kamyob hunar sohibiman,*
*Eh cho'ponlar-xokisorlar!*
*Ishlagan sari ishlaging kelar!*
*Mijozlarni bog'laymanu, osmonu falakka ko'taraman.*
*O'sha, yetib bo'lmas tomonlarga!*

U qo'shiq bandini tugatganida, xonaga sukunat cho'kkandi; odamlar jim o'tirishardi... Ijrochi qayrilib, hammaga: «Jo'r!» – deb xitob qilganida, faqat olov yonida o'tirgan kishi unga javoban oxirgi satrlarga yo'g'on, ammo yoqimli ohangda jo'r bo'ldi:

Sut fermasining xo'jayini Oliver Jaylz, cherkov qo'shiqchisi Jon Pitcher, ellik yoshli kuyov, devor tagida o'tirgan hali ona suti og'zidan ketmagan qizlar va boshqa mehmonlar qovoqlarini uyib, o'yga cho'mgandilar. Cho'pon xayolchan yerga boqdi, xotini esa shubhadan xoli bo'lmagan qo'shiqchiga sinovchan nigoh bilan tikildi: musofir qaysidir qadimgi qo'shiqni eslab qoldimi yoki boshini ham qotirib o'tirmay, aynan shu fursatga bag'ishlab yangisini to'qib qo'ya qoldimi, bu yog'ini Xudo biladi. Xuddi Valtasarlar ziyofatida[1] bo'lib o'tgan voqeani eslatuvchi bu iqror to'la so'zlarning noaniq va tushunarsiz ishoralaridan, birinchi musofirdan tashqari, cho'ponning barcha mehmonlari xijolatdan hang-mang bo'lib qolishdi. Musofirning o'zi bamaylixotir: «Ikkinchi bandini ham boshlab yuboraver, oshna!» – dedi-yu, chubug'ini yana tutatishga tushdi.

Qo'shiqchi asal sharobdan og'zini to'ldirib bir ho'pladi-da, tomog'ini ho'llab olib, qo'shnisining iltimosiga ko'ra, qo'shiqning ikkinchi bandini kuylay ketdi:

[1] Bibliyada aytilishicha, Bobil shohi Valtasar bir kuni mehmonlarni ziyofatga chaqirgan va ziyofat paytida zalning devorida Bobilning halokatini bashorat qiluvchi otashin so'zlari paydo bo'lgan.

*Menıkıdek oddiy qurol topilmas.*
*Eh, cho'ponlar-xokısorlar!*
*Qurolimga qaramang, zarurat yo'q:*
*Ustunı xarıga arqonnı mosladım men,*
*Bo ldi, tamom; osilishning ǵ'amini yema.*

Cho'pon Fennel atrofga alangladi. Musofirning qo'shig'i uning savoliga javob edi, endi bunga cho'ponning shubhasi qolmagandi. Mehmonlar ich-ichlarıdan otılib chiqayotgan hayqiriqni jilovlashga urinib, sapchib tushdilar. Ellik yoshli odamga unashtırilgan ayol hushidan ketib, yiqilıshiga oz qolganida, birdan qallig'ining uddaburonlik qilib, uni ko'tarib olishiga qurbi yetmasligini vaqtida angladi-da, o'zini qo'lga olib, qaddini rostladi va titrab-qaqshab joyida qimirlamay o'tıraverdi.

«Voy, demak, bu o'sha... – xona to'rıdan turib pichirlashishdi odamlar vahimali vazifani egallab turgan allakim haqida.

Demak, u shu niyatda shaharga otlangan ekan-da!.. Kesterbrij turmasida ertaga... anavi qo'y o'g'irlagan odamni osmoqchilar, biz u haqda eshitgandik... kambag'al bir soatsoz, Shotsfordda yashagan... ishsiz... Uning ismi Timoti Samers... Oilasi ochlikdan sillasi qurib, o'lar holatga kelib qolgandi, shuning uchun ham Shotsfordni tark etıb, o'zini qaroqchilikka urgan, qo'yni ham kuppa-kunduzi, fermerning, xotinining, ularning ishchilarining, umuman, hammaning ko'z o'ngida o'g'irlab ketgandi. Bu esa (odamlar ajal quroli hunarining ustasi tomonga ishora qildilar)...

u shu bois ham uzoqlardan bu yerga kelgan; ular yashayotgan graflikdan ish topish amrimahol, bu yerdan darrov ish ham topila qolgan – jallodimiz o'lgan-ku; u endi o'sha turma devori oldidagi uyda yashaydi».

Kulrang kiyimdagi kishi elas-elas eshitilayotgan pichir-pichirlarga e'tibor qilmay, tomog'ini yana bir ho'llab oldi. Davradagi odamlardan ko'ra ko'proq uning barcha dilkashliklariga olov yonida o'tirgan qo'shnisigina iltifot ko'rsatayotganini payqadi-da, ulfatijon bo'lmagan bu odamga o'z qadahini uzatdi, u esa o'zinikini – unga. Ular qadahlarni cho'qishtirishdi, qolganlar qo'shiqchining har bir harakatini ko'z uzmay kuzatib turishardi. Qo'shiqchi uchinchi bandni aytish uchun endi og'iz juftlagan ham ediki, eshik taqillab qoldi. Eshik bu gal kuchsizroq va jur'atsizroq taqilladi.

Hammaning esxonasi chiqib ketdi: cho'pon hadiksirab eshikka qaradi va qo'rqib ketgan xotinining ta'nali nigohidan o'zini olib qochdi-da, uchinchi marta ham muloyimlik bilan: «Kiravering!» dedi.

Eshik asta ochilib, ostonada yangi mehmon paydo bo'ldi. Ungacha kelgan musofirdek, uni ham hech kim tanimadi. Bo'y-basti ixchamgina, nimjon, rangpar yuzli bu odam egniga qoramtir gazlamadan binoyidek kostyum kiyib olgandi.

– Aytolmaysizmi, shaharga qanday borsam bo'ladi... – gap boshladi u, qayerga kelib qolganini bilish maqsadida xonaga ko'z yugurtirarkan va nigohi kulrang kostyumli odamda to'xtadi.

Bu, zavqı jo'shıb ketgan qo'shıqchınıng qo'shıqnı endı oxırıga yetkazmoqchi bo'lib turgan bır paytda va musofirnıng borligını ham payqamay, barcha shıvır-shıvır, savol-javoblar ovozını o'chirıb, uchınchı bandnı bor kuchı bılan:

*Ertaga men ıshlayman,*
*Eh, cho'ponlar-xokisorlar.*
*Kuylolmayman ertaga:*
*Qo'y so'yildi axır, azamatnı ushlashdi oxır,*
*Do'zaxda yondirma, Xudoyım!*

deya kuylab tugatganıda ro'y berdı.

Olov yonıda o'tırgan musofir qoyil qoldı-da, shıddat bılan qo'shıqchı sharafiga qadah ko'tardı, javoban u ham qadah ko'targandı, asal sharob chayqalib, olovga to'kildi.

*Do'zaxda yondirma, Xudoyım!*

yana yo'g'on ovozda jo r bo'ldi.

Uchınchı musofir qoqqan qoziqdek hamon eshik tagida turardi. Musofirning bezrayıb turıb qolganini payqab qolgan mehmonlar endi unga diqqat bilan razm sola boshladilar. Uning vahimadan talvasaga tushganini ko'rib, mehmonlar hayratdan yoqa ushlashdi: uchinchi musofirning tızzaları dag'-dag' titrardi, qo'lları esa shunday qattıq qaltırardiki, hatto u

tutıb turgan lo'kıdonnıng zirıllaganı ham anıq eshıtılib turardı, labları oppoq oqarıb, lang ochılıb qolgandı. xona o'rtasıga qarab qolgan ko'zlarını esa quturgan jalloddan uzmasdı. Yana bir lahza o'tar-o'tmas, u eshiknı tars yopdı-da, orqasıga qaramay ura qochib qoldı.

– Bu endı kım bo'ldi ekan? - dedı cho'pon.

Odamlar kutılmagan holdan hali o'zlarıga kelmay turıb, uchınchı musofirnıng mana bu qılig'ı o'lgannıng ustıga tepkan bo'lganıdan hech narsanı tushunolmay jim qoldılar. Ular o'z davralarıga qo'shilib qolgan bu kasofat jentlmendan beıxtıyor uzoqlasha boshladılar, ba'zi mehmonlar uni hatto ıblıs deb tan olishga ham tayyor edilar; mana, poldagı bo'sh qolgan joy unı mehmonlardan ajratdı-qo'ydı va u xonanıng o'rtasıda bir o'zi qo'qqayıb turıb qoldı...

### *«Circulus cujus centrum diabolus»*[1]

Xonada yıgirma kıshıdan ko'proq odam bo'lsa-da, suv quygandek jim-jit edi, hatto deraza eshıgiga urılgan yomg'ır ham, dudburon orqali tasodıfan olovga kelib tushayotgan yomg'ir tomchıları ovozı ham, bır burchakda o'tırıb olgan bırınchı musofirnıng uzun sopol chubuqnı bır maromda tortıb, puflab chiqarayotgan tovushı ham shundoq eshıtılib turardi.

[1] «Qoq o'rtasıda iblıs turgan aylana» (lot.).

Bu sukunat qo'qqısdan buzıldı. Graflıknıng markazıy shahrı joylashgan tomondan to'pnıng otılgan ovozı eshıtıldı.

Menga la'natlar bo'lsın! baqırdı qo'shiqchi joyıdan sakrab turarkan.

Bu qanaqası?.. Nima bo'ldı o'zı? har tomondan savollar yog'ıla boshladı.

Mahbus turmadan qochibdi... mana nıma bo'ldı!

Hamma birdan sergak tortdi. Yana o'q ovozi yangradı, lekın bu safar hech kım g'ıng demadı, faqat olov yonıdagı kıshı tilga kırdı:

– Menga bir necha bor bu graflıkda otıshma bo'lib turıshi haqıda aytıshgandi, lekın o'zım bıron marta ham eshıtmagandim.

– Nahotki, men o'z o'ljamnı qo'ldan chiqargan bo'lsam? – mıng'ırladı kulrang kostyumdagısı.

Undan boshqa yana kım bo'lardı! – og'zıdan chıqıb ketdı cho'ponnıng. – Bız unı ko'rdık. Boya o'z oyog'ı bılan kırıb, sıznı ko'rıb, qo'shıg'ıngıznı eshıtdı-da, dag'-dag' titrab qoldı.

Unıng tıshları takırlab, nafası ham bo'g'ildı, – dedi sut fermasınıng xo'jayını.

– Yuragı ham qınıdan chiqıb ketay dedı-yov, gap qotdı Oliver Jaylz.

– Xuddı unı o'qqa tutgandek tiraqaylab qochdı, dedi Charli Jeyk.

– Ha, ha, xuddı shunday bo'ldi... tıshlari takırladı, yuragı qınıdan chıqayozdı, uni xuddı o'qqa tutgandek orqasıga qaramay qochdı, – shoshilmay xulosa qildi olov yonıdagi kıshi.

– Men hech nimani sezganim yo'q, – dedi bir vaqt jallod.

– U nimadan bunchalik qo'rqib ketdi ekan, ura qochib qoldi deb biz boshimizni qotirib o'tiribmiz, – dedi xirillagan ovozda devor yonida o'tirgan ayollardan biri. – Mana endi hammasi tushunarli!

Bir maromda ketma-ket otilayotgan to'plarning bo'g'iq va vahimali ovozi hamon tinmayotgandi, odamlar endi uning chin ekaniga ishonishdi. Kulrang kiyimdagi yovuz jentlmen qaddini rostladi.

– Orangizda konstebl bormi? – dedi chaynalgannamo tusda u. – Agar bo'lsa, qani, bu yoqqa chiqsin.

Ellik yoshli kuyov titrab-qaqshab, devordan nari ketdi, uning qallig'i esa yuzini stul suyanchig'iga qo'yganicha uvvos solib yig'ladi.

– Qasamyod qilgan konstebl senmisan?

– Ha, ser.

– Zudlik bilan o'zingga yordamchi top-da, jinoyatchining ketidan tush va uni topib bu yerga olib kel. U hali uzoqqa ketib ulgurmagan bo'lishi kerak.

– Xo'p bo'ladi, ser, xo'p bo'ladi... faqat asomni olib kelsam bo'lgani. Uyga zir etib boramanu olib kelaman, so'ng hammamiz birga jo'naymiz.

– Shu tobda asoga balo bormi! Ungacha qochoq juftakni rostlab qoladi-ku!

Asosız bo'larkanmı? Asosız hech nıma qılolmayman... hech bo'lmasa sen gapır, Uılyam, yokı sen, Jon, yo sen bıron nıma degın, Charli Jeyk, bunga haqqım bormı, yo qmı o'zı? Bu mumkın emas; axır asoda qırol toji, bir tomonıda sher, ıkkınchı tomonıda yakkashoxnıng sarıq rangdagı oltın suvi yugurtırılgan rasmları bor-ku, axır; kımnı qo'lga olib, kımga tayoq o'qtaladıgan, gumburlatıb tushırıb qoladıgan bo'lsam, ana o'shanda barı qonunıy bo'ladı. Asosız odamlarnı tutıshnı xayolimga ham keltırolmayman... kım qilsa qılaversın, men bunday qılolmayman! Qonun odamga kuch bag'ıshlaydı, usız bunday ıshlarga jur'atım yetmaydı, ba'zan shunday ham bo'ladıkı, men emas, menga qo'l ko'tarıshları mumkın.

– Etar! Menıng o'zım qirolning xızmatıdagı odamman, senga buyruq berıshga haqqım bor, – uning so'zını bo'lib dedı kulrang kıyımli mustabid. – Endı esa hammangız tayyor turınglar... Fonuslarıngız bormi?

Ha... aytgancha, fonuslarıngız bormi?.. Bormı deyapman? – unı quvvatladi konstebl.

– Hamma ishga yaroqlimi o'zı...

Hamma erkaklar ıshga yaroqlimi... ha... hammangızmı! – takrorladı konstebl: – ... o'zıngız bilan qoruvli, yo'g'on tayoq va panshaxalarnı olvolinglar...

Qonun nomi bilan buyuraman!.. Tayoq va panshaxalarnı qo'lingızga oling-da, olg'a! Hokımıyat buyrug'ıga ıtoat etib, ularnıng ketıdan quvıng!

Odamlarni shu yo'l bilan uning ortıdan quvıshga majbur etıshdı. Dalillar noanıq bo'lsa ham, lekın ancha ishonarli edı, shu bois cho'ponnıng mehmonlarıga buni ısbot qilib berıshga hojat qolmagandı, ular guvoh bo'ldılarmı, tamom. uchınchı musofirnıng ortıdan quvıshdan bosh tortsalar, ıshtırokchı sıfatıda ayblashları turgan gap, bunday baland-past adırlikdan hali bır necha yuz yarddan ko'p yo'l bosib ulgurmagan bo'lishi kerak.

Cho'ponda fonus har doimgidek serob bo'lardi, ularnı shosha-pısha yondirdilar; so'ng devorga suqib qo'yilgan tayoqlarni sug'urıb oldilar-da, eshikka qarab yopirildilar va ancha bosilib qolgan yomg'ir ostida tepalikning cho'qqisi bo'ylab shahardan teskarı tomonga keta boshladilar.

Yaqında cho'qintirilgan, uyning ıkkinchi qavatida yotgan chaqaloq yig'lay boshladi; uni yoki shovqin-suron bezovta qıldi, yokı bo'lmasa, yaqinda bo'lib o'tgan cho'qıntirish marosimı tushiga kirganidan yıg'lay boshlagandi. Bolaning achchiq yig'ısi polning teshigidan o'tıb, birınchi qavatga eshitildi, pastdagı ayollar uni tinchlantırısh uchun yuqorıga chıqıshga bahona topilganidan xursand, birin-sirın tezda o'rinlaridan tura boshladilar, oxirgi yarim soat ıchida bo'lib o'tgan voqealar ularni butunlay gangitib qo'ygandi. Shunday qilib, oradan ikki-uch daqiqa o'tar-o'tmas birinchi qavat bo'shadi-qoldi. Lekin bu uzoqqa cho'zilmadi. Oyoq tovushlari tinmayoq, uyning ular ketgan tomondagı muyulishida kimdir paydo bo'ldi. U eshikdan

mo'ralab qaradı-da, uyda hech kım yo'qlıgıga ishonch hosıl qılgach, shoshmay xonaga kırdı. Bu odam, o'sha. butun oqshom uynıng bır burchagıda o'tırıb, hamma bilan bırga chiqıb ketgan musofir edı. Musofirnıng uyga qaytıb kelish sababi ham darhol ma'lum bo'ldı: u avval o'tirgan joyıga yaqınlashdi, aftıdan kamın ustıdagı unutib qoldırgan bir to'g'ram nonnı oldı. Ichilmay qolib ketgan finjondagı sharobdan o'zıga yarım piyola quydı va tık turgan joyıda ochofatlik bilan non yeb, sharob ıcha boshladi. U hali yeb-ıchıb ulgurmasıdanoq to'satdan, xuddi shunday ohıstalik bilan boshqa bır kıshı – kulrang kıyımdagı unıng hamtovog'ı kırıb keldı.

O', sız ham shu yerdamısız? – dedı u tabassum bılan. – Men bo'lsam, sız ham qochoqnı qıdırıb ketgan bo'lsangız kerak deb o'ylovdım.

Unıng nimaga qaytıb kelganı ham darrovoq ma'lum bo'ldı: u och ko'zları bilan asl sharobga to'la. o'zı zorıqıb kutgan o'sha finjonnı ızlay ketdi.

– Men sıznı butunlay ketgan bo'lsangız kerak deb o'ylovdim, – dedi bırınchı musofir tıqılib qolib, non chaynashda davom etarkan.

Men fikrımdan qaytdim; mensız ham eplashadı deb o'ylayman, – ıshonch ohangıda suhbatdoshıga tushuntıra ketdi, – tunnı aytmaysızmı, tunnı, bundan battari bo'lmaydi. Jınoyatchınıng ketıdan quvıb yurısh menıng ıshım emas, bunga boshqalar bosh qotirishsin.

Haqıqatdan ko'z yumıb bo'lmaydı! Men ham fikrımdan qaytdım, mensız ham bır amallashar.

Men ovloq yerlarda tog'ma-tog', jarma-jar ızg'ıb yurıb, suyaklarını sındırıb oladıgan ahmoq emasman.

Gap o'rtamizda qolsin-u, menıng ham ko'zım uchıb turganı yo'q.

Cho'ponlar o'rganıb qolishgan... – Laqmalik ham shunchalik bo'ladimı! Ularni bır pasda chuv tushırish mumkın. Mana ko'rasız, men jonımnı koyıtıb ham o'tırmayman, unı shundoq ham tong otmasdanoq huzurımga boshlab kelishadi.

– Unı busız ham qo'lga olishadi; g'am yeyıshnıng hojatı yo'q.

To'g'rı, rost aytasız. Menıng Kesterbrıjga jo'naydıgan vaqtım bo'ldı; bunday uzoq yo'l bosıb, manzilga yetıb olıshımga ko'zım yetmay turıbdi. Sız ham o'sha tomonlargamı?

Afsuski, yo'q! Men uyga borıshım kerak, anavı yoqqa (u boshı bılan qandaydır o'ng tomonga ıshora qıldı); men ham sızga o'xshab boradigan joyimgacha qanday yetib olarkınman deb xavotırdaman.

Kulrang kıyımli finjonni oxırıgacha ichib bo'ldı-da, yo'lakda bır-bırları bilan do'stona qo'l siqıshib xayrlashishdi va ıkkovları ıkkı tomonga ajralishdı.

Bu vaqt ıchida qıdiruv guruhi tog'nıng aynan shu qısmıdagı tık tepalik cho'qqısıdan hamon yo'l bosıb borar edilar, mana, oxırı, balandlıknıng chekkasıga ham yetıb kelishdi. Odamlar yo'lga chıqıshdan avval ısh rejası tuzıb olishnı xayollarıga ham

keltirmagandilar, endi yonlarida ajal qurolining ustasi yo'qligida o'zlaricha biron-bir tadbir o'ylab topishga ojizlik qilardilar. Ular har tarafdan tapur-tupur tirmashib tusha boshlagandilar, shunda, bir necha odam to'satdan, bu bo'r tepaliklarda izg'ib, yo'ldan adashgan barcha tunkezarlarni tutish uchun tabiatning o'zi qo'ygan tuzoqqa tushib qoldilar. Ular oyoqlari ostida «nayza» borligini, boshqacha aytganda qiyalikni qurshab olib, u yer-bu yerdan cho'qqayib chiqib turgan bo'r chaqmoqtoshlarini sezmadilar va ehtiyotsizliklari tufayli shag'al uyumlariga qoqildilar-da, munkib pastga quladilar, qo'llaridagi fonus otilib ketib, vodiyning eng chuqur yeriga borib tushdi-da, to'nkarilib o'sha yerda yonib qolaverdi.

Hammaning yana bir yerga to'planganidan foydalangan cho'pon, u joylarni boshqalardan ko'ra yaxshiroq biladigan yo'lboshchi sifatida ularni aylanma yo'llar orqali boshlab ketdi. Fonus ko'zlarni qamashtirib, foydadan ko'ra ziyoni ko'proq tegardi, ustiga-ustak, bunday qulay fursatdan qochoq ham foydalanib qolishi mumkin edi, eng yaxshisi chiroqni o'chirib, jim bo'lish edi. O't bosib yotgan, tikonli butazordan iborat bunday zax chuqurlik har qanday qochoq uchun ham ajabtovur pana bo'la olardi. Guruh hamma yerni ag'dar-to'ntar qilib, hech bir ish chiqarolmagach, ro'paradagi tepalikka ko'tarildi. Shu yerning o'zida tarqalib va yana maslahatlashib olish uchun vaqti-vaqti bilan tag'in shu yerda uchrashib turishga kelishib olishdi.

Ikkinchi marta ular, bundan ellik yillar burun osmondan uchib o'tgan qandaydir qush tashlab ketgan urug'dan unib chiqqan va hozirda bu tepalikda bir o'zi qaqqayib turgan shumtol daraxti tagida uchrashdilar. Shu vaqt daraxtdan sal narida, ko'm-ko'k osmon ostida aynan ular qidirgan o'sha odam xuddi shu daraxtning bir shoxidek so'ppayib turardi. Guruh ohista unga yaqinlashdi.

– Hayotmi yoki mamot?! serrayib turgan odamga do'q qilib dedi konstebl.

Siz ham juda oldingiz-da! shivirladi unga Jon Pitcher. – Bunday gaplar bizga yarashmaydi. Bunaqa so'zlar anavinga o'xshagan takasaltanglarga yarashadi, biz faqat qonunga bo'ysunamiz.

Ha, yaxshi, bo'pti! – alam qilgandek dedi konstebl. – Men ham biron nima deyishim kerak-ku, axir! Kerakmi, yo'qmi? Shunday topshiriqni senga ham yuklab qo'yib, yelkangni tog' bosgandek bosib yotsa, ko'rardim, o'shanda sening og'zingdan qanday so'zlar chiqib ketarkin!.. Jinoyatchi, Xudo haqqi... qirol hokimiyati haqqi taslim bo'l, demoqchi edim!

Daraxt tagidagi kimsa uni ta'qib etib kelganlarni ko'rdi-da, zo'ravonlikka o'tmaslaridan burun o'zi ohista yurib, ularga peshvoz chiqdi. Bu, haqiqatan ham o'sha, cho'ponning uyiga kirib, titrab-qaqshab turgan ushoqqina «uchinchi musofir» edi. Hozir u ancha o'ziga kelib qolgandi.

– Obbo, sayyohatchılar-ey, – dedı u bamaylıxotır, – sızlar kımga gapıryapsızlar o'zı? Mengamı?

– Kımga bo'lardı, senga-da! Sen darhol taslim bo'lıshıng kerak! – amrona dedı konstebl. – Bız senı Kesterbrıj turmasida o'tırıshdan bosh tortganlikda ayblab, hıbsga olamız, endi u yerda o'zıngnı yaxshı tutıb, ertaga dorga osıshlarıni kutıshing kerak... Hamsoyalar, o'z burchıngıznı bajarıng-da, jınoyatchını ushlang!

Ayblovnı eshitıb bo'lgan bu odam, aftıdan, nımanıdır anglab yetdı-da, tayoqlar bılan unı har tarafdan o'rab olib, yana cho'ponnıng uyıga qaytarıb olib ketıshga shay turgan ta'qibchilarga hammanı hayron qoldırıb, g'alatı bir rozılık bılan churq etmay o'zıni topshirdi.

Ular uyga yetıb kelishganıda soat o'n bir bo'lgandi. Ochiq eshikdan tushgan chiroq shu'lasi tashqarını yorıtıb turardi. Uydan erkaklar ovozı eshitilganidan tushundilarki, ular daydıb yurganlarıda bu yerda qandaydır yangı voqea sodır bo'lgan. Uyga kırıb ular Kesterbrıj turmasıning ıkkı nazoratchisını va hamma tanıydıgan, qo'shni yer egasi bo'lgan sud raısıni ko'rdilar; aftıdan, qochısh haqıdagı xabar butun atrofga tarqab bo'lgandi.

– Jentlmenlar, – ularga murojaat qıldı konstebl, – men qochog'ıngıznı tutdım – albatta, tavakkal qılıb, xatarni zımmamga olmasdan ılojım yo'q edı, ammo barchamız o'z burchımiznı bajarıshga majburmız! Jinoyatchi, davlat ıshlarıda tajrıbaları bo'lmasa-da, lekın menga yordamları tekkan mehnatga

layoqatli kishilar davrasida turibdi. Yigitlar, mahbusni ularning yonlariga yaqinroq olib boringlar.

Uchinchi musofirni sham yonib turgan stol yoniga olib kelishdi.

– Bu kim o'zi? – so'radi nazoratchilardan biri.

Bu o'sha, javob berdi konstebl.

Hech ham u emas-da, – e'tiroz bildirdi ikkinchi turma nazoratchisi, birinchisi esa uning so'zini tasdiqladi.

Qanaqasiga u emas? – bahslasha ketdi konstebl. Xo'p, u emas ekan, nega bo'lmasa qonun vakilining qo'shig ini eshitib, bunchalik esxonasi chiqib ketdi?

Konstebl jallod qo'shiq aytib turgan paytda uyga kirib kelgan uchinchi musofir o'zini juda g'alati tutgani haqida gapirib berdi.

Hech nimani tushunolmayapman, dedi sovuqqonlik bilan turma nazoratchisi. Men bir narsani aniq aytishim mumkinki, o'limga mahkum etilgan bu emas. Unisi esa bu odamga mutlaqo o'xshamaydi; u baland bo'yli, qotmadan kelgan, ko'zi va sochlari qop-qora, kelishgan, ovozi shunday mayin, muloyim ediki, uni bir eshitgan odam umrbod esidan chiqarmasdi.

Yigitlar... axir bu o'sha olov yonida o'tirgan odam-ku!

– Qanaqasiga?.. Nima deyapsan o'zi?.. – bu vaqtda chetroqda turib cho'pon bilan suhbatlashib turgan sudya ularning oldiga keldi-da, surishtira ketdi. Xo'sh, bundan chiqdi, qochoqni shu choqqacha tutolmabsizlar-da, a?

- Bilasizmi ser, – tushuntirdi konstebl. – Bu, o'sha odamning aynan o'zi, – bunga imonim komil, bu o'sha; biroq bu biz qidirayotgan odam emas. Chunki, bizga kerak bo'lgan odam, u biz qidirgan o'sha odam emas ekan, agar siz mening oddiy gaplarimga tushunayotgan bo'lsangiz, ser; bizga kerak bo lgan odam esa anavi, olov yonida o'tirgan kishi ekan.

– Buncha chalkash-chulkash bo'lmasa! Boshi-ketini bilib bo'lmaydi-ya! – dedi sudya. Zudlik bilan o'sha, bizga keragini qidirishga tushing.

Shu payt asirning o'zi birinchi marta tilga kirdi. Shu paytgacha u pinagini ham buzmay o'tirdi, faqat anavi olov yonida o'tirgan kishi haqida gap ochilgandagina uning tinchi buzildi.

Ser, dedi u sudya tomon bir qadam tashlab, – meni deb ovora bo'lishingiz shart emas. Endi o'zim sizga barini aytib beraman. Men hech bir yomon ish qilganim yo'q: mening aybim shundaki, o'limga mahkum etilgan odam akam bo'ladi... Bugun tongda o'zim yashab turgan Shotsforddan chiqdim-da, Kesterbrijga yayov, akam bilan vidolashish uchun yo'l oldim. Yo'lda qorong'iga qolib ketib, biroz nafasimni rostlash va yo'lni so'rab-surishtirish uchun bu yerga kirgandim. Eshikni ochib, kimni ko'rdim deng?.. O'z akamni! Endi u bilan Kesterbrijning o'limga mahkum etilganlar kamerasida uchrashsam kerak deb o'ylab, umidimni uzib qo'ygandim. U bir burchakka tiqilib olgandi, yonida esa unga suqilib, yo'lini to'sib olib, jonini oluvchi jallod o'tirardi va o'zini sezdirmaslik uchun unga jo'r

bo'layotgan qurbonidan gumon qilmay, bu haqda qo'shiq kuylardı. Akam: «Ishqilib aytıb qo'yma; mening hayotım shunga bog'liq» deya iltijoli nigoh bılan boqqanını darrov tushundim. Meni shunday vahima bosdiki, oyog'imda arang turardım, nima qilayotganımnı o'zim ham bılmay, shartta chıqıb ketdım-da, ura qochdim.

Bu odam shunday bir ohangda gapırdi, uning yuz ifodası ham allaqanday o'zgacha ediki, uning so'zlariga ishonmay bo'lmasdi, bu esa atrofdagılarda boshqacha taassurot qoldırdı.

– Akangızning hozır qayerda ekanını bilasızmı? – so'radi sudya.

– Yo'q. Men mana shu eshikni yopib chıqıb ketganımdan berı unı ko'rmadim.

– Bunga men guvohlik berishim mumkin, – tasdiqladı konstebl, – axır, bu odam o'sha paytlardan beri dunyoning bu chekkasıda bo'lgan bo'lsa, unisi u chekkasida edi.

– Qızıq, qayerga ketgan bo'lishi mumkın?..

– U soatsoz, ser.

– Charxsozman degandı-ku... voy firıbgar-ey! – dedi konstebl.

O'shanda o'zım ham bu qo'llar charxsoz uchun juda oppoqlik qilmasmıkan deb o'ylovdım-a!

– Gap bunday, menimcha, boyoqishnı ushlab turishdan naf yo'q; bu bılan hech nimaga erisholmaymız, – dedı sudya. – Tushunarlimı, yaxshısı akasini qidirib topınglar.

Bu kichkina musofirni tezda ozod etishdi; biroq bundan uning ko'ngli taskin topmadi, o'zidan ko'ra ko'proq yaxshi ko'radigan o'sha odam haqidagi xavotirlariga na sudya, na konstebl barham berisholdi. U ozod etilib, yo'lga chiqqanida, ancha qorong'i tushib qolgandi, qidiruvni davom ettirish esa befoyda edi, shu bois uni ertaga qoldirishgandi.

Ertasi kuni bu tadbirkor soatsozni qidiruv ishlari yana boshlanib ketdi, bunga butun aholi ham jalb etilib, ishlar jadal sur'atlarda olib borildi – hech bo'lmaganda shunday tuyulardi. Chiqarilgan shafqatsiz hukm sodir etilgan noo'rin xatti-harakatga munosib emasligi bois qochoqqa rahmi kelgan qishloq ahlining ko'pchiligi butunlay u tomonda edi. Undagi o'zgacha vazminlik, jasorat, cho'ponning ziyofatida jallod bilan yuzma-yuz turib qilgan dadil suhbati, – bunga barcha odamlar qoyil qolgandilar. Ular o'rmonu dala yo'llarni izg'ib, hamma yerni ostin-ustin qilganlari, o'z pichanxonalarida va saroylarida astoydil tintuv o'tkazganlari rostmi o'zi, bunisi bizga qorong'iligicha qolayapti. Katta savdo yo'lidan uzoqdagi u yoki bu tashlandiq, o't bosib ketgan yo'lda kimdir qandaydir sirli notanishni ko'rgani haqida bot-bot mish-mishlar tarqalib turardi; o'sha shubhali yoqlarga qidiruvchilar yetib borganlarida hech bir zog' topilmasdi. Kunlar, haftalar shu taxlit biron-bir yangiliksiz o'tib boraverdi.

Shunday qilib, olov yonida o'tirib olib, yo'g'on ovozda gapirayotgan o'sha odamni yana turmaga tiqishning iloji bo'lmadi. Ba'zilar uni okeanning narigi yog'iga o'tib ketgan deyishsa,

boshqalar, yo'q, u shaharning odamlar dengiziga g'arq bo'lgan deya og'izga urishardi. Harholda kulrang kostyumli jentlmenga o'zining Kesterbrijdagi vazifasini bajarish nasib etmadi; yana unga tepalikdagi yolg'izoyoq uyda ulfatchilik qilishga bir soatgina vaqt ajratadigan dilkash ulfat ham boshqa topilmadi.

Cho'pon Fennel va uning tejamkor xotinining do'ppaygan qabri allaqachonlar ko'm-ko'k maysalar bilan qoplangandi; cho'qintirish munosabati bilan ularning uylarida xursandchilik qilgan mehmonlarning deyarli bari birin-sirin mezbonning ketidan u dunyoga ravona bo'lishgandi; o'shanda, barcha mehmonlar muborakbod qilgani to'plangan, qiz chaqaloq esa hozirda ayollik bahorini bosib o'tib, mo''tabar momo yoshida... Lekin, Hayer Krousteyrs atroflarida kunlardan bir kun cho'ponning uyiga tunda ketma-ket kirib kelgan uchta musofir haqida hali-hanuz ikir-chikirigacha hikoya qilishni xush ko'rishardi.

# XANS-XAYNS EVERS

*Xans-Xayns Evers (1871–1943) nemis adibi. XX asr boshlarida yashab ijod etgan. Uning onasi mashhur kishilar sulolasiga mansub bankirning nevarasi, otliq askarlar qo'shini generalining qizi edi. Otasi esa rassom bo'lgan. Evers to'rt yoshidan boshlab she'r va ertaklar mashq qila boshlagan. Ijodining dastlabki yillarida adib o'zining ikki «oltin» to'plami — «Shayton vasvasasi», «Dahshatlar» kitoblarini chop ettirdi. Ushbu to'plamdan «Qirollar qalbi», «Jonsiz yahudiy», «Tofarkelin», «O'rgimchak», «Stanislava d' aslning so'nggi istagi» kabi durdona hikoyalari joy olgan. Keyinchalik u o'quvchilarga o'zining safar taassurotlari bilan bog'liq yo'l ocherklari «Hindiston va men», «Nigohlarim bilan» kitoblarini taqdim etdi. U yuzlab novella, o'nlab roman, o'ttizga yaqin esse va ko'plab tarjimalar, 168 ta she'r muallifi hamdir.*

# O'RGIMCHAK

Mana o'lim bilmas iroda senga...
Uning buyuk qudrati sirini anglagan bormi?

*Jozef Glenvill*

Tibbiyot fakultetining talabasi Rishar Brakemon Alfredo Stevens ko'chasi, 6-uyga joylashgan ixchamgina «Stevens» mehmonxonasining 7-xonasiga aynan shu xonada ketma-ket uch jumada uch nafar odam o'zini osib qo'yganidan so'ng ko'chib o'tgandi.

Eng birinchi o'zini osgan shveysariyalik gumashta edi. Uning jasadini faqat shanba kuni kechki payt topishdi; shifokor o'lim juma kuni kechqurun soat besh bilan oltilar o'rtasida sodir bo'lgan degan xulosaga keldi. Jasad deraza panjarasining kesishgan joyiga qoqilgan va kiyim ilishga mo'ljallangan qoziqda osilib turardi. Joniga qasd qilgan odam o'zini parda bog'ichiga osgan, deraza esa berk bo'lgan. Chunki, deraza juda past bo'lib, hatto, sho'rpeshonaning oyog'i tizzadan yerga tegib yotardi; bunday maqsadni amalga oshirish uchun esa aqlga sig'mas darajada irodali bo lish kerak edi. Keyin ma'lum bo'lishicha, orqasida oilasi va to'rt nafar farzandi qolibdi; bundan tashqari, moddiy tomondan ham hech nimaga zoriqmagan, xushtabiat, beg'am fe'l-atvorli inson bo'lgan.

Bu xonadagi xudkushlikning ikkinchisi birinchisidan uncha farq qilmasdi. Yaqin oradagi «Medrano» sirki xizmatchisi, velosipedda qiyin ekvilibristik ko'zboyloqchilik mashqlarini bajaruvchi artist Karl Krauz ham oradan ikki kun o'tgach 7-xonaga joylashgandi. Kelasi jumada u sirkka kelmadi, direktor mehmonxonaga uning orqasidan kapeldiner  teatr xodimini jo'natdi. Xodim artistni uning qulflanmagan xonasidan birinchi istiqomat qiluvchi qanday osilgan bo'lsa, xuddi o'shanday holda topdi. Bu joniga qasd qilish sirlilikda birinchisidan qolishmasdi: taniqli va el sevgan artist juda katta maosh olardi, u endigina yigirma besh yoshni qarshilagan bo'lsa-da, hayotning barcha huzur-halovatlaridan bahramand edi.

Shuningdek, u o'zidan so'ng na bir enlik xat, na bunday xatti-harakatlarini oqlovchi biron-bir vaj-korson qoldirgandi. O'zidan keyin, o'g'lidan har oyning birinchi kunida muttasil ikki yuz marka pul olib turadigan yolg'iz onasigina qolgandi, xolos.

Bu ikkinchi marta sodir etilgan sirli o'lim ham mijozlari shu yaqin-atrofda joylashgan Monmartr teatrining xizmatchilaridan iborat bo'lgan mehmonxona bekasi Dyubonie xonim uchun ko'ngilsiz yakun topgandi. Ba'zi yashovchilar mehmonxonani tark etishdi, uning doimiy mijozlari hisoblanganlar esa u yerga kelmay qo'ydilar. Beka, o'zining yaqin do'sti bo'lgan IX uchastka komissaridan maslahat so'rab murojaat qilgandi, komissar qo'lidan kelgan har qanday yordamni ayamasligini aytib, unga va'da berdi. U faqat ikki nafar doimiy yashovchining joniga

qasd qılısh sabablarını o'rganısh bilan shug'ullanıbgına qolmay, mehmonxonanıng o'sha sırlı xonasi uchun mıjoz ham topıb berdi.

Polıtsıya boshqarmasida xızmat qilgan va o'z ıxtıyorı bilan 7-xonaga joylashıshga rozılık bıldırgan Sharl-Marıya Shome – dengız bo'rılarıdan bo'lib, flotda naqd o'n bır yil faoliyat ko'rsatgandı. U serjant bo'lgan chog'lar Tonkın va Annamda kechaları soqchilik postıda yolg'ız o'zi bır necha bor qolib ketıshıga va zımıstonda bıldırmay, pusıb keluvchı sotqın qaroqchilarga qarshi bir necha marta miltıg'ını o'q-dorı bılan sıylashıga ham to'g'rı kelgandı. Shuning uchun ham u Alfredo Stevens ko'chasını tillardan tushırmagan o'sha «sharpa»ni talab darajasida kutib olishga o'zını mas'ul deb bılardi. U xonaga yakshanba oqshom ko'chıb keldi-da, mazali va to'kın-sochın dasturxon uchun Dyubonıe xonımga xayolan mınnatdorchilık bıldırıb, xotırjam uyquga ketdi.

Har kuni ertalab va kechqurun Shome qisqagina axborot bergani komıssar huzurıga kırıb chiqardi. Bırınchı kunları u hech qanday shubhali bıron nıma payqamagani va hamma ish joyıdaligı boıs bu axborotlar juda ham jo'n bo'lar edı. Bıroq chorshanba kuni kechqurun u ba'zi bir izlarni payqab qolgani haqida gapirib qoldi. Komissar undan aniqroq aytib berishini so'ragan edi, u, tayinli bir narsa aytolmayman, deb javob berdi va keyingi voqeaning oldingisiga aloqasi bor-yo'qligiga hali ishonchim komil emas, deb qo'shimcha qildi. U yana aytdiki,

hozir masxara bo'lishdan qo'rqayotibdi va qachon bunga to'la ishonch hosil qilsagina batafsil tushuntirib beradi. Payshanba kuni u o'zini biroz dadil va jiddiyroq tutdi, lekin afsuski bironta yangi gap aytolmadi. Juma kuni ertalab uni qattiq hayajon bosdi; u yerda nimalar sodir bo'lganidan qat'i nazar, deraza haqiqatan ham kishini o'ziga tortadigan g'alati bir kuchga ega ekan, dedi u yarim hazil-yarim jiddiy ohangda. Biroq Shome, buning o'zini osib o'ldirishga mutlaqo aloqasi yo'q dedi. Agar u shunga biron nima qo'shimcha qilganida bormi, rosa kulgi bo'lishi turgan gap edi. O'sha oqshom u politsiyaga bormadi: uni o'z xonasida derazaga osilgan holda topishdi.

Bu galgi hodisa ham mayda-chuyda tafsilotlarigacha avvalgi ikki hodisaning aynan o'ziday edi: qurbonning oyoqlari polga tegib turar, arqon o'rniga parda bog'ichidan foydalanilgandi. Deraza ochiq, eshik esa qulflanmagandi; o'lim kech soat oltilar atrofida sodir bo'lgandi. Murdaning og'zi katta ochilib qolgan, tili esa osilib yotardi.

Ettinchi xonada uchinchi marta sodir etilgan bu o'lim oqibati shunga olib keldiki, o'sha kuniyoq «Stevens» mehmonxonasida yashovchilarning barchasi qorasini o'chirdi. Paytdan foydalanib xona uchun to'lanadigan pulni uchdan bir hissaga kamaytirishga muvaffaq bo'lgan o'n oltinchi xonadagi bitta nemis tili o'qituvchisigina bundan mustasno edi. Ertasi kuni «Orega-Comidie» yulduzi Meli Gardenning dabdabali faytonda kelib,

marhum o'zını osgan qızıl bog'ıchni Dyubonıe xonımdan ıkkı yuz frankka sotib oldı, bu bıroz bo'lsa-da, unga tasallı bo'lgandi. Bırınchıdan, ırımga ko'ra bu omad keltirsa, boshqa tomondan hali bu haqda gazetalarnıng bong urıshi turgan gap edı.

Bu barcha voqealar agar yozda, ıyuldamı, avgustdamı sodır bo'lganıda bormı, unda Dyubonıe xonım o'z chılvırları uchun uch hissadan ko'proq pul ishlagan bo'larmıdı; o'shanda gazetalar naq bır hafta o'z ruknlarını ana shu mavzu bilan to'ldırıb, rosa jar solgan bo'lardılar. Mavsum avjıga chiqqan paytda gazetaga berıladıgan ma'lumotlar keragıdan ko'proq bo'lardi; saylovlar, Marokko, Persıe, Nyu-Yorkdagi banknıng sinıshı, uchtadan zıyod sıyosıy jarayon  xullas, haqıqatan ham joy yetıshmasdı. Alfredo Stevens ko'chasıda bo'lib o'tgan, dıqqat-e'tibornı jalb qılishga arzıgulik bu hodısa, natıjada, birmuncha nazardan chetda qolib ketgandı. Hukumat bunga qısqa bayonnoma tuzıb, ıshnı yopıb qo'ya qolgandi.

Tibbıyot fakultetıning talabası Rıshar Brakemon yettınchi xonanı olmoqchı bo'lganıda faqat shu bayonnomadangına xabardor edi, xolos. U, bitta dalildan, bıtta kıchkına tafsılotdan butunlay bexabar edi; boz ustıga bu dalil shu darajada mayda va arzımas tuyulgandıkı, hatto komıssar va boshqa guvohlar ham bu haqda muxbirga aytıshnı lozim topmadılar. Bu to'g'rıda, keyınroq, talaba bilan bo'lib o'tgan voqeadan so'nggına eslab qolishdi. Gap shundaki, politsıyachılar serjant Sharl-Marıya

Shomening jasadini sirtmoqdan chiqarib olayotganlarida uning og'zidan katta qora o'rgimchak o'rmalab chiqdi. Mehmonxona xodimi o'rgimchakni bir chertdi-da, hayqirgancha:

Hah la'nati, bu yana o'sha jirkanch maxluq-ku, – dedi.

Kechroq, Brakemonga aloqador tergov paytida u shveysariyalik gumashtaning jasadini sirtmoqdan chiqarib olayotganlarida ham xuddi shunday o'rgimchak uning yelkasidan o'rmalab chiqqanini aytdi. Lekin Rishar Brakemon bu haqda hech narsa bilmasdi. U har kuni o'z xonasida boshidan kechirganlarini kundaligiga qayd etib borardi.

**Tibbiyot fakulteti talabasi,**
**Rishar Brakemonning kundaligi**

*28-fevral, dushanba.*

Kecha men shu xonaga kelib joylashdim. Ikki savat to'la narsalarimni ochdim-da, joy-joyiga taxlab chiqdim va yotib uxladim.

Miriqib uxlabman: eshik taqillashidan uyg'onib ketganimda, soat roppa-rosa to'qqiz bo'lgandi. Bu nonushta olib kelgan beka edi. Uning haddan ziyod g'amxo'rligi menga uzatgan tuxumiyu, dudlangan cho'chqa go'shti va ajoyib qahvasidan bilinib turardi. Men yuvinib, kiyindim-da, so'ng xonamni yig'ishtirayotgan xizmatkorning ishini kuzata boshladim. Bu paytda men chubuq chekib turardim.

Shunday qılib, bu yerga joylashıb oldim. Men xavflı o'yınga bosh suqqanımnı yaxshi bilaman, lekın, shunı ham yaxshı tushunamankı, basharti omadım chopıb, ko'zlangan ıznı topolsam, unda oshıg'ım olchı bo'ladi. Agar Parıj deganları bır vaqtlar ıbodat bahosida bo'lgan bo'lsa, men qosh bilan qovoq o'rtasıchalik oz hayotımni shafe keltirıb aytamankı, unı hozır bunday arzon bahoga o lsang ham topolmaysan. Lekın ımkonıyat yo'q emas; juda soz, omadımnı bır sınab ko'ray-chi.

Aytmoqchı, boshqalar ham xuddı shunday, o'z omadlarını sınab ko'rmoqchı bo'lgandilar. Xona dardıda yıgirma yettıtadan ko'proq odamnıng bırı politsıyaga, boshqası to'g'rı bekanıng huzurıga ıltımos bılan bordi. bu talabgorlar ıchıda uch nafar xonım ham bor edı. Shunday qılib, raqobat borasıda hech bır kelishmovchilik bo'lmadı; aftıdan. ularnıng barı ham mendek qashshoq odamlar edilar.

Xullas, men «joy olishga muvaffaq bo'ldım». Qanday qilib? Chaması, politsıyanı bır «reja» yordamıda qopqonga tushırgan yolg'ız men bo'lsam kerak. Bu, shubhasız, unaqa-bunaqa yolg'on-yashıqlardan ıborat emasdi.

Bu ma'lumotlar aynan politsiyaga juda qo l kelardı. shunıng uchun endi bu janoblarnı chuv tushırganımnı yuzlarıga tık qarab, bemalol ayta olishım mumkınlıgı menga nash'a qilmoqda edı. Agar komıssar aqli raso odam bo'lsa: «Shunıng uchun ham u hammadan munosıbroq», degan bo'lardı.

Keyinchalik uning nima deyishi meni mutlaqo qiziqtirmaydi: men o'z joyimni egallab bo'ldim. Shuning o'ziyoq bu janoblarni boplab laqillatish mumkinligidan darak berardi.

Men ishni Dyubonie xonimning oldiga borishdan boshladim, lekin u meni politsiya mahkamasiga yubordi. Men u yerga har kuni roppa-rosa bir hafta qatnadim, har safar borganimda ertaga xabar olishimni aytishardi-da, «ma'lumot uchun qabul qilindi», deb bir xil javobni berishgani-berishgandi. Raqobatchilarimning ko'pi politsiya mahkamasida soatlab dimiqib kun o'tkazgandan ko'ra, biron-bir mashg'ulot bilan shug'ullanishni ma'qul ko'rishdi. Menga kelsak, o'jarligim hatto komissarning ham sabr kosasini to'ldirib yubordi. Va, nihoyat u, bu yerga boshqa kelmasligimni, bundan hech bir ish chiqmasligini uzil-kesil ma'lum qildi. U boshqalar kabi yaxshi tilaklarim uchun mendan minnatdor ekanini va «havaskorlar kuchi»ga mutlaqo muhtoj emasligini aytdi. Ustiga-ustak, menda ishlab chiqilgan tayyor harakat rejasi ham yo'q edi-da...

Men esa unga aniq harakat rejam bor, deb aytdim. O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, menda hech qanday reja bo'lmagan, lekin o'z rejam xususida unga bir og'iz ham gapirolmadim. Agar u menga uni bajarishni o'z zimmamga olaman deb chin so'zini bersa, unda men juda ma'qul va shu bilan birga xavfli bo'lgan, professional politsiyachilar erisholgan ko'rsatkichlardan qolishmaydigan o'z rejamni taqdim etishimni aytdim. Buning

uchun u o'z minnatdorchiligini izhor etdi-da, shunga o'xshash masalalarga mutlaqo vaqti yo'qligini bildirdi. Boz ustiga u, chalakam-chatti qilib bo'lsa-da, rejamni oshkor etishimni so'raganida, meni qo'llab-quvvatlovchi odam topilgani ayon bo'ldi.

Men buning uddasidan chiqdim. Biroz avval o'zim hali zig'ircha tasavvurga ega bo'lmagan, aqlga sig'mas safsatani to'qib-bichib tashlagandim. Daf'atan miyamga kelgan bunday fikrdan o'zim ham lol edim. Haftada boshqa vaqtlardan farqli o'laroq, shunday bir payt borki, u odamlarga g'ayrioddiy va sirli ta'sir ko'rsatish quvvatiga ega. Bu yahudiylar haftasi oxirgi kunining kechki soat oltilarida Iso Masihning do'zaxga tushish uchun o'z qabridan yo'qolgan payt.

Men unga uch marotaba sodir etilgan joniga qasd qilish hodisasi juma kuni aynan shu vaqtda, soat besh bilan oltilar o'rtasida bo'lganini yodiga soldim. Men bundan ortiq hech nima deya olmasligimni ham qistirib o'tdim-da, Avliyo Ioanning dil izhoriga quloq solishini so'radim.

Komissar aftini go'yo biror narsani tushungandek qiyofaga soldi-da, menga minnatdorchilik bildirib, kechqurun yana kelishimni iltimos qildi. Men beburd emasdim, byuroga ham o'z vaqtida yetib keldim; stolda yotgan «Injil»ga ko'zim tushdi. Shuningdek, bu vaqt ichida men, Dil izhorini boshidan oxirigacha o'qib chiqdim, lekin bir so'zini ham tushunmadim. Komissar

ehtimol mendan aqlliroqdir, harholda, mujmal ishoramdan qat'i nazar, u qanday rejam borligini fahmlaganini o'ta iltifot bilan menga ma'lum qildi. Keyin u, orzularimni amalga oshirishim uchun menga yordam berishga va qo'llab-quvvatlashga tayyor ekanini ham bildirdi.

Tan olib aytishim kerakki, u haqiqatan ham menga jonkuyarlik qilardi. U, meni endi butunlay mehmonxona qaramog'ida bo'lishimni bekaga tayinladi-da, unga shart qo'ydi. Shuningdek u, meni qoyilmaqom to'pponcha va politsiyachilar hushtagi bilan ham ta'minladi; navbatchi politsiyachilarga kichkina Alfred Stevens ko'chasidan tez-tez o'tib turish va men ishora qilishim bilan huzurimda paydo bo'lishlari buyurilgandi. Hammasidan muhimi, politsiya mahkamasi bilan doimiy bog'lanib turishim uchun mening xonamga stol telefoni o'rnatilgani bo'ldi. Mahkama bu yerdan to'rt daqiqalik yo'l bo'lib, basharti, menga yordam zarur bo'lib qolsa, tezda hojatimni chiqarish ham oson bo'lardi. Hammasini e'tiborga oladigan bo'lsam, o'zi nimadan qo'rqishim kerakligini ham tasavvur qilolmasdim.

*1-mart, seshanba.*

Kecha ham, bugun ham hech nima sodir bo'lmadi. Dyubonie xonim qo'shni xonadan pardaga yangi chilvir olib keldi – axir uning huvillab yotgan xonalari ko'p edi-da. To'g'risini aytsam, mening oldimga kirish uchun u har bir qulay fursatdan

foydalanardı va har safar nımadır ko'tarıb kelardi. Xonamda sodır etılgan voqeanı yana bir marta, barcha tafsilotlarıgacha so'zlab berıshını undan ıltımos qildim, lekın bıronta tayınli yangı gap eshıtmadım. O'zını o'ldırısh sabablari xususıda unıng fikrı boshqalarnıkıdan o'zgacharoq edı. Artıstga kelsak, u bunga omadsız sevgını ro'kach qılardi: bundan bır yıl avval u shu mehmonxonaga qo'nganıda, unıng yonıga bır yosh ayol tez-tez kelib turarkan, lekın bu safar ayol nımagadır ko'rınmabdi. Gumashtaga kelsak, u, gumashtanıng bunday mash'um qarorga kelishıga unı nıma majbur qılganını beka anıq bılmasdı, mol olası ıchıda, odam olası sırtıda bo'ladı deb shunı aytsalar kerak-da. Serjant esa, shak-shubhasız, ayolnı tavbasıga tayantırmoqchı bo'lib o'z jonıga qasd qılgandı.

Aytishım kerakkı, Dyubonıe xonımnıng so'zları asossız ekani bilan farq qilsa-da, ko'ngli tusagancha gapırıb, ıchını bo'shatib olsın deb o'z ixtıyorıga tashlab qo'ydım: nıma bo'lganda ham u menı ovutıshnıng uddasıdan chiqardi.

*3-mart, payshanba.*

Barı o'sha-o'sha, yangilik yo'q. Komissar menga kunıga ıkkı mahal telefon qıladi; men unga ahvolim juda yaxshılıgını aytaman; aftidan, bu ma'lumot unı qoniqtirmasdi. Tıbbıyotga oıd kitoblarımnı oldım-da, mutolaaga tushib ketdım; shunday qılib, men bergan ko'ngılli xulosanıng zora foydasi tegib qolsa.

*4-mart, tushdan keyingi soat ikki, juma.*

Men ishtaha bilan tushlik qildim; beka tushlikka yarim shisha shampan vinosi keltirdi. Bu o'lim oldidan yozilgan haqiqiy dasturxon edi. U menga xuddi chala murdaga qaragandek qarardi. Oldimdan keta turib, ko'ziga yosh oldi-da, u bilan birga borishimni so'radi; aftidan «uni ranjitib» o'zimni xuddi o'shanday osib qo'yishimdan qo'rqardi.

Men yangi parda ipini sinchiklab ko'zdan kechirdim. Demak, men hozir shu ipga o'zimni osishim kerakmi? Hm, bunga mening unchalik ishtiyoqim yo'q. Ustiga-ustak, ip dag'al va g'adir-budir bo lsa, uni sirtmoq qilib tugish ham oson bo'lmaydi; anavilarga ergashish uchun esa yurak ham otning kallasidek bo'lishi kerak. Endi, chap tomonimda telefon, o'ng tomonimda to'pponcha bilan o'z stolimda o'tiribman. Hozircha menda qo'rquvdan asar ham yo'q, lekin sinchkovligim bor.

*Kechki soat 6.*

Hech nima sodir bo'lmadi, «Afsus!» deb yuborishimga sal qoldi.

Mash'um dam boshlandi, o'tib ham ketdi — u ham xuddi avvalgilaridek. Derazaning oldiga borishga o'zimda yengib bo'lmas istakni his etgan onlarim bo'lgani rost, — lekin, mening niyatim, shubhasiz, butunlay boshqacha edi. Komissar besh bilan oltilar o'rtasida rosa o'n marotaba qo'ng'iroq qilib, mendek besabr ekanini bildirib qo'ydi. Dyubonie xonimga kelsak, u

mamnun: yettinchi xonadagi mehmon roppa-rosa bir haftadan beri yashayotgan bo'lsa-da, o'zini osgani yo'q. Ishonish qiyin!

*7-mart, dushanba.*

Biron nimani aniqlashga ojiz ekanimga ishona boshlayapman, shu bois mendan avval bu yerda yashab, o'z joniga qasd qilgan uchta o'tmishdoshimning o'limini oddiy tasodifdan o'zga narsa emas degan qarorga kelishdan boshqa ilojim yo'q. Men yana bir karra komissardan uch marotaba sodir etilgan bu hodisaning ikir-chikirigacha so'zlab berishini so'radim, agar barcha jihatlar yana bir bor astoydil, sinchiklab o'rganib chiqilsa, jumboqning haqiqiy sababi nimada ekani ma'lum bo'lishiga ishonardim. O'zimga kelsak, bu yerda qolishga qancha imkon bo'lsa, shuncha turaveraman. Parij bilan, albatta, yaxshi tanish emasman, ammo bu yerda suvtekinga yashab, maza qilib yeb-ichib yuribman. Shuni ham aytib qo'yishim kerakki, men ter to'kib ishlamoqda ham edim, ishga ishtaham tobora ochilib borayotganini sezib turardim. Qolaversa, meni bu yerda ushlab turadigan yana bir jo'yali sabab ham yo'q emasdi.

*9-mart, seshanba.*

Shunday qilib, Klarimonda sari yana bir qadam yaqinlashdim...

Ha, aytgancha, Klarimonda to'g'risida hali hech narsa aytganim yo'q. Shunday qilib, Klarimonda bu yerda qolishimga

turtki bo'lgan «uchinchi sababchi» edi, va yana u sababli haligi «mash'um» soatda deraza tomonga talpinganman, lekin zinhor-bazinhor o'zimni osish uchun emas. Klarimonda – nega men uni shunday atadim? Uni qanday atashlari haqida zarracha tasavvurim yo'q, lekin nimagadir uni Klarimonda deb atagim kelaverdi. Agar, qachonlardir undan ismini so'rab, bilib olishimga ko'zim yetganida, uning ismi aynan shunday bo'lganiga bas boylashgan bo'lardim.

Men Klarimondani birinchi kuniyoq payqaganman. U men turgan mehmonxonaning narigi tomonidagi tor ko'chada yashardi: derazalarimiz ro'parama-ro'para edi. U deraza oldida o'tirib, parda ortidan ko'chaga qarab o'tirardi. Ha, aytgancha, men uni payqashimdan avvalroq u meni kuzata boshlagandi, – uning menga qiziqib qolgani shundoq bilinib turardi. Buning hech bir hayron qolarli yeri yo'q, mening bu yerda turishimni butun ko'cha bilardi, – aynan Dyubonie xonimning harakati bilan bo'lgandi bu narsa.

Men bo'lar-bo'lmasga sevib qolaveradigan odamlar toifasidan emasligimga ishonaman, ayollarga bo'lgan munosabatda ham doim og'ir, bosiq bo'lganman. Tibbiyotni o'rganaman deb shuncha yo'l bosib Parijga kelsang-u, aqalli uch kunda bir marotaba bo'lsa-da, to'yib ovqatlanishga pul topolmay turgan bir paytingda yana birovga oshiq bo'lib qolishingga balo bormi? Shunday qilib, bu safar ham noshudligimga sababchi tajribasizligim deb o'ylayman. Ro'paramdagi qo'shnim bilan

biron-bir munosabat o'rnataman deb boshda xayol ham qilmagandim. Bu yerda yashashimdan maqsad kuzatib turishmi, demak, chalg'imasligim kerak deb o'zimga so'z ham bergandim; lekin va'damga vafo qilishga har qancha urinmay, boshqa kuzatadigan odam topilmagandan keyin qo'shnimni kuzatishga tushdim. Uzzu-kun kitobdan bosh ko'tarmay o'tirolmaymanku. Klarimondaning choqqina uyda ijarada yashashini osongina bilib oldim. Uyining uchta derazasi bo'lsa ham, u aynan mening ro'paramdagi oyna tagida o'tirardi: u o'tirib olib, eski charxda ip yigirardi. Xuddi shunga o'xshash charxni qachonlardir men buvimda ko'rgandim, biroq buvim uni hech qachon ishlatmagandi, qandaydir uzoq qarindoshidan yodgorlik deb saqlab yurardi, xolos; bu charxning hozir ham asqotishidan bexabar ekanman. Klarimondaning charxi ixcham va bejirim, aftidan, fil suyagidan yasalgan bo'lsa kerak, rangi ham oppoqqina edi; bu charxda dunyodagi eng ingichka ip yigirilsa kerak. U uzzu-kun parda ortida o'tirib olib, to qosh qorayguncha tinim bilmay ishlardi. Bunday tumanli kunlarda bizning tor ko'chaga tez qorong'i tushadi – soat besh deganda qosh qorayib bo'ladi. Lekin, Klarimondaning xonasida biron marta chiroq yonganini ko'rmasdim.

Ayolning tashqi ko'rinishi qanaqa ekan – buni ham tuzukroq bilmayman. To'lqinsimon jingalak sochlari tim qora, yuzi esa o'ta rangpar edi. Kataklari pir-pir qilib turuvchi burni ensiz va bejirim, lablari ham o'shanday qonsiz; uning sadafdek may-

da tishchalari yirtqich hayvonning qayralgan tishlarini eslatardi. Qovoqlari to'q rangga bo'yalgan bo'lib, ko'tarilganda charosdek, tim-qora ko'zlari porlab ketardi. Negadir, bularning bari menga tanishdek tuyulyapti nahotki uni tanisam? Parda ortidagilarni tuzukroq ko'rib ham bo'lmayapti.

Yana kichik tafsilot: u hamisha yoqasi baland binafsharang xol-xol qora ko'ylakda yurardi. Qo'lida doim uzun qo'lqop bo'lardi – qo'llarini avaylasa kerak. Ipni chaqqon-chaqqon saralab, uni cho'zayotgan qop-qora nozik barmoqchalari qaysidir hasharotning uzun panjalariga o'xshab ketardi.

U bilan munosabatimiz qandayligini bilmoqchimisiz? Hozircha uning yuzakiligini tan olsam-da, aslida, ular juda chuqur ildiz otgandek edi, nazarimda. Barchasi, uning men tomonga va mening u tomonga qaragan kunimizdan boshlangandi. U meni, men esa uni ko'rib qolgandim. Chamasi, men unga yoqib qolgandim, chunki bir kuni yana unga ko'z tashlagandim, u menga jilmayib qo'ydi. Javoban men ham jilmaydim. Shu alpozda ikki kun bir-birimizga tez-tez tabassum ulashdik. Keyinchalik sal bo'lmasa har soatda unga borib arzihol qilsammikan degan o'yga borardim, yaxshiyamki, qandaydir g'ayrishuuriy tuyg'u har safar meni bunday qilishdan tiyib qolardi.

Oxiri, bugun tushdan keyin shunday qilishga jazm etdim. Klarimonda salomimga alik oldi. U boshini bilinar-bilinmas irg'ab qo'ydi – buni baribir sezdim.

*10-mart, payshanba.*

Kecha uzoq o'tirib kitob o'qidim. Lekin Klarimondaning ishqida xom xayollarga berilib, tuzukroq shug'ullana olmadim. Kechasi uyqum bezovta bo'lib, ertalab uxlab qolibman.

Deraza oldiga borishim bilan ko'zim Klarimondaga tushdi. U bilan so'rashdim, javoban u ham bosh irg'ab qo'ydi. U kulib qo'ydi-da, anchagacha ko'zini mendan uzmadi.

O'tirib ishlagim kelardi-yu, lekin tinchim buzilgandi. Deraza oldiga o'tirib olib, ayoldan ko'zimni uzmadim. Shunda u ham qo'lini tizzasiga qo'yib, o'tirib olganini ko'rdim.

Ipni tortib, pardani ko'proq surib qo'ydim. Ittifoqo Klarimonda ham shunday qildi. Shu alpozda ikkalamiz bir-birimizga kulib qarab turaverdik.

Chamasi, bir soatcha shu taxlitda o'tirdik.

Keyin u yana ip yigirishga tushib ketdi.

*12-mart, shanba.*

Vaqt juda tez o'tib borardi. Eb-ichib bo'lib, ish stolimga o'tiraman. Chekaman-da, yana kitobga muk tushaman. Lekin bir qator ham o'qimayman. Diqqatimni to'plashga qancha urinmay, bari befoyda ekanini oldindan bilib turaman. So'ng yana deraza yoniga boraman. Bosh irg'ayman. Klarimonda ham javob qaytaradi. Bir-birimizga qarab jilmayamiz-da, soatlab bir-birimizdan ko'z uzmay o'tiraveramiz.

Kecha, tushdan keyin soat oltilarda yuragim taka-puka bo'la boshladi. Nazarimda erta qosh qorayib, meni vahima bosib

kelardı. Yozuv stoliga o'tirdım-da. kuta boshladım. Yengıb bo'lmas kuch meni oyna tomonga sudrayverdı – men o'zımnı osmoqchı emasdım, shunchaki, Klarımondanı bır ko'rmoqchi edım, xolos. Qorong'ı bo'lıshıga qaramay, hali unı bunchalik anıq-tıniq ko'rmagandım. U ip yıgırayotgan bo'lsa-da. ko'zlarıni mendan olmayotgandı. Bır vaqtnıng o'zıda vujudimnı ham baxtıyorlik, ham qo'rqoqlik hıssı chulg'ab oldi.

Telefon jiringladi. O'zınıng telba-teskarı savolları bilan meni shırın xayollar og'ushıdan chalg'ıtgan bu badfe'l komıssar shunday g'azabımnı qo'zg'adıkı. U mendan juda mamnun edı, chunkı yettınchı xonada ıkkı hafta yashab qo'yganımnıng o'zı unıng uchun katta gap edi. Shunga qaramay, komıssar bundan boshqa yana allaqanday natıjalarnı kutardı. Oxırı juda g'alatı bir ıznıng ketıdan tushganımnı sırli ıshoralar bılan takror-takror tushuntırdim. Bu eshakmıya ıshonıb qo'ya qoldı. Nıma bo'lganda ham menıng bırdan-bır orzum yana uzoq muddat shu yerlarda qolib ketısh edi. Dyubonıe xonımnıng oshxonasi yoki unıng yerto'lasi uchun emas, – har kuni burnıngdan chıqquncha yeyaversang, xudo haqqı. oxırı me'dangga tegar ekan, – u yomon ko'radıgan va qo'rqadıgan, lekın men yaxshi ko'radıgan yolg'ız o'sha oyna uchun, chunki unda Klarımondanı ko'rısh baxtıga muyassar bo'laman-da.

Chiroqni yoqsam, u ko'rınmay qolardı. Uydan chıqarmıkan deb rosa ko'z tıkaman. lekın aqalli bır marta ham ko'chaga chıqqanını ko'rmasdım. Menıng katta, qulay oromkursım va

yashil qalpoqchali chirog'im bor, mana shu chiroq o'z iliqligi va shinamliligidan meni bahramand etadi. Komissar katta qog'ozxaltada menga tamaki olib keldi: bunday yaxshi tamakini hali uchratmagandim... baribir, qo'lim ishga bormasdi. Kitobni ikki, uch bet o'zimni majburlab o'qiyman-da, aql-hushimni yig'ib, bunday qarasam, miyamga hech nima kirmagan bo'ladi. Nigohlarim harflar bilan to'qnashardi, xolos, miyam esa fikrlamay qo'ygandi. Juda qiziq! Xuddi manglayimga: «Kirish man etiladi!» degan yozuvli lavhacha osib qo'yilgandek. Yolg'iz Klarimonda haqidagi fikrlargagina ruxsat bordek.

*13-mart, yakshanba.*

Bugun ertalab kichik bir tomoshaga guvoh bo'ldim. Xizmatkor xonamni tozalaguncha mehmonxona yo'lagida u yoqdan-bu yoqqa yurib, aylanib turgandim. Hovliga qaragan chog'roq derazada o'rgimchak uyasi osilib turardi, uning qoq o'rtasiga qappaygan o'rgimchak joylashib olgandi. O'rgimchakni olib tashlashga Dyubonie xonim ruxsat bermasdi: axir o'rgimchaklar omad keltirardi-da, bu uyning shusiz ham baxtsizlikdan boshi chiqmay yotibdi. To'satdan, yana boshqa bir, bundan kichikroq o'rgimchakka ko'zim tushib qoldi; u ehtiyotlik bilan to'r atrofida o'rmalardi – bu o'rgimchakning erkagi edi. Erkak o'rgimchak tebranib turgan salqi to'rning o'rtasiga qarab o'rmalay boshladi, agar urg'ochisi sal qimirlasa, u shu zahoti qo'rqqanidan o'zini orqaga otgan bo'lardi. Erkak

o'rgımchak boshqa tomondan yaqınlashmoqchı bo'ldı-da, o'sha tomonga qarab o'rmalay ketdı. O'rtaga joylashıb olgan urg'ochi o'rgımchak axıyrı unıng ıltıjolarıga ıydımı, harholda boshqa qımır etmadi. Erkak o'rgımchak ehtıyotlik bilan avval ıpnıng bittasını sıltab ko'rdi, uya qımırlab ketdı; bıroq ma'shuqa joyıdan qo'zg'almadı. Shunda u tez, lekın juda ehtıyotlik bılan unga yaqınlasha boshladi. Urg'ochı o'rgımchak uni xotırjam qabul qıldı-da, o'zını unıng muloyım quchog'ıga topshırıb qo'ya qoldı; bır necha daqıqa ıkkı o'rgımchak qımır etmay, katta o'rgımchak uyasınıng qoq o'rtasıda shu zaylda osılib turdı.

So'ng erkak o'rgımchaknıng bır oyog'ini boshqasıdan ohısta bo'shatganını ko'rıb qoldım; balkı u ma'shuqasını o'z orzuları bilan yolg'ız qoldırıb, sekın juftaknı rostlashnı ıstab qolgandır? U o'zını chetga oldı-da, o'rgımchak uyasıdan tezroq daf bo'lish uchun shataloq otıb qochıb qoldı. Urg'ochi o'rgımchak ham o'sha zahotı kuchinı ko'rsatmoqchı bo'lib, ızma-iz unıng ketıdan quva ketdı. Nımjon erkak o'rgımchak bıtta ıpga osılib tusha boshlagandı, ma'shuqasi ham unga ergashdı. Ikkala o'rgımchak deraza rafiga yıqılib tushdı; erkak o'rgımchak esa jon-jahdi bılan unıng ta'qıbıdan qutulishga ıntılardı. Lekın endi kech bo'lgandi, ma'shuqa o'zınıng kuchli panjaları bılan unı changallab oldı-da, yana to'r o'rtasıga sudrab ketdi. Hozirgına oshıq-ma'shuqlarga yumshoqqına to'shak bo'lgan, endı esa qatl maydonıga aylangan o'sha joyga. Avvaliga oshıq ma'shuqanıng dahshatli chan-

galidan qutulib ketish uchun jon talvasasida kurashmoqchi bo'ldi. Biroq ma'shuqa uni boshqa qo'yib yubormadi. Ko'z ochib-yumguncha to'r bilan o'rab-chirmab tashladi va erkak o'rgimchak qimir etolmay qoldi. So'ng urg'ochi o'rgimchak uni o'zining o'tkir changali bilan mahkam qisdi-da, erkak o'rgimchak tanasidagi yangi qonni yutoqib so'ra boshladi. Qonni so'rib bo'lgach, urg'ochi o'rgimchak endi nimaligini ham bilib bo'lmaydigan darajada abjag'i chiqqan, to'rlar orasida chirmalib yotgan quruq teriyu oyoqchalarni jirkanib, o'z uyasidan uloqtirib tashlaganini ko'rdim.

Mana, bu o'rgimchaklarning sevgisi qanaqa ekan? Beixtiyor men ham o'rgimchak bo'lmaganimga xudoga shukurlar qildim, boshqa nima ham qilardim?

*14-mart, dushanba.*

Kitoblarimga mutlaqo qaramay ham qo'ydim. Vaqtimni kun bo'yi oyna yonida o'tirib o'tkazaman. Qosh qoraysa ham o'tiraveraman. Mutlaqo hech nima ko'rinmay qolgandagina ko'zlarimni yumaman va o'sha zahoti yana uning qiyofasi ko'z o'ngimda paydo bo'ladi.

Hm, men o'z kundaligimda Dyubonie xonim va komissar haqida, o'rgimchaklar va Klarimonda haqida hikoya qilyapman-u, lekin o'zim yashab turgan xonamga taalluqli kashfiyotlarim to'g'risida churq etmayapman. Bunda aybdormanmi, yo'qmi?

*15-mart, seshanba.*

Men va Klarımonda, ıkkalamız g'alatı bır ermaknı o'ylab topdık-da; biz kun bo'yı shu o'yın bılan andarmonmız. Men unga bosh ırg'ıtaman, shu zahotı u ham boshini sılkıb qo'yadi. Men oynanı taqıllataman; u bunı arang sezadi, lekın sezgan zahotı u ham shunı takrorlaydı. Qo'lim bilan ıshora qilaman, u ham xuddı shu taxlit javob qaytaradı; unga so'zlayotgandek labımnı qımırlataman, u ham shunday qiladi. Men sochimni orqaga tashlasam, shu zahoti u ham qo'lini peshonasıga olib boradi. Keyın bu bachkana qıliqlarımızdan ıkkimız rosa kulamiz. Aytmoqchi, aslida, u kulmaydı, ohısta va mayın jılmayıb qo'yadi, xolos. Nazarımda, men ham xuddi o'shanday jılmayaman. Harholda shunday tuyulganı bilan bularnıng barını unchalik ahmoqlikka yo'yıb ham bo'lmaydi va buni shunchaki bir-birımızga ergashish deb ham bo'lmaydi — unda barı allaqachonoq barham topgan bo'lardi, — yo'q, bu yerda hamma balo biznıng hamfikr ekanimız-da. Gap shundaki, Klarımonda salgına harakatımga darhol ergashardi: nıma qılayotganımni aslida arang fahmlasa-da, shu zahotı bajargan taqlidlari, harakatlarıning barı ba'zan menıkı bılan mos tushayotgandek tuyulardı menga. Endi, mana bunısıga qoyil qolmasdan iloj yo'q; men hamısha nogahonıy, yangi biron nıma qılsam, bunı shu zahotı ilg'ab olishı meni hayratga solardı. Ba'zan men to'g'rı ustıga bostırıb borsammıkan deb qolaman. Ketma-ket bir talay harakatlarnı bajaraman va o'shalarni yana va yana takrorlayman. Oxirı, to'rtinchi marta ham men avval-

gilarni takrorlayman, lekin boshqacharoq tartibda yoki bironta harakatni tushirib qoldiraman, yo yana yangisini bajaraman. Bu xuddi yosh bolalarning «Qushlar uchayapti» o'yinini yodga soladi. Klarimondaning biron marta xatoga yo'l qo'ymasligiga chindan aql bovar qilmasdi, chunki men bularning barini shu qadar tez bajarardimki, harakatlarimni hatto anglab olishning imkoni yo'qdek tuyulardi.

Kunlarim shu taxlitda o'taverdi. Lekin vaqtim behuda o'tayapti degan fikrdan yiroqman; aksincha, umrimda bundan muhimroq ish bilan hech qachon band bo'lmagandekman.

*16-mart, chorshanba.*

Oramizdagi mana shu o'yinlar bilan kifoyalanib, munosabatlarimizni bundan jiddiyroq rishtalar bilan bog'lab ko'rish haqida o'ylab ko'rmaganim g'alati emasmikan? O'tgan tunda shu to'g'rida ko p o'yladim. Shunday, palto bilan shlyapamni olamanda, ikkinchi qavatdan pastga tushaman, so'ng yana besh qadam yurib, ko'chaning narigi tomoniga o'taman va zinadan ikkinchi qavatga ko'tarilsam bo'ldi. Eshigiga albatta: «Klarimonda» deb yozilgan taxtacha osilgan bo'ladi. Klarimonda, u yog'i-chi? U yog'i nima, bilmadim-u, biroq Klarimondaning ismi taxtachaga yozilganini bilardim. So'ng eshikni taqillataman va...

Bajarmoqchi bo'lgan xatti-harakatlarimning barini aniq-ravshan ko'z oldimga keltirolaman. Lekin keyin nima bo'ladi, bu yog'i endi menga mutlaqo qorong'u. Hatto eshikning qanday

ochilishini tasavvur eta olaman. Eshik oldida taqqa to'xtaymanda, hech nimani va hech narsaning farqiga borib bo'lmaydigan qorong'ilikka diqqat bilan sinchiklab qarayman. U chiqmayapti, menga ham hech balo ko'rinmayapti, umuman, u yerda tirik jonning o'zi yo'q. Menga faqat qop-qorong'u zulmatdan boshqa hech narsa ko'rinmayapti.

Ba'zan menga, o'sha, men oyna yonida ko'rgan va men bilan bekinmachoq o'ynayotgan Klarimondagina mavjuddek tuyuladi. Bu ayolni o'zining o'sha qora, binafsharang xol-xol ko'ylagidan boshqa, shlyapada yoki biron-bir ko'ylakda qanday ko'rinarkin, sira ko'z oldimga keltirolmayman; qora qo'lqopisiz ham tasavvur qilolmayman. Agar men uni ko'chada yo biron-bir restoranda yeb-ichib, gaplashib o'tirganida ko'rib qolganimda, – yo'q, bu to'g'rida o'ylash qanchalik kulgili bo'lsa, bu manzara ro'yobga chiqishining imkoni shunchalik yo'qdek tuyuladi menga.

Men o'zi uni yaxshi ko'ramanmi deb ba'zan o'zimdan so'rayman.

Hali bunday savdolar boshimga tushmaganidan bunga men javob topa olmasdim. Agar Klarimondaga nisbatan his etayotganim chindan ham sevgi bo'lsa, demak, men o'sha do'stlarimda ko'rganim va kitoblarda o'qiganlarimdan bu tamoman o'zgacha tuyg'u edi.

His etayotganlarimni tushuntirib berish menga azob. Men uchun azob. Umuman olganda, Klarimondadan, to'g'rirog'i, bizning bekinmachoq o'yinimizdan boshqa, yana biron nima

haqıda o'ylashga tobi-toqatım yo'q. Negakı, boshqa biron narsa emas, mohıyatan yolg'ız shu o'yıngına fikru xayolimnı band etganını tan olmay ılojım yo'q. Nima bo'lganda ham men bunı tushunaman.

Klarımonda... ha, rostdan ham u menı mehrıgıyodek o'zıga tortardı. Bu tuyg'u yana bır boshqası bılan qorıshıb ketmayaptımıkan o'zı, bıror nımadan qo'rqayotgan bo'lmayın tag'in. Qo'rqayotgan bo'lsam-chı? Yo'q, bu qo'rquv emas, bu ko'proq tortınchoqlik, men uchun noma'lum bo'lgan nımadandır allaqanday hadik. Aynan mana shu hadik, meni unga yaqınlashtırıshga yo'l qo'ymaydıgan qandaydır o'zıga bo'ysundıruvchı va yana allaqanday yoqımli bır tuyg'unı keltırıb chiqarayotgandı. Men o'zımnı go'yo unıng atrofida keng doıra bo'ylab yugurayotgandek hıs etaman, vaqtı-vaqtı bılan unga yaqın boraman-da, so'ng yugurıshnı bas qılib, boshqa tomonga ıntılaman va yana yaqınlashaman-da, yana qochıb qolaman.

Nıhoyat, hozırcha – bunga menıng ıshonchım komil, – nıma bo'lganda ham endı unga daf'atan yaqınlashmayman.

Klarımonda deraza yonıda o'tırıb, ıp yıgırayaptı. U uzun, nozık, o'zgacha bır nozık ıp yıgırayaptı. Bu ıpdan nıma chıqarsa bo'ladı, bılmadım-u, lekın u mana shu ıplardan mato to'qırdı. Bunday nafis, ıngıchka ıpnı chıgıl qılib, uzıb yubormay, undan qanday qılib mato to'qıshıga hech aqlim yetmasdi. U to'qıgan matolar hayratomuz naqshlaru, afsonavıy jonıvorlar va ıshonısh amrımahol qiyofalarga to'la bo'lardi.

Nımalar deb aljırayapman o'zı? Barıbır, unıng nıma yıgırayotganını ko'rolmayman-ku; unıng ıpları haddan zıyod nozık. Ko'zımnı yumganımda unı qanday tasavvur qılsam, unıng ham aynan shunday ekanını yuragım aytıb turardı. Ha, xuddı shunday. Turli-tuman qıyofalarga to'la ulkan to'r – ertakdagı g'alatı basharali maxluqlar.

*17-mart, payshanba.*

Ahvolim yaxshi emas. Deyarli hech kım bılan gaplashmayapman; Dyubonıe xonim va mehmonxona xodimi bilan zo'rg'a so'rashyapman. Hatto o'zım uchun ovqatlanıshga ham vaqtimnı qizg'anaman; deraza oldıda o'tırıb, faqat u bilan o'ynashdan boshqa dardu fikrım qolmagan. Bu o'yın menga rohat bag'ıshlardı, ha, chindan, undan huzur qılardim.

Go'yo ertaga nımadır sodır bo'ladıgandek, yuragım hamısha taka-puka bo'lib turardı.

*18-mart, juma.*

Ha, albatta, shu bugun nımadır yuz berıshı kerak. O'zımnıng ovozımnı o'zım eshıtıshım uchun baland ovozda o'zım uchun takrorlayapman, men faqat shu sababdan bu yerdalıgımnı o'zımga uqtırayapman. Hammasıdan yomoni, borgan sarı menı vahıma bosıb borayotganıda. Xonada mendan avval yashagan o'tmıshdoshlarımnıng boshiga tushgan savdolar endi menıng boshımga tushıshını o'ylab, his etayotgan qo'rquvim

Klarımonda oldıdagı qo'rquv bılan qorıshib ketgandı. Men bularnıng bırıdan ıkkınchısını ajratolmay qolgandım.

Dahshatdan yuragım yorilay derdi.

*Oqshom soat 6.*

Tez gapır va palto bilan shlyapangni ol-da, jo'nab qol.

Roppa-rosa oltıda sabr kosam lim to'ldi. O', men haftanıng so'nggı kunıdan bır kun avvalgı kunnıng soat oltilarıda qandaydır bır gap borligını endi yaxshi bılaman. Komıssar bılan bo'lgan o'sha hazılga boshqa kulmayman. Oromkursıda o'tirib, bor kuchım bilan undan qo'zg'almaslikka tırıshardım. Oyna menı o'zıga tortganı-tortgan edı, otılib o'sha yerga borgım kelaverardı. Nima ro'y berıshı bilan ıshim yo'q edı. Klarımonda bılan o'sha o'yınımıznı o'ynasak bo'ldı edı, lekın bu qo'rquv oyna oldıdagı qo'rquv bılan qorishib ketgandı. Unda katta va yo'g'on bo'yınli, soqollari oqargan gumashta osılib turganını ko'rdım. Shunıngdek, xushbichim artistnı va gırdıg'um, baquvvat serjantga ham ko'zım tushdi. Men birın-sırın ularnıng uchchalasını, so'ngra o'sha qoziqda og'ızları ochılgan va tılları osılgan holda ularnıng hammasını bırvarakayıga ko'rdim. Keyin men o'zımnı ham ularnıng orasıda hıs etdım.

O, bu qo'rquvnıng dahshatı. Deraza to'sımyu o'sha jırkanch qozıqnı, shunıngdek, Klarımondanı ko'rganımda ham qanday vahıma bossa, xuddı o'shanday qo'rquv hozır ham chulg'ab

olganını his etardım. U kechirolsa, kechırsın-u, lekın bu aslida shunday, men o'zımnıng jırkanch qo rquvım ta'sırıda hamisha, o'sha oyoqları yerga tegıb, osılib yotganlarning uchchalası bilan unıng qiyofasini qorıshtırıb yuborayotgandım.

To'g'risı, menda bır lahza bo'lsa-da, o'zımnı osısh ıstagı bo'lmagan; bunday qılishdan qo'rqmasdım ham. Yo'q, meni faqat sodır bo'lishi mumkın bo'lgan qandaydir qo'rqınchlı va noma'lum nımadır vahımaga solardı. Men barıga qo'l sıltab, shartta o'rnımdan turıb, oyna yonıga borıshga kuchli va yengıb bo'lmas ehtiyoj sezardım. Endi shunday qılmoqchı bo'lıb turgandım...

Telefon jiringlab qoldı. Go'shaknı ko'tardim-da, gapnı ham eshıtmay: «Oyog'ingızni qo'lıngızga olib, tezroq yetib kelinglar!» deya baqıra ketdım.

Bu qattıq dod-faryod bir nafasnıng o'zıda barcha vahımali sharpa-parpanı batamom daf qılib yuborgandek tuyulardı. Men darhol tınchlandım-qoldim. Peshonamdagı ternı artdım-da, bır kosacha to'la suvnı sımırıb yubordim; so'ng komıssar kelib qolsa, nıma deyısh haqıda o'ylay ketdım. Nihoyat, deraza yonıga borıb, boshımnı qımırlatdim-da, jılmayıb qo'ydim.

Javoban Klarımonda ham bosh ırg'adı-da, tabassum qıldi.

Besh daqıqa o'tar-o'tmas komıssar yetıb keldi. Men unga nıhoyat haqıqıy ıznıng ketıdan tushganımnı, lekın buguncha menga rahm qılıb, bu haqda hech narsani so'rab-surıshtır-

masligını, yaqın orada o'zım unga barını batafsıl tushuntırıb berıshımnı aytdım. Eng kulgılısı shundakı, men bularnıng barini to'qıb-bıchıb aytar ekanman, aslida haqıqatnı gapırayotganımga qattıq ıshonardım. Garchand vıjdonımga zid bo'lsa-da, hozır ham bu menga shunday tuyulayotgandek...

Komıssar menıng tayınsız ruhiy ahvolimni, ayniqsa, telefondagı baqır-chaqırlarımnı tushuntırolmay qıynalayotganımnı va bu o'ng'aysızlıkdan qutulıb ketıshga behuda urınayotganımnı sezgan bo'lsa kerak. Komıssar juda mehrıbonlik bılan menıng ixtiyorımda bo'lish unıng burchı ekanını, undan tortinıb o'tırmasligımnı aytdı. U qachon zarur bo'lib qolar ekanman deb kutib o'tırıshdan ko'ra, garchand ovora bo'lsa-da, yaxshısı, o'n ıkkı marotaba kelib-ketishnı ma'qul ko'rardı. Bunchalik uzoq vaqt yolg'ız qolısh yaxshı emasligını aytdi-da, bıroz dılnıng chıgılını yozıb kelish uchun meni kechaga taklif etdı; garchı yoqmayotgan bo'lsa-da, taklifiga rozı bo'ldim: xonam bilan ıstamaygına xayr-ma'zur qılishımga to'g'rı keldı.

*19-mart, shanba.*

Bız «Gaıte Rochechouart»da, so'ng «Cıgale»da va «Lune Rousse»da bo'ldık. Komıssar to'g'rı aytgan ekan: tashqarıga chiqıb, bıroz toza havodan nafas olganım menga foyda bo'ldı. Boshda, o'zımnı xuddi qochoqdek noxush hıs etayotgandım. Keyın o'tıb ketdı; biz rosa yeb-ıchıb, xursandchilik qıldık. Bugun ertalab oyna oldıga bordim va Klarımondanı ko'rdim, u

nigohlari bilan menga ta'na toshlarini otayotgandek tuyuldi. Balki mening tasavvurimda shundaydir: kecha kechqurun uydan chiqqanimni qayerdan bildi ekan? Biroq bir lahzagina menga shunday tuyuldi, xolos, keyin u yana o'z tabassumini hadya etdi-yu, barini unutdim.

Biz yana kun bo'yi ko'z urishtirish o'yinimizdan bo'shamadik.

*20-mart, yakshanba.*

Faqat bugun yoza olaman, xolos. Kecha kun bo'yi ko'z urishtirish o'ynaganmiz.

*21-mart, dushanba.*

Bugun ham o'yindan bo'shamadik.

*22-mart, seshanba.*

Bugun ham yana o'sha har doimgi bekinmachoq o'yinimiz bilan mashg'ul bo'ldik. Boshqa hech nima qilmadik. Ba'zan: bularning bari o'zi menga nega kerak, deya o'zimdan so'rayman. Yoki: oqibati nima bo'ladi va bu bilan nimaga erishmoqchiman o'zi? Bu savollarga men javob topolmasdim, chunki bundan boshqa narsaga hushim yo'qligi o'zimga ayon edi. Ro'y berishi kutilayotgani ham, aynan o'sha, men intilayotganim ham.

Shu kunlarda bir-birimiz bilan hatto bitta so'zni ham ovozimizni chiqarib gaplashmadik. Onda-sonda labimizni qimirlatib qo'yardik, xolos. Ko'proq bir-birimizga tikilib o'tirdik.

Shu o'tırıshımızda ham bir-bırımıznı yaxshı tushunardık.

Men haq bo'lib chıqdim: Klarımonda o'tgan jumada qochib ketganım uchun mendan o'pkaladı. Unga nısbatan noma'qul ish qılganımnı aytıb, undan uzr so'radim. U menı kechırdı, kelası juma ketıb qolmaslikka va'da berdım. Bız lablarımıznı oynaga suykab, uzoq vaqt o'pıshdık.

*23-mart, chorshanba.*

Unı sevıshımga endi butunlay amın bo'ldım. Xuddı mana shunday, unı so'nggı tomırımgacha sıngıb ketganımdek sevısh kerak. Mayli, boshqalar uchun sevgı o'zgacha bır narsadan ıborat bo'la qolsın. Bu dunyoda boshi yo qulog'i, yokı bo lmasa qo'li bır xılda ıkkıta odamnı topıb bo'larmıkan? Odamlar bir-bırlarıdan farq qılganlarıdek, sevgı ham turli-tuman. To'g'rı, menıng sevgım o'zgacha, bunı bılaman. Nıma, shunday bo'lganı bılan undagı jozıba kamayıb qolarmidi? Men o'z sevgımdan baxtiyor ekanımnı baralla aytıshım mumkın.

Qanı endı shu qo'rquvdan forıg' bo'lganımda edı! Ba'zan bu qo'rquv uyquga ketadi, o'shanda unı unutaman. Bu faqat bir necha daqiqagina davom etadı, xolos. Keyın, qo'rquv ulkan va chiroyli ılonnıng baquvvat quchog'idan qutulishga urınayotgan ojız sıchqonchadek yana jonlanadı-qoladi. Hali shoshmay tur. sen arzımas, to'porı qo'rquv, hademay buyuk sevgı seni komıga tortıb ketadı.

*24-mart, payshanba.*

Men topdım: Klarımonda bılan men emas, aksıncha, u men bılan bekınmachoq o'ynayotgan ekan.

Bu uyıdagıdek sodır bo'lgandi.

Kecha kechqurun har doımgıdek bekınmachog'ımız haqida o'yladım. Unı hayron qoldirmoqchi bo'lib, ertasi kunı har bir harakatım ma'lum qılıq ta'sırı ostıda bo'lgan yangı qısmnı yozıb oldım. Keyın ularnı tezroq bajarish uchun avval bıtta tartıbda bajardım, so'ng shunı takrorlab mashq qıldım. Bu qanchalik mushkul bo'lmasın, menga behad huzur bag'ishlardı, hatto unı ko'rmagan paytlarımda ham qandaydır meni unga yaqınlashtırardı. Men soatlab shug'ullandım, nıhoyat, barı yog'dek sıllıq keta boshladı.

Bugun ertalab oyna yonıga bordım. Bız bır-bırımız bılan so'rashdık, so'ng bekınmachoq boshlandı. U aql bovar qılmas darajada meni tez tushunardı va o'sha zahotı menga ergashardı.

Shu payt eshıknı kımdır taqıllatdı; bu etıklarımnı olib kelgan xızmatkor ekan. Etıgımnı oldım-da, yana oyna yonıga qaytayotıb, ko'zım harakatlarım qayd etilgan qog'ozga tushdı. Shunda men, hozırgına oyna yonıda turıb, qog'ozdagı harakatlarnıng bırontasını bajarmaganımnı ko'rdim.

Gandiraklab ketıb, oromkursi suyanchıg'ıdan mahkam ushladim-da, unga cho'kdım. Bunga ıshonolmay, qog'ozda yozılganlarga qayta-qayta ko'z yugurtırdım. Afsus, bu shunday bo'lib chıqdı: men hozırgına oyna yonıda turıb, birqancha

harakatlarnı bajargandım, lekın bularnıng bırontası menıkı emasdi.

O'zımda shunday bır tuyg'unı tuydım: unıng eshıgı lang ochılgandi. Men ochılgan eshik oldıda turardım-u, lekın quyuq zımıstondan o'zga hech vaqoni ko'rmasdım. O'shanda: agar hozırnıng o'zıda chıqıb ketolsam, unda qutulib qolishimga amın bo'ldım. Shundagına endı ketıshım zarurligını hıs etdım. Shunga qaramay, ketmadım, chunkı, qo'llarımda o'sha sırnı changallab turganımnı sezardim. Mahkam, ıkkala qo'lim bilan ham. Parıj – hali sen Parıjni zabt etasan!

Parıj bır ongagına Klarımondadan kuchli chıqdı.

Endı bu haqda boshqa o'ylamayman. Men hozır, faqat o'z muhabbatımni va u bilan bırga muloyım, baxtıyor qo'rquvnıgına hıs etayapman.

O'sha lahzalarda men qo'rquvdan kuch olardım.

Men harakatlarimning birinchi qismini yana bir karra takror o'qıb chiqdım-da, ularnı hafsala bılan yodda saqlab qoldım. So'ng oyna oldıga bordim.

Men barını aniq sezıb turardım: men o'zım ıstagan bironta harakatnı bajarmagandım.

Shunda men ko'rsatkıch barmog'ım bılan burnımnı ıshqalamoqchi bo'ldim-u, lekın bunıng o'rnıga oynani o'pıb qo'ydım. Men oynani taqıllatmoqchı edim-u, bıroq bunıng o'rnıga sochımnı silab qo'ydım. Shunday qılib, menıng harakatlarımga Klarımonda emas, aksıncha, ko'proq men unga

taqlid qilayotganim ayon bo'ldi. Buni shunday yashin tezligida bajarardimki, go'yo tashabbus o'zimdan chiqqandek taassurot uyg'onardi menda.

Men esa unga ta'sir ko'rsataman deb o'zim uning ta'siriga tushib qolganimdan faxrlanardim. Qolaversa, bu ta'sir shunday yoqimli, shunday muloyim ediki, nazarimda, bu yorug' olamda bundan-da muruvvatli hech nima yo'qdek.

Men yana bir necha tajriba o'tkazdim. Men ikkala qo'limni cho'ntagimga tiqib, qimir etmay turishga qaror qildim; joyimdan jilmay, unga tikilib, qarab turaverdim. Men u qanday qo'lini ko'targanini, qanday kulib yuborganini va sekingina ko'rsatkich barmog'i bilan po'pisa qilganini ko'rdim. Men qimir etmay turardim. O'ng qo'lim pitirlab cho'ntagimdan chiqib olishga intilayotganini sezdim-u, darhol ikkala qo'lim bilan cho'ntagim astarini changalladim. So'ng sekin, bir necha daqiqa o'tgach, barmoqlarim ochila boshladi va men qo'limni cho'ntagimdan chiqardim-da, yuqoriga ko'tardim. Men ham jilmayib barmog'imni ko'rsatib unga po'pisa qildim. Nazarimda, buni men emas, boshqa, men kimni kuzatayotgan bo'lsam, o'sha qilayotgandek edi. Yo'q, yo'q, bu bunday bo'lmagan. Buni men, men bajardim, u boshqasi, anavi kuchli, buyuk kashfiyot qilmoqchi bo'lgani edi, lekin bu men emasdim.

Men – yoqimli qo'rquv aralash sevgilim Klarimondaning istaklarini bajo keltirish uchun bu yerdaman, kashfiyoti bilan nima ishim bor, qanaqa kashfiyot qilsa qilavermaydimi.

*25-mart, juma.*

Men telefon simini qirqib tashladim. Bu tentak komissar meni har daqiqada bezovta qilishini istamayman, kelib-kelib, ayni, o'zgacha lahzalar boshlanayotgan bir paytda. Bularni nega yozyapman o'zi, Xudoyim?

Bu so'zlarning birontasida haqiqatdan asar bo'lmasa. Mening o'rnimga qalamimni ham kimdir yurgizayotganga o'xshardi, nazarimda.

Lekin, baribir, ko'rayotganim yuz berayotgan voqealarning barini yozib qo'yishni xohlayman, xohlayman, xohlayman. Buning uchun bor kuchimni ishga solishimga to'g'ri keladi. Men buning uddasidan chiqaman. Yana faqat bir martagina o'sha... men istaganim.

Men telefon simini qirqib tashladim... Eh!

Men buni qilishim lozim edi. Mana! Va nihoyat! Chunki, bu mendan lozim edi, lozim edi.

Bugun ikkimiz deraza yonida turib, o'yinimizni o'ynadik. Kechadan e'tiboran bu bekinmachoqning tabiati o'zgardi. U biron-bir harakat qilsa, men kuchim boricha qarshilik ko'rsataman. Nihoyat, hozircha men uning injiqliklariga bo'sh kelayotganim yo'q va irodasizligim evaziga itoat ham etmayapman. Mag'lubligingni anglash, uning orzu-istaklariga o'zingni fido qilish qanchalik huzur bag'ishlashini men ifodalab berolmayman.

Biz o'ynayotgandik. Keyin u nogoh o'rnidan turdi-da, xonaning eng ichkarisiga kirib ketdi. Shunday qop-qorong'i

ediki, men uni boshqa ko'rolmadim; u zulmat ichiga singib, g'oyib bo'lgandi. Keyin u yana qo'lida xuddi menikidek stol telefoni bilan oyna oldida paydo bo'ldi. U qo'lidagini tabassum bilan deraza tokchasiga qo'ydi-da, pichoqni olib, simni kesdi va telefonni yana olib borib qo'ydi.

Men roppa-rosa chorak soat bardosh berdim. Mendagi qo'rquv avvalgisidan kuchliroq bo'lsa-da, lekin, shunga qaramay, asta-sekin bo'ysunib borayotganimni his etayotganim undan-da yoqimli edi. Nihoyat, men ham o'z telefonimni oyna yoniga olib kelib, simini qirqdim va yana qaytarib stolga olib borib qo'ydim.

Bu shunday bo'lgandi.

Men yozuv stolimda o'tirardim: miriqib choy ichdim, xizmatkor idish-tovoqlarni olib ketdi. Mening soatim noto'g'ri, hozir soat necha bo'ldi o'zi deb so'radim undan. Chorakkam olti, chorakkam olti.

Bilaman, boshimni ko'tarishim bilan Klarimonda nimadir qiladi. U shunday bir narsa o'ylab topadiki, men ham unga ergashishga majbur bo'laman.

Men baribir boshimni ko'tardim. U oynada turib olib kulardi. Endi undan teskari o'girilmoqchi bo'lsam, u parda yoniga kelib olardi. Klarimonda mening derazam rangidagi qizil chilvirni yechib olayotgandi. Undan sirtmoq yasardi. Chilvirni esa to'sindagi qoziqqa bog'lardi.

Keyin kuldi-da, o'tirib oldi.

Yo'q, bu men his etayotganim mutlaqo qo'rquv emasdi. Shunday bo'lsa ham, men bu sovuq, dahshatli fojiani dunyodagi hech bir narsaga almashmagan bo'lardim. Qandaydir aql bovar qilmas tobelik va ayni zamonda bartaraf etib bo'lmas bu qo'rquvda allaqanday o'ziga xos huzur-halovatni tuyardim.

Men yugurib oyna yoniga borishga va uning amrini bajarishga tayyor edim-u, lekin tahammul qilayotgandim, men kurashayotgandim, kurashib, qarshilik ko'rsatish bilan ovora bo'layotgan edim. O'sha kuch borgan sari yengib bo'lmas kuchga aylanib borayotganini his etib turardim.

Mana, yana stol oldida o'tiribman. Men yugurib oyna yoniga bordim-da, u mendan nimani kutgan bo'lsa, o'shani bajardim: chilvirni olib, uni sirtmoq qilib bog'ladim va qoziqqa ildim.

Endi boshqa qaytib turmay, faqat qog'ozga qarab o'tiraveraman. Agar men haftaning oxirgi kunlari soat oltilar atrofida undan ko'zimni uzmasam, tamom, uning nima karomat ko'rsatishi ayon. Agar unga qaraydigan bo'lsam, unda uning istagini bajarishga majburman, majbur bo'laman...

Unga boshqa qaramayman...

Men qattiq kula boshladim. Yo'q, bu men emasdim, mendagi nimadir meni kuldirardi. Nimaning ustidan, men bilaman: mening «istamayman...»imning ustidan.

Istamayman, lekin, harholda buni bajarishim shartligini bilaman. Unga ko'z tashlashim kerak, buni bajarmasam bo'lmaydi... bari keyin.

Men bundan nafasım bo'g'ılib qolgudek va shu bılan birga cheksiz huzur-halovat bag'ishlovchi azobnıng bu jafonıng uzayıshını kutardım. Bır baxtımga o'n baxt qo'shuvchı bu uqubatli sonıyalarnı iloji borıcha uzaytırısh uchun o'rnımdan turmay yozaverardim. yozaverardım.

Tag'ın ozgına, tag'ın...

Yana o'sha qo'rquv, yana! Agar unga qaraydigan bo'lsam, bılamankı, turıb o'zımnı osıshım kerak; men bundan qo'rqayotganım yo'q. O', yo'q, yo'q bu juda zo'r, juda g'alatıku.

Keyın sodir bo'ladıgan... barıbir boshqa bır nımadır bor. Bu nıma ekanını bılmayman-u, aftıdan, ro'y berıshi turgan gap, negakı, azoblarımnıng cheki sıra ko'rınmayaptı. O, bunıng orqasidan dahshatli nımadır sodır bo'lishını yuragım sezayaptı, sezayaptı.

Ishqılib o'ylamasam bo'lganı... Nima to'g'ri kelsa ham yozaverısh kerak, nıma bo'lsa ham barıbır. Faqat tezroq, o'ylab o'tırmay...

Ismım Rıshar Brakemon, Rıshar Brakemon, Rıshar... O', boshqa chıdolmayman... Rıshar Brakemon... Rıshar Brakemon... endi... endı... men unga qarashim kerak... Rıshar Brakemon... kerak... yo'q yana... Rıshar... Rıshar Brake...

To'qqızınchi mahkama komıssarı o'z telefon qo'ng'ıroqlarıga javob ololmagach, oltidan besh daqıqa o'tganda, «Stevens» mehmonxonasıga kırıb keldi. U, talaba Rıshar Brakemonnı yet-

tinchi xonadan, uning avvalgi uch nafar o'tmishdoshlari qanday osilgan bo'lsalar, uni ham xuddi shu alfozda oyna to'sinіga osilgan holda topdi.

Faqat uning yuzida aks etgan holat boshqacharoq edi: qo'rquv uni o'zgartirib yuborgandi, ko'zlari katta-katta ochilib, deyarli kosasidan chiqib ketgandi. Lablari kerilib, tishlari mahkam qisilib qolgandi.

Ularning orasida esa majaqlab tishlab tashlangan g'alati, binafsharang xol-xol, katta qora o'rgimchak bor edi.

Stolda talabaning kundaligi yotardi. Komissar uni o'qidida, o'sha zahoti ro'paradagi uyga qarab yugurdi. Uyning butun boshli ikkinchi qavati mana, necha oydirki, yashovchilarsiz bo'm-bo'sh huvillab qolganini komissar o'sha yerga chiqqandagina bildi.

# YOSIKO SIBAKI

## VAN GOGNING QABRI

Masako hayotida ilk bor samolyotdan chet el aerodromiga kelib tushishi edi. U o'zining yoshgina hamrohi bilan bojxonadan bir amallab qutuldi-da, avtobusga yetib oldi. Hamrohining yoshi yigirma sakkizda, o'g'li Nabuodan sal kattaroq bo'lib, allaqanday savdo uyining xodimi edi. Avtobus shiddat bilan shaharga tezroq yetib olish uchun eski ko'chalar oralab, aylanib uchib borardi. Nihoyat uzoqdan Eyfel minorasi, Sena ham ko'zga tashlandi. Masako tinchib qolgan shaharga, uning ko'cha va xiyobonlariga ko'z yugurtirdi. Manzilga yetib ham keldim, deya xayolidan o'tkazdi u. Nimalardir ko'ziga issiq ko'rinardi. Qiziq, o'zining to'zib ketgan binolariga olib chiquvchi o'sha torgina Boju maydoni qayerda qoldiykin? Qachonlardir Masakoning eri Yabuki xuddi shu manzarani o'z rasmlarida aks ettirgandi. Erining uzoqlashib ketgan ruhi ayolni musofir yurtlariga yetaklab kelgandi. Masako bu yerlarga oyoq bosishni yetti uxlab tushida ham ko'rmagandi.

Sayyohlik agentligi tomonidan ajratilgan mehmonxona ixcham va shinamgina bo'lib, Monso xiyoboni yonidagi Zafar arkidan uncha uzoq bo'lmagan yerda joylashgandi. Safar ishtirokchilaridan yigirma kishi shu mehmonxonaga joylashtirildi. Sayohatchilarga shaharni o'zlari mustaqil aylanishlari uchun ruxsat berildi.

Vaqtni ko'ngilxushlik bilan o'tkazishingizni istayman.

Tashakkur. Hali yana shaharda ko'rishib qolarmiz.

Masako shunday deya hamrohi bilan xayrlashdi. Uning xonasi uyning to'rtinchi qavatida bo'lib, quyosh nuridan bahramand gullab-yashnab yotgan xiyobondagi daraxtlar u yerdan kaftdagiday ko'rinib turardi. Metr[1] Kureda bilan qo'ng'iroqlashishni keyinroqqa qoldirgan Masako bu darajada tinka-madori qurishini xayoliga ham keltirmaygina, karavotga cho'kdi. Yigirma soatlik parvoz hazilmi sizga. Metr Kuredani yo'qlashni ertaga qoldirib, o'g'li Nabuoning maslahatiga ko'ra shaharni yayov aylanib chiqqisi keldi. Etti yillik umrini oilasidan uzoqda, musofir yurtlarida o'tkazgan, hayotni besh oy avval tark etib ketgan eri Yabukining ruhi balki Parij ko'chalarida u bilan birga sayr qilar.

Masako eri Yabuki Dzyokitining kasali haqida o'tgan yilning qishida xabar topgandi. Metr Kureda unga uzundan-uzun maktub yo'llab, Yabukining betobligi, ayni paytda kasalxonada

[1] Metr – mehmonxona sohibi.

yotganı, yaqında operatsıya bo'lishi va yana yuzaga kelishı mumkin bo'lgan allaqancha muammolar to'g'rısıda kuyıb-pıshıb yozgandı.

*«Ishonasizmı-yo'qmı, bilmadim, lekın Sizga bu haqda xabar berısh qay darajada o'rinli ekanını yaxshi tushunaman. Janob Yabukı: «Men xotinımnı, farzandimnı – oilamnı tashlab, bu yerlarga keldım. Endi peshonamga qanday ko'rguliklar yozilgan bo'lsa, barıga balogardon o'zımman», deya bir necha bor takrorlagandi. Yabuki g'arıbligını bilardi. Gap shundakı, unıng moddıy ahvoli yaxshi emasdi, birın-sırın chiqıb kelayotgan nihoyasi ko'rınmas muammolar, kasalxona va jarrohlik xarajatları do'stları zimmasida edi. Agar jarrohlikdan so'ng unıng sog'ayıb ketishiga ko'zım yetganida, sızni bezovta qilib o'tirmasdim. Afsuskı, unga o'pka saratonı tashxısi berilgandi. U kasalxonadan chiqqanidan keyin yotıb davolanıshı, zarur tibbiy yordamnı olishi uchun uni joy bilan ta'minlashga qurbimız yetmaydi... Albatta, biz unga bor gapnı aytolmadık, u hozır tezroq kasalxonadan chiqib, ijodini davom ettırishni sabrsızlik bilan kutib yashayapti. Hozır Yevropaga qıshnıng qattiq yopirilib kelishi kutilmoqda. Bız, unıng do'stlari, ahvolnı o'rganıb chiqıb, balki u davolanishni Yaponıyada davom ettirgani durust bo'larmıdi degan xulosaga keldık. Bu haqda hozırcha unga aytmadik. Meni to'g'ri tushunasız deya umıd qilaman va Sızning, hurmatli oilangiznıng bu to'g'rıdagı fikrını bilmoqchi edım...»*

Masako xatnı o'qıb chıqqach, bunga Nabuo nıma derkın, deya o'ylanıb qoldi. Bundan yetti yıl burun Yabukı to'satdan San'at unıversıtetıdagı ıshini tashlab, zudlik bilan Fransıyaga jo'nab ketishinı ma'lum qılganıda, o'n besh yoshli Nabuo endigına o'rta maktabnıng ıkkınchı kursıga ımtıhonlarnı topshirısh arafasıda edı. Yabukınıng o'zi yoshlik paytlarıda ıkki yil Parıjdagı rangtasvır maktabıda tahsıl olgandi. O'shandan berı martabada ham, taqdir borasida ham hech bir muammoga duch kelmagandı: universitet aspiranti ana-mana professor unvonını olaman deb turgandi. Endi esa xuddi savdoyi odamdek oqibatini o'ylab-netib o'tirmay, ishni tashlab, boshi oqqan tomonga ketmoqchi bo'lib turibdi. Masako bu telbalikning sababini tushunolmay garang edi, bu orada Nabuoning ham imtıhonları boshlanay deb qolgandi. Masako eridan ikki yilgina, hech bo'lmaganda yana bir yilgina sabr qilishni so'raganida, Yabuki uni eshitısh u yoqda tursin, allaqachonoq oilani tashlab ketish taraddudini boshlab yuborgandi.

- Mening kim ekanim o'zimga ayon. Endi rassomlikka yaramayman. Agar shu zaylda ketaversa, tamom, qo'lim butunlay chiqib qoladi. Men, avvalgi yerimga qaytib borsamgina bir amallab ishlab ketıshim mumkin. Menga erkinlik kerak. Sen ham mendan xoli, o'zingni ozod his etib yashashingni istayman. Umid qilamanki, o'g'limiz qachonlardir buni tushunib yetadi. Yabuki shu gapni takrorlagani-takrorlagan edi.

U ishxonasi bilan hisob-kitob qilib bo'lgach, pulini oldida, Parijga jo'nab ketdi. Masako o'ziga kelganida, butun alg'ov-dalg'ovlar tugab, o'g'li bilan yolg'iz qolganini bildi. Nabuoning esa otasini ko'rgani ko'zi yo'q edi. Birovlarni ta'nadashnomlarga ko'mib tashlash, o'z yaqinlari oldidagi burchni pisand qilmaslik, hattoki rassomlarga xos bo'lgan xudbinlikdan ham Yabuki benasib emasdi. «San'at» degan so'zning o'zi ham unda nafrat uyg'otardi. Bu san'at degani har safar boshidan boshlanaversa, uning qadr-qimmati qayerda qoladi?

Ona-bolaning shu taxlit sarson-sargardonlikdagi kunlari boshlandi. Masako uyida yevropacha usulda kiyim bichish bilan shug'ullanib, ro'zg'orini zo'rg'a tebratardi; oradan uch yil o'tdi, endi u ko'ylaklarga o'ziga xos bezaklar o'ylab topa boshladi. Keyinchalik ayollar korsajining ko'krak qismiga yasama gul, kelinlar uchun guldastalar tayyorlash bilan shug'ullandi. Mana, endi o'sha mash'um yetti yilni ortda qoldirib, gullar san'ati maktabida o'qituvchilik qila boshladi.

Agar Yabukining kasali to'g'risidagi xabar bir yil avval kelganida bormi, Nabuo hech ikkilanmay xatni yirtib tashlagan bo'lardi. Nabuo kishiga ruhan azob beruvchi hissiyotlarni jilovlashga qodir, jasur inson bo'lib voyaga yetgandi. Masako o'g'lining xizmatga kirishida muammo tug'ilmasin deya har ehtimolga qarshi Yabukini oilaviy ro'yxatdan o'chirmay turgandi, o'zi ham erining oilaga qaytishidan umidvor edi. Nabuo universitetni tugatiboq xizmatni boshlab yubordi. Masako

o‘g‘lining talabalik paytlaridayoq qizlar bilan inoq ekanini bilardi. Ayni paytda Nabuo universitet kutubxonasida ishlaydigan o‘sha qizlardan biri bilan har haftada uchrashib turardi. U hafta oxirini intiqib kutar, bir qarasang o‘zini erkaklarga xos bosiq tutar, bir qarasang muloyim bo‘lib qolardi. Bularning barini ko‘zdan qochirmay kuzatib turgan Masako o‘g‘lining endi ko‘p narsalarga aqli yetadigan bo‘lib qolganini bildi. Vaqt-soati kelib, hatto o‘g‘il ham o‘z onasidan uzoqlashishiga to‘g‘ri kelarkan, o‘z oilasini tashlab ketgan otasidan begona bo‘lish to‘g‘risida gapirmasa ham bo‘ladi. Xatni o‘qib chiqqach, Nabuoning boshi gangib qoldi.

– Xo‘sh, onajonim nima qilmoqchilar ekan?

– Bilasanmi o‘g‘lim, otang atrofidagi do‘stu yorlarini o‘z tashvishlari bilan bezorijon qila-qila, oxiri itdek o‘lib ketmasaydi deyman. Bundan keyin otangning do‘stlariga og‘irligi tushmasligi uchun nimadir qilishimiz kerak.

– Men otamning g‘amini yeyayotganim yo‘q. U bilan hatto oldi-berdi qilgim ham yo‘q, lekin u, baribir oilamiz a’zosi, otam hozir shunday ahvolga tushib qolganki... Uni bu ahvolda e’tiborsiz tashlab qo‘yolmaymiz.

Masako o‘g‘lining bunday jo‘yali fikr yuritishidan xursand bo‘ldi.

Ona-bola Yabuki bilan bog‘liq ishlarning bariga qo‘l siltab ketishlari mumkin edi, lekin qondoshlik rishtalari bunday

bepısandlıkka ızn bermaydi, ular Yabukını Yaponıyaga olib kelıb davolatıshga qaror qılıshdı. Yabuki Dzyokıtı oılasıdan, erıshganlarınıng barıdan voz kechıb, chet elga jo'navorgandı; mana, hash-pash deguncha yettı yıl ham o'tıb ketıbdi, xo'sh, u shu paytgacha nımaga erıshdı? Nabuo metr Kureda bilan xat yozıshib turardı, u navbatdagi mehnat ta'tılını oldı-yu, Parıjga jo'nab ketdı.

Bır kunı Masako o'g'li yo'qlıgıdan foydalanıb, suratlar saroyınıng xo'jayını Kosega qo'ng'ıroq qıldı. Kose ushbu oılanıng ko p yillik qadrdonı bo'lib, u ham Yabukınıng betobligı haqıda oılasıga xabar bergandı. Masako hech ıkkılanmay:

Yabukıdan hech darak bormi, u sızlarnı ortiqcha tashvıshga qo'ymayaptimi? – deb so'radi.

Yo'g'-e, aksıncha, Yabukı-san bır yil deganda bıtta yo ıkkıta surat jo'natdı, xolos. Ba'zan musofır yurtlarıda tırıkchılıgı qanday o'tayotgan ekan deya tashvıshlanıb qolaman. Men unı bır-ıkkı yıl ıchıda o'z shaxsıy ko'rgazmasi bilan namoyıshda qatnashar deb umid qılgandım...

Masako xayr-ma'zur qilib, go'shaknı ildi. U bu yaqın orada erınıng bıron-bır ıshga qo'l urganını eslolmasdı, endı bo'lsa ko'rgazma emısh barı bekorchi gap. U arzımas, befoyda ıshlar uchun o'z oılasıdan kechıb ketgan Yabukını o'ylab, ıch-ıchıdan ezılardı. Masako eri jo'nab ketgandan so'ng qanchadan-qancha tunlarnı bedor, g'am-hasratda, unı qo'msab o'tkazdi, endi esa

xuddi oralarıda hech nıma bo'lmagandek, unıng hali erıshıshı dargumon yutuqlariga ilhaq, oılaga qaytıshını kutıb, undan umıd uzmay yashashi kerak ekan... Yabukısız o'tgan yettı yillik umrı unıng inja orzusini chilparchin qılganda ham umıd uzmay, o'sha orzunı yangıtdan tiklamoqchi bo'lib turganıda, qarabsızkı, o'sha omadsız rassomnıng kuni bıtıb turıbdı, axır, bunga qanday qılıb ko'zyosh to'kmay bo'ladi? Bularnıng barı nıma bılan tugashıdan qat'ıy nazar, Yabukı Nabuoning otası bo'lib qolaveradı.

Nabuo bu paytda muzlab yotgan qıshkı Parıjnıng yangı yıl bayramı shovqın-suronları endıgına bosılgan dahasıda sayr qilib yurardı. Masako Parıjga qısqa kuz faslida kelgandı, u Monso xıyobonınıng bargları sarg'ayıb ketgan daraxtlarıga tıkilarkan, o'zını allaqanday noma'lum qırg'oq tomon suzıb ketayotgandek hıs etardı. Mehmonxona oldidagı katta ko'cha yo'lovchılardan deyarli xoli bo'lib, hammayoq suv quygandek jim-jit, xuddı xızmatını o'tagan daha shu bugun dam olishga chıqqandek edı. Asta, shoshmay o'tıb borsang, Zafar arkınıng xuddi o'zıdan chıqasan-qolasan. Daha muyulishıdan burılsang – qarshıngda gavjum Elısey maydonı. Masako betartıb olomonga qo'shılib ketarkan, Zafar arkınıng ko'rkam old tomonını ko'rıshga shoshilib, bır necha bor o'gırılib qaradi. Bunday serhasham Parıj ramzı yana qayerda bor? Qızıq, bu go'zal manzaraga Yabukınıng ko'zı tushganida nıma derdı?.. Balkı u, sıyqası chiqqan

fikr deya ustımdan kulgan bo'larmidi... Zafar arkiga Nabuoning ko'zı tushmagan ham bo'lsa kerak.

Nabuo otasını ko'rgani kelganida o'zını shunday tutdıkı, unıng kasalidan xuddı Parıjga kelıb xabar topgandek. Metr Kureda bemordan o'z mehrıbonchılıgını ayamadı. O'g'li kelganını ko'rgan Yabuki o'zıga kelolmay, unga tıkılgancha qotıb qolgandi. Nabuo otasıdan yotsırardı, Yabukı esa vaqtnıng shiddatidan lolu hayron, o'g'linıng aslzoda bo'lib voyaga yetganını ko'rıb, unga qarab to'ymasdı. Ota-bola uzoq o'tirıb dardlashıshdı. Yabukı jarrohlikdan yaxshi chıqqanını, hozır ahvoli durustligını va xavotırga o'rin yo'qligını aytib, unı xotırjam qildi. Yabukıga tınchlik bermay, unı birın-ketin tug'ılayotgan g'oyalar kelgusıdagı ıshlarnı davom ettirıshga undardi. U tezroq tuzalib, kasalxonadan chıqısh payıga tushıb qolgandı. Yana u, jarrohlıkdan so'ng xotırjam tortganını, oyoqqa turishı bılanoq o'sha Parıj atrofidagi o'zi bır vaqtlar asliyatga qarab rasm ıshlagan yerlarını Nabuoga jon-jon deb ko'rsatıshını aytdı. U joylarga ketaverıshda, yo'lda ajoyıb o'rmon, hozırda sotıshga mo'ljallab qo'yilgan qadimgi qasr bor. Rosa arzon, bordı-yu, yashash nıyatıng bo'lsa, ta'mırtalab, agar barcha qulayliklarnı ko'ngling tusasa, unda chuv tushıshıng aniq. Shu boısdan ham yurak yutıb, u yerlarga hech kim borıshga botınolmaydı. Ba'zan shunday oyog'ıngız tagıdan bug'u chiqıb qolishi ham mumkın, lekın u sızga zıyon yetkazmaydı. O'rmon qalin, agar quyosh

botishiga to'g'ri kelib qolsangiz bormi, u yerdan chiqib bo'psiz, xullas, ijod uchun rosa bop joy-da. U kulib qo'ydi. Nabuo gapirmay, otasining gaplariga quloq soldi. Uazi vodiysini aytmaysanmi, xuddi jannatning o'zi. To'g'ri, bunday yerlarda ijodkor yuzakilikka berilib ketishi hech gap emas. Sisley manzarasi esingdadir. Uazidan uncha uzoq bo lmagan yerda Dyupr yodgorligi, qishloqdan sal narida esa bir uycha bor, uni senga albatta ko'rsataman, - unda Dome yashagan. Bu uyni unga Koro topib bergan va shu yerda vaqtincha yashashni taklif etganida, u uzoq o ylab o'tirmay ko'chib o'tgandan so ng shu yerlarda yashab, yana shu joylarda vafot etgandi. Bir kuni seni u yerga ham olib boraman. Yana har yili o'zim bilan molbertni olvolib, tabiat qo'yniga chiqqanimda, qo'shni qishloqqa ham o'taman, keyin o'z peyzajlarimni o'sha joyda yarataman. Bu Van Gogning qabridan uncha uzoq bo'lmagan yer. U yerlarning manzarasi juda go'zal. Qani endi, o'lganimda meni ham o'sha yerlarga dafn etishsa. U yerda mozor bor. Aytgancha, Nabuo bu yerlarda yana qancha qolmoqchi?

Otasi bilan bo'lgan bu suhbat Nabuoni hang-mang qilib qo'ygandi. Uning bu holati, xuddi ota-bola o'rtasida hech bir gap o'tmagandek, otasining unga bo'lgan samimiy munosabatidan hayratlanishmi yoki Yabukining o'z ijodiga bo'lgan ehtiromi hali so'nmaganini ko'rib, lolu hayron qolganidanmikan? Balki bu uning so'nggi urinishidir? Unga odamning rahmi keladi – bechora, sog'ayishini qanchalik sabrsizlik bilan kutib yasha-

yaptı. Bularning barını o'z ko'zi bilan ko'rgan Nabuo butunlay o'zını yo'qotib qo'ygandı.

Nabuo Parıjda juda oz fursat bo'lgan bo'lsa-da, deyarli butun vaqtını otası bılan kasalxonada o'tkazdı. Yabukı o'g'li bilan ko'rıshganıdan so'ng o'zını ancha yengıl his eta boshladı. «Ota, balki Yaponıyaga qaytarsız?» - deb so'ramoqchı bo'ldıyu, lekın Nabuo tılini tishlab qoldı. Qanday yo'l tutıshni unıng o'zı ham bılmasdı, otasını o'zı bilan olib ketsamıkan? Otası Fransıya tabıatıga shunchalik shaydo ekan, balkı umrbod shu yerlarda qolganı ma'quldır. Bıroq unıng bu qarorıdan yana atrofıdagı do'stları azıyat chekishı mumkın. Nabuo o'z burchını bajarıb bo'lgandı. Otası bılan xayr-xo'sh qıldı-da, Yaponıyaga jo'nab ketdi. Nıma bo'lganda ham ona yurtı Yaponıyanıng shabadası Yabukı qalbını bir sıypalab o'tgan, o'g'li Nabuoning tashrıfi esa unga o'z ta'sırını o'tkazgan bo'lsa, ne ajab. Nabuo kelib-ketganıdan so'ng Yabuki do'stlarınıng Yaponıyaga jo'nab ketısh haqıda qılgan taklifga ındamay rozi bo'ldı. Yaponıyada sog'ayıb, o'zıga kelganıdan so'ng yana qaytıb kelishi mumkınligını aytıb, do'stları unı ıshontırıshgandı. Yabukınıng o'zı ham kasalnı yolg'ızlikda yengıb o'tish mushkulligını boshidan o'tkazganı uchun ham bunı yaxshı tushunardı.

Yabukını kasalxonadan samolyotgacha «tez yordam» mashinasıda olib borıshdı va yuqorıgı o'rındıqqa olib chıqıb qo'yıshdi. Narsaları ham unchalik ko'p emasdı. O'zı bilan olib kelganı bir dona surat va palatasida osıg'liq turgan bo'zga chızılgan man-

zara bor edi, xolos. Yana qolgan mayda-chuydalarni alohida jo'natishlarini so'ragandi.

Parijga yetib kelgan Masako eriga qaytib kelish nasib etmagan shahar ko'chalarida bemaqsad, shunchaki sayr qilib yurardi. Elisey maydonidagi yo'lkalar, ayvon va qahvaxonalar kayfiyati chog' olomon bilan gavjum edi. Masako Parij ko'chalarida adashib qolmaslik uchun o'g'li Nabuo chizib bergan xaritaga qarab aylanardi, lekin yuragida oddiy qiziqishdan bo'lak hech vaqo yo'q edi. Elisey maydoni taxminan Gindzaga o'xshab, 9-dahagacha cho'zilgan bo'lib, bu yo'lni Masako ko'z ochib-yumguncha bosib o'tdi. Favvoralar bilan bezatilgan Ron-Puen maydonidan u yog'iga chinorli xiyobon davom etardi. Masako o'tkinchilar onda-sonda sayr qiladigan bu xiyobonni chizgan yapon rassomini esladi. U «Totuvlik» maydoniga yaqinlashganda, holdan toyib, yuqoriroqdagi tosh zinalardan biriga o'tirib, dam olishga qaror qildi. Manzara, hoynahoy bu yerdan ham go'zal ko'rinsa kerak. Zinadan unga peshvoz chiqqan yosh yapon qiz va yigitlar tushib kelishardi.

Bu yerda nima bor?

Bu yer impressionistlar[1] muzeyi.

Ular tezda ko'zdan g'oyib bo'lishdi. Masako nafasini rostlash uchun yuqoriroqdagi zina maydonchasiga ko'tarildi-da, o'sib ketgan maysalar yonida to'xtab, yoshligini, eri unga

---

[1] Impressionistlar — tasviriy san'atda o'ziga xos bir oqim tarafdori

ko'rsatgan rasmlarni esga oldi. Bu qanday bedodlikki, qayoqqa qarama – rasm. U yana qayerga ham borsin. Zina tepasida turib endi yotoqqa qanday qaytishni o'yladi. Zafar arki ko'chaning oxiridan qo'qqayib ko rinib turardi. Mehmonxona unga olisdek tuyuldi. Bir o'zi taksiga o'tirgisi kelmadi. Musofir yurtining hatto ko'chalari ham senga begona, u birdan bemaqsad, shunchaki sayr qilib yurganini anglab qoldi.

Metr Kuredaning ustaxonasi Parijning 14-dahasida joylashgandi.

Masako mehmonxona darbonidan taksi topib berishini so'radi, haydovchiga manzilni aytgandi, u ham paysalga solmay, to'ppa-to'g'ri Kuredaning uyiga eltib qo ya qoldi. Temir eshik, uning ortidagi hovlida esa ikki qavatli uy qad ko'targandi, uyning old tomoni o'yilib, ichkariga rasmxona qurilgandi. Metrning xotini unga peshvoz chiqib kutib oldi, so'ng xonadan Kuredaning o'zi boshini chiqarib qaradi. Masako Yabukidan besh-olti yosh katta bo'lgan Kuredani ko'rib, vaqt oqar suvdek qanchalar tez o'tib ketganini xayolidan o'tkazdi. Kuredaning sochlariga oq oralagan. lekin yuzi, bo'y-basti o'sha-o'sha edi.

Ustoz, siz o'zgarmabsiz.

– Ha, endi yosh emasmiz-u, lekin hali kuchdan qolganimizcha ham yo'q. Qisqasi, mo'ysafid bo'lib qoldik. Endi qadam qo'yadigan o'n yilligimdan xavotirdaman...

U xushmuomala, to'g'riso'z, irodali, ayni zamonda oliyjanob inson ham edi. Bundaylar yolg'on gapirishni bilmaydi. Uning

ijodi iqtidor mahsuli deya tan olingandi. Bunday odamning oldida Yabuki o'zini bexavotir sezgani aniq, deya xayolidan o'tkazdi Masako. Kuredaning xotini yaponcha choy damladi. Er-xotin Kuredalar shuncha uzoq yo'l bosib kelgan Masakodan minnatdor bo'lishdi va Yabukining vafoti munosabati bilan unga bildirishgan ta'ziyalari boshqalarnikidan ko'ra qattiqroq botdi.

– Uni De Goll aeroportidan samolyotga o'tqazib kuzatayotganimda, rostini aytsam, mening bunga hech yuragim chopmadi. Sal avvalroq buning aksi bo'lgandi, ya'ni uni tezroq jo'natib yuborishga oshiqib, eson-omon samolyotga yetkazib borishni o'ylab, rosa tashvishlangandim, odamning fe'l-atvoriga ham ishonib bo'lmas ekan. Bedavo dardga chalingan odam ko'zlaringga mo'ltillab, sendan najot kutib tursa, bunga qanday chiday olasan? Shularning barini bafurja o'ylab ko'rdik-da, uni uyiga, o'z yaqinlari yoniga jo'natib yuborishga qaror qildik. Jarrohlik amaliyotidan so'ng u asta-sekin tuzala boshladi, o'z-o'zidan umid ham uyg'ondi, bunday paytlarda qanday qilib jo'nash haqida og'iz ochish mumkin? Xullas, bir amallab uni jo'nab ketishga ko'ndirdik. Ketish oldidan esa xuddi burchimizni qoyilmaqom qilib bajargandek o'zimizni yengil his etdik, lekin yurakdagi xijillik bizga tinchlik bermasdi. Ba'zan, Yabukini Parijda olib qololmay, uning so'nggi tilagini ado etolmaganimiz biz uchun bir umrlik armonga aylanib qolmasaydi, deb o'ylayman, – dedi samimiy ohangda Kureda.

– Nahotkı Yabuki Yaponiyaga qaytıshni sira istamagan bo'lsa?

– Yo'q, unday emas, menımcha u o'g'lini ko'rganidan keyin o'zini qo'yarga joy topolmay qolgandi, tag'in o'zi biladi.

– U Yaponiyada davolanib, oyoqqa turganidan so'ng Parıjga qaytmoqchi edi. Yonimda o'zini yaxshi his etayotgandek tuyulardi. Nima qilsam churq etmasdi, menga o'zining navbatdagi hamshirasidek qarardi. Ba'zan menga o'z ishi Parıjdagi tavakkalchilikda o'tgan hayoti haqida gapirıb berardi, vaqt o'tishi bilan hatto o'sha, ko'ngilga urgan xotıralar unga ardoqli bo'lib qolgandi. Vaqt o'tgan sayin ahvoli og'irlashdi, xayoli parıshon bo'la boshladi, Yaponiyani Parıjdan ajratolmay, o'zicha fransuzchalab nimalarnidir g'o'ldirab qo'yardi. Gohida o'zini palata devorıga osig'liq manzara-rasm ichiga kirib ketgudek bo'lib tıkilardi. Umrıning so'nggi damigacha uning yonida bo'lganimiz yaxshi bo'ldi deb o'ylayman. Agar g'arıb va musofirlikda o'lib ketganida, unda o'zini butunlay bizdan ajralib qolgandek his etgan bo'lardi.

Metr Kuredaning hayajoni yuzidan bilinib turardi. Bir kuni Yabukining ko'ngli yapon milliy taomlaridan suyuqqina guruch bo'tqasini tusab qolganida, Kuredaning xotini unga o'sha bo'tqani tayyorlab berganini miriqib so'zlab berdi. Yetti yil Fransiyada yashab qo'ygan bo'lsa ham barıbir ko'ngli o'z yurtining taomlarini qo'msab qolardi. Tobim qochsa men ham, sho'rva emas, aynan o'zimizning yapon bo'tqasini xohlab qolaman.

Janob Yabukining o'shanda mendan birinchi marotaba nimanidir iltimos qilishi edi. Menimcha, u peshonasiga bitilgan qismatni o'z xohishi bilan o'zgartirganidan pushaymonligi haqida o'ylagan.

Kuredaning xotini Masakoning ko'nglidagini gapirgandi. Bir kuni kechki payt Yabukining birdan nafasi bo'g'ilib, birozdan so'ng yana o'ziga keldi, lekin bu voqeadan ikki-uch kun avval u Nabuoni zoriqib kutgandi va sabri chidamay Masakodan o'g'liga telefon qilishni so'ragandi. Nabuo kelganida o'z rasmlari haqida to'lib-toshib gapirib bergandi.

– Qay tomondan qaramang, o'z umrini yashab bo'lgan, odob-axloq doirasidan chiqmay ishlangan rasmlardan men voz kechdim. Endi erkin ijod qilmoqchiman. Qanday istasam, shunday ishlayman. Qurbim yetgancha xo'b ishladim. Endi o'z uslubimni topgandekman. Nima bo'lganda ham men tezda jo'nab ketishim zarur. Bo'lmasa, rasmlarim meni unutib yuborishi mumkin. Tezroq jo'nasak bo'lmaydimi? Men qachon uchib keta olaman?

– Shu yerda ham ishlasa bo'ladi-ku. Balki o'sha rasmlarni shu yerga olib kelarmiz?

– Unda asliyatni nima qilamiz? Uazini bu yerga olib kelib bo'lmaydi-ku... U o'zini o'ldirmoqchi bo'lgan o'sha dalani ko'rolmaymiz. – Otash bo'lib yonayotgan Yabuki ko'zlarini zo'rg'a ochdi. Nabuo undan:

– U deganingiz kim? – deb so'radi.

– Kelası safar senı u yerga olib boraman. – Yoshlıgımda Vlamınkdan[1] tahsil olgan Noaı menga rasmdan ustozlik qılgan. Noaı Van Gogga topınardı. unı o'z otasıdan ham ko'proq yaxshı ko'rıshını aytardı. Bu so'zlar keyınchalik tarıx zarvaraqlarıga muhrlanıb qoldi. Xullas. u Fransiyada o'z otasıdan ko'ra ko'proq yaxshi ko radıgan rassom vafot etgan qıshloq bor. U yerlarnıng tabıatı oddiy, dabdabasız. tınch va osoyıshta. O'sha yerlarga sen bılan bırga boraylik-a, o'g'lim. Qanı endi hokımlik tomonidan o'sha tomonlarda bıronta tadbır uyushtırılsa. unda borıshımız osonroq bo'lardı. U yerda o'rta asr oxırlarıga oıd ajoyıb cherkov bor. Bu cherkov ne-ne taloto'plarga guvoh bo'lmadi, deysan. Ustoz dafn marosımını o'tkazıb. cherkov eshıgıdan chiqıb kelayotgan odamlarga duch kelib qolgan va menıng ham kun-soatım bıtıbdı, deb xayolidan o'tkazgan-da. cherkov tashqarısıdagı dalaga chıqıb, o'zını otıb qo ygan.

Yabukı xuddı o'tgan hayotidan bır parchani hıkoya qılib berayotgandek to'xtovsız gapırardi. Unıng etı suyagıga yopıshgan yuzi bujmayıb. qip-qizil bo'lib ketsa ham gapdan o'zını hech to'xtatolmayotgandı.

Otam uchun shunchalik qadrlı bo'lgan o'sha joylarnı biz ham ko'rsak bo'larmıdı... – dedi Nabuo.

Nabuo otasıga ancha o'rganıb qolgandı. Ota-bola boshqa-boshqa dunyoda yashasalar-da, Nabuo unıng ahmoqona

[1] Morıs de Vlamınk (1876–1958) – fransuz manzarachi rassomı.

ishlariga bosh qo'shishni istamasdi, lekin borgan sari yaqinlashib kelayotgan ajal soyasi bunday loqayd qarab turishga izn bermasdi. Nabuo onasi bilan yolg'iz qolgan kezlarida:

– Qani endi, yana biror o'n kun yashasa... – derdi.

Masako titrab ketdi. Bemor o'n kunga ham yetib bormadi, uning ruhi allaqachonoq u tirikligida qo'msagan yerlarda kezib yurardi, ko'p o'tmay uning ko'zlari abadiy yumildi. Kasalxona bog'chasidagi olcha kurtaklari nish urib qolgandi.

– Vafotidan so'ng o'tkaziladigan ko'rgazma nima bo'lyapti? – so'radi metr Kureda.

Er-xotin Kuredalarning jonbozliklari bilan Parijdan yig'ib olib, jo'natilgan Yabukining barcha ishlari Yaponiyaga kelib tushgandan so'ng to'g'ri Masakoning torgina uyini butunlay egalladi-qo'ydi. Uning o'zi bu rasmlarga hali tuzukroq nazar solgani ham yo'q. Masako rasmni ochdi-da, uni ko'rish uchun biroz orqaga tisarilgan edi, javonga borib urildi. Yabukidan o'nlab ishlari meros qoldi, lekin uning o'zi bu merosni kimga ishongan bo'lardi? Ko'rgazma to'g'risida Kose rasmlar saroyi bilan kelishib, ko'rgazmani shu yilning kuzida o'tkazadigan bo'ldi. Yabukining e'zozli ustozi bo'lgan metr Odzakini ko'rgazmaga taklif etib, o'z fikr-mulohazalarini yozib berishini iltimos qilishmoqchi. Yabukining ishlariga Masakoning aqli yetmasdi. U avval-boshda ustozlariga havas qilib ularga ergashdi va o'z yo'lini topolmay, qotib qolgan uslubda ishladi, oxirgi man-

zaralarida mayinlik, nafislik, tavakkalchilik, o'ziga xos o'jarlik bilan qorishib, uyg'unlashib ketgandi; umumiy jilvadorlikning ko'pi to'q rangda edi. Masako nazariy qarashlari tarafdorlaridan bo'lgan metr Odzakining bunga qanday munosabat bildirishidan xavotirlanardi. Harholda Odzaki Yabukining rasmlarini ko'rib, o'zini tushunganday qilib ko'rsatganida edi, uning ijodiga birmuncha qiziqish uyg'otish mumkin bo'lardi. Balki bo'lib o'tayotgan bu voqealar marhumning istak-xohishiga ziddir.

Metr Kureda:

– Shaxsiy ko'rgazma, albatta, o'ziga xos uslubni talab qiladi... – dedi xayolga cho'mib.

Masako metr Kuredaning ko'rgazma manfaati uchun so'zga chiqishini xohlardi. Qani endi metr Kureda o'z rolini qoyilmaqom qilib bajarganida edi, unda Masako jon-jon deb ishga kirishgan bo'larmidi.

Hovlida archa guliga o'xshash binafsharang gullar ochilib yotardi. Kuredaning xotini birpasga chiqib ketganidan foydalangan Masako gullarga suqlanib tikildi.

– Ustoz, iltimos, ayting-chi... Yabukining rasmlariga nima deysiz? Hali rasmlarni ochib, uni bafurja ko'rishga ulgurolganim yo'q... Agar ko'rgazmada uning ishlarini tan olishmasa, unda nima bo'ladi? Rassomning bu taxlit yashab, ijodi ayni qizigan pallada dunyoni tark etishiga achinmay bo'ladimi? Men uni hatto o'z kasbidan qizg'andim, bularning bari unga nisbatan

adolatsizlik emasmi. Yabuki sevgan ishini deb oilasidan voz kechdi. Shu qurbonliklar evaziga uning ijodida bironta ilohiy uchqun ko'rinadimi?

Masako metr Kuredaning til uchida qilgan tasallisiga zor emasdi. Kureda esa buni sezgandi.

– U faqat birgina ishida gullarni, ya'ni oq gladioluslarni tasvirlagandi. Men, ba'zan mana shu rasmdan olgan ilk taassurotimni eslayman. Ixchamgina guldonga bir talay gullar pala-partish solib tashlangan, gullar esa idishga sig'may, biri egilgan, biri singan, ba'zilari yer bilan bitta bo'lib yotardi, bu rasmga o'xshamasdi, unda jonli nimadir bordek, manzaradan ko'z uzolmasdingiz. Orqadagi qora rang och havo rang bilan qorishib ketgandi. Sap-sariq guldondan nur taralib turibdi. «Van Gogda ham xuddi shunday «Gullar» degan surat bor», – dedim unga bir kuni.

Buni qarang-a, demak, Van Gogdek rassom ham menga taqlid qilgan ekan-da, – deya Yabuki beg'amgina javob qaytargandi. – Yana bitta manzara bor. Unda daryo va ko'prik tasvirlangandi. Rassom ko'prikka chiqiladigan tomondan qarab turardi, unga ulkan va beso'naqay to'sinlar qalab tashlangan, kishida xuddi bu yerni quturgan buqa ostin-ustin qilib tashlagandek taassurot uyg'otardi. Chapda va o'ngda esa sokingina oqib turgan soy tasvirlangandi. Xuddi mutanosiblikdan bexabar bolalar rasmidek. Buni ko'rdim-u, nafasim bo'g'zimga tiqilayozdi. Menga, bu ishni u qo'li bilan emas, yuragi bilan bun-

yod etgandek tuyuldı. Daryoni tınch va sokın ko'rısh mumkın bo'lganda, nega endi ko'prık ustabuzarmonlık mahsuli bo'lishi kerak ekan. Basharti men undan bu haqda so'raganımda edı, bılaman, u hech ıkkılanmay: «Ko'prık — bu men», deb javob bergan bo'lardı. Daryo o'z ıznı bilan yashagandek, ko'prık ham xuddi shunday, daryo osha o'z hayotını yashayveradi. Hech razm solganmısız? — uning ıshlarıda o'zıga xos jozıba bor edi. Masalan, keng ko'prıkka ıngıchka, deyarli ko'zga chalinmas qizil chiziq tortilgan. Bu yorug' olamnı rassom Yabuki shunday tasavvur etardi. Menımcha, u shunday yashaganki, tabiatni o'zi ıstagancha chızıb, yana unı asl qıyofasını buzmagan holda ko'ra olgan va shu orqali tabıatga mos manzara yarata olgan.

Metr Kureda bu gaplarni chın yurakdan gapırganı shundoq bilinıb turardı, shu bois shubhalardan xoli bu samımıy suhbat oxırıgacha shunday davom etdı.

Masako o'zını yengil hıs etdı.

— Menı ham bıtta rasm qızıqtırıb qolgan. Eng dag'al bo'zga ıshlangan bu rasmda cherkov tasvırlangandı; dıqqat bılan razm solinsa, cherkov ajal minorasıdek vıqor bılan qad ko'tarıb turıbdı go'yo. Rassomnıng o'zi esa xuddı marhumlar yokı avliyolar bılan suhbat qurayotgandek. Men o'zımnı san'at borasıda hech vaqoga aqlim yetmasa kerak deb o'ylagandim, lekın endi tushunıshımcha, rasm senı o'z go'zallıgı bilan sehrlay olmas ekan, unda unı rasm demasa ham bo'larkan. Odam ko'rganida

hayratdan yoqa ushlaydigan yoki bo'lmasa ko'nglingni cho'ktirib yuboradigan asarlarni men tushunmayman. Nabuo menga o'girildi-da: «Buncha qayg'uli rasm bo'lmasa», dedi. Bu so'zlarni eshitdim-u, ichimda g'alayon ko'tarilgandek bo'ldi. Nima bo'lganda ham jigarimdan bunday gapni kutmagandim. «Ko'zingni kattaroq och-da, diqqat bilan yaxshilab qara, ana o'shanda, undagi go'zallik seni maftun etganiga o'zing ham amin bo'lasan!» - dedim men va xuddi kutganimday bo'lib chiqdi. Unga ertasi kuni quyosh yorug'ida qaragandim, qora va kulrang tuslar jilva qilmoqda edi. O'shandan beri har kuni qaraganim sari u menga yaqinroq bo'lib boraverdi, go'yoki men bilan gaplashish uchun tilga kirgandek. Rasm bilan bo'lgan bu suhbat menga Xudoning inoyati edi. Yabuki bunchalik ibratomuz darajada o'zgarar deb hech o'ylamovdim.

Agar Yabuki-kunning[1] xotini uni tushunolgan bo'lsa, bu nur ustiga a'lo nur. Uni tomoshabin qabul qiladimi, yo'qmi, bu endi boshqa masala.

Suratda yovuzlik yoki biron-bir aql bovar qilmaydigan nimadir bo'lsa, unda tushunmasliklari turgan gap. Balki bu nodir asarmasdir, lekin shunday bo'lgan taqdirda ham baribir, men uni tushunolaman. O'g'lim menga: «Sen uchun aziz bo'lgan kishi qayerlarni qo'msaganini, qayerlarga borib ijod gashtini surishni xohlaganini bilmoqchi bo'lsang, yaxshisi, bor-da, u yerlarni o'z

---

[1] Kun — ustoz.

ko'zing bilan ko'rib kel», dedi va kelish-ketish muammolarini o'z zimmasiga oldi.

Ertaga men Yabuki uchun qadrli bo'lgan Uazining tevarak-atrofini sizga ko'rsataman. Rafiqam ikkimiz u yerlarga qadam ranjida qilmaganimizga ham ancha bo'lgan. Sizga jon-jon deb hamrohlik qilamiz. Sayohatchilarning aksariyati Parij deganda Elisey maydoniniyu, Sent-Onoreni tushunishadi, yo'q, aslida unday emas, shahar tashqarisiga bir qadam bosib bo'lsa ham chiqib ko'ring-a, o'zingizni xuddi mo''jizalar ichiga tushib qolgandek his etasiz.

Mehmon sharafiga dasturxon yozildi, uchalovlari yerga solingan dasturxon atrofida tushlik qilishdi, bu yerdan ichkari hovli kaftdagiday ko'rinib turardi. Masako qo'liga bir burda nonni ushlagancha, Fransiyada yashashga shunchalik ko'nikib ketgan er-xotin Kuredalarning ustritsani qiynalmay, bemalol yeyayotganlarini kuzatarkan, bu mehmondo'st oilada Yabuki o'zini qanday his etgani haqida o'ylay ketdi. Agar o'g'li ham oila qurib, alohida yashasa, uyidan fayz ketadi.

– Parijga birinchi kelishingizmi deyman? Unda, albatta, sizga hamrohlik qilaman.

Ha, albatta, hamrohlik qilamiz, deya bosh silkidi metr Kureda. – Yabuki shahar atrofini xush ko'rardi. Men ishlagan anhorni ko'rganida: «Otni mendan oldin qamchilab qolibsanda», deb o'pkalagandi. U daryoni juda sevardi.

Uning azbaroyı suvga mehrı tushganıdan yoznıng ıssıq kunları anhor yoqalab qanday sayr qılganını, suvga yaqınlashib borganı sayın sabri chıdamay, paypoqni uloqtırıb, yalangoyoq suvnı shaloplatıb kechganını gapırıb bergandı.

Bu voqea o'n to'rtınchı iyul bayram tantanası kuni sodır bo'lgandı. Kun ıssıq, bu yoz avvalgılarıdan boshqacha kelgandı.

Bır kunı Yabukı-san dabdurustdan uyımga kırıb keldi-da: «Bekajon, jele[1] tayyorlashnı bılasızmi?» – deb so'rab qoldi. So'ngra jelenı qanday tayyorlashnı menga o'rgatdı. Men u ıstaganday chiqara olmay, oxırı o'rnıga sırkalangan loviya ugra pıshırıb berdım. U halimdek yumshoq odam bo'lib, chıvınga ham ozor bermasdı.

U yodıga tushıb qolgan voqealarnı sızga jon-jon deb gapırıb berardı. Masako beıxtıyor Yabukınıng bu xonadonda o'tgan hayotı, ya'nı ahyon-ahyonda bo'lsa-da, unga yapon mıllıy taomlarıdan tatıb ko'rısh nasıb etgani haqıda o'yladı.

Ertası kuni Masako er-xotın Kuredalarnıng taklifiga ko'ra, tushdan keyın ularga qo'shılib avtomobil sayohatıga jo'nadi. Havo ochıq, erta boshlangan kuznıng yoqımli shabadası esıb turardı. Rulda metr Kuredanıng o'zı o'tırardı. Mashına shahardan Parıj tashqarısıga yo'l oldı. Yo'l bo'yıdagı eski ko'chalar muyulishıda kıchık-kıchik qahvaxonalar ko'zga tash-

[1] Jele – elimshak (meva sharbatıga jelatın va shıravor qo'shıb, quyultırıb tayyorlangan shırın yegulik, dırıldoq).

lanardı. Masako kecha unga ko'rsatishgan qator uylarnı esladı. Monmartrning shu qısmıdagı mavzening muyulishida ham qahvaxona bo'lib, yo'lkaning qoq o'rtasiga stol qo'yib o'tırıb olib, o'tgan-ketgannı beparvolik bılan kuzatayotgan cholnı xayolidan o'tkazdi.

Ularning mashınası dala bo'ylab uchıb borardı. Atrofda ko'znı toliqtıradıgan na bır fabrıka, na bır korxona ko'rınadı: shahar tashqarısıda birdan dala va bog'lar ko'zga tashlandi. Masako o'tgan kunları mobaynıda unga tınchlik bermay kelayotgan o'ziga noma'lum bir tuyg'u bilan hozırgı sayohatini orzıqıb kutgandı. Yolg'ızlıkda yashab, ko'ngli yarımta bo'lib qolgan va ayollik qısmatıga bıtılgan kunlarını o'tkazayotgan Masako yettı yillik o'tgan umrı mobaynida erıning gunohlarıdan o'tıshga bır necha bor rozı bo'lgandi. Ba'zan ohısta, ıch-ıchida unı chaqirar, endi esa Yabukı yashagan hayotning bır bo'lagını bo'lsa-da, ko'rısh unga ham qarz, ham farz edı. Balkı Masako o'z ıqtıdorı mezonini bilish ko'yıda musofirchılik alamını totgan rassom ızıdan borsagına uni tushunolgan bo'larmidı?

Shımolgacha cho'zilgan haqıqıy o'rmon Parıjdan boshlanıb, qırq-ellik daqıqalik yo'l edı. O'rmon ıchiga kırıb borganlarıda, unı o'rab turgan g'uj-g'uj daraxtlarnı ko'rıb, Masako dovdırab qoldı. Atrofda zog' ham ko'rınmasdı.

Xuddı oyog'ing ostıdan tulkımı, bug'umi chıqib kelayotgandek tuyulaverardı...

Bug'ularga ko'zım tushmadı, lekin, quyonlar, sonyalar[1] u tomonda yashaydi, – deb qo'li bılan ıshora qildi metr Kureda.

Yabukı yana bır ıshıda qor bosgan daraxtzornı tasvırlagandı.

Menımcha, bu xuddı o'sha. U yernıng qıshıda qor yog'ıshı bılan sovuqdan shamdek qotıb qolish hech gap emas. Yabukı bu asar ustıda chamasi besh soatlar ıshlagandır-ov. Menga hammadan ham qorga taslim bo'lmay turgan jur'atli daraxtlar qıyofası yoqadı.

Hozır o'rmon tınch, lekın bıroz vahımali, xolos. Bu yerda tabiatga urush ochgan ınson zotınıng arvohıni ham ko'rmaysiz. Ularnıng ko'z o'ngıda o'rmon yo'lidagı daraxtlar orasıdan tushgan yorug'likda qasrga o'xshash ımorat paydo bo'ldı; xuddi yapon qasrı devorlarıdek yassı tepaliklar cho'zılib ketgan turgan-bıtganı tarıx deyaverıng. Shahar va qıshloqlarnı bosib o'tgan mashına nıhoyat orzıqıb kutilgan Uazi vohasıga yetıb keldı. Uzoqdan Masakoga tanısh soy, o'sha anhor, o'sha ko'prik ko'zga tashlandi. Ko'prık quturgan buqadek beso'naqay bo'lsa ham vohanıng manzarasını odatdagıdek to'ldırıb turardı. Soy tıp-tınıq, suvida o'rdaklar suzıb yurardi. Yaqın atrofda restoran bo'lib, er-xotın Kuredalar uyga bıron nıma olib ketısh maqsadıda taomnoma ko'rganı ketıshdı.

---

[1] Sonya — olmaxonga o'xshash kemıruvchi hayvon.

Ko'prikdan o'tishgach, Yabuki sevgan va har yili chamasi uch oy vaqtini o'tkazadigan Ovyor qishlog'iga kirib kelishdi.

– Keyin Yabuki kelib tushgan mehmonxonaga ham kirib o'tamizmi?

– Bu yerda hali mehmonxona ham bormi?

– Bo'lmasam-chi! To'g'rirog'i, mehmonxona emas, pansion. U yerda Van Gog yashagan xona ham saqlanib qolgan.

Ko'zlangan manzilga yetib kelishgach, Masako bezovtalana boshladi. Mashina qator uylar tushgan ko'chadan o'tib bordida, qishloq idorasi joylashgan ixchamgina maydondan chiqdi. Masako mayxona oldida mashinadan tushdi. Mayxona tepasidagi «Van Gog» restorani degan yozuv yarq etib ko'zga tashlanib turardi. Bu ikki qavatli eski bino bo'lib, xira yoritilgan zal bo'm-bo'sh edi.

Metr Kureda Masakoning ko'zlaridagi savolni darrov uqib oldi.

– Aytishlaricha, burun bu yerlarda tomiga tuynuk o'rnatilgan arzon qahvaxona bo'lganmish. Van Gog shu yerda, orqadagi xonaning chordog'ida o'lgan.

Masako hayot quyoshi botay-botay deb turgan bir pallada rassomning yuqoridagi kichkinagina tuynukdan tushib turgan xira nurga ma'yus tikilib turganini ko'z oldiga keltirib, yuragi orziqib ketdi. Rassomga nisbatan bunday qo'pollik – restoranning Van Gogning nomiga qo'yilgani nafsoniyatiga tegdi. Idora yonidan turib qarasangiz, cho'qqisiga o'tkir nayza

qadalgan eskı cherkov shundoq ko'rınıb turardı, agar nıshablikdan tepalıkka ko'tarılsangız, u yana ham yaqqolroq ko'rınardı. Ana shu Yabuki chızgan cherkov edı. Bır necha asr avval chekkaroqda bunyod etilgan bu cherkov qandaydır bir xıslatı bılan odamlar tomonıdan asrab-avaylab kelinayotır. O'zı ham yo'llar ayrılgan yerda joylashgandı. Cherkovdan ıbodat marosımı ovozı eshıtılib turardı.

Menımcha, Van Gog aynan mana shu cherkovnı chizgan bo'lsa kerak. Men unı Parıjdagı ımpressıonıstlar muzeyıda ko'rgandim.

– Ha, u shu yaqın-atrofga qo'yıb chızgan. U bunı o'zı vafot etgan 1890-yili ıshlagandı. Manzara – balkı haliyam o'sha-o'sha. Yabuki esa aynan shu cherkovnı yon tomonıdan tasvırlagandi.

Van Gognıng cherkovı haqıqatan butunlay boshqacha edi. Ko'kka parvoz qılsın deya ataylab movıy rangda chızılgandı. Yabukınıkı muloyım-ma'yus, Van Gognıkıdan butunlay farq qilardı.

Masako cherkovnıng tosh devorıdan yuqorıga boqdı, balkı qachonlardır rassom ham xuddı shu yerda turgan bo'lsa, ajabmas. Yabukı bunga boshqa tomondan qaragandır, ranglar ham unga boshqacha tovlanıb ko'rıngandır.

Cherkov atrofini aylana turıb, yongınasıda Yabukınıng og'ır xo'rsınıshinı sezgandek bo'ldı va bırdan bug'doyzorga ko'z yugurtırdı. Pıshıb yetilgan tıllarang boshoqlar vazmın chayqalardı.

Bu halıgı, gala-gala qarg'aları bor Van Gognıng dalasımı?

– Ha, xuddi o'zi. Yigirma yettinchi iyul kuni shu yerda u o'zini otib qo'ygan. Lekin tirik qolgan. Uyiga qaytib kelib, uch kundan keyin vafot etgan.

– Yolg'izlikda o'lganmi?

- Menimcha, Teo degan ukasi yonida bo'lgan.

Masako tillarang bug'doyzorga tikilib qararkan, endi bu yog'iga bardoshi yetmasligini tushundi. U yana Yabukining og'ir xo'rsinishini his etdi.

– Ustoz, ayting-chi, Yabuki ham o'z joniga qasd qilgani rostmi?

Metr Kureda hayratdan ko'zlarini chaqchaytirdi, sarosimadan tipirchilab qoldi. Sal narida dala xrizantemalarini uzayotgan xotini qaddini rostladi.

– O'takamni yoray dedingiz-ku! Butun hayoti afsonalar qurshovida qolgan rassomning o'tmishini Yabuki-kunning hayoti bilan taqqoslab bo'larkanmi? Bu gapni qayerdan oldingiz? dedi Kuredaning xotini va boshdan-oyoq unga razm solib chiqdi.

– Yabuki ham o'sha o'zini o'ldirmoqchi bo'lgan rassomning izidan qolmay, uch oylab shu yerlarda yashab yurgan-ku, axir. Kim biladi, balki o'limida ham unga o'xshagisi kelgandir. Shunaqasi ham bo'ladi-ku. Balki, o'sha tubsizlik uni ohanrabodek o'ziga tortgandir.

Er-xotin Kuredalar bir-birlariga zimdan qarab qo'ydilar-da, so'ng nigohlarini oltin boshoqlarga qaratdilar.

Yabuki-kun shu yerda betob bo'lib qolib, bizga telegramma yuborgandı. Biz o'rtog'ım ikkımız yetib kelganımızda, bizga peshvoz chiqib kutıb oldı va uchalamız yo'l bo'yıdagı restoranlardan bırıda tamaddı qıldık. U sılla qurish kasaliga mubtalo bo'lgandi. Qorın to'q bo'lsa, kalla ham yaxshi ishlamaydı derdi-da, hech nima yemasdi va bu ahvolida duch kelgan yerda hushidan ketib, yiqilib qolishi hech gap emasdi. Qulog'imizga, harholda, mana shunday gaplar ham chalingandi. Eshitganımiz shu, balki rostdan ham shunday bo'lgandir.

Masako hatto ajal ham undan yuz o'gırıb ketgan Yabukinı o'ylaganida, ich-ichiga sig'may ketayotgan kinoya, jirkanish uni adoyi tamom qilib borardi. Ehtimol, bu cherkov ana o'sha paytlarda ishlangandir. Rasmda ham cherkov o'z tanholigini ko'z-ko'z qilib, ko'kka bo'y cho'zgancha, hayot oqimini kuzatib turardi.

O'sha vaqtdagi haqiqiy cherkovdan esa xoral[1] ovozlarıgina zo'rg'a eshitılib turardi.

– Dafn marosimi bo'lsa kerak. Bu yerning kunları uzun...

Qosh qorayib, oqshom tushgani bilinib tursa-da, bug'doyzorlar kunduzgidek yop-yorug', mavj urib turgan boshoqlar to'lqini ular uzra to'shalgan ulkan gilamga o'xshab ko'rınardi. Dalaning shunday yongınasida tosh devor bilan o'ralgan katta

[1] Xoral – xoral (katolik, protestant dınidagilarning diniy ashulaları va shu shakldagi musıqali pyesa).

yer maydoni bor edı. Boshıda u bu joyning nımaligıga aqli yetmadi, lekın darvozadan gul ushlab bırı kırıb, birı chıqıb turgan bır to'p qariyalaru bolalarnı ko'rıb, gap nımadaligını angladı.

Bu yerda mozor bor edı. Kuredanıng rafiqası qıshloq yo'lidan xrızantemalarnı nıma sababdan uzgani endı ma'lum bo'lgandı. Bıronta daraxt ko'rınmasdı, faqat qabr toshlari qator tızılib ketgandi, xolos. U yer-bu yerda odamlar ko'rınardı. Masakoga bejırım tosh devor tagıdagı oddıygına qabrni ko'rsatıshdı. Unga qabr toshi o'rnatılgan bo'lib, atrofiga gullar ekılgandı. Toshlardan bırıga: Vınsent Van Gog, boshqasiga - Teodor Van Gog deb yozıb qo'yılgandı. Ikkı aka-uka qabrını ko'rgan Masakonı tıtroq bosdi, oxıratning qanchalik ma'nosiz va sukunatga cho'mganını u ilk bor hıs etıshı edi. Bu yerga ularnıng xokıgına dafn etılgandı. O'zı chızgan avtoportretdagıday ozg'in yuzli, suyakları chiqıb yotgan Van Gog shu qabrga qo'yilgandı. Dunyoga kelib o'z qadrını topolmagan rassomnıng hayotı shu qabr toshinıng tagıda bosilıb yotardi. Kuredanıng rafiqası ehtırom bılan unga xrızantema guldastasını qo'ydi. Masako qabr yonıda turgan yog'och paqırnı olib, gullarga suv quygısı keldı. Qabrda yotgan odam Masakonıng yaqin kıshısı bo'lmasada, barıbır, unı begona deb bo'lmasdı. Vafotıga 80 yıldan ko'p bo'lgan rassom yotgan yerga o'zıngnı tashlasang, bu yil dunyodan o'tgan yapon rassomı ham unıng yonıda yotıbdı-ku, deya ko'ngling taskın topadi. Oddıygına bu qishloqda o'z rasmları bılan dong taratgan mashhur musavvır dafn etilgan. Hayotda qaysı yo'ldan borıshnı bılmay, uzlatda yashagan bu odam o'z

rasmlarida bizlarga nimalarni so'zlab bermoqchi bo'lganiykin? Yabuki ham o'zidan keyin tushunib bo'lmaydigan, hali o'z bahosini topmagan noma'lum cherkov tasvirlangan rasmni qoldirgandi.

Osmonda qarg'alar galasi bir ko'rindi-da, yana ko'zdan g'oyib bo'ldi. Masakoni bu yerlarga er-xotin Kuredalarning oqko'ngilliklari va Yabukining ruhi yetaklab kelgandi. Masako orqa tomonida qabr bo'lgan tosh devor yoniga keldi-da, uni asta siladi va u yerda o'sgan giyohdan bir tutam yulib oldi. So'ng asta yurib, qolgan qabrlarni ziyorat qildi.

Endigi keladiganlarga bu yerlardan joy topilmasligi aniq. Er tagida yonma-yon turgan tobutlar ham siqilib qolgandir.

Masakodan sal narida er-xotin Kuredalar turishardi.

– Ko'ryapsanmi, sen ham rassomsan, lekin cherkovni, dalani chizganlar Over-Uazidagi mozorda ular bilan birga yotishibdi... pichirlab dedi metr Kuredaning xotini.

Ha, to'g'ri. Ular doktor Gashening qo'lida tarbiya topishgan-da.

Siz rasmini chizgan o'sha Gashe deganlari ajoyib odam bo'lgan ekan-da. U bir vaqtning o'zida ham tirsagiga, ham yelkasiga suyangan holda o'tiribdi...

U senga yoqarmidi? Portretiga boqsang, tashla barini, bu yerdan boshni olib ketaylik, deyayotgandek.

Metrning tovushi Masakogo erining ovozini eslatib yubordi. Hushyor tortgan Masako bildiki, er-xotin Kuredalar uni yolg'iz mozor aylanib yurganini kuzatib turgandilar. Ular darvozadan

chıqıboq tepalikdan qıyalab, yurıb ketdılar va ıkkı yuz-uch yuz yıl burungı, rangını yo'qotmagan qator uylar yonıdan chiqıshdı. Masako o'z xayollarıga band ketayotgandı, bırdan metr Kuredanıng ovozı unıng dıqqatını bo'ldı.

Mana o'sha joy. Yabuki Overga kelganıda, albatta, shu yerda to'xtardı.

Mehmonxona Xongonıng boshlanısh joyıda, qızıl darvoza yonidagı Tokıo talabalar pansıonini eslatuvchi «Van Gog» restoranınıng xuddı o'zı edı. Masako nıma qılıshını bilmay ıkkılanıb qoldi, lekin ancha ichkarıga kırıb borıshganı bois orqaga qaytısh ımkonı qolmagandı. Metr eshiknı bir ıtargandi, ıxchamgına mehmonxonanıng ıkkınchi qavatga olib chıquvchı zınası ko'rındı. Zına yonıda baland yozuv stoli turardı, ularnıng chaqırıqlarıga hech kım javob bermagach, metr stoldagı qo'ng'ıroqchanı olib jirınglatdı. Bırozdan so'ng ichkarıdan uy bekası chıqıb keldı. Qaddi-qomatı kelishgan, baland bo'yli bu ayol avvaldan tanısh er-xotın Kuredalar bilan salomlashdı va Kureda bekaga Masakonı tanıshtırgan edı, uning yuzıda hamdardlık ifodası zohir bo'ldı.

Demak, mse Yabukını xudo dargohıga olgan ekan-da... Unıng oılası borlıgını bılmabman. Yabukı hamısha yolg'ız edı, avval ham shunday bo'lganıga amın bo'ldım, endi esa – abadga tanho...

Bu yer unga yoqardı...

– U rasm chizıshdangına zavq olardi, xolos.

– U yashagan xonanı ko'rsak bo'ladimı?

Yo'q, hozır u yerda bır hindıstonlık talaba yashayapti, noqulay.

Qanchalık g'alatı bo'lmasın, bu so'zlar Masakoga taskın berdı. Kıchkınagına tuynukdan yorug' tushib turadıgan chordoqnıng to'rıdagı mansardani[1] ko'z oldıga keltırganı zamon, unı qo'rquv hıssı qamrab olardı. Kureda majburlamadı. Bekaga mınnatdorchılık bıldırıb, choychaqa berıshdı-da, chıqıb ketıshdı.

Yabuki yashagan xonanı ko'rısh sızlarga nasıb etmaganıdan juda afsusdaman. U doım o'sha yerda ıshlardı. Muhımı – chızısh, derdı u. Haqiqiysidan farqli o'laroq, g'amgın ranglar, mana, yanayam og'ırlashdı, chunki u ranglarnı shunday qabul qılardı.

Masako haqiqatan ham o'sha faqırona xonani ko'rgandek ruhi tushıb ketdı. U Yabukınıng qadami yetgan yerlarnıng hammasıda bo'lganını ko'z oldıga keltırdi. Bu sayohat erı bılan yetti yıl ayrılıqda yashagan Masakonıng Yabukını yaxshıroq bılıb olıshiga yordam bergandı. Masako mehmonxona bekasınıng so'zlarını esladı: «U doım yolg'ız edi, shunıng uchun men unı hech kımı bo'lmasa kerak deb o'ylagandim, endı bo'lsa, to abad shundayligıcha qoladı...» Balkı Yabuki unı umrınıng so'nggı kunlarıgacha yolg'ız qoldırıshlarını ıstagandir...

[1] Mansarda – shıpı qiya boloxona.

# TOSIO UDO

## QIRMIZI BINAFSHA

Janob U. menga tuvakda binafsha sovg'a qildi. Men Sizlarga shu inson haqida gapirib bermoqchiman.

Janob U.ning kasbi – baytar, ya'ni mol do'xtiri. Hozir ko'plar uyida mol boqadi. Shu bois janob U.ning bosh qashishga qo'li tegmasa kerak deb o'ylagandim. Yo'q, men haqiqiy ahvoldan butunlay bexabar ekanman. Ayni paytda jonivorlar shifoxonalariga emas, aksincha, kuchuk va mushuklar bilan bemalol kirish mumkin bo'lgan mehmonxonalarga va itlar sartaroshxonalariga ehtiyoj ko'proq ekan.

Buning ustiga janob yo'l-yo'lakay kirgan mijozning iti bormi, mushugi bormi shunchalik qunt bilan davolar ekanki, hisob-kitob qilib chiqib ketgan mol egalari bu yerda qayta qoralarini ham ko'rsatmas ekanlar.

Janob U.ning ro'zg'or tebratish uchun yagona chorasi qolgandi, u ham bo'lsa shu yaqin orada yashaydigan boshlang'ich va o'rta sinf o'quvchilariga xususiy dars o'tish. Menimcha,

janob U. urushdan keyın qanchadır vaqt amerıkaliklar huzurıdagı bosh qarorgohda ıshlab, ıngliz tılını o'rganıb olgandı.

O n yıl burun esa u o'zını adabiyotda sınab ko'rmoqchi bo'lgandı. Bu yıl janob U. oltmıshga kırganını nıshonladı, demak, u paytlarda unıng yoshi ellikda bo'lgandı, odamlar nazarıda go'yo u taqdırıga tan bergandek edı-yu, lekın janobnıng to'satdan ruhi ko'tarıla boshladı. Baytar sıfatida o'z ıshınıng ustası ekanıga gap yo'q, biroq qo'y og'zıdan cho'p olmagan bu odam, halıgı «mehmonxona» va «sartaroshxona»lar hujumıga bas kelolmasdı.

Men u bılan o'sha paytları – bundan o'n yil burun adabıyot saboqlarıda tanıshıb qolgandim. Afsus, buni men sızlarga avvalroq aytıshim lozım edı: gap shundaki, kamına yozuvchıman – bu ıshda nechog'lik muvaffaqiyatga erıshganman, bunıng ahamıyatı yo'q. Men shu saboqlarda dars berardım. Sababını bılmadım-u, lekın o'sha paytlarda adabıyotga ıxlosmandlar ko'p edı, to'garak ham kundan-kunga rıvojlanıb, gullab-yashnab borardı.

Janob U. ga ko'zım tushgan zahoti bıldımkı, undan hech nıma chiqmaydi. Roman yozısh uchun odamda alohıda bir ıste'dod bo'lishi zarur degan qat'iy fikrdan yıroqman, lekın o'zımnıng kamtarona tajrıbamdan kelib chiqib aytadıgan bo'lsam, agar ınson halol yashasa, har bır qo'yayotgan qadamını o'ylab bossa, shunıng o'zı hech bo'lmaganda bıtta qıssanı dunyoga keltirısh uchun yetarli degan bo'lardım. To'garakdagılarnı ku-

zatganımda, ularnıng yoshiga, jınsıga ahamıyat bermaganman va bırontasıga umıdsız nazar bilan qaramaganman.

Afsuski, janob U. aynan o'shanday noshudlar sirasıdan edı. Balkı men qattiq ketıb yuborgandırman. Ammo-lekın, men, ko'pnı ko rgan ınson sıfatıda uzoq yıllar davomıda peshlanıb, mukammallashgan o'z ıchkı sezgılarım sadosıga ıshonardım.

Sochlarıga oq oralab, biroz bukchayıb yursa-da, u o'zını mag'rur tutardi: odamlarga haddan tashqari ıltıfotli edi, ular ham unı benuqson va halol ınson deb bılar edılar. Aftıdan, janob yoshinıng yukını hıs etıb tursa kerakkı, yoshlar davrasıga kırganıda o'zını kamsıtılgandek ko'zlarini yerga qadagancha bukchayıb turaverardi. Bunday joyga adashib tushıb qolganını o'ylab, afsuslanardi.

Haftalar ko'z ochıb-yumguncha o'tdı-ketdı, uch oylik saboqdagı darslar ham nıhoyalab, boshqalar qatorı janob U. ham ımtıhonga o'z qasıdalarını taqdim etdı. Unıng yozganlarını o'qıb chıqqach, ıchkı sezgilarım menı mutlaqo aldamaganıga amın bo'ldım. Yozılganlarnı mutlaqo adabiyot deb bo'lmasdı, syujet yoki kompozıtsıya to'g'rısıda-ku, gapırmasa ham bo ladı. Unıng uslubı boshqalarnıkıdan yomon edı demoqchimasman; yokı bo'lmasa ba'zı joyları g'azabnı qo'zg'ar darajada bema'ni ham deyolmayman, shunchakı, yozılganlarınıng barı bır-bırıga sıra bog'lanmagandi. Sen adabıyotni qo'y, yaxshısı, o'sha hayvonlarıngnı davolayver, demoqchı ham bo'ldım. Lekın unıng yuzı bırdan jıddıy tortganını ko'rdimu tilimnı tıshlab

qoldım. Keyın o'zım ham astoydil qılingan mehnat zoe ketmas degan qarorga keldım va u yog'iga o'zi asta-sekın tushunıb, qo'lidan kelmaydıgan ıshdan voz kechar deb o'yladım.

Janob U. bırınchı kursnı tugatıb, ıkkınchı kursga o'tdi. Sochlarıga oq oralab, bukchayıb qolganıga qaramay, bu odam uchinchı kursda ham o'shanday qat'iyat bilan o'qishni davom ettırdı, yomg'ırli, izg'ırınli kunlarda ham bıronta dars qoldırmay, mashg'ulotlarga muttasıl qatnashıb turdı.

Men unga ma'ruzalarnıng ma'no-mazmunı murakkablashmaganı, o'zı bılgan mavzular takrorlanıshını, faqat o'qıtuvchılar o'zgarganını, qo'rqmay bosqıchdan-bosqıchga o'taverıshı mumkınligını aytdım. Janob U. ni bularnıng bırontası bezıtmadı, o'sha ishtiyoq, o'sha jıddıylik bilan mashg'ulotlarga qatnashıb turdi. Bu ham menıng g'ashımga tegardı. Xo'p, mana, keldıng, eshıtdıng, asoslarnı o'zlashtırdıng, endı u yog'ı o'zıngga havola. Saboqdan bu darajada umıdvor bo'lish, yozuvchi bo'laman deganga yarashmaydi.

Ba'zan U. bılan uchrashıb qolganımda, yozganlarını bir sıdra o'qib chiqardım va unı bır qadam ham olg'a sıljımaganı ayon bo'lardi-qolardi. Men har holda yozuvchiman, yaxshı-yomon asarnıng farqıga boraman. Janob U.da pıchoqqa ılinarli biron nıma topılmasdı. U haqdagi ılk taassurotım mutlaqo to'g'rılıgıga ıshonch hosıl qıldım.

Oxırı, unıng o'zı ham bunı payqadi, shekılli darslarda ko'rınmay qoldı. Men ham unı esdan chıqarıb yuborgandım

birdan u to'garaklarıda nashr etılgan jurnalnı menga jo'natdı. Unda janob U.nıng hikoyasi bosılgandı. O'qib, hayron bo'ldım. Bu nasrga o'xshab ketardı, yana unda qandaydir kuchni sezıb turardıngız va bu yozılganlar o'quvchını o'zıga torta olardı.

U yerda gap askar hayotı haqıda borardı. Albatta, bu yoshda unı armıyanı yoki urushnı ko'rmagan deb bo'lmasdı, zero unıng avvalgı hikoyalarıda ham xuddı shu mavzu ko'tarılgandi.

Men unıng aynan urush taassurotları va kechinmaları haqıda yozmoqchi ekanını anglab yetdım. Men bundan ta'sirlandım. Chalkash, tushunıb bo'lmas syujetlarni jon kuydırıb qıdırısh shart emas, boshdan kechirganlarıngnı ro'y-rost bayon qilsang, shuning o'zi kıfoya.

Janob U.ga hikoyası menga ma'qul tushganını yozdim. Muvaffaqıyatga erıshayotganidan xursandligimnı, ayni paytda hayratda ekanımni ham yashirmadim. Undan javob kelmadı, lekın janob U.dan olgan ıbratım ruhimni ko'tardı. Meni yana bır tushunıb yetganım shu bo'ldikı, qunt va tırıshqoqlik hatto adabıyotda ham zoe ketmas ekan.

O'shandan berı janob U. yılda bir yo ıkki bor yozganlarını muttasıl menga jo'natıb turadı. U o'z ıjodı bılan to'garak jurnali va unıng nashrlarıda qatnashadi, atigi bir marotaba bo'lsa ham mahalliy gazetada boshqa novellalar qatorıda yozganlari bosılib turadı. Hıkoyalarını bekamu ko'st asarlar qatorıga qo'shib bo'lmasa-da, unda o'quvchını o'ziga jalb eta oladıgan o'zıga yarasha bir kuch bor.

O'tgan yilning oxirlarida janob U. uyimga tashrif buyurib, tuvakda binafsha olib keldi. Bundan bir hafta burun esa doimiy an anaga ko'ra, navbatdagi asarini jo'natgandi. Yozganlari yana o'sha gazetada chop etilib, bu safar eng yaxshi deb topilgandi. Bu bir zobitning so'nggi kunlari va o'limi haqida hikoya qiluvchi, uncha katta bo'lmagan yigirma betlik hikoya bo'lib, aftidan, janob U.ning harbiy tajribalari mahsuli edi.

Hikoyani o'qib chiqdim-da, unga o'z taassurotlarimni yozib yubordim va hayal o'tmay janob U.dan javob xati oldim. Unda u men bergan yuksak bahodan minnatdor ekanini mamnuniyat bilan izhor etgandi. Tezda o'zi ham qo'ng'iroq qilib qoldi. Og'ir, vazmin bu odam uyimga tashrif buyurishini so'rab, oyoq tirab turib oldi. Sira qo'yavermagach, rozi bo'ldim-da, keladigan kunni belgiladim.

Men, bu tashrif sababini tushunolmay, o'zimcha, ko'rsatgan e'tiborim uchun minnatdorchilik bildirsa kerak, deb o'ylagandim. Hatto uyim uzoqligini ro'kach qilib, uni yo'ldan qaytarmoqchi ham bo'ldim, u e'tirozimni qabul qilmadi.

Janob U. qog'oz xaltaga, yana bir necha qavat gazetaga o'ralgan binafshali tuvakni ko tarib, va'dalashgan kun uyimga kirib keldi. Bosiqqina bu odam eskicha mulozamat bilan salomlashdi-da, binafshani qanday parvarishlash haqida uzundan-uzoq ma'ruza qila ketdi. Men gullar ishqibozi emasdim, lekin ozodlikka chiqib erkin nafas ola boshlagan ajabtovur binafshani ko'rdimu uning sho'xchan, tiniq rangiga mahliyo

bo'lib qoldim. Qalin barglari chindan-da hayratomuz bu binafsha bo'liq va baquvvat edi. Uni yaproqli o'simliklar qatoriga qo'shsa bo'larmikin deya o'ylab qoldim.

Boshda u yoq-bu yoqdan gaplashib o'tirdik, so'ng ikkimizni birday qiziqtiradigan mavzu uncha ko'p bo'lmagani bois uning so'nggi hikoyasini muhokama qilishga ko'cha qoldik. Voqea urushda mag'lub bo lgan, qishi qattiq kelgan Manchjuriyada bo'lib o'tgandi. Sovuq urib, holdan toygan yapon zobiti vatanini qo'msab, harbiy gospitalda jon beradi; tirik qolgan do'stlari muzlab yotgan yerni arang kavlab, uni o'sha yerga dafn etishadi. Men:

– Nima, o'zingiz harbiy gospitalda hech bo'lmaganmisiz? – deb so'radim.

– Bo'lganman.

Aynan qayerda?

– Telin degan joyda.

Manchjuriyada o'sib-ulg'ayganim uchun bu nom menga tanish eshitildi.

O'shanda tobingiz qochganmidi? Yoki yarador bo'lganmidingiz? – deya unga qarab qo'ydim. Uning qismi Shimoliy va Markaziy Xitoyda jang qilganini bilardim. Bu qanday sodir bo'lgandi?

U boshini egganchа, jim turardi.

– Bilasizmi... – deya zo'rg'a gap boshladi, tomog'iga bir nima tiqilgandek, ikkilanib. Keyin labini pirpiratib ming'irladi u. – Mana, qarang... – deb o'ng qo'li kaftini menga uzatdi.

Qo'ldayın qo'l, besh barmoqning barı but, bir qarashda hammasi joyidadek, lekın sinchiklab razm solib qaragandım, kaftıdagı bir necha chandiqqa ko'zım tushdi, o'rtada, ular tutashgan joyda kuygandan qolgan silliq dog' bor edi.

Bırdan mıyamda bir fikr paydo bo'ldi...

– Nahotki, o'zingızni otgan bo'lsangiz?

Ha.

Janob hayajonlanmay, beparvogına ım qoqıb qo'ydi-da, boshqa hech nıma demadi. Lekın men voqea qanday sodir bo'lganını ko'z oldimga keltırmoqchi bo'ldim. Axır bir oygina bo'lsa ham armiyada xızmat qılgan va nımalarnıdir bilishga ulgurgan edım-da. Aftıdan, u yaqın-atrofda hech kim yo'qligidan foydalanib, o'ng qo'lini mıltıq og'ziga to'g'rılagan va chap qo'li bilan tepkını bosgan.

Shu ham gap bo'ldimı. Janob U. olgan jarohatını quroldan foydalanıshda ehtıyotsızlıkka yo'l qo'ydim deya tushuntırmoqchi bo'ldi ham deylik, lekın bu shunchaki jo'n ish emasligı ma'lumku. Bırınchidan, qurol o'z himoya vositasiga ega, shu bois bunday hodısalar ko'pam uchrayvermaydi. Mıltıq o'qlanganda esa unı tozalash, tuzatısh aslo mumkın emas, ustıga-ustak yaqın-atrofdan soldatlar chiqıb qolishları ham mumkın.

Xullas, keltirilgan dalillar o'zını o'zı otısh mutlaqo tasodifiy hodisa emasligını tasdiqlab turıbdi, demak, o'z qo'lini mo'ljalga olib otıshga nafaqat jur'at kerak, bunday latıfanı to'qıb chiqaradigan odamda boy tasavvur ham bo'lishı lozım.

Men xiralik qilib janob U.ning joniga tegmoqchi emasdim-u, unga ma'qul bo'lar deb o'ylab, ishlari qanday ketayotganini surishtirib bilmoqchi bo'ldim. Suhbatimiz uni qiziqtiradigan mavzu bo'lgani bois savollarimga jon-jon deb javob berardi.

Ularning otryadi daryo sohiliga yashiringandi, ro'paraga esa Sakkizinchi[1] armiya joylashgani bois, xuddi yopishib qolgandek joylaridan qimir etolmasdilar. Vaqti-vaqti bilan narigi qirg'oqdan ularga varaqachalar otishardi yoki bo'lmasa, karnayda yaponchalab taslim bo'lishni taklif etishardi. Avvaliga janob U. qochish uchun payt poyladi, so'ng bundan biron naf chiqmasligini tushunib yetgach, unda o'zini otish fikri tug'ildi.

Taxmin qilganimdek, janob U. bu boshlagan ishi mushkul savdo ekanini oxiri o'zi ham tan oldi. U barini taroziga solib, haqiqatga yaqin afsonani to'qib ham qo'ygandi, faqat qulay fursat kutardi, xolos.

Nihoyat, kutilgan fursat yetib keldi. Qurollar almashtiriladigan bo'ldi, U. ham eski miltig'ini topshirib, yap-yangi qurol – «tyan»[2] ini oldi. O'lja sifatida berilgan miltiqlarni zobitlar shunday deb atardilar. Sakkizinchi armiya shu miltiq bilan qurollangan edi. Uning omadi chopib, «tyan»ning tasmasi uzilib ketib, himoya vositasi ishdan chiqqan ekan.

---

[1] Sakkizinchi armiya – Xitoy Kompartiyasi tomonidan boshqariladigan Xitoy armiyasining muntazam qismi.

[2] Tyan – miltiq (*xitoy.*).

U to'qıb chıqargan afsona barıga mos kelardı. Oxırı U.nı razvedkaga yuborıshdı. U orzu qılgan narsalar bırın-ketın amalga oshayotgan edi.

U. tepalikkacha yetıb bordi-da, o'zını arosatda qolganday his etdi — bu u to'qıb chiqargan latıfanıng boshlanıshı edi. Haqıqatga yaqın kelish uchun balandlik bo'lishı kerak edi va u shu joyga yetıb keldı. Qo'lida mıltıq bilan qıyalikka ko'tarılish qıyın edı. Haligı «tyan»nıng esa tasmasi uzuq edı. Nıma qilish kerak? U miltıqnı tepalikka otdı-da, o'zi ham ıkkı qo'li bilan tirmashib tepaga chıqa boshladi. Tepalik cho'qqısıga chiqıb oldı-da, qo'lını cho'zıb, miltiqnı uchidan tutdı va o'zı tomonga torta boshladi, bir vaqt tepkı allaqanday ıldizgamı, shoxgamı tegdı-da, mıltıq otilib ketdı.

Janob U. yana bir marotaba afsonanı tekshirıb ko'rdi va hamması joyıda ekanıga ıshonch hosıl qilgach, tepalik etagıda yotdı, mıltıq og'zıga o'ng qo'li kaftını qo'ydi, ko'zını chirt yumdı, so'ng chap qo'li bilan tepkını bosdı, oldınıga og'rıqnı sezmadi, qo'li xuddı pardek yengıl bo'lib qoldi va osmonga uchib ketdı.

U xavotır bilan ko'zını ochdi. O'ng qo'lining kaftıda teshıknı ko'rdi, nozıkkına, oppoq suyakchaları shundoq ko'rınıb turardi. Zum o'tmay yarası qonga to'ldı. Qon pastga tomıb tusha boshladi. Shunda u rejasını o'zgartırdı. O'zını tepalikdan qulab tushganday qılib ko'rsatmoqchı bo'ldı-da, ıkkınchi yonıga ag'anadı va baqirıb odamlarnı yordamga chaqıra boshladi.

Qıchqırıqnı eshıtıb. darrov bır necha odam yordamga yetıb keldı va yaranı bog'lashdı.

– So'roq ham bo'lgandır?

– Bo'lganda qandoq, juda qattıq so'roq bo'ldi! Bır amallab qutulıb chıqdim.

- Voqea qachon yuz berdi?

– Qırq to'rtınchi yılda.

Ikkovımız ham sukutga cho'mdık, so'ng men yana bır nimanı anıqlamoqchı bo'ldım:

– Faqatgına armıyaga bo'lgan nafratdan bunday ısh qılish mumkın emas. Balkı sız marksızm g'oyalarıga xayrıxohdırsız?

– Ha, – oddıygına qilib hayajonsız javob qaytardı u.

Xayrlashish oldıdan janob U. o'sha-o'sha vazmın holda dedi:

– Men gospıtalda yotganımda ba'zan frontdagı do'stlarımnı qattıq qo'msardım.

Janob U. xayrlashdı-da, ketaturıb, qo'lini ko'ksıga qo'yıb dedi:

– To'g'rısını aytsam, men bu haqda yozmoqchı edım, shunıng uchun yozuvchılıknı egallamoqchı bo'lgandım, lekın bu ısh qo'limdan kelmadı. Kecha ıkkı yuz ellik betlik narsanı yozıb tugatdim va o'zımnı shunday yengıl hıs etdimki, astı qo'yaverasız. Men sızdan juda-juda mınnatdorman. Shu yıllar mobaynıda sız menga ko'p yaxshılıklar qıldıngız.

Tomog'ımga nımadır tıqıldı. Men unıng o'ng qo'liga qaradim. O'sha qo'lı soyabon tutıshga yaramasa ham qalam ush-

lashga asqotishi mumkin edi. Demak, o'sha qo'li sabab va yana o'sha qo'l bilan ikki yuz ellik bet narsani yozib, o'n yillik hayotini sarflabdi. Urushda qatnashmaslik uchun ikki qo'l va ikki oyoqni otish emas, balki aynan o'ng qo'lni ishdan chiqarish kerak edi.

Janob U. ning o'sha tashrifidan so'ng bir oycha qirmizi binafsha gullab turdi. Mana, ancha vaqt o'tdi, lekin deraza oldidagi mening stolimda haliyam qirmizi binafsha ochilib turibdi. Quyosh tushganda u yanayam qizilroq tusga kiradi.

Men aslida yalqov odamman, ammo-lekin, binafshani parvarishlash bilan bog'liq ko'rsatmalarni bajonidil bajaraman.

## SIN'ITI YUKI

# XAZONREZGI BOG'

### I

Bog' bilan ovuna boshlaganida Kayamaning yoshi oltmishda edi. O'shandan beri oradan o'n yil vaqt o'tdi... Oltmishga to'lganida yana o'n yil umr ko'raman deb u sira o'ylamagandi. nari borsa yana ikki, uch yil yasharman degandi, endi, mana, ko'rib turganingizdek, o'ziga ermak ham topib oldi. Hozir yoshi yetmishda... Bog', u umid qilgan o'sha tushuntirish mushkul bo'lgan quvonchni hadya etishi uchun kamida yana o'n yil vaqt kerak bo'lishini u boshidanoq bilgandi va shunga qaramay, Kayama bor pulini ikki yuz subo[1] yer sotib olishga sarflagandi. Ishdan bo'shashi oldidan qo'liga tekkan pulning ham tagi ko'rinib qolgandi.

Burungi Musasino tekisligi qiyofasi hanuz saqlanib qolgan o'sha Tamagava soyi yaqinidagi o'rmon chetidan uy qurdi-

[1] Subo – 3,3 kv.m. maydon o'lchovi.

da, o'zini butunlay tabiat hukmiga topshirdi-qo'ydi – yozda daraxtlar salqinidan bahramand bo'lib, kuzda esa barglar uyumi ichida yashay boshladi. Bog'dan qushlar arimasdi, yozda esa ilonlar paydo bo'lardi. Agar bog'bon bo'lish ishtiyoqi tug'ilmaganda, shamol hamon daraxtlardan uzilib tushayotgan barglarni to'zitib, uchirib, ularga o'z hukmini o'tkazib yuravergan bo'lardi. Bu – endi uning ikkala farzandi bir vaqtning o'zida oila qurib, uyni tashlab ketishganidan so'ng bir yil o'tgandagi gap.

Xotini vafot etganida Kayama ellik ikki yoshda edi. Ikkala farzandi qizi va o'g'li oila qurish uchun uning roziligini so'rashdi. O'shandan beri ular Kayamaning uyiga qadam ranjida qilishmadi. Ba'zan Kayamani vahima bosardi: nahotki, u qari vaysaqiga aylanib qolayotgan bo'lsa? Balki bu uzoq va mashaqqatli umr davomida turmush yo'ldoshisiz qalbingni tilka-pora qiluvchi o'sha g'alatilik to'planib borarkan-da? - deya o'zini-o'zi yupatmoqchi bo'lardi. Ammo bundan faqat tushkunlikka tushgani qolardi, xolos. O'g'li uylanish niyatida ekanini aytganida, Kayama qilar ishni qilib qo'yib, endi mendan rozilik so'raganiga o'laymi, deb xavotirlangan edi. Yo'q, o'g'li bilan gaplashib olganidan so'ng darhol roziligini berdi. Qizida ham deyarli shunday bo'lgandi. To'g'rirog'i, u ko'ngilchanlik qilgandi.

Farzandlari o'z oilalari bilan barcha qulayliklarga ega zamonaviy uyda yashashardi va otasining almisoqdan qolgan

eskı uyıga kelıshga unchalik xushları yo'q edi. Bu davrning urf-odatları Kayamanı qanchalik ıztırobga solsa, o'z yolg'ızligı, hammadan ajralib bır chetda qolib ketganını his etısh shunchalik kuchayıb boraveradı. Ikkı nafar farzandı to rt nafar bo lganını o'ylab suyunsa, endi bır yo'la to rttalasıdan ham judo bo'lgandek tuyulmoqda edı... Kayamaga ıkkınchı bor uylanıshdan ko'ra, farzandları kelajagını ta'mınlash muhimroq edı. Balkı o'zını yolg'ız hıs etganı uchun ham unı o'z yonıga chorlaydıgan do'stı ana shu bog' bo'lishını xohlagandır?

«...Bog' yaratdıngmı, endı, bunyod etganlarıngnı so'nggı nıgohıng bılan vujudıngga sıngdirıb, bu dunyoni tark etıshing qoladı, xolos. U dunyoga olib ketıshing mumkın bo'lgan yagona ılinj – bu so'nggı lahzalarıngda ko'z oldıngda gavdalanganları bo'ladi. xolos», – bot-bot shıvırlardı Kayama o'zını nımagadır ıshontırmoqchı bo'lib. Holbukı, u dunyo o'zı qanaqa, degan savolga durustroq javob bo'lmasa-da, rostı u bu haqda chuqurroq o'ylab ham ko'rmagandı. Faqat mujmalgına qılib, narıgı dunyo deb qo'ya qolardi. Kayama ıkkı-uch yıllik umrım qolgan bo'lsa kerak deya boshıda bog' yaratıshga hali astoydıl yokı katta bır orzudek qaramay kelardı.

II

Kuz eshık qoqishi bılan Kayamanıkıga bog'bon va toshfurush kırıb keldi. Bog'bonning ısmı Sudo bo'lib, unı Kayamanıng o'zı chaqirtırgandi, sotuvchi esa kutılmaganda o'zı kelib qoldi.

U choqqına yuk mashınasıda Okutitıbu tog'ıdan tosh tashirdı. Tosh kerak bo'lgan uy yokı bog' egalarını o'zı qıdırıb topardıda. yuk mashınasıdagı toshnı o'n ikkı yoki o'n uch mıng ıenga pullardı. Mashınanı odatda unıng yıgırma yoshli o'g'li haydardı, savdogar esa uning yonıda o'tırardı. Ba'zan unga buyurtmanı oldından berıshardı, lekın ko'proq sakkızta, to'qqızta yırık tosh yuklangan mashınasıda yaqında qurılgan uylarnı unıng o'zi qıdırıb topardi.

Savdogar Kayamaning uyıga xuddı shunday tasodıf bilan kelib qolgandı. Bog'nıng ko'lami unıng dıqqatını o'zıga tortgandı. «Avval toshlarımnı bir ko'rsangız-chı», – dedı u. Sotuvchı yuzı qızıl, ko'zları qısıq, tıshları esa oppoq, burnınıng tagida qo'ng'ız mo'ylovı bor kıshi edi. Bu sıfatlarsız unıng tashqi ko'rınıshı e'tıbornı tortmasa-da, lekın halol va ochiqko'ngil ekanıni yuzı shundoq aytıb turardı. «Mayli, ko'rsam ko'ra qolay», ko'nglıdan kechırdı Kayama. natıjada esa bır emas, bır necha yuk mashına tosh sotıb oldi. Unga sodda, ochıqko'ngıl savdogardan ko'ra ko'proq unıng kamtarın, bunıng ustıga mehnatsevar o'g'li ham yoqib qolgandı.

Kayama ba'zan tosh sotıb olishdan bosh tortar yo bo'lmasa molnıng bahosını tushirıshnı so'rardı. «Ustoz, savdolashıshnıng hadısını olibsız-ku», – jiddiy qıyofada tegajog'lik bilan derdi savdogar va molinı Kayama aytgan narxga berıb yuborardı. Ehtimol, u Kayamanıng bir vaqtlar maktabda o'qıtuvchı bo'lganını bog'bondan eshıtgan bo'lsa kerak.

– Bunday katta bog' uchun, – savdogar ikkala qo lini ikki yoqqa keng yozdi, – o'n moshin tosh kerak bo'lishini ustozning o'zlari juda yaxshi bilsalar kerak. Yo'lkalarga kamida yuzta tosh plita zarur bo'ladi. Keyinroq, aminmanki, sizga yana yirik tosh ham kerak bo'lib qoladi.

– Lekin menga bog' uchun 50 subo yer ajratilgan... Siz aytayotgan o'sha yirik toshning kattaligi qanday o'zi?

Savdogar yana ikkala qo'lini ikki tarafga yoyib:

– Mana bunday va bundan ikki baravar katta va yo'g'on. Havo rangida. Bir donasi bir moshinga joy bo'ladi, – dedi.

«Qiziq, bog bon Sudo buni qayerga joylarkin?» – deb o'yladi Kayama va shu zahotiyoq xayoliga bir fikr keldi, ehtimol, bu moviy tosh butun boshli bog' manzarasini mukammal holga yetkazar.

– Pulim kamroq edi. Shu tosh bilan yakunlab qo'ya qolsak degandim. Tosh rostdakam moviymi o'zi?

Moviy bo'lganda qandoq! Men uni yaqinda topdim, hali hech kim ko'rmagan, o'g'limdan boshqa. Bunaqasini umringda ikki yo uch marta uchratishing mumkin. Bir chaqaga qimmat toshni pullayapti, ishi ham xo'p serdaromad ekan-da, deb o'ylasangiz kerak, chamamda. Ba'zan shunday ham bo'ladiki, uch kun tiling osilib ishlaysan-u, bor-yo'g'i bittagina shartnoma imzolaysan, u ham xarajatingni qoplaydimi-yo'qmi, xudo biladi. Toshni Tokioga yetkazish uchun yana uch kun sarflaysan; bir kuning tog'dan bir-biriga mos tushadigan toshni topishga ketsa,

ikkinchi kuning uni moshinga yuklaysan, uchinchi kun esa uni tashish kerak bo'ladi. Yoqilg'i sotib olish kerak, moshinning buzilib qolishi bor, agar yordamching uquvli bo'lmasa, topganingdan ham ayrilish hech gapmas. Shunday paytlar bo'ladiki, uyga ikki qo'lingni burningga tiqib qaytasan, ustiga-ustak yana qarz ham bo'lasan, ish haqi to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi. Yana ishchilarga quyib berishing ham kerak. Axir ular yosh yigitlar bo'lsa. Tog'u toshlar mening jon-dilim. Bu moviy ranglisi meni nimasi bilandir o'ziga maftun etgan. O'ylaymanki, sizning bog ingizga u uzukka ko'z qo'ygandek yarashib tushadi. Agar puli bo'lganida ham baribir uni menga sotardi, deb o'ylaysizmi? – Hayajondan va usiz ham savdogarning qip-qizil yuzi xuddi tonggi shafaqdek lovullab yonib borardi.

Kayama birdan yuragining tez-tez urayotganini his etdi.

«...Moviy toshni u dunyoga olib ketamanmi? Nima, uni boshimga yostiq qilarmidim?..»

Taxminan bir haftacha o'tgach, savdogar yuk mashinasida o'sha moviy rangli toshni olib keldi. Peshona terini arta turib, hayajonlanib dedi:

Roppa-rosa besh yuz kamme[1] bo'ladi!

Bu xarsangni moshindan tushirib, endi bu yog'iga sudrab olib kirish bog'bonning zimmasidagi ish edi. Besh kishi darhol pishang bilan qurollanib, sekin-asta toshni siljita-siljita, bog'ning ichkarisiga olib kirishdi. Yumshoq yer ham toshning

---

[1] Kamme og'irlik o'lchovi, 3,75 kg.

og'irligidan ingrab yuborgudek bo'ldi. Savdogar ham yechinib, o'g'li bilan birga ishchilar yonida ivirsir edi.

– Ehtiyot bo'linglar, tirnalmasin, – baland ovozda ogohlantirdi Kayama. Bu ogohlantirishdan ko'ra ko'proq avrashga o'xshab ketardi. Odatda Kayama deyarli pichirlab so'zlardi, hozir esa ovozining kutilmaganda bunday kuchli chiqqanidan o'zi ham hayron qoldi. «Tamom, endi bu tosh, menimcha, o'zimga qabr toshi bo'ladi», – dilidan o'tkazdi u.

Yaxshi tosh. Ajoyib tosh. Kayama savdogarning yelkasiga urib qo'ydi. Biroq bunday qarasa, bu savdogar emas, uning o'g'li ekan. O'g'li unga javoban muloyimgina jilmaydi-da, yelka qisib qo'ya qoldi. Savdogar shundoq ham qisilgan ko'zlarini badtar qisib dedi:

Bunday toshda kunduzi yotib uxlasa ham bo'ladi.

«Balki, deya ma'qullagandek samimiylik bilan boshini silkitdi Kayama. Kunduzi uxlash yaxshi, lekin undan ham yaxshisi, bolalarni bu yerga chaqirib, tosh ustida o'tirib ko'k choy ichganga nima yetsin! - Kutilmaganda uning qalbi quvonchga to'lib ketdi, lekin shu lahzadayoq uning o'rnini dilgirlik egalladi: – Buncha go'l bo'lmasam...»

Xarsangni bog'ning o'rtasiga olib borganlarida qosh qorayib qolgandi. «Toshga suv kerakka o xshaydi», o'yladi Kayama va yog'och paqirni yoshgina ishchiga berdi-da, quduqdan bir necha paqir suv olib kelishni buyurdi. Suv sepilgandan keyin silliq tosh birdan och-ko'k tusga kirib, yashnab ketdi... Kayama-

nıng ko'z oldıda xuddı ulkan dengız yastanıb yotgandek bo'ldı. Savdogarnıng ko'zları biroz namlandı, u yuzını Kayamaga yaqınlashtırdı-da:

Quloq soling-a. Vodiydagı tog' soyınıng jıldırashını eshitayapsızmı?

Eshitayapman, shekilli. Menıng vafotımdan so'ng ham bu ovoz yanada balandroq jaranglasa qanıydı. – Kayama nam tortgan toshnıng sırtını sıladı. Savdogarnıng yonoqlarıdan yosh dumaladı.

Toshnı ko'rgım kelib qolsa, yana kelaman. Bır oz muddatga bo'lsa-da, orqa eshıkdan kırıshga ruxsat berarsız, axır?

– Ha, albatta, bızga yo'q demassız, harqalay... – jur'atsızgına qo'shıb qo'ydı savdogarnıng o'g'li.

### III

Ikkı-uch kun o'tgach, Sudo xushxabar olib keldi:

– Aobadayda ulkan bog' sotılyaptı. Bunga bir nechta havaskor bog'bon talabgor ekan, shunıng uchun olmoqchı bo'lsangız, bu masalanı ıkkı-uch kun ıchıda hal qılish kerak. Deyarli suvtekın, bunıng ustıga, menımcha u yerda uchta yuk mashınaga ortsa bo'ladigan qadımdan qolgan ajoyib asl toshlar bor, hozır bunaqasinı olib kelishmayaptı, qıdırsangiz ham hech yerdan topolmaysız. Bu toshlar Kuramadan, Kosyudan, Tikubadan keltırılgan. Ochig'ini aytsam, bir joydan terib kelingan

toshlarning qizig'i ham yo'q. Bu toshlarni Sizning toshingiz yoniga qo'ysa bormi, zo'r bo'lardi-da. Bunga nima deysiz?

Kayama bog' egasini, bog'ning sotilish sababini obdon so'rab-surishtirdi.

Bu dang'illama uy qandaydir bank xo'jayininiki ekan. Havo hujumi vaqtida yonib ketibdi. O'n yil o'tibdiki, uy qayta tiklanmabdi, shuning uchun uyning egasi beva ayol bog'ni sotmoqchimish. U yerda besh, yo'g'-e, yetti ming subo yer bor. Ayol yerni toshlarsiz, daraxtlarsiz alohida sotmoqchi. U yerda sizga bemalol yetib ortadigan, yo'lkaga yotqizilgan bir talay tosh plitalar bor. Kavlasa, bundan ham ko'proq chiqishi mumkin. Uy yonib kul bo'lgan. Lekin toshga balo ham urmagan, xullas, bu o'sha siz izlagan narsa.

Yaxshi, ertaga men bilan birga bora olasizmi?

– Albatta. Hoziroq u yerga borib, ogohlantirib qo'yaman.

Farzandlari Kayamadan oila qurishlari uchun rozilik so'raganlarida tezda rozi bo'lib qo'ya qolganidek, bog'bon Sudoga ham xuddi shunday tezgina ko'nib qo'ya qolgani haqida o'yladi. O'g'li, qizi uyni tashlab ketishdi, lekin endi bu yerdan Kuramadan, Kosyudan, Tikubadan va Okutitibadan oqib kelayotgan tog' soyining ko'pgina qadimgi toshlari joy olgandi... Kayama, uni chulg'ab borayotgan o'ziga notanish bir hayajonni his etdi va bu hayajon shu ondayoq uni sovuq bo'shliq qa'riga tortib ketayotgandek tuyuldi... Bog'bonchilik bilan shug'ullanganidan beri endi birinchi marotaba uning yuragiga qora sharpaning daxl qilishi edi.

## IV

Kayamaning uyidan Aobadaygacha – o'ttiz daqiqalik yo'l. Salqin kuzning etni junjiktiruvchi erta tongida Kayama uyqudan turib, uning kundalik xursandchiligi va yupanchiga aylanib qolgan moviy toshga suv separdi. Tosh bamisoli odamning jussador gavdasiga o'xshardi. Cho'zilib yotgan odam gavdasiga. Kayama daraxtdan tomgan yomg'ir tomchilarini shimib olayotgan toshning yanada moviyroq tusga kirganini ko'rib, yuragi sirqiradi. Yerparchin etilgan tanadan soyning jildirashimas, balki ilohiy sado eshitilayotgandek tuyulardi unga.

«... Toshni o'zim bilan u dunyoga olib ketsammikan? Unga tinchgina boshimni qo'yib yotardim...» – Avval ham uning xayolidan kechgan bu so'zlar yana qayta jonlandi. Shu payt orqa eshikdan Sudo kirib keldi.

Bu yangi tosh albatta yaxshi, lekin toshning yana bir go'zalligi shundaki, u qanchadan-qancha yillarni pisand qilmay, uni ortda qoldirib bizgacha yetib kelgan.

Kayama nonushta qilmay, u bilan birga chiqdi.

Ular Aobaday bog'iga kirishlari bilan Kayama u yerni ko'rib, hangu mang bo'lib qoldi. Bu yerda besh emas, o'n ming subolik yer bor edi. Yasama tepalik ortida bahaybat daraxtlar o'sib yotardi. Tosh va daraxtlar, chamasi, hatto xarajatga ham qaramay, har tomondan tashib keltirilgandi... Kayama haliyam o'sha qadimgi Yaponiyaning ruhi kezib yurgan bu bog'ni

uzoq aylandı va bu joyda yashaganlarnıng bari urushgacha hech nımaga zorıqmay kun kechırgan egasını eslatıb turardı. Shu bılan birga, bog'da yurakni zırqıratuvchi nımadır bor edi

Kayama gap nımada ekanını chuqur anglab turardi. Bu o'n mıng subo yer hali-hanuz o'sha urush yong'ını bılan kurashıb, kuyıb yonmoqda edı, go'yo.

– Qurbonlar bo'lganmıdi? – Kayama Sudodan so'radi.

– Mısh-mıshlarga qaraganda, yong'in paytı uyda faqat besh nafar ayol bo'lgan ekan, birontası ham omon qolishmagan deyıshadı.

Kayama ındamay olg'a yurıb ketdı. Hatto ko'z yugurtırib ham ulgurıb bo'lmaydıgan, ulkan bog'nıng u yer-bu yerıda daraxtlar va toshlarnı ortishga shay turgan yuk mashınaları turardı. Ishchilar va bog'bonlar esa go'yo sertashvısh chumolilar kabı betınım ıshlashardı.

Sudo Kayamanı orqa eshıkka olib bordi-da, toshlarni unga ko'rsatdı. Bunı ko'rıb Kayamanıng ko'zları chaqnab ketdi, dam-badam hayajonli xo'rsınıb qo'yardi. So'ng Sudo Kayamanı pastak g'arovzor yoqalab cho'zılgan soyador so'qmoqdan boshlab ketdı.

Kayamanıng ko'zı eski choyxonaga tushdı. Ko'hna shiyponcha azbaroyi shartı ketib, partı qolganıdan yıqılay deb turgandı. Uchta yosh ıshchı baraknı qanday buzsa, unı ham xuddi shu taxlit jon-jahdları bilan buzar edilar. Ularga qolsa, barını

bir zumda yo'q qilib tashlashsa. Kayama ishchilarning jonlanib ketgan yuzlariga boqdiyu, yuragi yana bir tutam bo'ldi. «Bu uyga yuz yildan ko'p bo'lgandir-ov», xayolidan o'tkazdi u.

Ular choyxonadan pastga qarab ketgan ensiz so'qmoqdan borishayotganda, bog'bon dabdurustdan Kayamaga o'girildi-da, hayajonini bosolmay qichqirib: «Mana, shu yer!» deya bir gala ishchilarni ko'rsatdi. Uning ovozini eshitib, ishchilar bir to'xtab oldilar-da, keyin yana ishlarini bamaylixotir davom ettiraverdilar. Chirik barglar qorishib ketgan tuproq ostidan qora tosh to'shamalar chiqib kelardi. Qazib olingan elliktacha tosh to'shama uyumi xuddi osmondan yog'ilayotgan quyosh nuridan hurkkandek bir chetda pisibgina yotardi.

– Eshityapsizmi? – so'radi Kayama Sudodan.

Nimani?

– Eshitmayotgan bo'lsangiz, mayli...

«Yong'inda halok bo'lgan ayollar, har kuni bo'lmasa-da, baribir, tez-tez mana shu tosh to'shamalarni bosib o'tganlar!» - deb o'yladi Kayama. U olisdan bo'lsa-da, ularning oyoq tovushlarini hozir ham eshitib turganini Sudoga qanday aytsin... Bog'bonning uning ustidan kulgani qoladi. Bu to'shamalar boqqa terilsa-chi, bu ovozlarni o'shanda ham eshita olarmikan?..

Kayama qo'llarini chalishtirib, bog'ni bitta-bitta odimlab aylana boshladi va qalbida yana o'sha qora soyani his etdi.

## V

Ko'p o'tmay Sudo yana xushxabar olib keldi.

- Sal narıda yana bitta sotıladıgan bog' bor. Bunga nima deysız?

Kayama boshida rad etmoqchi bo'ldi:

Men hovlimnıng barını boqqa aylantırmoqchi emasman. Men o'rmonchanı va undagı daraxtlarnı saqlab qolib, manzarali toshlar terdırmoqchiman, xolos.

-- Bılaman, bilaman. Toshlar bilan uyg'un bo'lishi uchun yana boshqa daraxtlar ham ekılsa yaxshi bo'lardı. Azaliyamı[1], sershox qarag'aymı, yana shunga o'xshashlarni... Suv bo'yıga olxo'rı eksangız bormı, yayrab o'sadı...

– Bu yerda bularnıng barıdan bormi?

– Bo'lmasam-chi.

Ma'lum bo'lishıcha, Sudo bu daraxtlar tilinı yaxshi tushunarkan, chunkı urushnıng boshıda bu yerga ularnı o'zı tashib keltirganmısh. Daraxtlarnıng barı ajoyıb, derdı u. Unıng gaplarıga qaraganda, u yerda yana beshta ulkan, quchog'ing to'ladıgan manzarali daraxtlar, anorlar bor emısh, xullas, hammasi zo'r deyıshadı.

Uyınıng yongınasıda shunday bog' bor ekani Kayamanıng xayoliga ham kelmagandı.

- Bog'nı sotish ularga nıma uchun kerak bo'ldıykın?

---

[1] Azaliya manzarali o'sımlık.

– Yer-mulk egasi yaqında olamdan o'tgan, bevasıga esa daraxtlarnıng keragi yo'q, u, menga maysazor va hovuzcha bo'lsa bo'ldı, deyaptı.

«... Demak, mening bog'imda o'sha, burungı tosh to'shamalar va daraxtlar jo'rovoz qo'shiq aytar ekan-da. O'lganlarga nımaikı azız bo'lgan bo'lsa, barını shu yerdan – mening bog'ımdan topıshadı va menıng ovunchog'imga aylanıshadı...» Kayama yengıl shamol aylantırıb-aylantırıb yerga tushirayotgan barglarnıng shitırlashıga quloq tutdı. Toshlar yerdagı barglar bilan o'ynashgandek bo'lib, qandaydır sokın bir kuyni yaratıshardi. Bırdan kuynıng ıchıdan unga: «Xazonrezgi bog'ı» degan ovoz eshitıldı. Kunning azbaroyi tiniqligi va ochıqlıgıdan ovoz xuddı g'oyıbdan kelayotganga o'xshardı.

«Xazonrezgı bog'ı... Nomi yomon emas», – xayolidan o'tkazdi Kayama va Sudoga dedi:

– Yaxshı. Bu bog'ni sotib olganım bo'lsın.

Sudo vafot etganıda Kayamanıng yoshı oltmıshda edı. Bog'bon vafotıdan yettı kun o'tgach, u Sudonıng uyi orqasidan kıchkına bog'chaga kırdı. U yerda qarı oq olxo'rı o'sardi. Kayama unıng narxıni tushirıb berısh uchun boshqa bog'bon – Sudonıng og'aynısıdan ıltımos qıldı va bu daraxtni uyıga eltıb berıshinı so'radı.

«...Mana, o'lganlar uchun azız bo'lgan yana bır narsa qo'shıldı...» Kayama olxo'rını qanday olib kelishlarını tomosha qılaturıb. Sudonıng unga narıgı bog'dan olib kelgan daraxtinı esladı.

...Katta yuk aravasiga ortilgan daraxt ildizlari og'ir va beso'-naqay edi. Ularni posangilash uchun aravacha oldiga tosh osib qo'yishgandi. Aravachani uchta yosh yigit sudrab borardi, kichik Sudo esa bayram tantanalaridagidek dabdaba bilan oldinda yurib, asta-sekin tepalikka ko'tarilardi. Uning ko'zlari porlab turardi. Aravacha Kayamaning uyiga kirib borishi bilan birdan egilib qoldi.

«Ehtiyot bo'linglar!» – qichqirdi kimdir, lekin Sudo allaqachon aravaning oldiga o'tib olgandi. Hech narsa bo'lmaganday u: «Avval toshni tushiringlar», – deya yosh ishchilarga buyruq berdi». Mana bu «ehtiyot bo'linglar» deb jar solishu behuda shovqin-surondan uning yuzi norozi tus olgandi.

Toshlari tushirilishi bilan ularning og'irligidan qutulgan aravaning old tomoni birdan tepaga qarab sakrab ketib, ustidagi daraxtlar kishnayotgan otdek tikkayib qoldi. Sudoning epchil va chaqqon harakatlaridan Kayama hayratda edi.

«Maqtanmoqchi emasman-u, lekin shu paytgacha bironta yerim jarohatlanmagan. Balki bo'yimning pastligidan shundaydir. Masalan, havaskor-sportchilarni oling, doim bir baloga giriftor bo'lib yurishadi. Menimcha, faqat mashq qilish bilan ish bitmaydi».

Dard shunday odamning ham boshiga yetibdi-da! Uning boshiga dard emas, sake[1] yetdi. Kayamaning xayolidan anavi

[1] Sake – aroq.

tosh bilan savdo qiluvchi qizil yuzli odam ham ichkilikka mukkasidan ketgan edi, degan fikr o'tdi. Sudoning vafotidan so'ng savdogar ikkovi apoq-chapoq bo'lib qolgandi. «Toshni ko'rgim kelib qolsa, yana kelaman. Bir zumga bo'lsa-da, orqa eshikdan kirib, uni ko'rishimga ruxsat berarsiz?» deb so'ragan kishi haligacha qorasini ko'rsatgani yo'q.

## VI

Oradan besh yil o'tdi. Moviy tosh boqqa binoyidek o'rnashib ketdi. «Agar unga quloq tutsangiz, soyning shildirashini eshitasiz», – derdi savdogar. Qulog'ingizga nimadir chalinsa, bilingki, bu o'sha, o'z vatanining soyini qo'msagan toshning nidosi bo'ladi.

Biroq bu moviy toshga o'z vatanini ko'rish boshqa nasib etmadi. Yomg'irli, izg'irinli kunlarni unutmagan toshning sirti osmonning moviy rangini ham o'ziga singdirib olgandi, uning son-sanoqsiz ajinlarida esa sabza rangli yo'sin o'sardi. Sershox daraxt tagidagi hurpaygan nozik novdalar toshni muloyimlik bilan og'ushlariga olib turardilar. Yomg'irdan so'ng gavdaga o'xshash toshning ko'kragidagi chuqurchaga suv to'planib qolardi. Ba'zan qayerlardandir bolalari bilan gala-gala bo'lib uchib kelgan chaqqon chumchuqlar bo'yinlarini cho'zib, shu suvdan ichar, chanqoqlarini qondirishar va qanot qoqib pitirlashardi. Agar suv qurib qolgudek bo'lsa, Kayamaning o'zi

quduqdan suv olib unı to'ldırıb qo'yıshnı kanda qılmasdı. Chuqurchaga barglar to'lıb qolsa, Kayama uni ham olib tashlardı. Jonıvorlarga yaqinlik hıssıdan qarıyanıng yuragı ılirdı. Tabiat qanday yaratgan bo'lsa, barchası o'sha zaylda yashashda davom etardı. Bu qonunlarnıng zug'umıdan Kayama ham borgan sarı so'lib borardi. U qaddinı avvalgıday rostlolmay qoldı, yelkaları, beli tınmay og'rırdi, ko'zları nursızlanıb, unga ajal ko'lankası joylashıb olgandi.

A'zoı-badanı tınımsız qaqshardi. Bu, aynıqsa, kun bo'yı uyidan chiqmay, dıqqınafas qolib ketganıda, harakatsızlık unı butunlay domıga olganıda ko'proq yuz berardı. Shunda kırtaygan ko'zlarınıng oldını tuman bosıb, ımırlab ketardı. Bunday paytlarda bog'nıng ohanrabosı uni o'zıga tortganı-tortgan edı.

U, oddiy kundalik tashvıshlardan qutulgach, ancha yillardan berı to'plab kelayotgan eski kıtoblarını varaqlashga tushardi. Ba'zan husnıxat bılan ovunardi. Qora tushga botirıb olgan cho'tkanı oppoq qog'oz ustıga olib kelganıda, zavqdan yuragı to'liqıb ketardı. Biroq qanchalik ıstamasın, bu kunlarnı osoyıshta o'tkazgan kunlarım deb aytolmasdı, negakı, yolg'izlık, ajal ko'lankası hatto u yozgan ıerogliflarıda ham o'zini namoyon etib turardı.

So'nggı paytlarda Kayama toshdan chiqayotgan ovoznı tez-tez eshitadıgan bo'lıb qolgandı. U yonıdan o'tayotgan har bır tosh to'shama unga ohısta aks sado berayotgandek tuyulardı.

«Balkı bu yonıb ketgan o'sha besh nafar ayolnıng qadam tovushlarıdir?» – Kayama shunday o'yladıyu bırdan yuragı shuv etıb ketdı. Yo'q, adashmayaptı, bu ularnıng odımları.

Bır kunı kechası yosh bir ayol tungi ko'ylakda tosh to'shamalardan yurıb, Kayamanıng xonası oldiga keldı.

– Kım u? – so'radi Kayama. Javob o'rnıga ayol orqasını o'gırıb oldi. U beli tarang tortilmagan kımonoda edı. Ayol ohısta, sirg'algandek ko'zdan g'oyıb bo'la boshladı. Unıng Kayamanı chaqirishga kelganı kundek ravshan edi. Ayolnı yo'qotıshdan qo'rqqan Kayama oyoqyalang unıng orqasıdan tezda boqqa yugurdi.

U ayol bosıb o'tgan to'shamalar ustıdan bora turıb, yo'l-yo'lakay, nahotki, arvohlarda ham oyoq bo'lsa, deya pıchirladı o'zıcha, harholda, bularnıng barı tush bo'lmasa kerag-ov. To'shamalardan oyog'ıga o'tgan ıssıq uni hayron qoldırdı. Balkı bu ıssıq ayolnıng oyoqlarıdan chıqqandır?..

Kayamanıng bog'ida Aobadiy bog'idan keltırılgan saksontacha tosh to'shama yoyıq yelpıg'ich shaklida uchta yo'lkaga yotqızılgandı. Kayama oq ko'lankani ko'zdan qochirıb qo'ydi. O'zıga kelib qaragandi, unıng movıy tosh oldıda turganını ko'rdi. Unga tomon bir odım bosdi va hovuzdan baliqni chaqırgandek, kaftını kaftıga urdi, shunda tosh qa'rıdan unga aks sado eshıtıldı va ketma-ket yana boshqa toshlar ham ovoz bera boshlashdi.

Kayama Sudoning halok bo'lgan ayollar besh nafar edi degan gapini esladi. «Balki bu o'sha beshalovidan biridir? – hayajonlanib o'yladi va ko'z oldida qulab tushayotgan omborga o'xshash yana o'sha choyxona namoyon bo'ldi. – O'sha uyga balki beshta ayoldan biri borgandir?.. Aynan o'sha, bugun paydo bo'lgani?»

– Eshityapsizmi?

– Nimani?

Agar eshitmayotgan bo'lsangiz, mayli... – Kayama Sudo bilan bo'lgan suhbatni esladi. Bugun o'lganiga o'n yildan oshgan xotini uning orqasidan kelgani ehtimoldan yiroq. Yo'q, bu ayolning qomati butunlay boshqacha edi – bu yosh qiz bo'lsa kerak. Shubha-gumonlar Kayamani tinch qo'ymayotgandi.

Kayama yetmishga kirdi. Endi kunning yarmini ayvonda shezlongga[1] yotib, ba'zan mudrash bilan parishonlikda o'tkazardi. U tez-tez, qani endi bu dunyoni mana shunday tinch va osoyishta, azobsiz tark etsam, deya xayol qilardi. 200 subo yerni egallab yotgan bog' o'sha-o'sha o'zining hurpaygan ko'kalamzori bilan uning hamon ko'nglini ko'tarib kelayotgan bo'lsada, lekin yuragining tub-tubida qandaydir xavotir yotardi. Endi bu tuyg'u uni tark etmasligini Kayama yaxshi tushunardi.

Kayama ro'zg'or to'rvasini olib, tiqilib ketgan avtomobillari bilan quloqni qomatga keltiruvchi shovqin-suronli ko'chaga chiqdi-da, bir-bir bosib asta do'konga kirdi. Xaridorlar orasidan

---

[1] Shezlong – o'rindig'i uzun oromkursi.

o'zi tengi erkaklarga duch kelib, teskari qaradi. Bu keksalar bunchayam bechora bo'lib ko'rinmasa, deya xayolidan o'tkazdi. Ularga na hashamatli mebel, na noyob, qimmatbaho jihoz kerak. Deyarli bo'm-bo'sh ro'zg'or to'rvasini ko'tarib olgan yetmish yoshli qariya – bunday mutanosiblik senda nafaqat achinish hissini uyg'otadi, bu hatto kulgingni ham qistatadi.

Uning ishtahasi yaxshi emasdi. Agar, bog' ikki baravar o'sib, kattalashgan bo'lsa, Kayamaning o'zi ikki baravarga noziklashib ketgandi. Sumkaga har doimgidek ro'yxati uncha uzun bo'lmagan o'sha-o'sha bir xil oziq-ovqatlar; non, yog', tuxum, mevalar va ko'kat solinardi. U shularning o'zi unga kifoya deb o'ylardi yoki bo'lmasa tashvishlardan qochib, naridan-beri ovqatlanardi.

Asl yapon oshxonasi taomlaridan u kamdan-kam hollarda tanovul qilardi, nafsini tiyib, ozga qanoatlanib qo'ya qolardi, chunki oz yedi nimayu, ko'p yedi nima, unga buning ahamiyati bo'lmay qolgandi. Kuniga uch mahal bir xil ovqat yerdi, keyin ikki mahalga o'tdi, oxirgi paytlarda bir mahal dasturxonga o'tiradigan bo'ldi. U ko'proq suv ichardi, suv pitssaning o'rnini bosardi. Kayama do'konga ham har kuni chiqmasdi, shu bois ko'proq mog'or hidi anqiy boshlagan nondan yerdi.

U quyosh botishi bilan uxlagani yotardi. Uxlash oldidan esa kechki gazeta va kitoblarni varaqlardi. Uyqu elitishi bilan kitobni yopardi-da, qani endi shu taxlit tinchgina oyoq-qo'lingni cho'zib, u dunyoga ravona bo'lsang, deya orzu qilardi. U ko'pincha qorong'i xonada ko'zlarini chaqchaytirib

tong otishini kutib yotardi: nafas olishga qiynalganidan a'zoi-badanini ter bosib, ko'z yumushga ham qo'rqib qolgandi.

Bu yil ham oppoq kimonodagi o'sha ayol bog' yo'lkasidagi tosh to'shamalardan yurib, yana uning yoniga kela boshladi. U bu yerga tez-tez keladigan bo'lib qolgandi, ayol har kelganida Kayama uning ortidan bog' tomonga oshiqardi. Kayama yuragidagi tovush ayolni chaqirayotganini eshitib, yuragini hovuchlab, uning izidan borardi, biron nimadan uyalmaguncha bunday qat'iyatsizlikdan o'zini to'xtatolmasdi... Oppoq libosli bu ayol doim g'oyib bo'lib qolardi. Har safar bir joyda – o'sha moviy rangli tosh ortida ko'zdan yo'qolardi...

Kayamaning yuzidan tomchi dumaladi. Yo'q, bu ko'zyoshi emasdi. Uning ko'zida unar-unmasga oqavermaydigan suvni siqib chiqaradigan g'alati bir og'riq turgandi. Xuddi sake yenggan Sudo kabi tosh savdogari vafot etibdi-da, degan o'y kechdi uning dilidan.

«...Agar hayot bo'lsang, nega kelmaysan? Seni, o'g'lingni shunday sog'indimki...»

Kumush rangli baliq qorong'ida hovuz yuzini bir shapillatdi-da, o'zi ko'targan to'lqin ichiga kirib g'oyib bo'ldi. To'lqin kengayib boraverdi. U yerda, chuqurlikda baliqlar erkin, ozod suzar edilar. Oppoq bo'lib ko'rinayotgan ayolning hayajonga soluvchi ehtirosini o'zidan nari qilolmagan Kayamaning bundan majoli qurib, serrayib qotib qolgandi. U o'zini tosh ustida yuz yildan beri xuddi mana shunday qimirlamay o'tirganday his etmoqda edi...

## VIII

Bir vaqt qarasa, Kayamaning o‘g‘li ro‘parasida turibdi.

Tosh tashuvchining o‘g‘li-chi, u qani?

Nima dedingiz?

Yo‘q, hech nima, o‘zim shunchaki... Qachon kelding?

Ancha bo‘ldi. Ota, nima, tobingiz yo‘qmi?

Shunchalik tashvishlanar ekansan, har zamonda bir kelib, holimdan xabar olsang bo‘lardi. Bu yerga o‘zi yilda necha marta kelasan?

– To‘rt marta, shekilli...

– Shu yetarli deb o‘ylaysanmi?

– Ba’zan shunaqa bo‘lib qoladiki...

– Xotining tuzukmi?

- Yuribdi.

Kayama g‘aribona kechki ovqatini hozirgina yeb olgandi.

- Sal ertaroq kelganingda birga ovqatlanardik.

- Boshqa safar.

Boshqa safar... O‘sha boshqa safaring nasib qilishiga ishonasanmi o‘zing?

Bo‘lmasa-chi.

– Boshqa safar... Endigi boshqa safar men bo‘lmayman...

Kayama o‘g‘li hozir nima haqda o‘ylayapti-yu, bunga qanday javob berishini kutardi.

...Uning yoshi anchaga borib qoldi... Anchaga.

– Men dunyoda bunday gaplarnı eshıtısh uchun yashamadım.

– Unga nıma kerak?.. Buncha ma'yus ko'rınadi. Hozır nımanı ıstasa, barı muhayyo bo'lishı mumkın.

– Ha, men ham qachonlardır nımalarnıdır orzu qılganman. Endi yetmıshga kırdım... Shunday bo'lsa-da, senga ataganım bor.

– Ko'nglıngda bıron-bır orzu bormi? – so'radı Kayama.

– Qaydam. Nımanı ham orzu qılardım.

Pul kerakmasmı senga?

Pul qancha bo'lsa ham zarar qilmaydi.

Men aynan shu haqda sen bilan gaplashmoqchıman. To'g'rı, menda hozir pul yo'q, lekın boshqa narsa bor. Yaqında men senga mana buni tayyorlab qo'ygandim.

Kıtob javonı tortmasıdan Kayama pergament qog'ozli konvertnı oldı-da, unı o'g'lınıng tizzasıga qo'ydi.

Bu nıma? – so'radı o'g'li.

– Ochsang – ko'rasan. So'rashnıng hojatı yo'q.

O'g'li konvertga ko'z qırını tashladi-da, darrov unı Kayamaga qaytarıb berdı.

– Kerakmasmı?

– Pul doım kerak, lekın bunı ololmayman.

– U yerda nıma yozılganını ko'rdingmı o'zı?

– Bu avtomobil halokatıda sodir bo'ladigan baxtsız hodısadan sug'urta.

– Agar menga biron kori hol yuz bersa, bu pul yana o'n martaga ko'payadi. O'zing bilasan, yo'lovchilar orasidagi o'lim xavfining eng yuqori ko'rsatkichi – bu aynan bolalar va yetmish yoshlilar orasida uchraydi – badali 500.000 ien, sug'urta esa 5 million.

Aytdim-ku, ololmayman deb.

– Balki ko'chaga chiqqanimda, bexosdan qoqilib, yiqilib tusharman? Qarabsanki, men mashinaning tagidaman. Shunday bo'lishi mumkin-ku, axir?!

– Bas qiling, bunday narsa bilan hazillashmaydilar!

O'g'lining yuzi qizarib ketdi. Uning xijolat tortganini ko'rgan Kayama, uni bunday aqlsiz ishni qilishga undagan yoqimli bir og'riqni his etdi. Bu aqlsizlikmidi yoki o'ylab qilingan ishmi, endi unga hammasi baribir edi.

– Mening gapim – gap. Shunday bo'lgach, bu hujjatlarni olib qo'y. Baribir bundan qochib qutulolmayman.

...Birdan Kayamaning ko'z oldida ulkan tashlandiq bog' namoyon bo'ldi; tinib-tinchimas bog'bonlar, tosh kavlayotgan ishchilar, endi bu qiyofalar unga begona, yot sharpalardek ko'rinardi.

«Kim biladi, balki, mening bog'im ham xuddi shunday qarovsiz ahvolga tushib qolar. Uning o'rniga odamlar yashaydigan uy yoki ko'p qavatli bino qurishar, ehtimol...»

Kayama bosiq, xirillagan ovozda gap boshladi:

Balki bog'dagi toshlarni sen o'zing terib olib sotarsan! Ularni bu yerga olib kelishganiga o'n yil bo'ldi, lekin ular-

nıng o'zı besh mıng yoshda. Bu toshlarnıng jonı bor. Men endı o'laman, keyın daraxtlar ham nobud bo'lsa kerak. Tokıonıng havosını havo deb bo'lmaydı.

O'g'lı otasınıng gaplarıdan noxush hayratlangandek bo'ldı. Shu payt unıng orqasıdan haligı, noma'lum oq ko'lanka o'tgandek bo'ldı.

– O'sha ayol!

- Nıma deyapsız?

Toshnı sotısh haqıda o'ylashim bılan shu ayol paydo bo'ladi...

Nima deyapsız, qanaqa ayol?

O'sha ayol! U bu yerda bog'dagi toshlarnı sog'inganıdagına paydo bo'ladı. Bu oq kımonodagı o'sha ayol. Qachonlardır Aobadaydagı dang'ıllama uyda yoshgına ayol yashagan. Falokatnı qarangkı, urush boshlanıb, ayol uyı bılan bırga yonıb ketgan. O'sha toshlar unıng bog'ıdan keltirılgan. Aftıdan, u, har kuni shu to'shamalarnı bosıb hovuz yonıga borgan va o'tirıb xayolga cho'mgan. So'ngra yana shu to'shamalarni bosib, orqasıga qaytgan va eskı chorbog'ıga chıqıb, choy damlagan...

Kayama shu so'zlarnı shıvırlabgına gapırdı-da, ko'zını yumdı. Qorong'ilik tobora yaqınlashıb, quvonch borgan sarı unı qurshab borardı, yokı qorong'ılikka o'rganıb qolib, yorug'liknı arang ajratayotgan ko'zları endı ıliqlıkni hıs eta boshlagandı...

## MUNDARIJA


*Ivan Bunin* ........................................ 3
Kornet Elagin ishi ........................................ 4
*Mustafo Al-Manfalutiy* ........................................ 64
Jazo ........................................ 64
*Rober Merl* ........................................ 89
Izabella ........................................ 90
*Tomas Hardi* ........................................ 134
Uch musofir ........................................ 135
*Xans-Xayns Evers* ........................................ 176
O'rgimchak ........................................ 177
*Yosiko Sibaki* ........................................ 216
Van Gogning qabri ........................................ 216
*Tosio Udo* ........................................ 250
Qirmizi binafsha ........................................ 250
*Sin ui Yuki* ........................................ 262
Xazonrezgi bog' ........................................ 262

*Adabiy-badiiy nashr*

**UCH MUSOFIR**

**Hikoyalar**

Tarjimon
Dildorxon Aliyeva

*2-nashri*

Muharrir *I. Ahmedov*
Rassom-dizayner *B. Zufarov*
Texnik muharrir *L. Xijova*
Kichik muharrirlar: *D. Xolmatova, G.Eraliyeva*
Musahhih *E. Egamqulov*
Kompyuterda tayyorlovchi *F. Botirova*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158.14.08.2009. Bosishga 2015-yil 9 dekabrda ruxsat etildi. Bichimi 60x108 . Ofset qog'ozi. «Virtec Times New Roman» garniturasida ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 10,80. Nashr tabog'i 10,73. Adadi 3000 nusxa. Buyurtma №15-864.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining «O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129. Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20
Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10

e-mail: iptduzbekistan@iptd-uzbekistan.uz
www.iptd-uzbekistan.uz

11000

РАССЫЛКА

To‘qqizinchi mahkama komissari o‘z telefon qo‘ng‘iroqlariga javob ololmagach, oltidan besh daqiqa o‘tganda, «Stevens» mehmonxonasiga kirib keldi. U, talaba Rishar Brakemonni yettinchi xonadan, uning avvalgi uch nafar o‘tmishdoshlari qanday osilgan bo‘lsalar, uni ham xuddi shu alfozda oyna to‘siniga osilgan holda topdi.

Faqat uning yuzida aks etgan holat boshqacharoq edi: qo‘rquv uni o‘zgartirib yuborgandi, ko‘zlari katta-katta ochilib, deyarli kosasidan chiqib ketgandi. Lablari kerilib, tishlari mahkam qisilib qolgandi.

Ularning orasida esa majaqlab tishlab tashlangan g‘alati, binafsharang xol-xol, katta qora o‘rgimchak bor edi...

«O‘ZBEKISTON»